Hozirgi kunda fan-texnika taraqqiyotining o'sishi orqali kundalik hayotimizda turli-tuman (qog'ozlardan) hujjatlardan keng foydalanamiz, har xil konspektlar, ish qog'ozlari, hisobotlar keng o'rin olmoqda. Bularning xammasi faqat chiroyli va aniq va yozish bilan birga, tezlikni ham talab etadi.

Umumiy ta'lim va hunar maktabini islox qilishning asosiy yo'nalishlarida ko'rsatilganidek yozuv darslarida harflarni aniq, toza va chiroyli yozishni mukammal o'rgatish talab etiladi.

Ammo kichik muddat ichida o'quvchilarda chiroyli, tez va toza yozish malakalarini o'stirish mumkin emas, buning uchun bir necha yil talab etiladi.

Chiroyli yozuvga o'rgatish uchun bolalarning maktabga qadam qo'ygan kunlaridan boshlab quyidagi vazifalarni bajarishlari talab etiladi:

1. Yozuv vaqtida partada to'g'ri o'tirish
2. Avtoruchkadan to'g'ri foydalanish
3. Daftardan to'g'ri foydalanish
4. Yozma va bosma harflarning shakli bilan tanishtirish.
5. Yozma shakldagi harflar yordamida bo'g'in, so'z va gap tuzishga o'rgatish.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan malakalar shakllangandan so'ng husnixat darslariga ular mustahkamlanadi.

Husnixat malakasini shakllantirish uchun birinchi navbatda harflarning shaklini to'g'ri tasawur etishga, bir xil qiyalikda (65%) yozishga, so'zlarda harflarni to'g'ri bog'lashga so'zlarni qatorlarga to'g'ri joylashtirishga o'rgatiladi.

Daftar chiziqlarini birin-ketin almashuvi davomida harflarning qiyaligini va ular orasidagi masofani to'g'ri saqlash kichik va bosh harflarning nisbatini to'g'ri chamalab yozishga o'rgatish juda muhimdir.

Shuningdek husnixat darslarida malum gruppaga oid hraflarni yozishga o'rgatishda o'quvchilarda uchraydigan ayrim tipik xatolarning oldini olish va tuzatish ustida ham ish olib borish lozim. Yozuvning tezligi oshishi bilan ayrim

bir-biriga o'xshash harflarning shaklini buzib yozish xollari uchraganda esa ularni qayta mashq qildirish lozim.

Birinchi va ikkinchi sinflarda chiroyli yozuvga o'rgatishda chiziqli daftarlardan to'g'ri foydalanishga alohida e'tibor berish zarur.

Birinchi sinfda kichik harflarning balandligi va qiyaligi chiziqlar yordamida chegaralangan bo'lsa ham, bosh harflarni yozishda o'quvchilar xatoga yo'l qo'yishlari mumkin.

Bir chiziqli daftarga yozishga o'tilganda esa o'quvchilar oldiga qator vazifalar qo'yiladi, endi ulardan harflarning balandligini, qiyaligini va harflarning orasidagi masofalarni chamalab yozishlari talab etiladi.

Chimroyli o'zuvga o'rgatish umumiy didaktik qoidalar bilan birga yozuv malakasini shakllantiruvchi qoidalarni ham o'z ichiga oladi.

Umumiy didaktik qoidalar, takroriylik ko'rgazmalilik yosh va o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olish, tushunarlilik, onglilik xusnixat qoidalarini amalga oshirishda juda muhimdir. Ayniqsa, ko'rgazmalilik prinsipi chiroyli yozuv malakasini singdirishda muhim rol o'ynaydi. (Bu haqda biz keyinroq batafsil to'xtab o'tamiz.)

Har bir o'quvchi u yoki bu harfni tushunib, yozilishini, harflarning bir-biriga bog'lanishini, kichik va bosh xarflarning bir-biriga nisbatini, balandligini, qiyaligini, avtoruchkani ushlash va to'g'ri o'tirish qoidalarini yaxshi bilishlari lozim.

Yozuvga o'rganish davrida olingan bilim va malakalar o'quvchilar uchun doimiy qoida bo'libqolishi zarur.

Chiroyli yozuv malakalarini o'stirishda eng birinchi qoida bu gigiyenik talablar va yozuvning qiyaligini to'g'ri saqlashga o'rgatilib, so'ngra harf va harf elementlari orasidagi masofani chamalab yozish qoidalari singdirib boriladi. Bu qoidalar keyinchalik II sinfda o'tkaziladigan xusnixat darslarida takomillashtirilib boriladi. Bu qoidalarni o'quvchilar esda saqlab qolishi mumkin.

Xar bir yozuv mashqi aniq maqsad asosida oson tushunarli olib borilishi kerak. Buning uchun chiroyli yozuvga o'rgatishning turli usullaridan foydalanish lozim.

Chiroyli yozuv mashinkalarini esdan chiqarmaslik uchun sistemali ravishda takrorlab borish juda muhimdir.

Bolalarning yozuv malakalarini hosil qilishda ularning yosh va o'ziga xos xususiyatlari: barmoq va qo'l muskullarining harakat tezligi, markaziy nerv sistemasi tomonidan nerv muskullarining bajarilishi hisobiga olinishi lozim. Ayniqs'a, olti yoshli bolalar uchun yozuv jarayoni juda qiyindir. Bu davrda ularning jismoniy o'sishlarini, albatta, hisobga olish kerak.

Olti yoshli bolalar, qo'l harakatini uzmay, ayrim harf elementlarini xarflarni, keyinchalik sodda elementli so'zlarni yoza oladilar. Bu davrda ulardan ayrim qiyin elementli, cho'zinchoq doira shaklidagi harflarni qo'l harakatini uzmay yozishni talab etish mumkin emas. Yozilishi qiyin harf va so'zlarni asta-sekin mashq qildirish orqali yil davomida o'rgatib boriladi.

Ikkinchi sinfdan boshlab bolalar qo'l harakatini uzmay, cho'zinchoq doira shaklidagi xarflardan tashkil topgan harf, bo'g'in va so'zlarni yozishga o'rgatiladi. Chiroyli yozuv darslarida harflarning shakli ustida mashq o'tkazilganda oddiydan murakkabga tomon olib boriladi, chunki alfavitdagi barcha sharflar yozilish shakliga qarab gruppalarga ajratiladi.

Bolalarni chiroyli yozuvga o'rgatishda o'qituvchi ularning o'ziga xosxususiyatlarini ham xisobga olishi shart.

O'qituvchi har bir o'qituvchining qanday o'tishirini, ruchkani qanday ushlashini, daftar tutish holatini, xarflarni qanday yozayotganligini sekin yoki tez yozishini kuzatib borishi zarur. O'quvchilardagi bu imkoniyatlarni kuzatib borgan o'qituvchi chiroyli yozuv darslarini to'g'ri tashkil etadi, ayrim o'quvchilarga yakka-yakka yordam ko'rsatishda qrynalmaydi va ota-onalarga ham to'g'ri ko'rsatma bera oladi.

Chiroyli yozuv malkasini shakllantirish faqat boshlang'ichch sinflardaemas. Balki yuqori sifnlarda ham davom ettiriladi.

## 2- MAVZU: CHIROYLI YOZU V MALAKASINI SHAKLLANTIRISHNING FIZIOLOGIK ASOSLARI. SINFDA O'QUVCHILARNING ISH JOYINI TO'G'RI TASHKIL ETISH.

**REJA:**

1. O'quvchilarga yozuvni o'rgatish jarayonida fiziologik omillarning ishtiroki.
2. Husnixat malakasini shakllantirishda ong, sezgi, diqqat, xotira kabi fiziologik hodisalarning roli.
3. Ong va sezgi.
4. Diqqat va xotira faoliyati.
5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf xonasidagi jihozlar.
6. Sinf partasi vaunga qo'yilgan talablar.

**Tayanch so'zlar:**

Idrok. Tashqi olamdagi predmetlarning sezgi organlari orqali nerv sistemasiga ta'sir etishi va tana harakatlarining ta'siri tufayli hosil bo'ladi.

Diqqat. Jismoniy harakatni talab qiladigan, ishni yaxshi bajarishga yordam beradigan omillardan biridir.

Ong. Faqat insongagina berilgan tabiatdagi barcha jonzotlarda mayjud bo'lmagan hodisadir.

Sezgi. Inson ko'z, quloq apparatlari, teri sezgisi, muskul va ichki organik sezgilar yordamida borliqdagi hodisalrni seza oladi.

O'quvchilar partasi sinfdagi asosiy jihoz bo'lib, u o'quvchilarning yoshlari va bo'ylariga mos, yozish va rasm chizish uchun qulay bo'lishi kerak. Partalar bir o'rinli bo'lib, ko'proq boshlang'ich sinflarda ikki o'rinli partaiardan foydalaniladi.

## Adabiyotlar.


1. G'ulomov M. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatish" T.1970
2. G'ulomov M. "Chiroyli yozuvni shakllantirish" T. 1992
3. G'apporovavaboshq. "Alifbe" T. 1999

G'apporova va boshq. "1-2 yozuv daftari" T. "O'qituvchi" 1999


**Chiroyli yozuv malakasini shakllantirishning fiziologik asoslari.**

O'quvchilarda chiroyli yozuv malakalarini xosil qilish uchun, birinchi navbatda, diqqat, sezgi, idrok etish, xotira kabi psixofiziologik funksiyalar ishtirok etganligini ko'ramiz.

Inson tashqi olamdagi predmet va xodisalarni idrok etadi, shuningdek o'z tanasidagi organlarning xarakatini va ularning xolatini anglaydi. Idrok - tashqi olamdagi predmetlarning sezgi organlari orqali nerv sistemasiga ta'sir etishi va

tana xarakatlarining ta'siri tufayli xosil bo'ladi. Inson ko'z, quloq apparatlari, teri sezgisi, muskul va ichki organik sezgilar yordamida rangni, musiqa ohangini, og'irlikni, o'z harakat muvozanatini sezadi. Predmetlarning sezgi organlariga ta'siri natijasida miya po'stlog'ida yangi nerv boglanishlari tarzida iz paydo bo'ladi. Ana shu nerv bog'lanishlari idrok va sezgining fiziologik asosidir. Bu bog'lanishlar miyada mustaxkamlanadi va saqlanib qoladi. Bu xol bizga idrok etgan va sezgan narsalarimizni xotiraga tushirishga imkon beradi.

Psixik jarayonlar va inson psixikasi xususiyatlari orasida diqqat faoliyati alohida o'rin tutadi. U ongning hamma shakllarida ishtirok etadi. Inson idrok etish jarayonida diqqat qiladi, ayrim predmet va xodisalarning xususiyatlarini ajratib oladi. Bilimni o'zlashtirish uchun o'quv materiallarini idrok etish talab qilinadi. Yozish jarayonida ko'rish va eshitish sezgilari orqali idrok qilinadi.

Idrok etilishi lozim bo'lgan materialni tartibga solish, o'rganiladigan manba yoki uning tasvirini yaqqol ko'rsatish, bayonning ravshan va izchil bo'lishi, sinf doskasiga hamma o'quvchi ko'ra oladigan qilib chiroyli yozish idrok etishning muvofaqqiyatli chiqishini ta'minlaydigan dalillardandir.

Bola maktabga qadam qo'ymasdan oldinroq (3-4 yoshdan boshlab) qo'liga qalam olib turli shaklarni chiza boshlaydi, ammo bu chiziqlar chiroyli yozuv talablariga to'g'ri kelmasada, ulardagi ayrim malakalarning (ruchka, qalam ushlash) shakllanishiga yordam beradi. Kichik yoshdagi bolalarning barmoq

muskullari yaxshi rivojlanmaganligi uchun ularga surunkali yozdirib, mashq qildirish yozuvning sifatiga salbiy ta'sir etadi.

Yozuv jarayoni turli yozuv qurollari (ruchka, qalam, bo'r) orqali amalga oshiriladi va qaysi quroldan foydalanishga qarab qo'l xarakatlari shunga moslashtiriladi.

Chiroyli yozuvga o'rgatishda birinchi navbatda quyidagi malakalarni singdirib borish talab etiladi:

1. Yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanish
2. Parta ustida daftarni to'g'ri qo'yish

Yozayotganda gavdani to'g'ri tutish va tirsaklarni to'g'ri harakat qildirish.

3. O'x xatini berilgan namuna bilan taqqoslashga o'rgatish.
4. Tovushni bosma harfga, bosma xarflarni esa yozma shaklga aylantirishga o'rgatish.
5. Daftarning shaklini to'g'ri idrok etishga (qayerdan) boshlash, qayerda tugatish, o'ngga, chapga burilish, bog'lash va ko'rsatish.
6. Harflarni bir-biriga bog'lab yozishga o'rgatish (qayerda qo'l xarakati uziladi, qayerda uzilmay bog'lab yoziladi).
7. Harflarni bir xil balandlikda va kenglikda tekis yozishga o'rgatish.
8. Daftar chizig'idagi qatorldarni tug'ri to'ldirish, sarlavxa, oy va kunlarni to'g'ri yozish.

10. Xarflaming qiyaligini to'g'ri saqlash.

Demak boshlang'ich sinf o'quvchilarini chiroyli yozuvga o'rgatishdan oldin quyidagi malakalarni berish lozim.

1. Yozuv texnikasi, ya'ni yozuvning turli usul va priyomlaridan foydalanish.
2. Harflarning shaklini to'g'ri ifodalash, ya'ni grafik malakalarini egallash.
3. Yozuv vaqtida harflarning shakli bilan bir qatorda lining qanday tovush bildirishini ham bilish, ya'ni imloga oid malakalarni egallash.

Yozuv malakalari 6-9 yoshli bolalar uchun o'qituvchi tomonidan bevosita kuzatib borishni talab etadigan qiyin jarayondir. Xuddi shu davrda o'quvchiar tomonidan bajarilgan mashqlar kelgusi uchun muhim ahamiyatga egadir.

O'qituvchi o'zining dastlabki yozgan harf va elementlaridan ruxlanadi, o'ziga bo'lgan ishonch ortadi va keyinroq harflarni yozishga kirishadi. Shuning uchun ham o'quvchilarda dastlabki yozuv malakalarini xosil qilishda ularning irodasini mustaxkamlashga e'tibor berish lozim. Bunda o'qituvchining bolalar bemalol bajara oladigan topshiriqlar tanlashida katta rol o'ynaydi.

Bu davrdan bolalardagi psixologik xususiyatlarni ham tarbiyalash hamda ularning fiziologik o'sishlarini hisobga olish boshlang'ich sinf o'qituvchining vazifasidir.

O'quvchilar partasi sinfdagi asosiy jixoz bo'lib, u o'quvchilarning yoshlari va bo'ylariga mos, yozish va rasm chizish uchun qulay bo'lishi va o'quvchi o'tirib-turganda xalaqit bermasligi lozim.

Maktab partalari xar xil kattalikda bo'lib, hozirgi kunda ular har xil eg'och, metallar va plastmassadan hamda ayrim sintetik materiallardan ishlanmoqda. Partalar bir o'rinli va ikki o'rinli bo'lib, ko'proq ikki o'rinli partalardan foydalaniladi. Bu partalar gigiyenik tomondan qulay bo'lib, talabga to'liq javob beradi. O'quvchilar juda ko'p vazifalarni, ya'ni o'qish, yozish, rasm chizish va boshqa mashqlarni partada o'tirib bajaradilar. Bu davrda o'qituvchi o'quvchilarni to'g'ri o'tirishga o'rgatishi, ularning normal ishlashi uchun zarur shart sharoit yaratib berishi lozim. Buning uchun o'quv yili boshida maktab vrachi hamkorligida bolalarni yoshiga, bo'yiga, ko'rish va eshitish qobiliyatlariga qarab partalarga o'tkazishi lozim. O'quvchilar partasi sinfdagi asosiy jihoz bo'lib, u o'quvchilarning yoshlari va bo'ylariga mos, yozish va rasm chizish uchun qulay bo'lishi kerak. Partalar bir o'rinli bo'lib, ko'proq boshlang'ich sinflarda ikki o'rinli partalardan foydalaniladi.

Maktab partalari har xil kattalikda bo'lib, hozirgi kunda ular har xil yog'och, metal va plastmassadan hamda ayrim sintetik materiallardan ishlanmoqda. Ikki o'rinli partalar ayniqsa olti yoshli 1- sinf o'quvchilari uchun qulaydir.

O'quvchilarga mos partalar tanlash uchun avval uning asosiy nomerlarini yaxshi bilib olishlari zarur. Buni quyidagi birinchi jadvaldan bilib olamiz:

| O'quvchilar ning yoshi | O'quvchilarn ing bo'ylari | Parta nomeri | Partanin g bo'yi | O'rindiqni ng bo'yi | Parta differensiy | Parta distansiya | Partalar gruppasi |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 6 yoshli | 100-110 | - | - | - | - | - | A,B,B |
| 7-8 | 110-119 | VI | 61 | 31,5 | 20,5 | 4 | A |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 9-10 . | 122-129 | VII | 65 | 34 | 22 | 4 | A |
| 11-12 | 130-139 | VIII | 71,5 | 38 | 24 | 4 | B |
| 12-13 | 140-149 | IX | 77,5 | 41 | 27 | 4 | B |
| 14-15 | 150- 109 | X | 83 | 44 | 29 | 4 | V |
| 15-16 | 190-199 | XI | 87 | 47 | 30 | 4 | V |

Parta ustining qiyaligi 15gradusga teng bo'lishi lozim, chunki bunday qiyalikda yozish va o'qish juda qulay bo'lib, ko'z tez charchamaydi. Parta o'rindig'ining mustahkam turishi to'g'ri o'tirishni ta'minlaydigan eng muhim omildir. Parta o'rindig'ining chuqurligi o'quvchining tanasiga mos bo'lishi, qulayroq o'tirishi uchun orqa suyanchiqning balandligi o'quvchining belidan yuqori bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich sinflar uchun A. B. V.gruppa partalari ishlab chiqarish ko'zda tutilgan. A. gruppa partalarining bo'yi 130 smgacha bo'lgan bolalarga, B. gruppa partalari bo'yi 130- 140 smgacha bo'lgan bolalarga mo'ljallangan.

Suriladigan stulchalarni esa haddan tashqari oldinga yoki orqaga surib o'tirishga yo'l qo'ymaslik kerak. Parta ustining pastki qirrasi bilan suyanchiq orasidagi masofa, ya'ni ko'krak qafasi bilan uning qirrasi orasidagi masofa 4 sm bo'lishi kerak. Bu masofa distansiya deyiladi. Agar partaning partaning distansiyasi kichik bo'lsa, o'quvchi juda siqilib ko'kragini partaning chetiga tirab oladi, agar distansiya katta bo'lsa, qo'lni qo'yib o'tirishga noqulay bo'ladi. Shu sababli ularning to'g'ri o'tirishlarini ta'minlash uchun partaning distansiyasi to'g'ri saqlanishi lozim.

Partaning distansiyasi uch xil bo'lishi mumkin: musbat, nol, manfiy. Musbat distansiyada parta ustining cheti bilan o'rindiqning orasidagi masofa keng bo'ladi. Bunday holatda o'tirish o'quvchilar uchun noqulay bo'lib o'quvchi pastga egilib o'tirishga majbur bo'ladi.

Nol distansiyada esa parta ustining cheti bilan o'rindiqning orasida hech qanday masofa bo'lmaydi. Manfiy distansiyada esa parta ustining o'rindiqning ichiga 4 sm kirib turadi.

O'quvchilarda parta tanlashda yana bir muhim narsa parta "differensiya" sining to'g'ri saqlanishidir. Parta differensiyasi deb parta qopqog'ining cheti bilan o'rindiqning orasidagi masofaga aytiladi. Parta differensiyasining to'g'ri saqlanishi ham muhim ahamiyatga ega, chunki parta o'rindig'I past bo'lsa, o'quvchi parta qopqog'iga osilib o'tiradi, agar yuqori bo'lsa, bukchayib o'tirish majbur bo'ladi. Parta o'rindig'ining balandligi o'quvchilarning oyoqlari uzunligiga teng bo'lib o'tirganda tovonlari polga yoki partaning zinasiga tegib turishi kerak.

Sinfdagi bolalarning bo'ylarini o'lchash uchun maxsus taxtachadan foydalanish kerak. Taxtacha poldan 110 sm yuqoriga qoqib qo'yiladi, hamda uni bo'yiga 2 qismga bo'lib, birinchi qismida o'lchamlar sm hisobida, ikkinchi qismida esa shu o'lchamga mos parta nomerlari ko'rsatiladi. O'quvchini shu taxtacha qoqilgan joyda turg'azib bo'yi aniqlanadi.

Buning uchun o'quvchilarni bo'ylari va yoshlariga qarab partalarga o'tkazishda kichik partalar sinf doskasiga yaqinroq, kattalari esa orqaroq qo'yilishi kerak.

O'qituvchilar o'quvchilarning uylarida ham ish joyining to'g'ri tashkil etilishiga e'tibor berishlari lozim. O'qituvchilar ota-onalar majlislarida yoki sinf yig'ilishlarida bolalar uchun alohida dars tayyorlaydigan xona zarurligini ta'kidlab turishlari lozim. Bolalarga xontaxtada egilib o'tirib yozishning zararli ekanini tushuntirish kerak.

Hozirgi kunda o'sib borayotgan turmush talabi o'quv partalarini yanada qulay, ixcham va go'zal qilib ishlashni taqazo etadi.

Bu partalar tashqi ko'rinishi va yengil bo'lishi jihatidan zamon talabiga mos bo'lib, sinf xonalarini tozalashda ham qulaylik tug'diradi. Bunday partalarning yana bir qulay tomoni shundaki, uning tortmalarida yozuv asboblarini saqlash mumkin.

Parta bolalarning organizmlari uchun zarar qilmaydigan bo'lishi, (mix va vintlarning chiqib turmasligi) o'quvchilarning normal o'tirishlari uchun qulay bo'lib, qon aylanishi va nafas olishni qiyinlashtirmasligi kerak.

O'quvchilarni o'ziga mos partalar bilan ta'minlash bilan birga, unda tushuntirish qoidalarini ham o'rgatish zarur. O'quvchilarga partada to'g'ri o'tirish, gavdani to'g'ri tutish qoidalarini vaqtida tushuntirib borilmasa, uzoq muddat noqulay sharoitda o'tirish natijasida ularning gavda suyaklari qiyshiq

bo'lib qolishi mumkin. Ayniqsa, yozish vaqtida bir tomonga qiyshayib o'tirish umurtqa pog'onasining qiyshayishiga olib keladi. Bundan tashqari, partada noto'g'ri o'tirish ko'zni tez charchatadi, natijada yozuvning sifati buziladi. Ko'rishorganlari yaxshi bo'lmagan o'quvchilarni yorug' tushadigan deraza tomonga, eshitish organlari yaxshi bo'lmagan o'quvchilarni esa partaning oldingi qatoriga o'tkazish zarur. O'quvchilar uchun bunday zarur sharoitlarni tug'dirish orqali ularning darslarini yaxshi o'zlashtirishlariga erishish mumkin.

Bunda bolalarga noto'g'ri o'tirishning zararligini aytib, shunga taalluqli fotosuratlar va rasmlar ko'rsatish kerak yoki quyidagicha suxbat olib borish ham mumkin:

1. To'g'ri o'tiring, boshingizni sal oldinga eging ko'kragingizni partaning chetiga tiramang.
2. Boshingizni to'g'ri tuting (boshni chapga yoki o'ngga qiyshaytirmang).
3. Ko'zingiz bilan daftar orasidagi masofani to'g'ri saqlang.
4. Tirsaklaringizni partaga yengil qo'ying
5. Oyoqlaringizni partaning oyoq qo'yiladigan yeriga qo'yib o'tiring.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan qoidalarga amal qilmaslik natijasida o'quvchilar asta-sekin mayib bo'lib qolishlari mumkin. Masalan, o'quvchi partada xaddan tashqari egilib o'tirishga o'rganib qolsa, uzoqni ko'ra olmaydigan bo'lib, u faqat yaqin joydagi narsani ko'rishga odatlanib qoladi. Ko'zni har xil uzoqlikdagi

narsalarni aniq ko'rishga moslashtirish - ko'zning akkomadasiya»si deb ataladi. Akkomadasiyaning hajmi, ya'ni ko'zning har xil uzoqlikdagi narsani ko'rish qobiliyati kattalarga nisbatan maktab yoshidagi bolalarda ko'p bo'ladi. Masalan, 10 yoshli maktab o'quvchisi 7 sm masofadagi narsani aniq ko'rishi, 20 yoshda esa 10 sm masofadagi, 45 yoshdagi kishilar esa faqat 33 sm masofadagi narsalarni aniq ko'ra olishlari mumkin. Shuning uchun yozish vaqtida ko'z bilan daftar orasidagi masofaning 30 sm ga teng bo'lishi talab etiladi, chunki bu masofa ko'zni charchashdan saqlaydi.

Maktab yoshdagi bolalarda faqat yaqinni ko'rish kasalining oldini olish tadbirlaridan yana biri sinf xonasining yorug' bo'lishidir. Partaga yorug'lik yetarli darajada tushmasa, bolalarning ko'ziga zo'r keladi va ular juda tez charchaydilar. Shuning uchun ham yaqinni ko'rish kasalligining oldini olishda o'quvchining partada qanday o'tirishi ma'lum darajada rol o'ynaydi. Agar parta o'quvchining bo'yiga mos kelsa, u charchamaydi, ko'zi bilan yozayotgan narsa orasidagi masofa bir hilda saqlanadi va yaqinni ko'rish kasalligining oldi olinadi.

Yozish vaqtida yorug'qlikning qaysi tomondan tushayotganiga alohida ahamiyat berish zarur. Sinf xonasi o'qiyotganda yorug'lik chap tomondan tushishi lozim.

Yozayotganda gavdani to'g'ri tutmaslik umurtqa pog'onasining qiyshayib qolishiga, bo'yin va orqa muskullarining charchashiga olib keladi.

Ko'kragini partaning chetiga tirab olishga o'rganib qolgan o'quvchining ko'krak qafasi siqiladi, nafas olishi og'irlashadi. Bunday holatda uzoq o'tirish o'quvchi sog'ligiga katta zarur yetkazadi.

Demak o'quvchilar partada o'tirish qoidalariga qat'iy amal qilishlari shart. Har bir o'quvchining partada qanday o'tirishini kuzatib borish, noto'g'ri o'tirgan o'quvchilarni tartibga chaqirish kerak.

Sinfga partada to'g'ri o'tirish va ruchkani to'g'ri ushlash qoidalari ko'rsatilgan rasmlarni osib qo'yish ham yaxshi natija beradi.

Ayniqsa, olti yoshli 1-sinf o'quvchilariga alohida e'tibor berish lozim, chunki ularning gavda tuzilishi va muskullari hali, rivojlanmagan bo'lib, bir odatda uzoq o'tirish ularni charchatib qo'yadi. Shuning uchun bu davrda yozuv mashqlarini bir necha qismlarga bo'lib, bolalardagi charchash hollarini xisobga olib, jismoniy mashqlar va dinamik pauzalar o'tkazib turish talab etiladi.

O'quvchilarga dars jarayonida bajariladigan mashqlar, nihoyatda oddiy bo'lib, kam vaqt olishi, ularning jismoniy jihatdan o'sishiga, qo'l va barmoq muskullarining chiniqishiga, qaddi-qomatlarini to'liq, erkin tutishlariga yordam berishi lozim. Yozuv darslarida 8-10 minut o'tgandan so'ng o'quvchilar betoqat bo'lib, orqalariga yoki yonlariga yastanib o'tiradilar, o'rinlaridan turib ketadilar, bu ularning charchaganliklaridan darak beradi.

## 3-MAVZU:YOZUV QUROLLARI VA ULARDAN FOYDALANISH.

**R E J A :**

1. Boshlangich sinflar uchun foydalaniladigan yozuv qurollari.
2. Avtoruchka va sharikli ruchka.
3. Daftardan to'g'ri foydalanish.
4. Sinf doskasi va undan foydalanish.

**TAYANCH SO ZLAR:**

Maktab uchun moTjallangan yozuv qurollari quyidagilardir:

1 .Daftar.O'quvchilar uchun asosiy yozuv quroli bo" lib, u sifatli qog'ozdan ishlangan ,silliq shiziqlari aniq ko'rinib turishi kerak.

2.Bosma qogo'z.Yozuv jarayonida bosma qog'ozdan foydalanishni unutmaslik lozim.

3.Avtoruchka.Boshlang"ich sinf o'quvchilari avtoruchkadan ham foydalanishlari mumkin.

4.Sharikli ruchka.Korpus,kichik qopqoq, siyohli sterjendan tuzilgan.

**ADABIYOTLAR.**

1. G'ulomov M. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatish" T.1970
2. G'ulomov M. "Chiroyli yozuvni shakllantirish" T. 1992 3.G'apporovavaboshq. "Alifbe" T. 1999
5. G'apporova va boshq. "1- 2 yozuv daftari" T. "O'qituvchi" 1999 6.Husnixat daftari. 1 -sinf uchun.T-1999 7.Husnixat daftari.2-sinf uchun.T-1999 8.Husnixat daftari.3-sinf uchun.T-1999

O'quvchilarga dars jarayonida bajartiriladigan mashqlar oddiy boTishi va kam vaqt olishi ,ularning jismoniy jihatdan o'sisahiga ,qoT va barmoq muskullarining chiniqishiga, qaddi -qomatlarining toTiq , erkin tutishlariga yordam berishlari lozim.

Yzuv qurollari dars jarayonida eng muhim vositalardan hisoblanadi. Shuning uchun ham o'quvchilarning har biri yozuv qurollari bilan toTiq taminlangan holda botishlari kerak. Ayrim o'qituvchilar bolalarning charchashini hisobga olmay ko'p yozdiradilar. Natijada o'quvchilar toliqadilar, xarakatlari sust bo'lib qoladi, xatlari xunuklashib ko'p xato qiladilar.

Jismoniy mashq minutlarini dars davomida bir necha marta o'tkazish mumkin. Bu mashqlarnmg qachon o'tkazilishi o'qituvchi tomonidan (o'quvchilarning charchashlari xisobga olinib) belgilanadi.

Husnixat mashg'ulotlari o'quvchilarni ongli ravishda chiroyli yozishga o'rgatsa, jismoniy mashqlar esa sog'lom va intizomli bo'lishga o'rgatadi.

Demak o'quvchilarni qulay ish joyi bilan ta'minlash bilan bir qatorda ularga qo'yiladigan gigiyenik talablarning hisobga olinishi, ish faoliyatlarini tiklash uchun jismoniy mashqlarni muntazam o'tkazib turish chiroyli yozuvga o'rgatishning asosiy shartlaridan biridir.

Yozuv qurollari va ulardan foydalanish

O'quvchilarda yozuv malakalarini hosil qilishdan awal ularni sifatli yozuv qurollari bilan to'liq ta'minlash talab etiladi. Yozuvlarning chiroyli bo'lishi ko'p jihatdan yozuv quroliga bog'liqdir. Bolani maktabga kelgan kunidan boshlab yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanishga va uni ozoda saqlashga o'rgatish lozim.

O'quvchilarning yozuv qurollarini muntazam tekshirib borish har bir o'qituvchining muhim vazifasidir.

Dastur talabi bo'yicha 6 yoshli birinchi sinf o'quvchilari uchun «Yozuv daftar»lari tavsiya etilgan bo'lib, unda qiya chiziqlar orasidagi masofa 30 mm va qiya chchiziqlarsiz kichik xarflar yoziladigan parallel chiziqlar orasidagi masofa 4 mm ta teng bo'lgan ikki chiziqli daftar tavsiya etiladi. Bunda daftarning qiya chiziqlari 65 gradusga teng bo'lishi lozim.

Ikkinchi sinfda o'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab va III-IV sinflarda parallel chiziqlar orasidagi masofa 8 mm ga teng bir chiziqli daftar tavsiya etiladi va quyidagi talablar qo'yildi:

1. Daftarga toza va aniq yozish;

2. Davtarning muqovasidagi yozuvlar yagona talab asosida yozilishi, unda daftar qaysi fan uchun tutilganligi (ona tili, matematika), nechanchi sinf, maktabining nomi va nomeri, o'quvchining ismi va familiyasi ko'rsatib o'tilishi kerak;

3. 1 sinfda (1 sinfning birinchi yarim yilligida) o'quvchilarning daftarlari muqovasiga o'qituvchi tomonidan yoziladi.

4. Har bir daftarda xoshiya qoldirilishi kerak.

1-sinfda yozuv va matematika daftarlariga oy va kun yozilmaydp, ikkinchi, uchinchi to'rtinchi sinflarda esa arabcha raqamlar bilan ko'rsatilib, oy esa hraflar bilan to'liq yoziladi.

5. Ikkinchi sinfning ikkinchi yarmidan boshlab har bir mashqning nomeri, maqsadi, qayerda bajarilganligi (sinfda yoki uyda) yozib qo'yiladi.

6. Mashqni bajarishda xat boshidan yozish qoidalariga qat'iy rioya qilish talab etiladi.

7. Sarlavxa bilan kun va oy orasida, mashqning sarlavxasi bilan matn orasida chiziq tashlamay yoziladi, ammo ikki xil mashq bajarishda birinchi mashqning oxirgi qatori bilan yangi mashqning sarlavxasi o'rtasida ikkita chiziq tashlab yoziladi.

O'quvchi daftardagi yo'l qo'ygan xatosini tuzatish uchim quyidagi talablarni amalga oshirishi kerak.

Noto'g'ri yozilgan harfning ustidan ingichka qiya chiziq tortib qo'yishi, ayrim noto'g'ri yozilgan bo'g'in yoki so'zlar ustidan o'chirish, bo'yab qo'yish, qavs ichiga olib qo'yish mumkin emas.

9. Harf va bo'g'inlarning tagiga chizishda chizgichdan foydalanish yoki juda ehtiyotkorlik bilan chizish lozim. O'quvchilarning yozuv daftarlari muntazam ravishda tekshirilib borilishi, xato yozilgan harf va harf elementlari daftaming hoshiyasida ko'rsatilishi kerak. Birinchi sinfda va ikkinchi sinfning birinchi yarmida o'quvchilarga baxo ball tariqasida qo'yilmaydi, ammo og'zaki rag'batlantirib o'tiladi.

Hozirgi kunda maktablarning talabi bo'yicha o'quvchilarga quyidagi yozuv qurollari tavsiya etiladi:

1. D a f t a r. Daftar o'quvchilar uchun asosiy yozuv quroli bo'lib, u sifatli qog'ozdan ishlangan, silliq va chiziqlari aniq ko'rinib turadigan bo'lishi kerak.
2. Bosma qog'oz. Yozuv jarayonida bosma qog'ozdan foydalanishni unutmaslik lozim. Bosma qog'ozdan foydalanish yozuvning buzilishiga yo'l qo'ymadi. Ammo undan faqat daftarning ikkinchi betiga o'tayotganda ko'proq foydalaniladi. O'qituvchi har bir o'quvchining daftarida bosma qog'oz bo'lishiga erishmog'i lozim.
3. A v t o r u ch k a. Boshlang'ich sinflarda yangi dastur talabi bo'yicha

o'quvchilarga ikki xil avtoruchkada yozish tavsiya etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tavsiya etiladigan avtoruchkalarning yo'g'onligi ularning qo'l barmoqlariga mos bo'lib, haddan tashqari yo'g'on yoki ingichka bo'lmasligi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilari sharikli avtoruchkalardan ham foydalanishlari mumkin. O'quvchilarga har ikkala turdagi avtoruchkadan foydalanish qoidalarini o'rgatish zarur. Avtoruchkalardan foydalanish haqida alohida to'xtalib o'tamiz.

P ye r o. Agar avtoruchkaning perosi ishdan chiqsa yoki sinib qolsa uni shu turdagi avtoruchkaga mos pero bilan almashtirish lozim. Kundalik yozuv mashqlarini bajarib bo'lgandan so'ng avtoruchkaning perosini yaxshilab artib qo'yilsa, u yaxshi saqlanadi.

5. S i yo h. O'quvchilar yozadigan avtomchka uchun faqat binafsha yoki to'q xavo rangdagi siyoxlar tavsiya etiladi. O'qituvchilar uchun esa mashq namunalarini ajratib ko'rsatishmaqsadida qizil rangdagi siyox tavsiya etiladi.

6. P y e r o t o z a l a g i ch. Pero tozalagichdan foydalanish o'quvchilar daftarini toza saqlashning muhim omillaridan biridir. Ayniqsa sharikli avtoruchkada yozadigan o'quvchilarga u juda zarurdir. Sharikli avtomchka ham yuqoridagi tartibda tushuntirilib, uning qismlari bilan tanishtirish lozim. Uning tuzilishi ancha sodda bo'lib, asosiy qismlari sterjen, siyoxli naycha, qopqoq atoruchkaning asosiy qismlaridir.

So'ngra o'qituvchi avtoruchkaga siyox solish qoidasini amaliy ko'rsatib beradi. O'quvchilar diqqat bilan uni kuzatib turadilar. Agar o'quvchi peroli avtoruchkadan foydalansa, uni har kuni uyda siyoh bilan to'ldirib kelishi lozim, ammo unga Haddan tashqari ko'p siyoh tortmaslik kerak, aks holda pero juda yo'g'on yozishi mumkin. Shuning uchun sinfda 1-2 shisha siyoh va ortiqcha avtomchka saqlash lozim.

Birinchi sinf o'quvchilarining avtoruchkasiga o'qituvchining o'zi siyoh to'ldirib beradi.

Avtomchka o'quvchilarni yozuvga o'rgatishda asosiy yozuv quroli bo'lgani uchun unga alohida e'tibor berish talab etiladi.

Daftardan to'g'ri foydalanish.

Biz yuqorida, asosan, daftar uchun qo'yiladigan umumiy talablarni aytib o'tdik. Endi undan har bir sinfda qanday to'g'ri foydalanish haqida to'xtalamiz.

O'quvchilarning daftarlariga qo'yiladigan asosiy talablardan biri ularning tashqi ko'rinishi bir hilda bo'lishiga erishishdir. Daftarning muqofasiga husnixat qoidalariga amal qilgan holda yozish shart. Ayrim boshlang'ich sinf o'quvchilari daftarning muqovasiga qo'shimcha turli qog'ozlarni o'rnatadilar, aksincha, uning o'rniga muqovani toza tutishga o'rgatish lozim.

Birinchi sinf o'quvchilarining «Yozuv daftar»lari sinfda saqlanishi lozim, uni uyga berib yuborish man etiladi.

O'quvchilarning daftarlari o'qituvchi tomonidan muntazam ravishda tekshirilib borilishi kerak. Daftarni toza tutgan va chiroyli yozgan o'quvchilarni rag'batlantirib borish, ularning daftarlari ustiga alohida ajralib turishi uchun «yulduzcha» yoki «bayroqcha»lar qo'yib berish mumkin. Qaysi o'quvchining daftarida yulduzcha yoki bayroqda bo'lsa o'sha o'quvchining daftari namunali hisoblanadi. Rag'batlantirishning bunday turidan 1 va 3 sinflarda ham foydalanish mumkin. Boshlang'ich sinflarda harflarni 65 gradus qiyalikda yozish asosiy rol o'ynaydi. O'quvchilarga harflarning qiyaligini to'g'ri saqlashga o'rgatishdan oldin daftarni parta ustiga to'g'ri qo'yishni o'rgatish lozim. Daftarning parta ustida noto'g'ri turishi gigiyena qodilarining buzilishiga sabab bo'ladi, chunki yozuvning qiyaligi daftarning holatiga qarab belgilanadi. Agar daftar ko'rsatilgan qiyalikda tursa, yozuv to'g'ri yoziladi. Agar, daftarning holati o'zgarsa, yozuvning ham qiyaligi o'zgaradi.

Daftar yozuv bilan to'lib borgan sari daftar yuqoriga surib boriladi. Cho'p qo'l bilan esa daftarning yuqori tomoni bosib turiladi. Yozuv darslarida daftarning parta ustiga qo'yish holatini to'g'ri tashkil etish birinchi galdagi vazifadir.

Buning uchun sinf parsatining ustiga ikki o'quvchining har biri ingichka qiya kontrol chiziq chiziladi. Bu chiziqning pastki uchi o'quvchilarning chap ko'kraklari o'rtasiga to'g'ri bo'lib, parta qopqog'iga nisbatan 65 gradus qiya qilib chiziladi. Natijada hamma o'quvchilarning oldida (partada) kontrol chiziqlar

bo'ladi. Endi o'qituvchi o'quvchilarning davtar chetini yoki o'rtasini shu kontrol o'quvchilarning daftar chetini yoki o'rtasini shu kontrol chizig'ida tekis qilib qo'yishlariga erisha olsa bas. Chiziqlar to'lib borgan sari daftarni shu chiziq bo'ylab yuqoriga ko'tarib borish lozim.

Agar daftarning chap beti to'lsa, daftarning buklanadigan yeri kontrol chiziqda to'g'irlab olinadi va o'ng betiga yozishga o'tiladi.

Bu usuldan ko'proq bir chiziqli daftarga yozishda keng foydalanish mumkin. Undan tashqari, bunday kontrol chiziqlar daftarni buklashdan saqlaydi. Chunki ba'zi o'quvchilar o'ziga qulaylik tug'dirish maqsadida daftarni buklab yozadilar. Albatta, daftar hoshiyasiga ham e'tibor berish lozim, chunki daftarning chetida qoldirilgan joy yozuvning tekis chiqishiga, so'zlarni bo'g'inlarga ajratishga ayrim noto'g'ri yozilgan harf va uning elementlarini to'g'ri yozib ko'rsatishga imkon beradi.

O'quvchilarning ishlarini baxolashga alohida e'tibor berish, ularni qilgan xatolariga iqror qilish hamda tegishli ko'rsatmalar berib borish lozim. O'quvchilarning baxosi bajarilgan ishning tagiga qo'yilishi lozim. Ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi sinf o'quvchilarining daftarlariga «ko'rildi», «xato» kabi noaniq so'zlarni yozmay, «chiziqdan yoz», «xarflar orasidagi masofani to'g'ri saqla», «harflarni bog'lab yoz» kabi aniq ko'rsatmalar berilishi kerak o'quvchilarning xatolarini aniq ko'rsatmay turib, ularning baxolarini pasaytirish mumkin emas.

O'quvchilarning husnixatiga bo'lgan kiziqishlarini o'stirish maqsadida maktab bo'yicha eng yaxshi tuilgan daftarlarni yig'ib ko'rgazma tashkil etish daftarni toza tutishning muhim omillaridan biridir. Ko'rgazmada faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirib, boshqa o'quvchilarga namuna qilib ko'rsatish lozim.

**Sinf doskasidan foydalanish.**

Maktablar uchun chiqarilgan sinf doskasi qora yoki to'q yashil randa bo'lishi lozim. Sinf doskasining yuzi tekis bo'lib, juda silliq ham bo'lmasligi lozim, aks holda bo'r doskada sirpanib o'zuvning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Sinf doskasini ikki turga bo'lish mumkin: biri domiy devorga osig'liq turadigan doska, ikkinchisi tik o'q atrofida aylanadigan ko'chma doska. Bunday doskaning qulay tomoni shundaki, uni derazadan tushayotgan yorug'ga qarab burish mumkin. Bunday doskachalarni mehnat darslarida yuqori sinf o'quvchilari ham yasab berishlari mumkin. Sinf doskasi linoleumdan yoki taxtadan yasalishi mumkin. Linoleumdan yasalgan sinf doskasi sifatli hisoblanadi, chunki taxtadan yasalgan doskalar xar yili bo'yalib turiladi. Natijada bo'yoqlar qatlami hosil bo'lib, doskaga yozish vaqtida bo'r sirg'anib ketaveradi.

Sinf doskasi qoida bo'yicha eniga 1,200 mm, uzunligi 3000 mm bo'lishi lozim.

Sinf doskasining chetiga raqamlar qo'yilgan bo'lib, pastki qismida esa bo'r va latta uchun joy bo'lishi shart.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun doska poldan 85 sm yuqoriga o'rnatilgan bo'lishi lozim. O'quvchilarga yozuvlarni yanada yaqqolroq ko'rsatish uchun sinf doskasini balandroq qo'yish ham mumkin. Ammo bunda doskaning tagiga balandligi 16 sm, eni 1 metr, uzunligi esadoskaning uzunligi bilan ting bo'lgan taxta qo'yilishi lozim.

Doskaning tagiga bo'r maydalarining to'kilmasligi uchun pastki ramkaning ustiga eni 5-6 sm li taxtacha o'rnatilishi, chap tomonida esa bo'r turishi uchun quticha maxkamlanishi maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda ko'pchilik maktablarimizda uch tabaqali harakatlanuvchi ochilib yopiladigan doskalar ham keng o'rin olmoqda. U doska maktablarimiz uchun juda qulay bo'lib, uni yuqoriga ko'tarish, pastga tushirish mumkin. Bunday doskalar har bir sinf o'quvchilarining bo'yiga moslashtirish uchun juda qulaydir. Undan tashqari, bir tabaqasini yozuv daftariga, ikkinchi tabaqasini matematikaga moslab chizib qo'yish mumkin.

Sinf dokasi devorning o'rtasiga o'rnatilgan bo'lib, yorug' chap tomondan tushib turishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qiydigan sinflardagi doskalar yozuv darslari uchun moslashtirilib, kataklarga ajratilgan bo'lishi, yozayotganda qimirlamasligi lozim. Agar sinf doskasi qora rangda bo'lsa, oq rangli bo'yoq bilan, agar doska to'q yashil rangda bo'lsa, qora bo'yoq bilan

kataklar chiziladi. Sinf doskasiga kataklar chizish vaqtida, albatta, moyli bo'yoqdan foydalanish kerak.

Yozuv mashg'ulotlarida doska bilan bir qatorda bo'r muhim rol o'ynaydi.

3. Bo'r yumshoq nam bo'lmasligi kerak. Bo'r 15x15 mm li kvadrat shaklida bo'lib, uzunligi 50 mm dan oshmasligi yoki 30 mm dan kam Uchinchi gruppa: o, a. b$_r$ yu, ya, d, f.

4. To'rtinchi gruppa: ye, e, ch, o'$_r$ v, ', .

5. Beshinchi gruppa: e, h, j, q, g'$_r$ q.

Bosh xarflar gruppasi:

1. Birinchi gruppa: I, SH$_r$ CH, S.

2. Ikkinchi gruppa: L, A, M, YA.

3. Uchinchi gruppa: O, S, E, H, X, J.

4. To'rinchi gruppa: Z, YE, E.

5. Beshinchi gruppa: U, O', N, Q, S.

6. Oltinchi gruppa: G, G', P, T, B.

7. Yettinchigruppa: R$_r$ V, YU, F, D.

Harflarga o'xshash raqamlar shakl jihatdan kattaligini ham hisobga olib quyidagi gruppalarga ajratiladi:

1. Birinchi gruppa: 1,4, 7

2. Ikkinchi gruppa: 6, 9, 0.

3. Uchinchi gruppa: 2, 3, 5, 8.

Genetik metod bilan to'g'ri ish olib borish uchun har bir o'qituvchi kichik va bosh harflarni gruppalarga ajratish bilan birga, uning qanday elementlardan tuzilganligini va ularning nomlarini yaxshi bilishi amalda qo'llay olishi lozim.

## 4-MAVZU: YOZUV SIFATINI SHAKLLANTIRISH.

**RE J A:**

1 .Harflarning shaklini to'g'ri yoizish ga o'rgatish.

2.Harf elementlarini va yozuv jarayonini tahlil qilish.

3.Kichik harflar elementi.

4.Bosh harflar elementi

**TAYANCH SO ZLAR:**

Har bir harfning shaklini ongli ravishda egallash, ayniqsa 1-2 sinf larda juda muhimdir.Bu davrda cTquvshilarda harflarni kcTrib, eslab qolish va chiroyli yozish qobiliyatlari tarkib topadi.

Har bir harf uchun xarakterli bo'lgan asosiy va yordamchi ulash elementlarini bir -biridan farqlash;harflarning bir - biriga nisbatini to'g'ri aniqlash ;har bir

harfning yozilish qoiudalaiga(qayerdan boshlash, qayerda burish, tugunchaklarni boglash va x.)amal qilish; to'g'ri va no'to'g'ri yozilgan harflarning arqini ajratish. va ulardagi hatolarni tuzatish.

O'qituvchi doskada shunday elementlar ishtirok etgan kichik i, sh, n harflarini yozib ko'rsatadi. O'quvchilar esa daftarlarida har bir harfni bir qatordan yozib mashq qiladilar. O'qituvchi sinfhi aylanib chiqib o'quvchilarning yozuvlarini kuzatib boradi va o'quvchilarning yozuvlarini qanday xatolarga yo'l qo'yganlarini hisobga oladi. Shundan so'ng o'qituvchi bir necha o'quvchi yo'l qo'ygan tipik xatolarni doskada yozib ko'rsatadi va bolalardan uning asosiy kamchiligi nimada ekanligini so'raydi..

O'quvchilar o'z xato va kamchiliklarini faqat doskada emas o'z daftarlarida yozishlari muhimdir. Ba'zi bir o'quvchilar o'z xatolarini sezmaydilar, shuning uchun oquvchilarga o'zaro bir birlarini daftarlarini tekshirtirish ham yaxshi natija beradi.

Ayrim o'quvchilarga esa o'qituvchining o'zi daftarga yozib ko'rsatishi lozim. Bunday o'quvchilar o'qituvchining qo'l harakatiga qarab turib o'z xatolarini tuzatishlari mumkin. Ba'zi hollarda o'qituvchi harflarning shakli haqidagi tasavvurni kengaytirish uchun ruchkani havoda mashq qildirib ko'rsatishi ham mumkin. O'qituvchilar chap qo'llarini parta ustiga qo'yib, o'ng qo'llari bilan ruchkani yuqorigako'targan holda, o'qituvchining doskadagi harakatini havoda bajaradilar.

bo'lmasligi lozim. Bunday bo'rni ushlash qulay bo'lib, yozishga osonlik tug'diradi. Qo'lni toza tutish maqsadida bo'rning yarmigacha qog'oz o'raladi.

Bo'rni bosh, o'rta hamda ko'rsatkich barmoq bilan ushlanadi va yozish vaqtida ko'rsatkich barmoq bilan bosib turiladi. Doskada harf va uning elementlarini yozib ko'rsatishdan oldin bo'rning uchini tekislab, yozishga moslab olish zarur.

Husnixat mashqulotlarida kichik va yumaloq shakldagi bo'rlardan foydalanishga ruxsat etilmaydi, chunki u tegishli chiziqlarni bermaydi va har xil qalinlikda yozadi.

Bo'rni to'g'ri ushlash qoidalariga amal qilishga o'rgatib borish lozim. Ayrim o'quvchilar bo'rni besh barmoq bilan ushlab noto'g'ri yozadilar. Bunday o'quvchilarning qo'lidan ushlab, mashq qildirish zarur.

O'quvchilar yozuvchining sifati ko'p jihatdan yuqorida ko'rsatib o'tilgan omillarga bog'liqdir.

Yozuv sifatini shakllantirish.

Ayrim o'quvchilarning yozuvlari toza, aniq va chiroyli bo'lib, bunday yozuv kishiga quvonch bag'ishlaydi, ammo ba'zi o'quvchilarning yozuvlarida esa xarflar qing'ir-qiyshiq va xunuk bo'lib o'qishga qiyinchilik tug'diradi.

Shuning uchun husnixat va ona tili darslarida yozuv sifatini shakllantirish uchun turli imkoniyatlardan foydalanish lozim.

Yozuvning sifatini shakllantirish deganda, biz uning aniq va toza, bir xil qiyalikda va balandlikda bo'lishini, bir tekis silliq yozilishini tushunamiz. O'quvchilarda bu sifatlarni shakllantirish uchun har bir o'qituvchini quyidagi ko'rsatmalarga amal qilishi lozim:

1. Yozuvga o'rgatishning birinchi kunidan boshlab harflarning shakllarini takomillashtirib borish.
2. Harf elementlari va harflarni to'g'ri bog'lab yozishga o'rgatish.
3. Yozuvning bir tomonga qiya qilib yozish qoidalarini takrorlash va takomillashtirish.
4. Har bir qatordagi harflarning bir xil balandlikda bo'lishiga erishish.
5. Harf elementlari, harflar va so'zlar orasidagi masofalarni bir hilda saqlash.
6. Butun sinfdagi o'quvchilarning bir xil tezlikda ravon qilib yozishlariga erishish.

Yozuvning bir maromda chiroyli va ravon bo'lish yo'llarini topish.
Harflarning shaklini to'g'ri yozishga o'rgatish.

Harflarning shakli ustida ishlash husnixatga o'rgatishning asosiy shartidir. Chunki har bir harfning aniqlanishi yozuvning aniq va ravon bo'lishiga bog'liq.

Birinchi sifning oxiriga borib, hamma o'quvchilar harflarning shakli haqida tasawurga ega bo'lishlariga qaramay, ayrim harf yoki elementlarning shaklini unutib qo'yadilar. Ayniqsa, 3-4 sinflarda alohida husnixat darslari bo'lmasligi

sababli ko'p harflarning shaklini buzib yozadilar bir harfni ikkinchisi bilan almashtirib yuboradilar.

Shuning uchun har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi doimo harflarning shaklini tuzatish ustida ish olib borishi lozim.

Har bir harfning shaklini ongli ravishda egallash (ayniqsa 1 va 2 sinflarda) juda muhimdir. Bu davrda o'quvchilarda harflarni ko'rib, eslab qolish va chiroyli yozish qobiliyatlari tarqib topadi, harflarning shaklini ongli ravishda egallash uchun quyidagilar talab qilinadi:

Namuna tarzida husnixat kitobida berilgan kichik sh harfining yozilish jarayonini eslatib o'tamiz.

Kichik sh harfi uchta tagi ilmoqli kichik tayoqcha shaklidagi elementdan iborat bo'lib, har bir element bir xil qiyalikda yozilishi lozim. Bu yerdagi bog'lovchi elementlar ham asosiy elementga nisbatan bir oz qiyaroq bo'ladi.

O'qituvchi doskada shunday elementlar ishtirok etgan kichik i, sh, n harflarini yozib ko'rsatadi. O'quvchilar esa daftarlarida har bir harfni bir qatorda yozib mashq qiladilar. O'qituvchi sinfni aylanib chiqib, o'quvchilarning yozuvlarini kuzatib boradi va o'quvchilarning qanday xatolarga yo'l qo'yganliklarini hisobga oladi. Shudan so'ng o'qituvchi bir necha o'quvchi yo'l qo'ygan tipik xatolarni doskaga yozib ko'rsatadi va bolalardan uning asosiy kamchiligi nimalar ekanligini so'raydi.

O'quvchilar o'z xato va kamchiliklarini faqat doskada emas, o'z yozuvlarida ham sezishlari muhimdir. Ba'zi bir o'quvchilar o'z xatolarini sezmaydilar, shuning uchun o'quvchilarga o'zaro bir-birlarining daftarlarini tekshirtirish ham yaxshi natija beradi. Ayrim o'quvchilarga esa o'qituvchining o'zi daftarda yozib ko'rsatishi lozim. Bunday o'quvchilar o'qituvchining qo'l harakatiga qarab turib o'z xatolarini tuzatishlari mumkin. Ba'zi xollarda o'qituvchi harflarning shakli haqidagi tasawurni kengaytirish uchun ruchkani xavoda mashq qildirib ko'rsatishi ham mumkin. O'quvchilar chap qo'llarini parta ustiga qo'yib, o'ng qvllari bilan ruchkaniyuqoriga ko'targan holda, o'qituvchining doskadagi harakatini havoda bajaradilar. Yaxshi yozgan o'quvchilarni rag'batlantirib, ularning daftarlarini sinfda namoyish etib ko'rsatish lozim. Ammo xunuk yozgan ba'zi o'quvchilarni esa butun sinf oldida uyaltirmaslik xato va kamchiliklarini o'ziga mustaqil tushuntirish kerak.

Birinchi sinfda alifbe davri tugagandan so'ng ham ayrim o'quvchilar ba'zi harflarning yozma shaklini unutib qo'yadilar. Shuning uchun husnixat darslarida ayrim kichik $b_F$ v, d, $r_F$ u, $u_r$ j, $q_F$ s, f, $s_r$ x kabi murakkab harflarni yozdirib mashq qildirish lozim.

Harf elementlarini va yozuv jarayonini  tahlil qilish.

Dastlab harf elementlarini tahlil qilishda alfavitdagi yozma shakldagi harf laming xususiyatlari hisobga olinar edi. Bu narsa alfavitdagi barcha kichik va bosh harflarni majburiy ravishda elementlarga ajratib yozishni talab etar edi.

Endilikda esa bu qoida eskirib, o'rniga iloji boricha qo'l harakatini uzmasdan bog'lab yozish umumiy qoidaga aylandi.

Harflarni bir butun shaklda qo'l harakatini uzmay yozishga o'tilgan taqdirda ham o'qitishning boshlang'ich davrlarida, bolalarga tushunarli bayon etish uchun, o'qituvchi bir harfning nechta elementdan tuzilganligini va ularning nomini yaxshi bilishi lozim.

Kichik xarflar  elementi

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan elementlardan o'qituvchi faqat harf laming shaklini tahlil qilib yozdirish vaqtida foydalanishi mumkin. Ammo harflarning elementlarini surunkali ravishda yozdirib mashq qildirish mumkin emas.

Harflarni elementlarga bo'lib tahlil qilishda, dastlab asosiy elementlar yozilishi hamda bog'lovchi qo'shimcha elementlar ham eslatib o'tilishi lozim. Ko'pchilik harflarning asosiy elementlari esa, aksincha, pastdan yuqoriga qarab yurgizish uchun moslashtirilgan. Bunday elementlarni bog'lovchi chiziqlar nisbatan mumkin.

Ammo yozuv mashqlarini bajarishda asosiy va yordamchi elementlar qo'l harakatini uzmasdan bog'lab yoziladi.

Harf elementlarini bog'lab yozish vaqtida o'quvchilarga ruchkani yuqoridan pastka yurgizish zarurligini eslatib turish lozim.

Harflarning asosiy elementlarini mashq qildirishni alifbedan keyingi davrda ham davom ettirish mumkin.

Buning uchun o'qituvchi quyidagiga o'xshash mashqlarni o'tkazishi lozim:

Harflar bilan yordamchi chiziqlarni yonma-yon mashq qildirish o'quvchilarga harflarning qiyaligini to'g'ri saqlab yozishga yordam beradi.

Harf elementlarining o'xshashligiga, yozish jihatdan sodda va murakkabligiga qarab, alfavitdagi barcha harflarni gruppalarga ajratib yozishga o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Harflarni bunday gruppalarga bo'lib yozdirishni genetik usul deb ataladi. Genetik usuldan foydalanish, asosan 2-sinfdan boshlab amalga oshiriladi.

Bu usulda harflar bilan bir qatorda raqamlarni gruppalarga ajratib yozish tavsiya etiladi.

Kichik harflar gruppasi:

1. Birinchi gruppa: i, sh, p, t, r, u, g.
2. Ikkinchi gruppa: i, u, 1, m, s, n, g'.

## 5-**MAVZU: CHIROYLI YOZUV MALAKASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI.**

**Reja:**

1. Chiroyli yozuvga o'rgatishning asosiy usullari haqida ma'lumot.
2. O'quvchilarga yozuv qoidalarini tanishtirish.
3. Namunaga qarab yozish va namunaga qarab ko'chirib yozish usullari.
4. Nusxa ko'chirish va tasavvur orqali yozish usullari.
5. Harflarning shakllini tahlil qilish usuli.
6. Yozuv malakasini ongli o'zlashtirish usuli.

7. Sanoq ohang usuli.

8. Xatolar ustida ishlash usuli.

**Tayanch so'zlar:**

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun zarur bo'lgan yozuv usullari va ularning darslar davomida olib borilishi. Har bir harf namunasi doskada, havoda, yozuv daftarlarida, qo'l va barmoq harakatlari orqali og'zaki yoki yozma holda o'rgatilishi.

**ADABIYOTLAR.**


1. G'ulomov M. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatish" T.1970

2. G'ulomov M. "Chiroyli yozuvni shakllantirish" T. 1992 3.G'apporovavaboshq. "Alifbe" T. 1999

6. G'apporova va boshq. "1-2 yozuv daftari" T. "O'qituvchi" 1999 6.Husnixat daftari. 1 -sinf uchun.T-1999 7.Husnixat daftari.2-sinf uchun.T-1999 8.Husnixat daftari.3-sinf uchun.T-1999


**Namunaga qarab yozish usuli.**

Chiroyli yozuvga o'rgatishning eng asosiy usullaridan biri harflarning shaklini namuna qilib ko'rsatish va yozdirishdir. Har bir harf namunasi doskada barcha o'quvchilaming diqqatini jalb qilgan holda yoki ayrim o'quvchilarga daftarga alohida- alohida ko'rsatib berilishi lozim. O'quvchining vazifasi esa doskada eslab qolgan shakllarini (harf, bo'g'in, so'zlar) o'z daftarlarida to'g'ri aks ettirishdir.

Doskada yozib ko'rsatilayotgan har bir harf barcha o'quvchilarga aniq ko'rinib turishi shart. , ayrim o'quvchilar ko'ra olmagan bo'lsalaro'qituvchi qaytadan takrorlab ko'rsatishi lozim. Ayniqsa, yangi harf yoki ularning bog'lanishini ko'rsatish vaqtida qayta- qayta takrorlash juda muhimdir.

O'qituvchi tominidan har bir harf yoki harflarning bog'lanishi, og'zaki yoki doskada tushuntirish orqali qayerda qo'l harakati boshlanadi, qayerda qo'l harakati buriladi va qayerda qo'l harakati uzish talab etiladi.

**NUSXA KO'CHIRISH USULI.**

Bu metodni harf shaklini to'g'ri tasavvur eta olmagan, yozishda daftar chiziqlaridan pastga tushib yoki chiqib ketadigan o'quvchilar uchun qo'llash mumkin. Masalan, bir o'quvchi katta B harfini yozishda xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa, o'qituvchi ularni nuqtalar bilan ifodalab daftarga qalamda yozib ko'rsatadi, o'quvchi esa uning ustidan siyoh bilan yurgizib chiqadi. Bu usul o'quvchining shu haqidagi tasavvurini kengroq shakllantiradi. Bu usulning ijobiy jihatlari bilan birga salbiy jihatlari ham bor. Bunday mashqlar faqat qo'l harakatini o'stirish uchun yordam beradi xolos. Uzoq muddat bunday usulda yozgan bolalar harflarning shaklini mustaqil yoki namunaga qarab yozishda qiynaladilar.

**TASAVVUR ORQALI YOZISH USULI.**

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan usullar bilan bir qatorda, bolalarga tasavvur qilish orqali havoda harflarning shaklini yozdirib mashq qildiriladi. O'qituvchi doskada

yozib ko'rsatgan harf yoki bog'lanishlarni, o'quvchilarga qanday qilib yozishni, ruchkani havoda harakatini ko'rsatib, o'quvchilar tasavvur hosil qilganlaridan so'ng daftarga yozishga ruxsat etadi. Bunday mashqlar o'quvchilarning qiziqishlarini o'stiradi hamda jismoniy mashqlarni ham bajarish imkonini beradi.

Ammo o'qituvchi bu usuldan foydalanishda sinfdagi barcha o'quvchilarning qo'l harakati qanchalik to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tekshira olmaydi, bir necha o'quvchinigina kuzatib tegishli ko'rsatma bera olishi mumkin.

Harf va ularning elementlarini tahlil qilishni turlicha amalga oshirish mumkin.

Harflarni elementlarga ajratib tahlil qilish, har bir harfning necha elementdan tuzilganligini, qanday shaklga ega ekanligini, bu elementlar boshqa harflar bilan bog'lanishida qanday ko'rinishga ega bo'lishini o'quvchilar tasawur etadilar. Ammo soddalashtirilgan harflar alfaviti kun harflarni elementlarga ajratmay, bir butun shaklda yozishni tavsiya etadi. Masalan, kichik v va b harflari hech qanday elementlarga ajratilmay bir butun shaklda yoziladi.

Ayrim harflar bir necha elementdan tashkil topgan bo'lib, ular bir butun shaklda yoziladi, ammo o'qituvchi uning nechta elementdan iborat ekanligini faqat eslatib o'tishi mumkin. Masalan, kichik 1 va m harfining birinchi elementi bir xil shaklga ega, ammo kichik harfda bitta tagi ilmoqli kichik tayoqcha bo'lsa, kichik sharfida ikkita tagi imoqli tayoqcha bor.

Bu yerda faqat o'qituvchi tomonidan harflarning pochta elementdan tashkil topganligi eslatib o'tiladi, xolos. Yozida esa bu harflar qo'l harakatini uzmasdan yozishni talab etadi. 6. Yozuv malakasini ongli o'zlashtirish usuli. Chiroyli yozuv qoidalarini yaxshi bilish, yozuv malakasining to'g'ri shakllanishiga yaqindan yordam beradi.

Chiroyli yozuv qoidalarini ixcham va tushunarli qilib bayon etish lozim. Shundagina o'quvchilar uni to'liq o'zlashtrishlari va amalda qo'llashlari mumkin. Masalan, birinchi sinfda dastlab to'g'ri o'tirish, ruchkani to'g'ri ushlash, daftarni to'g'ri holatda qo'yish kabi talablar asosida so'zlarda harflarning balandligini va qiyaligini bir xilda saqlash so'zlarda harf elementlari va harflarning oralig'ini bir xil uzoqlikda chamalab ochish qoidalari kelib chiqadi.

Ikkinchi sinfdan boshlab chiroyli yozish malakasini o'rgatishda yozuv texnikasiga oid bo'lgan kichik bosh harflarni bir xil balandlikda chamalab yozish harf va 4-5 harfdan iborat so'zlarni qo'l harakatini uzmasdan bog'lab yozish tez va toza yozish kabi qoidalar talab etiladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan har bir qoida, o'zining aniq mazmuniga ejga bo'lishi kerak.

O'qituvchi har bir qoidani asta-sekin, o'z o'rnida o'rganib borishi lozim. Masalan, dastlab yozuvning qiyaligini tag'ri saqlash qoidalarini talab etilgan bo'lsa, bu alifbegacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bolalar qiya chiziqlarning yaxshi bilib olganlaridan so'ng bu qoidalarni harf va so'zlarni yozishda qo'llaydilar.

Yozuvning qiyaligi haqidagi tushunchalar chuqur singdirilgandan so'ng, harflarni bir xil masofada tekis yozish qoidalari o'rgatiladi. Harflarni qo'l harakatini uzmasdan yozish qoidalari o'rganilgandan so'ng, so'zlarni qo'l xarakatini uzmasdan yozish qoidalari o'rgatiladi.

Chiroyli yozuv deganda biz toza, aniq chiziqlar bo'yicha, husnixat namunalarida ko'rsatilgandek yozilgan xatni tushunamiz.

Uchinchi sinfdan boshlab esa qoidalarga yana qo'shimcha tez va toza yozish qoidalari kiritiladi. Ammo har bir qoidani, har darsda bezor qiladigan darajada takrorlash yaramaydi, aks holda, ongli ravishda o'zlashtirish uchun mo'ljallangan qoidalar o'z aksini topishi mumkin. 7. Sanoq-ohang usuli.

Bu usuldan foydalanishda o'qituvchi harf va lining elementlarini sanash orqali yozdirib tushuntiradi. Bu usulni ayniqsa, savod o'rganish davrida keng qo'llash mumkin.

Sanoq-ohang usulining afzalligi shundaki, birinchidan, harflarning tekis yozilishini ta'minlaydi va harf elementlarining tushib qolishiga yo'l qo'ymaydi; ikkinchidan, sekin yozadigan o'quvchilarni tez va sinfdagi barcha o'quvchilar bilan barobar yozishga undaydi; uchinchidan, o'quvchilarga harakatlarni aniq va dadil bajarishni o'rgatadi; to'rtinchidan, sinfda darsni jonlantiradi.

Ammo bu usuldan butun dars davomida foydalanish tavsiya qilinmaydi, chunki o'quvchilar charchab, yozuv sifatini pasaytirib yuborishlari mumkin.

Sanoq ohang usulini qo'llashda, asosan, harflarning asosiy elementi «bir», «ikki», «uch» deb sanab boriladi, yordamchi ulash elementi esa «va» deb ataladi.

Masalan, kichik sh harfini yozishni quyidagicha mashq qilish mumkin: Sanoq-ohang usulini qo'llashda harf yoki element awal sanoqsiz yoziladi, so'ngra sanoq bilan yozdiriladi.

Shuningdek bu usul bilan yozishda dastlab sekinroq, keyichalik uni tezlashtirib yozib ko'rsatiladi.

Sanoq-ohang usulidan bo'g'in, so'z va gaplarni yozdirishda ham foydalanish mumkin.

8. Xatolar ustida ishlash usuli.

Bu usulni qo'llashdan maqsad har bir o'quvchi o'z xatosini mustaqilona olishga va uni tuzatishga o'rgatishdir.

O'quvchilarga o'z yozuvlaridagi harflarning to'g'ri yoki noto'g'riligini, qiyaligini, baland yoki past yozilganligini tekshirib chiqish topshiriladi. O'quvchilar navbati bilan o'zlari yo'l qo'ygan kamchiliklarni aytib beradilar, ayrim o'quvchilarga o'qituvchi yordam beradi.

Undan tashqari, o'quvchilar o'z kamchiliklarini yozuv davtarlarida yoki xusnixat kitobida berilgan namunaga qarab taqqoslash oraqali ham tuzatishlari mumkin.

Ko'pchilik o'quvchilarda takrorlangan bir hildagi tipik xatolarni o'qituvchi doskada tahlil qilib, uni qanday tuzatish yllarini ko'rsatib beradi.

Mashq sifatida ayrim harflar doskada noto'g'ri yozib ko'rsatiladi va ularning kamchiligi nimada ekanligi o'quvchilardan so'raladi. Masalan, kichik u harfini o'qituvchi doskada quyidagicha yozib ko'rsatadi, o'quvchilar esa uning xatosini topadilar. Kichk u harfining tugunchali elementi bir tomonga qiyshayib qolgan, aksinsa, daftarning qiya chizig'iga mos qilib yozish lozim.

## 6-MAVZU: BIRINCHI SINFLARDA YOZUV TEXNIKASI QOIDALARINI O'RGATISH.

**REJA:**

1. O'quvchilarga eng asosiy yozuv texnikasi qoidalari haqida ma'lumot berish.
2. Harflarni bosimsiz bir tekis yozish.

3. Harflarni elementlarga ajratmay bog'lab yozish.
4. Harf va so'zlarni qatorlarga to'g'ri joylashtirish.
5. Hardlarning qiyaligini to'g'ri saqlash.
6. Harflarni bir hil balandlikda yozish.
7. Harf va so'zlar orasidagi masofani chamalab yozish.
8. Tez va ravon yozishga o'rgatish.

**Tayanch so'zlar:**

Yozuv mashg'ulotlari asosan boshlang'ich sinflarda sharikli ruchkada bosimsiz yozdirishga o'rgatilishi va bosimsiz yozishning afzalliklari.

Birinchi sinfda o'quvchilar harflarni bir- biriga ulab qo'shib elementlami ajratmay bog'lab yozishni o'rganishlari.

O'quvchilar tayyorgarlik mashqlarida harf elementlarini qatorlarga to'gri joylashtirishlari.

Harf elementlarining o'ng tomonga 65 gradus qiyalikda yozishga o'rgatilishi.

Bir chiziqli daftarga kichik harflarni 3 mm balandlikda bosh harflarni 6 mm balandlikda yozdirishga o'rgatish

**ADABIYOTLAR.**

1. G'ulomov M. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatish" T.1970
2. G'ulomov M. "Chiroyli yozuvni shakllantirish" T. 1992 3.G'apporovavaboshq. "Alifbe" T. 1999

7. G'apporova va boshq. "1-2 yozuv daftari" T. "O'qituvchi" 1999 6.Husnixat daftari. 1 -sinf uchun.T-1999 7.Husnixat daftari.2-sinf uchun.T-1999 8.Husnixat daftari.3-sinf uchun.T-1999 9. Abdullayev Y. "Hamrohim" T. 1997

Shundan so'ng noto'g'ri yozilgan harf tezda o'chirib tashlanadi va kichik u harfi qoida bo'yicha mashq qildiriladi.

Agar o'quvchilar tomonidan harf laming qiyaligini to'g'ri saqlashda xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, ular quyidagicha o'xshash yordamchi chiziqlar orqali o'z-o'zini boshqarishga o'rgatiladi:

Bunday mashqlarni 3-4 sinflarda ko'proq o'tkazish kerak.

Bolalar o'z xato va kamchiliklaridan ko'ra, yonlarida o'tirgan o'rtoqlarining xatosini ko'rsatib boradilar. Shuning uchun o'zaro bir-birlarining xatolarini topish ustida ham mashq olib borish mumkin.

O'zaro bir-birlarining xatolarini topish ustida mashq olib borganda o'quvchilarga mashq, topshiriq va savollar berish kerak ya'ni «harf elementlari qanday yozilgan? Harf va so'zlar orasidagi masofa to'g'ri saqlanganmi? Harflarning qiyaligi to'g'rimi?» va hokazo.

Sinflardan sinfga ko'chgan sari bu mashqlarning savollarini murakkablashtirib borish mumkin.

Biz yuqorida chiroyli yozuv malakasini shakllantirish uchun zarur bo'lgan usullarni ko'rsatib undan bulardan tashqari, har bir o'qituvchi o'zi mustaqil

ravishda o'zuv malakasini o'stirish uchun yordam beradigan usullarni topishi va uni amalda qo'llashi mumkin.

## O'quvchilarga yozuv texnikasini o'rgatish.

Harflarni elementlarga ajratib tahlil qilishni o'rgatilgandan so'ng, o'qituvchining navbatdagi vazifasi o'quvchilarni yozuv texnikasi qoidalari bilan tanishtirishdan iborat bo'lishi kerak. Yozuv texnikasi qoidalariga asosan, harflar qiyaligini to'g'ri saqlash, bosimsiz bir xil qalinlikda yozish, bog'lanishlarni to'g'ri ifodalash kabi vazifalar kiradi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilar uchun eng muhim yozuv qoidalari ham eslatib o'tiladi.

O'quvchilarni assoiy yozuv qoidalari bilan tanishtirmasdan turib, chiroyli yozuvga o'rgatib bo'lmaydi. Shuning uchun qo'lida asosiy yozuv qoidalari bilan tanishtirib o'tamiz.

## Harflarni bosimsiz bir tekis yozish.

Yuqorida eslatib o'tkanimizdek avtoruchkada, asosan, bosimsiz yozdiriladi.

Avtoruchkani barmoqlar orasida qattiq siqmasdan erkin va bo'sh ushlash kerak. Matnda uchragan nuqta va tayoqchalarni qo'yishda avtoruchkan bosmasdan sekin va erkin harakat qildirish lozim.

Bosimsiz yozishning afzalligi shundaki, harflarning umumiy ko'rinishi bir tekisda chiroyli bo'lib, tez yozish malakasini shakllantirishda va bog'lab yozishga o'rgatishda osonlik tug'diradi.

O'qituvchi ham doskaga yozib ko'rsatganda bo'rni qattiq ushlamay, bosimsiz bir tekis yozishga harakat qilish kerak.

O'quvchilarga bosim bilan yozilgan matnlarni ko'chirib yozishga ruxsat etmaslik kerak.

O'qituvchi o'quvchilarni birinchi kundan boshlab bosimsiz, bir tekis yozishga odatlatirib borsa, bolalarning qo'li tolmaydi.

**Harflarni elementlarga ajratmay yozish.**

Birinchi sinfda o'quvchilar harflarning shaklini yozib tugatganlaridan keyin o'qituvchining navbatdagi vazifasi harflarni bir-biriga ulab, qo'shib yozishga o'rgatishdan iborat bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarning o'quv dasturida o'quvchilardan harflarni elementlarga ajratmay, bog'lab yozishlari talab etiladi. Harflarning qo'shib yozilishini ta'minlash uchun ayrim chiziqlar o'z harakati bo'yicha orqaga qaytadi, bu narsa, ayniqsa, cho'zinchoq doira shaklidagi harflarda uchraydi, chunonchi sha, ma, na, lo kabi bo'g'inlar shunday yoziladi:

Bunday qo'shib yozishni ayrim bot harflarda ham uchratish mumkin. Masalan, K bosh harfining yozilishini ko'raylik:

Ko'pchilik bosh harflar kichik harflar bilan qo'l harakatni uzmay, ulab yoziladi. O'quvchilarga harflarni bir-biriga ulab yozish qaytarish namuna sifatida quyidagi tartibda tushuntirish mumkin:

- Bolalar, qarang. Men kichik 1 harfini kichik o harfiga qo'shib yozishni ko'rsataman. Siz mening qo'limning harakatiga qarab turing.

- Kichk d harfining ikkinchi elementini yuqoriga olib chiqib, salgina pastga burib, yana orqaga qaytamiz va kichik o harfini hosil qilamiz.

- Qani, o'quvchilar, kim ko'rsatadi, bu ikkala harfni men qanday qilib qo'shib yozdim?

Bir o'quvchi doskaga chiqib, o'qituvchi yozgan harflar ustidan qo'lni yurgizib ko'rsatadi, qolgan o'quvchilar esa diqqat bilan qarab turadilar. Agar o'quvchi yanglishib qolsa, boshqa o'quvchini chiqarib uning yo'l qo'yogan xatosi tuzatiladi.

- Qani endi bolalar, bu harflarning qo'shilishi harakatini havoda hammamiz birga qaytaramiz. Hammangiz ruchkangizni oling, boshladik (o'qituvchining o'zi ham bir qaytaradi).

O'quvchilar doskadagi d va o harflarining yozilishiga qarab havoda harakat bajaradilar.

- Endi bolalar bu harflarni daftaringizga ko'chirib yozing. Bir qator ko'chirib yozganingizdan so'ng o'zingizni tekshirib ko'ring. Agar

yozayotganingizda qo'l harakati uzilmagan bo'lsa, demak to'g'ri yozayapsiz.

- Endi bu ikkala harfni qo'shib, bir necha qator yozamiz.

O'qituvchi sinfni aylanib chiqib, noto'g'ri yozayotgan o'quvchilarga yordam berishi lozim. Boshqa harf va so'zlarni qo'shib yozishda ham shunday yo'l bilan tushuntirish zarur.

Birinchi sinfda o'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab o'quvchilar 4-5 harfdan tashkil topgan so'zlarni qo'l harakatini uzmasdan yoza

oladilar. Ikkinchi sinfdan boshlab esa har qanday murakkab so'zlarni ham bog'lab yozishlari lozim. Ammo ayrim harflar esa qo'l harakatini uzib yozishni talab etadi. Masalan, kichik b harfi o'zidan keyingi harflar bilan bog'lanishda qo'l harakatini uzib yozishni talab etadi. Kichik o harfi ham kichik 1, m, ya harflari bilan bog'lanishda qo'l xarakatini uzib yozishni talab etadi. Bunday harflarning bog'lanishiga o'qituvchi alohida e'tibor berishi kerak. Masalan, o'qituvchi doskada shu harflarning bog'lanishiga xos bo'lgan lola, bobo so'zlarini yozib ko'rsatishi mumkin:

Bu harflarning bog'lanishini quyidagi tartibda tushuntirish lozim.

-Qani bolalar, diqqat bilan qarang, bu so'zlarni yozishda qo'l harakatni qayerlarda uzib yozdim?

- Siz kichik o harfidan keyin va kichik b harfidan keyin qo'l harakatini uzib yozdingiz.

- Birinchi o harfidan keyin va qaysi b harfidan keyin qo'l harakatini uzib yozdim?

- Birinchi 1 harfidan na bobo so'zidagi ikkala b harfidan keyin qo'l harakatini uzib yozdingiz.

- To'g'ri, Agar kichik o harfi boshqa harflar bilan yuqori tomondan ulansa qo'l harakati uzilmaydi, past tomondan ulansa, unda qo'l harakatini uzib yozish kerak kichik b harfi ham o'zidan keyin yoziladigan har qanday harf bilan bog'lanishida qo'l harakatini uzib yozishni talab etadi. Yozma harflarda boshqa bunday qo'l harakatini uzib yozishni talab etadigan harflar uchramaydi.

Dastlabki vaqtlarda bog'lab yozilgan harflar ko'zga uncha tashlanmaydi, go'yo ular chalkashib ketayotganga o'xshaydi, ammo asta-sekin ularni to'g'ri bog'lab yozish ishning unumli bo'lishiga yordam beradi. Qo'l harakatini uzmasdan harflarni bog'lab yozish qiyalikni bir hilda saqlashga ham imkon beradi.

Qo'l harakatini uzmasdan harflarni bir-biriga qo'shib yozish qoidalarini har bir sinfda eslatib turish lozim, shundagina boshlang'ich sifnlarda tez yozish malakasini o'stirish mumkin.

**Harf va so'zlarni qatorlarga to'g'ri joylashtirish.**

Yozuvga o'rgatishning dastlabki kunlaridan boshlab harf va so'zlarni qatorlarga to'g'ri joylashtirishga alohida e'tibor berish lozim. Ularga birinchi tayyorgarlik mashqlaridan boshlab (tayoqcha yoki nuqtalarning orasidagi) masofalarni teng saqlashga o'rgatiladi.

Agar o'quvchilar tayoqchalar orasidagi masofani tor qilib qo'ysalar, ularga kengroq qilib yozish tushuntiriladi, aksincha, ular orasidagi masofa haddan tashqari olis bo'lsa, o'qituvchi yaqinroq yozishni o'rgatishi lozim.

Ba'zi bir o'quvchilar to'g'ri tushuntirish uchun so'zlar orasidagi masofani ruchkani yo'g'onligiga teng qilib olish mumkin, degan ko'rsatmalarni beradilar. Bunday tushuncha noto'g'ridir, chunki o'quvchilarning ruchkalari har xil bo'lishi mumkin. Undan tashqari, ruchkani daftar ustiga qo'yib o'lchash ham yozuv qoidalariga ziddir.

Soddalashtirilgan harflar bilan yozuvga o'rgatishning asosiy maqsadi o'quvchilarning chamalash qobiliyatini o'stirish va masofaning mustaqil ravishda aniqlashga o'rgatishdir.

O'quvchilarni chamalashga bir qatorda joylashgan harflarning soni bilan ham o'rgatish mumkin. Masalan, bir qatorga kichik i harfidan 10 ta joylashtrish mumkin, undan kam bo'Isa harflar orasidagi masofalar keng. Ko'p bo'lsa tor bo'lib qolishi mumkin. Ammo bunday chamalash mashqlarini faqat 1-sinfda o'tkazish mumkin. 2-4 sifnlarda esa yozuvning yirik va maydaligiga qarab harflar bir qatorga oz yoki ko'p joylashishi mumkin.

**Harflarning qiyaligini to'g'ri saqlash**.

Bolalarning yozuvlari har xil qiyalikda bo'lishi mumkin. Agar harflarning asosiy elementlari daftar chizig'iga nisbatan tik holatda (perpendikulyar) qo'yilsa, yozuvning holati ham tik bo'ladi. Harf elementlari o'ng tomonga qiya bo'lib, o'tmas burchak hosil qilishi ham mumkin. Biz o'quvchilarni o'ng tomonga qiya qilib yozishga odatlantirishimiz lozim.

Tik yozuv (noto'g'ri)

Chap tomonga qiya yozuv (noto'g'ri)

O'ng tomonga qiya yozuv (to'g'ri)

O'ng qo'l bilan yozadigan kishilar uchun yozuvning qiyaligi o'ng tomonga moslashtirilishi faqat harflarning shaklini chiroyli qilish uchun emas, yozuvning qulayligi uchun mos keladi. Yozuvning qiyaligini to'g'ri saqlash, qo'l va barmoqlarni ortiqcha zo'riqtirmaydi.

Yozuvning o'ng tomonga qiyaligini saqlash tirsaklarni bir tomonga yaqin yurishi uchun qulay bo'lib, parta ustidagi daftarning to'g'ri holatiga bog'liqdir.

Yozayotganda daftarning holati bir tomonga qiya bo'lishi o'z-o'zidan yozuvning qiyaligini ta'minlaydi.

Yozuvning qiyaligini saqlashda daftardagi siyrak qiya chiziqlar ham katta yordam beradi. Bunday mashq qilishda daftarning holati o'zgarsa ham, yozuvning qiyaligi o'zgarmasligi mumkin. Shuning uchun qiya chiziqli daftarlardan faqat

dastlabki mashqlarni bajarishda foydalaniladi. Qiya shaklda yozishga o'rgatishning o'ziga xos usullari mavjud.

O'quvchilarga dastlab eng sodda shakldagi kichik tayoqchalarni yozdirib mashq qildirish vaqtidayoq tik va qiya tayoqchalarning farqini o'rgatish lozim. Bunday mashqlar o'quvchilarning ongida uzoq vaqt saqlanadi va xatolarning oldini oladi.

Shuningdek yozuvning to'g'ri bo'lishi uchun daftarning qiya holatini ham hisobga olish lozim ekanligi tushuntiriladi. Daftarning parta ustida noto'g'ri turishi gigiyena qoidalarining buzilishiga ham

sabab bo'ladi, chunki o'quvchi yozuvning qiyaligini saqlash uchun o'z gavdasini har xil holatda tutishi mumkin.

Daftarning pastki chap bo'rchagi ko'krak o'rtasiga to'g'ri bo'lishi yoki daftarning qiya chizig'i (agar qiya chiziqli daftar bo'lsa) partaning chetiga tik bo'lishi kerak.

Daftarning beti satrlarga to'lib borgan sari yuqoriga surib boriladi. Chap qo'l bilan esa daftarning yuqori tomoni bosib turiladi. Buning uchun sinf partasining ustiga ikki o'quvchining har biri uchun alohida ingichka qiya tekshiruv chizib qo'yiladi. Bu chiziqning uchi o'quvchilarning chap ko'kraklarini o'rtasiga to'g'ri bo'lib, partaning old qirrasiga nisbatan 65 gradus qiya bo'ladi.

Agar daftarning chap beti to'lsa, daftarning buklangan joyi tekshiruv chiziqqa to'g'rilab olinadi va o'ng betiga yozishga o'tiladi.

O'quvchilarda harflarni qiya yozishga o'rgatish malakasini oshirish ancha murakkab jarayon bo'lib, o'qituvchidan sabr-matonat, katta kuch talab etiladi. O'qituvchi sistemali ravishda turli mashqlar olib borishi, ularning harakatlarini qunt bilan kuzatib borishi lozim. Faqat uzoq muddatli mashqlardan so'ng ko'zda tutilgan maqsadga erishish mumkin.

O'qituvchi tomonidan berilgan barcha ko'rsatmalarga qaramay, ayrim o'quvchilar harflarni har xil qiyalikda noto'g'ri yozadilar. Masalan, kichik b harfini o'ng tomonga qiya qilib yozsalar kichik d harfini chap tomonga haddan ziyod o'girib yozadidlar:

Har ikki tomon yuqorida ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarni tuzatish uchun o'quvchilarga o'z xatolarini topishga yordam beradigan grafik mashqlar berilishi kerak. O'quvchilarga dastlab bir-ikkita harf yozdirilib, ular orasiga qiya chiziqlar qo'yiladi va to'g'ri chiziqchalarga taqqoslash orqali o'quvchilar o'z xatolarini tushunadilar hamda uni tuzatishga kirishadilar.

## Harflarni bir xil balandlikda yozish.

Matndagi harflarning bir xil balandlikda yozilishi chiroyli yozuvga o'rgatishning asosiy shartlaridan biridir. Yozuvda harflarni bir xil balandlikda saqlash ancha qiyin bo'lib, o'quvchi barcha imloga oid malakalarini egallay olmaydi. Shuning uchun 1-sinfdan boshlab siyrak qiya ikki chiziqli daftarga yozdirib mashq

qildiriladi, so'ngra siyrak qiya chiziqsiz daftarga va 2-sinfning ikkinchi yarmidan boshlab bir chiziqli daftarga yozdirib mashq qildiriladi.

Birinchi sinf da kichik harflarni 4 mm balandlikda (bu o'lcham daftarning kichik harflar yoziladigan qatorlar orasiga teng) yozdirib mashq qildiriladi, bosh harflar esa kichik harflarga nisbatan ikki barobar katta qilib yozdiriladi.

Birinchi sinfning oxirlari va 2-sinfdan boshlab ayrim o'quvchilarda yozuvning maydalashib, qatorlar orasidan pastga tushib borishini
ko'rish mumkin. Bu yozuv tezligini oshib borayotganligidan dalolat beradi.

Bir chiziqli daftarga mashq qilishdan oldin, o'qituvchi doskada harflarni bir tekis, ravon yozish qoidalarini mukammal tushuntiradi. Chunki bir chiziqli daftarda harflarning balandligini belgilab turuvchi tekshiruv chiziq nuqta, endi o'quvchi ularni chamalab yozishga o'rganishi lozim.

Masalan, bir chiziqli daftarni teng uch qismga bo'lib, uchdan bir qismida kichik harflarni, uchdan ikki qismida esa bosh harflarni yozish lozim:
Kichik va bosh harflar alohida-alohida mashq qildiriladi.

Bir chiziqli daftarga chamalab yozish ancha murakkab, shuning uchun o'qituvchi dastlabki davrlarda o'quvchilarni diqqat bilan kuzatib borishi zarur.

Yozuvdagi kamchiliklar ayniqsa, 3-4-sifnlarda ko'proq uchraydi, chunki bu davrda o'quvchilarda kattalarga xos bo'lgan alohida yozuv shakllana boradi. Bu davrdagi yozuvning shakllanishiga alohida ahamiyat berib borish kerak.

**Harf va so'zlar orasidagi masofani chamalab yozish.**

Chiroyli yozuvga o'rgatishda harflarning balandligini bir hilda saqlash qanchalik zarur bo'lsa, harflar va so'zlar orasidagi masofani to'g'ri chamalab yozish ham katta rol o'ynaydi.

Alfavitdagi ayrim harflar keng, ayrimlari esa tor yoziladi. So'z va gaplarni yozishda esa ana shu farqni yaxshi ajrata bilish lozim.

Harflar va harf elementlari orasidagi masofani chamalab yozishga alifbe davridan boshlab o'rgatish, keyinchalik esa buni sistemali ravishda tekshirib borish zarur.

Gaplarni yozishda so'zlar orasidagi masofa bir harf enida bo'lishi kerak. Harf elementlari va ular orasidagi masofani chamalab yozishga o'rgatish uchun quyidagi vazifalar bajariladi:

1. O'quvchilarga xusnixat kitobidagi namunaga qarab yozdirib, ularni tahlil qilish.
2. Xusnixat kitobidan harf va ularning elementlari orasidagi masofani chamalab yozishga mashq va topshiriqni ko'chirib yozish.
3. O'quvchilarning ishlarini kuzatib chiqib, qaysi o'quvchi tor, keng, qaysisi pala-partish yozganini aniqlash.

Shundan so'ng 3-4 ta daftarni yig'ib olib, kamligi birgalikda tahlil qilinadi.

Harf va so'zlar orasidagi masofani chamalab yozishga o'rgatish birinchi sinfda butun o'quv yili davomida sistemali olib borilishi, ikkinchi va

undan keyingi sinflarda ham bu malakalarni egallash davom ettirilishi kerak.

**Tez va ravon yozishga o'rgatish.**

Harflarni bir hil balandlikda va kenglikda yozishga o'rgatish bilan birga, tez va ravon, tekis qilib yozish chiroyli yozuvning muhim shartlaridan biridir.

Chiroyli va tez yozishning assoiy siri uning bir xil o'lchamdagi ravon harakatidir.

Bir maromda harakat qilib yozish, har bir harf va uning elementlari bir xil balandlikda va qiyalikda bo'lish alohida go'zallik kashf etadi.

Ammo o'quvchilar bunday malakalarga tezda erisha olmaydilar. Yozuvning ravon bo'lishi, uning tezligi bilan bog'liqdir.

Masalan, endigina yozuv mashqini boshlagan olti yoshli o'quvchi bir minutda 4-6 harfni yozishi mumkin. Bu davrda tez yozish malakasini sanoq-ohang usulida olib borilsa, tezlik yanada bir maromda davom etishi mumkin. Yozuvning tezligini oshirib borishda bolalarning qo'l harakati bir maromda bo'lishga alohida e'tibor berish. Barmoqlarning charchab qolishiga yo'q qo'ymaslik kerak. Agar o'quvchilarni charchatib qo'ymasdan sanoq-ohang usulida asta-sekin yozuv tezligini oshirib borilsa, u bolalarda katta qiziqish uyg'otib, yaxshi samaralar berishi mumkin.

Yozuvning tezligi o'quvchining imloni qay darajada bilishiga bog'liqdir, agar o'quvchi so'zlarni yaxshi o'qisa, xatolarga yo'l qo'ymasa, tez va to'g'ri yozadi.

Yozuvning tezligi bola yuqori sinfga ko'chgan sari orta boradi. Agar 6 yoshli o'quvchi o'quv yilining oxiriga kelib 7-9 har yoza oladi. 2-sinf o'quvchisi o'quv yilining oxirida 23-25 harf yozishi, 3-sinf o'quvchisi o'quv yilining oxirida 32-35 harf, 4-sinf o'quvchisi esa minutiga 40-45 harfni yozishi mumkin.

Yozma ishlarning turli shakllarda (ko'chirib yozish, aytib turib yozdirish bilan yoki yoddan yozish) bu tezlik bir oz ortiq va kamroq bo'lishi mumikin.

Yozuv tezligining oshirishning yana bir imkoniyati ko'proq qo'l harakatiga bog'liqdir. Buning uchun qal barmoq muskullarining harakatini o'stiruvchi hamda tez va ravon yozishga o'rgatadigan turli mashqlarni bajartirish kerak.

Masalan, maktabga ilk bor qadam qo'ygan o'quvchilar uchun quyidagi o'xshash shakllarni chizdirib yoki havoda mashq qildirish mumkin.

1. Dam olmasdan va qo'l harakatini uzmasdan o'ngdan chapga, chapdan o'nggga qildirish:

Bulardan tashaqari, har bir harf elementlarini mashq qildirish uchun shu elementga mos mashqlar tanlab yozdirish mumkin. 1-2 sinf o'quvchilariga esa quyidagi mashqlar beriladi:1. Soat strelkasi bo'yicha barmoq va panja muskullarini o'stiruvchi mashqlar: 2. Barmoq muskullarining harakatini o'stirish uchun yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga harakat qildirish.

2. Tugunchakdagi ipni chuvalatib yozish va so'rash shakllari.

3. Barmoq va qo'l muskularini o'stiruvchilar:

Bunday mashqlar qo'l harakatini uzmay yoziladigan harflarni mashq qilish uchun yordam beradi.

4. Soat strelkasi bo'yicha va unga qarshi barmoq va qal muskullarini o'stiruvchi mashqlar:

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan mashqlardan o'z o'rnida unumli foydalanilsa, yaxshi natijalar beradi.

**I-IV sifnlarda chiroyli yozuvga o'rgatish.**

Boshlang'ich sinf dastur talabiga ko'ra 1-sinfning IV choragida yozuv darslari uchun 24 soat vaqt berilgan bo'lib, undan haftada 1 soatni chiroyli yozuv uchun ajratilgan.

Bu davrda o'qituvchi yozuv malakalarini yanada takomillashtrish, yozuv gigiyenasi qoidalriga rioya qilish hamda harflarning shakli va ularning bog'lanishi, qo'l harakatini uzmasdan yozish, so'z, bo'g'in va so'zlarning ravonligiga e'tibor berishi lozim.

2-sinfda chiroyli yozuv uchun haftada 1 soat vaqt ajratilib, yiliga 34-35 soatni tashkil etadi.

Bu davrda o'quvchilardan ruchkani to'g'ri ushlash, daftarning holatini to'g'ri tutish, to'g'ri o'tirish kabi gigiyenik qoidalar talab etiladi. Shuning harflarning sodda va murakkabligiga qarab gruppalarga bo'lib yozdiriladi. Ayrim bo'g'in va sodda so'zlar qo'l harakatini uzmasdan bog'lab yozdiriladi.

3-sinfda husnixat mashqlari ona tili darslari bilan har kuni (8-10 minut) qo'shib olib boriladi.

Bu davrda yozilishi va bog'lanishi murakkab bo'lgan kichik va bosh harflarning yozish qoidalari mashq qildiriladi. Ayniqsa bu davrda bog'lanishi murakkab bo'lgan so'z va gaplarni ravon yozish ustida ko'proq mashqlar o'tkaziladi.

4-sinfda ham chiroyli yozuv mashqlari ona tili darslari bilan har kuni (8-10 minut) qo'shib olib boriladi.

Bu davrda harflarni qoida bo'yicha to'g'ri yozish malakalari mustahkamlanadi. So'z va gaplarda bog'lanishli harflarni topib tahlil qilinadi hamda ravon va tez yozish malakalari rivojlantirilib o'quvchilarning yozuvlarda uchraydigan tipik xatolar ustida mashq qildiriladi.

## 7-MAVZU: BIRINCHI SINF O'QUVCHILARINI CHIROYLI YOZUVGA O'RGATISH.

**REJA:**

1. Dastlabki tayyorgarlik mashqlarining tashkil etilishi
2. Alifbegacha va alifbe davrlarida yozuv darslarini tashkil etish.
3. Alifbedan keyingi davrda chiroyli yozuv darsini tashkil etish.

4. Tinish belgilarining yozilishi.
5. Matematik raqamlarning yozilishi.

**Tayanch so'zlar:**

Dastlabki tushuntirish ishlarini olib borish, birinchi va ikkinchi gruppa mashqlari, tayoqchalar va ilmoqchalrning yozilishi. Alifbe davrida harflarning yozilishini o'rgatish kichik va bosh harflar. Alifbedan keyingi davrda harflarning bir- biriga qo'shib yozilishini o'rgatish. Tinish belgilarining yozilishi. Matematik raqamlarning yozilishi.

**ADABIYOTLAR.**


1. G'ulomov M. "Boshk lg'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatish" T.1970
2. G'ulomov M./'Chiroyli yozuvni shakllantirish" T. 1992 3.G'apporovavaboshq. "Alifbe" T. 1999

8. G'apporova va boshq. "1-2 yozuv daftari" T. "O'qituvchi" 1999

6.Husnixat daftari. 1 -sinf uchun.T-1999

7.Husnixat daftari.2-sinfuchun.T-1999

8.Husnixat daftari.3-sinf uchun.T-1999

9. Abdullayev Y. "Hamrohim" T. 1997


Birinchi sinfda yozuv mashqlarini tashkil etish bir muncha murakkab bo'lib, u bir necha davrlarga bo'linadi va bir necha xil vazifalami o'z ichiga oladi. Bolalar o'qituvchining so'zini tinglaydilar doskaga yozgan harf va so'zlarni ko'rib boradilar, ayrim matnlarni ko'chirib yozadilar, so'z va bo'g'inlarni tahlil qiladilar nuqtalar bilan ifodalangan harflarning ustidan bo'yaydilar.

Ayrim vaqtlarda o'qituvchi o'quvchilarni yozdirishga boshlashdan oldin to'g'ri o'tirish qoidalarini tushuntirib beradi, ammo dars o'rtalariga borib bu narsa

ularning esidan chiqib qoladi, shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarga to'g'ri o'tirish qoidalarini eslatib turishi kerak.

**Tayyorgarlik mashqlarini tashkil etish.**

Birinchi sinf o'quvchilari bilan tayyorgarlik mashqlarini to'g'ri olib boorish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak:

1. Partada to'g'ri o'tirishga, ruchkani to'g'ri ushlashga va daftarning holatini to'g'ri tuitishga o'rgatish;
2. O'quvchilarning husnixatga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish;
3. Bolalarning taqqoslash va chamalash qobiliyatlarini o'stiruvchi mashqlarni bajarish;
4. Qo'l va barmoq muskullarining harakatini o'stirish;

Tayyorgarlik mashqlarini bajarish uchun o'quvchilami qora va rangli qalamlar, flomaster hamda yozuv daftari ta'minlash lozim. Birinchi gruppa mashqlari. **Darsning maqsadi:**

O'quvchilami daftarning chiziqlari bilan tanishtirish va nuqtalami ko'z bilan chamalashga o'rgatish. **Birinchi vazifa.**

O'quvchilarga bir xil masofada nuqtalar qo'yishga o'rgatish. **Ikkinchi vazifa.**

O'quvchilarga "Baravar masofa", "Yaqin", "Uzoq" kabi tushunchalami berish.

Ikkinchi gruppa mashqlari. **Darsning maqsadi:**

Chiziqlarni qiya shaklida yozilishini ko'rsatish hamda chiziqlar orasidagi masofani to'g'ri topishga o'rgatish. **Vazifa.**

Kichik harflar yoziladigan chiziqlar orasida qiya tayoqchalarni yozdirib mashq qildirish.

O'qituvchi bu mashqni doskada namuna qilib ko'rsatib beradi. O'quvchilar esa qizil qalamda qiya tayoqchalarni chizadilar. O'quvchilar bir qator yozib bo'lganlaridan so'ng tekshirib chiqiladi va tahlil qilinadi. Agar nuqtalar barovar masofada bo'lsa o'quvchi vazifani to'g'ri bajargan, barovar masofada bo'lmasa, xatoga yo'l qo'ygan bo'ladi.

O'quvchilar alifbega -tayyorgarlik davrida ayrim mashqlami bajargan bo'lishlariga qaramay, o'qituvchi navbatdagi darsni quyidagi darsni e'lon qilishi bilan birga yozuv qurollarini qayta tekshirib chiqishi lozim.

1. Barmoq va qo'l muskullarining harakatin I o'stiruvchi gimnastika mashqlarini o'tkazish.
2. Doskada mashqni yozib ko'rsatish va asosiy diqqatni qayerga jalb etishni tushuntirish.
3. Yozuv daftarlaridan foydalanish va yozishni qayerdan boshlashni tushuntirish.
4. Partada to'g'ri o'tirish, ruchkani to'g'ri ushlash, daftarni to'g'ri tutish qoidalarini eslatib o'tish.
5. Har bir qatorga nechta harf yozishni tushuntirish, o'quvchilarning yozuvini muntazam kuzatib borish.

6. Ishning birinchi qismi tugagandan so'ng o'quvchilarning yozuvlarini doskada

namuna bilan solishtirib yo'l qo'ygan xatolarini topishga o'rgatish.

7. Topshiriqni qayta tushuntirish orqali o'quvchilardagi kamchiliklarni yo'qotish.

8. Jismoniy mashq daqiqalarini o'tkazish.

9. Ko'z bilan daftar orasidagi masofani to'g'ri saqlashga o'rgatish.

10. Har bir mashqni bajarishda uni tahlil qilish zarur bo'lsa qo'shimcha ko'rsatmalar berish.

Alifbe davrida o'quvchilar nutq tovushlari bilan amaliy tanishadilar, so'z tuzishga, so'z va gaplarni o'qishga hamda ayrim elementlar harflar ishtirokida so'z va gaplarni yozishga o'rganadilar. Alifbe davrida bajariladigan asosiy grafik ishlar quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

1. Kichik va bosh harflarni alifbe tartibida yozish.
2. Bo'g'in va so'zlarda harflarni qo'shib yozish.
3. Qo'l harakatini uzmay yozishga o'rgatish.
4. Harflaming qiyaligini va enini to'g'ri saqlashga o'rgatish.

O'qituvchilar ayrim harflaming elementini noto'g'ri yozayotgan o'quvchilarga shu elementni to'g'ri yozilishini ko'rsatib berishi lozim. Bu davrda o'quvchilarda harflarni to'liq yozmaslik yoki almashtirish yozish kabi xatolami aniqlash mumkin.

**Alifbedan keyingi davrda chiroyli yozuv darslarini tashkil etish.**

Yuqoriga ko'rdatib o'tilganidek, o'quv yilining IV choragidan boshlab haftada bir marta husnixat uchun alohida dars soati ajratiladi. Bu davr bolalarning yozuv malakalari shakllanishida muhim rol o'ynaydi, chunki husnnixat mashqlari ona tili darslari bilan bir vaqtda olib boriladi.

Ammo alifbedan keyingi davrda yozuvga o'rgatish sharoiti biroz o'zgaradi chunki, o'quvchilar endi yozuv daftariga emas balki oddiy ikki chiziqli daftarga yozib mashq qiladilar. Ular endi ko'proq o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan yozuvga tayanadilar.

Bu davrda chiroyli yozuv darslarining rejasini quyidagicha tuzish mumkin:

**Birinchi dars.** Kichik va katta I E, Sh, sh, L,l ,M, m harflarini taqqoslab yozish, shu harflar ishtirokida so'z va bo'g'inlarini yozish.

**Ikkinchi dars.** Kichik k, q, ch, v va katta K, Ch harf larini yozib mashq qilish.

**Uchinchi dars.** Kichik p, v, r, t va P, V, R, T harflarini yozib mashq qilish.

Bu davrda chiroyli yozuv darslarining mazmuni savod o'rgatish davridagiga nisbatan yozuv malakarini yanada kuchliroq shakllantirib borishga qaratiladi. Ammo 6- 7 yoshli bolalarning qo'l va barmoq muskullarini charchatib qo'ymaslik kerak. Shuning uchun har bir yozuv darsida 2- 3 marta jismoniy mashq minutlari o'tkazilishi lozim. Mashqlar o'tirgan va turgan holatda yoki muzika sadolari ostida o'tkazilishi ham mumkin. Bunday mashqlar o'quvchilarning kayfiyatini ko'taradi hamda ishlash qobiliyatini tiklaydi.

## Tinish belgilarini yozilishi.

1. Nuqta (.) yozma va bosma matnlarda daftar chizig'ining ustiga dumaloq shaklida qo'yiladi:

***to'g'ri va chiroyli yozing.***

2. So'roq (?) belgisi yarim doira shaklida yozilib, pastga qarab to'g'ri chiziq shaklida tushadi. To'g'ri chiziqning tagidagi nuqta daftar chizig'ining ustiga qo'yiladi:

***Sen bugun qanday kitob o'qiding?***

3. Undov (!) belgisi to'g'ri tayoqcha va nuqtadan iborat bo'lib, to'g'ri tayoqchaning tagidagi nuqta daftar chizig'ining ustiga qo'yiladi:

***Chiroyli yozuv qoidalariga rioya qiling!***

4. Ko'p nuqta (...) daftar chizig'ining ustiga qo'yiladi. Ko'p nuqta so'roq va undov belgisidan keyin qo'yilishi kerak bo'lsa, so'roq yoki undov belgisidan keyin faqat ikkita nuqta qo'yiladi.

***Biz kanallar qazidik… Yangi yerlar ochdik!..***

5. Vergul (,) nuqta bilan boshlanib, uning nuqtasi daftar chizig'ining ustida kichik chiziqchasi esa chiziqdan pastga tushadi.

***Akmal, bugun qayerga borasan?***

〉

6. Nuqtali vergulning (;) nuqtasi chiziqning yuqorisiga qo'yiladi.

***Ular uchta edi; Undan bundan gaplashib o'tirishar edi.***

7. Tire (-) tinish belgisi chiziqchadan uzunligi bilan farq qiladi va daftar chizig'ining biroz yuqorisiga qo'yiladi:

***Toshkent-O’zbekistonning poytaxti.***

8. Defis (-) tirening uchdan bir qismicha bo'lishi kerak:

*Qanoti yo'q, uchadi,*

*Dala-qirni quchadi.*

9. Qo'sh tirnoq ("") qo'shaloq vergulga o'xshab ochiladi va yopiladi.

***(Biz "Furqat"ko'chasidayashaymiz.***

**Matematik raqamlarni yozish.**

Matematika darslarida beriladigan topshiriq va masalalarda raqamlarni to'g'ri va chiroyli yozishga o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Matematika daftarida yozuv mashqlari bajarishda o'qituvchi bolalarda charchash alomatlari sezilishi bilanoq barmoq muskuUarini o'stiruvchi jismoniy mashqlarni bajartirishi lozim.

Kichik yoshdagi bolalarning barmoq va qo'l muskullari yaxshi rivojlanmaganligini hisobga olib, oddiy katak daftarga *[5^5* mm) yozdirish mumkin emas, shuning uchun olti yoshli birinchi sinf o'quvchilari uchun chiqarilgan «matematika daftari»dan foydalaniladi. Bu daftarda kataklar 1,5 marta katta, ya'ni 7x7 mm o'lchamda berilgan. Bunday kataklar ichida raqamlarni yozishga urinish va boshqa matematik yozuvlarni bajarish ancha oson.

O'quvchilarni rim raqamlarini yozishga o'rgatish jarayonida qo'llangan maqsadga erishish uchun yozuv mashqlarini to'g'ri tashkil qilish va uning uslublaridan to'g'ri foydalanish asosiy omillardan biridir. Bolalar raqamlarni to'g'ri yozishga o'rgatishda mustaqil va amaliy ishlarga ham alohida e'tibor berish lozim. Chunki o'quvchilar harflarni bo'yash, kataklarga joylashtirish orqali ham malakalarini egallashga o'rgandilar.

Yozuv mashqlariga o'xshash matematik raqamlarni yozish uchun ham qator tayyorgarlik mashqlarini o'tkazish lozim. Bunda o'qituvchi har bir raqam katak ichida qanday joylashishni, qanday elementlardan iborat ekanligini, yozilish harakatini doskada ko'rsatib berishi, har bir raqam katak ichida to'ldirib yozilishi va qiyaliklarini hisobga oladi.

Har bir katak tik va ko'ndalang chiziqlarning kesishidan hosil bo'ladi. Bolalarga ham tik va ko'ndalang chiziqlar mavjudligini aytib ayrim elementlarni yozishda «tik» va «ko'ndalang» chiziqlarga e'tibo berishlari eslatib turiladi.

Matematika daftariga raqamlarni yozishdan maqsadga muvofiqdii

Bu mashqlar bolalarning qo'l harakatini o'stirish bilan birge ularni kataklar orasini chamalab yozishga o'rgatadi.

Bolalar bilan tayyorgarlik mashqlarni o'tkazish vaqtic kataklarning «o'ng» va «chap» tomonlari «pastki», «ustki «ko'ngdalang» chiziqlar «tik» chiziqlar haqida ham tushunchalar ber boriladi.

Bolalar bilan kataklarni teng bo'laklarga bo'lish, kataklarnii o'rtasini topish uchun quyidagicha mashqarni o'tkazish lozim.

Bu mashqlar bolalarga ayirish, qo'shish, tenglik belgilarini to'c yozishga yordam beradi.

Tayyorgarlik mashqlari tugagandan so'ng o'quvchilarni raqan yozishga o'rgatadi.

Raqamlarni to'g'ri yozish uchun quyidagi talablarga amal qi] kerak:

1. Hamma raqamlar kataklar ichida to'ldirilib, bir tomonga qiya qilib yoziladi.
2. Raqamlarning eng balandligini 2-3 qismida yoziladi.
3. Har bir raqamni yozdirishdan oldin u qanday elementlardan tuzilganligini va yozilish harakatlarini doskada amaliy ko'rsatib beriladi.
4. Namuna tarzida yozib ko'rsatilayotgan raqam doskada katta hajmda bo'lib, xar bir o'quvchiga ko'rinib turishi lozim.
5. O'quvchilar o'qituvchining ko'rsatmasi asosida havoda mashq qilganlaridan so'ng yozishga ruxsat etiladi.

6. O'quvchilarning yozgan raqamlari o'qituvi muntazam kuzatib, tegishli yordam berib borishi zarur.

Ayrim yosh o'qituvchilar raqamlarni yozish qoidalarini o'zlari ham bilmasliklari mumkin, shuning uchun biz quyida raqamlarni qanday yozilish qoidalarini ko'rsatib o'tamiz.

1-raqami ikki tayoqchadan iborat bo'lib, uzun tayoqcha daftar katagining yuqori bo'rchagidan pastki ko'ndalang chiziqning o'rtasigacha qiya qilib tushiriladi. Kichik tayoqcha bilan uzun tayoqcha qo'l harakatini uzmasdan bir butun shaklda yoziladi.

2-raqami yozuvdagi so'roq belgisiga o'xshash bo'lib, bir butun shaklda yoziladi, pastki to'lqinsimon chizig'i daftar pastki chizig'ining ustida joylashadi. Uni tuguncha yoki to'g'ri chiziq shaklida yozish mumkin emas.

3-raqami ikki elementdan, ustki va pastki yarim chiziqlar hamda doiralardan iborat bo'lib, qo'l harakati uzilmay bir-biriga bog'lab yoziladi. Ustki yarim cho'zinchoq doira elementi daftar chiziqlariga doiradan kichikroq yoziladi. Bu raqamni yozishda uning qiyaligiga e'tibor berish lozim.

4-raqami uch element tayoqchalardan iborat bo'lib, uchinchi tayoqchani yozishda qo'l harakati uziladi. Uning birinchi tayoqchasi daftar katagining yuqori chizig'i o'rtasidan boshlanib, bir tomonga qiya holatda katakning o'rtasidan bir oz pastroqda tushiriladi va o'ng tomonga qo'l harakatini uzmasdan ko'ndalang chiziq chiziladi.

5-raqami uch uch elementdan iborat bo'lib. birinchi kichik yarim yoy shaklidagi elementi yoziladi, so'ngra kchik tayoqcha va o'ng yarim doira shaklidagi elementlari qo'l harakatini uzmasdan bog'lab yoziladi.

6-raqami bir butun shaklda yohiladi, u chap yarim cho'zinchoq doiradan iborat.

7-raqami uch elementdan iborat bo'lib, kichik to'lqinsimon chiziq uzun to'g'ri tayoqcha va kichik ko'ngdalang chiziqdan iborat. Kichik ko'ndalang tayoqcha, uzun tayoqchaning teng o'rtasida bo'lishi shart.

8-raqami, kichik va katta cho'zinchoq doiralardan iborat bo'lib, bir butun shaklda qo'l harakatini uzmay yoziladi.

9-raqami kichik cho'zinchoq doira va o'ng yarim cho'zinchoq doiradan iborat bo'lib, bir butun shaklda yoziladi.

0- nol raqami o harfi shaklida yoziladi.

## 8-MAVZU: Ikkinchi sinfda chiroyli yozuv darslari.

**REJA:**

1. Ikkinchi sinf yozuv darslarining o'ziga xosligi.
2. Ikkinchi sinf yozuv darslarida olib boriladigan yozuv mashg'ulotlari.
3. Yozuv mashg'ulotlarining rejasi.

**Tayanch so'zlar:**

Dastlabki tushuntirish ishlarini olib borish, birinchi va ikkinchi gruppa mashqlari, tayoqchalar va ilmoqchalrning yozilishi. Alifbe davrida harflaming yozilishini o'rgatish kichik va bosh harflar. Alifbedan keyingi davrda harflaming bir- biriga qo'shib yozilishini o'rgatish. Tinish belgilarining yozilishi. Matematik raqamlarning yozilishi.

**ADABIYOTLAR.**


1. G'ulomov M. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatish" T.1970
2. G'ulomov M. "Chiroyli yozuvni shakllantirish" T. 1992
3. G'apporova va boshq. "Alifbe" T. 1999
4. G'apporova va boshq. "1- 2 yozuv daftari" T. "O'qituvchi" 1999
5. Husnixat daftari. 1 -sinf uchun.T-1999

6. Husnixat daftari.2-sinf uchun.T-1999

7. Husnixat daftari.3-sinf uchun.T-1999

8. Abdullayev Y. "Hamrohim" T. 1997

Bu sinfda chiroyli yozuv malakasi birinchi sinfga nisbatan ancha keng va chuqur o'rgatiladi. Shuning uchuin ham yil davomida husnixat darslari uchun 34 soat ajratiladi. Buning asosiy sababi o'quvchilarning birinchi sinfda chiroyli yozuvdan olgan bilim va malakalari yozgi ta'tilda yodlaridan chiqib ketadi, shuning uchun ham 2- sinf o'quv yilining boshida ona tili darslarida husnixat malakalari eslatib turilishi lozim.

Ikkinchi sinfda chiroyli yozuv darslarini tashkil etishda alfavitdagi barcha harflarni guruhlarga ajratib yozish talab etiladi.

Bu sinflarda badantarbiya daqilarini o'tkazish ta'lim tarbiya gigiyena talablarini bajarib bolalarning jismoniy jihatdan sog'lom o'sishiga, qaddi qomatining to'g'ri va erkin shakllanishiga yordam beradi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha qoidalarni o'qituvchi ko'ndalik dars jarayonida o'quvchilarga eslatib, ko'rsatib borishi lozim.

Matematika darslarida ham yozuvning sifat va samaradorligini oshirish uchun umumiy metodik, gigiyenik va kalligrafik talablar qo'yiladi. Maktab dasturida ko'rsatilganidek, bolaiarning har bir yozuvi toza, aniq va chiroyli bo'lishi kerak.

**Ikkinchi sinfda chiroyli yozuv darslarini tashkil etish.**

Bu sinfda chiroyli yozuv malakasi birinchi sinfga nisbatan ancha keng va chuqur o'rgatiladi. Shuning uchun ham yil davomida husnixat uchun 34 soat ajratiladi. Buning asosiy sababi, o'quvchilarning 1-sinfda chiroyli yozuvdan olgan bilim va malakalari yozgi ta'tilda ancha esdan chiqadi. Shu bilan birga, o'qishning birinchi kunidan boshlab ular ona tili darsligidan foydalanishga kirishadilar. Bu darslikda husnixat malakasini shakllantirish uchun hech qanday ko'rsatma berilmagan.

Ikkinchi sifnda chiroyli yozuv darslarini tashkil etishda alfavitdagi barcha harflarni guruhlarga ajratib yozish talab etiladi.

Shuningdek, ikkinchi sinfda chiroyli yozuv malakasini shakllantirish quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

1. Partada to'g'ri o'tirish, ruchkani to'g'ri ushlash, daftarni to'g'ri tutish.
2. O'quvchilarda chiroyli yozishga qiziqishni uyg'otish.
3. Husnixat darslarini sanoq-ohang usullari va jismoniy mashqlar bilan bog'lab olib borish.
4. O'quvchilarning chamalab yozish qobiliyatlarini o'stiruvchi mashqlarni bajartirish.
5. Qo'l va barmoq muskullari harakatini o'stiruvchi mashqlarni bajartirish.
6. Harflarni qo'l harakatini uzmasdan, bog'lab yozishga o'rgatish.
7. Kichik va bosh harflarni guruhlarga ajratib yozishga o'rgatish.
8. Xato yozilgan harflar ustida mashq o'tkazish.

9. Doskaga yozib mashq qilish.

Quyida biz ikkinchi sinfda o'tkaziladigan bir soatlik chiroyli yozuv darsining namunasini keltiramiz.

Mavzu. Kichik m harfini yozishga o'rgatish.

Maqsad. O'quvchilarni kichik m harfini to'g'ri va chiroyli yozishga o'rgatish.

Darsni jihozlash. «Yozish vaqtida to'g'ri o'tir!» nomli plakat, kichik m harfining yozilish qoidalari kattalashtirilib ko'rsatilgan jadvallar.

D a r s n i n g r y e j a s i :

1. Darsning tashkiliy qismi
2. Chiroyli yozuv qoidalari haqida suhbat
3. Panja va barmoq muskullarining harakatini o'stimvchi mashqlar.
4. Kichik m harfining elementlarini doskada yozib ko'rsatish.
5. Kichik m harfining yozma va bosma shakllarini taqqoslab ko'rsatish.
6. Harf laming shaklini daftarga yozdirish.
7. Badantarbiya o'tkazish.
8. Kichik m harfini qo'l harakatini uzmasdan bog'lab yozishga o'rgatish.
9. Kichik m harfining boshqa harflar bilan bog'lanishini mashq qilish.
10. Uyga vazifa berish
11. Yaxshi yozgan o'quvchilarning ishlarini ko'rsatish va

rag'batlantirish.

D a r s n i n g  b o r i s h i :

1. O'qituvchi o'quvchilarning darsga tayyorgarliklarini, har bir o'quvchining oldida daftar, avtoruchka borligini tekshirib, yozuv daftarlarini ham ko'rib chiqadi.

2. Sinfga osib qo'yilgan «Yozish vaqtida to'g'ri o'tir!» nomli plakatdan foydalanib, o'quvchilarning o'tirishlarini tekshirib chiqish, parta ustidagi qiya chiziqlarga daftarning holatini to'g'rilab olish.

3. O'quvchilarga barmoqlarning harakatlarini o'stiruvchi mashqlar bajartiriladi. Bunday mashqlarni partada o'tirgan holda bajartirish mumkin. Chunonchi, qo'llarimizni oldinga uzatib, barmoqlarimizni ochamiz, ikki deganda, barmoqlarimizni yopamiz. (Bu mashq 6-7 marta takrorlanadi).

4. Bugun kichik m harfini yozishni mashq qilamiz.

O'qituvchi doskada kichik m harfi kattalashtirilib chizilgan plakatdan foydlanib, uning elementlarini va qanday yozilishini tushuntirib beradi. Shundan so'ng m harfini doskaga yozib ko'rsatadi. O'quvchilar esa uning yozilishini diqqat bilan ko'zatadilar. O'qituvchi doskada harf elementlarini tushuntirish bilan birga, uning bir butun shaklda yozilishini ham eslatib o'tadi.

5. O'qituvchi bosma va yozma m harfini bir-biri bilan solishtirib ko'rsatadi. O'quvchilarga kichik m harfining bosma va yozma shakllarini bunday taqqoslab

ko'rsatishning ahamiyati katta, chunki ko'pchilik o'quvchilar ayrim harflarni kitobdagi bosma shakliga o'xshatib yozishga harakat qiladilar.

6. O'qituvchi m harfining birinchi elementini yana qayta doskada ko'rsatib beradi.

Shundan so'ng o'quvchilarga daftarlarida qizil siyoh bilan yozib ko'rsatilgan shu elemetni topib, uning davomidan yozish ko'rsatiladi.

7. CTquvchilarni komanda bilan turg'azib, oldin o'rgatilgan badantarbiya mashqlaridan 2-3 tasini bajartiradi. Bu mashqlar 2-3 daqiqadan oshmasligi kerak. Mashq tugagandan so ng yana yozuv mashqlari davom ettiriladi.

8. O'qituvchi doskada kichik m harfming elementlarga ajratmay, bir butun shaklda yozilishini ko'rsatib beradi. O'quvchilar o'qituvchining ko'rsatmasiga muvofiq yozishni davom ettiradilar.

9. Bolalarga kichik m harfming bir necha kichik harflar bilan bog'lanishi ko'rsatib berilgandan so'ng o'quvchilar o'z daftarlarida mashq qiladilar.

lO.Uyga vazifa. Daftarga ikki qator m harfini va shu harf bilan bog'langan so'zlarni yozib kelish topshiriladi. O'qituvchi uy vazifalarini bajarish vaqtida ham yozuv qoidalariga qaf iy amal qilish lozim ekanligini eslatib o'tadi. ll.Dars jarayonida toza va chiroyli yozgan o'quvchilarning daftarlari namuna qilib ko'rsatiladi, rag'batlantiriladi va shunday chiroyli toza yozish zarurligi uqtiriladi. Husnixat mashg'ulotlari yuqoriga ko'rsatilgani kabi uyushtirish chiroyli va to'g'ri yozish malakasini hosil qilish o'quv predmetlarini puxta o'zlashtirishga yordam

beradi. Endi esa 2- sinf o'quvchilari bilan yil davomida olib boriladigan mashg'ulotlar alohida ko'rib o'tamiz. 1- dars. Kichik i, u va katta I, U harflarini yozish. Kichik u harfini yozish uchun daftar chizig'idan pastga qarab kichik tayoqcha tushiramiz va uni pastki chiziqqa yetkazmay turib o'nga buramiz va yuqoriga qarab davom ettiramiz. Bu harf elementini qo'lharakatini uzmasdan qo'shib yozish ta'kidlanadi.

***u u u u u u u u u u u u u u u u***

***ikki, uzun, uzum, turna, tuxum***

***“Tulki bilan turna" etrtagi bolajonlar***

***tomonidan sevib o’qildi.***

2- Dars. Kichik p, t, g, r, g' harflarini yozish. Kichik p harfi ikki elementdan uzun tayoqcha va tagi ilmoqli tayoqchadan iborad bo'lib qo'l uzmasdan qo'shib yoziladi.

*p p p p p p p p p*

*Paxta, pilla, paxtakor, pazanda, arpa.*

*Azamat paxtakorlar bu yilgi davlat*

*rejasini bajarishdi.*

Kichik t harfi ikki elementdan tagi ilmoqli uzun tayoqcha va belbog' elementlardan tuzilgan bo'lib bir butun shaklda daftar chizig'ining ustida yoziladi.

***r r r r r r r r r r r r r***

***Rassom, Rahim, arra, marra, raqs.***

***Sahnada "Dilxiroj" raqsi ijro etildi.***

Kichik g harfi ikki elementdan ovalsimon shakl va tagi ilmoqli tayoqchadan iborad va bir butun shaklda yoziladi, gajaksimon tayoqchasi daftar chizig'ining pastiga tushadi.

*g g g g g g g g g g g g g*

*gazeta, gilos, gulzor, gilam, gazanda.*

*Gulshan gulzordan gullarni terdi.*

3- Dars. Kichik a, ya, yo, ye, yu va katta A, Ya, Yo, Ye, Yu harflarini yozish. Katta A harfi elementlarga ejratilmay bir butun shaklda yoziladi. Buning uchun daftar chizig'ining sal yuqorisiga ruchkaning uchini qo'yib (ammo nuqta hosil bo'lmasligi kerak), pastki chiziqqa yarim yoy shakliga tushiriladi uni harf qiyaligiga nisbatan ham yotiqroq qilib yuqoriga davom ettiriladi, hamda daftarning yuqori chizig'iga yetkazmay turib taxminan 1 mm masofada pastga 65 gradus qiyalikda to'g'ri tayoqcha element! tushuriladi va qo'l harakatini uzmay davom ettiriladi.

*A A A A A A A*

*a a a a a a a a a a*

*LoLa, anor, olma,   Lampa, albom.*

*Biz   Navoiy   shahrida   yashaymiz.*

Kichik ye, yo, yu, ya va katta Ye, Yo, Yu, Ya harflari harf birikmalaridan tuzilgan.

***ye ye ye ye ye ye   ye ye ye yo yo yo yo yo yo***

***yo yo yo ya  ya   ya   ya ya ya ya   ya yu   yu***

***yu   yu yu   yu yu   yu***

*yer, yelkan, yetim, yetti.*

## 9-MAVZU: UCHINCHI SINFDA CHIROYLI YOZUV DARSLARINING ONA TILI DARSLARI BILAN OLIB BORILISHI.

**REJA:**

1. Uchinchi sinf yozuv darslarining o'ziga xosligi.
2. Uchinchi sinf yozuv darslarida olib boriladigan yozuv mashg'ulotlari.
3. Yozuv mashg'ulotlarining rejasi.
4. So'zva gaplarni qo'shib yozish.

**Tayanch so'zlar:**

Uchinchi sinflarda yozuv mashg'ulotlarining onatili darslarida olib borilishi. Qo'shimcha yozuv mashg'ulotlarini o'tkazish. O'quvchilarga mustaqil ravishda kichik matnlarni yozdirish va og'zaki tarzda yozdirish. To'rtinchi sinf o'quvchilarining yozuvlarida uchraydigan tipik xatolar: haddan ziyod harflarni katta yozish, harflar va so'zlar orasidagi masofani to'g'ri qo'ymaslik, harflarning qiyaligini bir xilda saqlamaslik va harflarni uchburchak tarzda ifodalash kabilar.

**ADABIYOTLAR.**


1. G'ulomov M. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatish" T.1970
2. G'ulomov M. "Chiroyli yozuvni shakllantirish" T. 1992
3. G'apporova va boshq. "Alifbe" T. 1999
5. G'apporova va boshq. "1- 2 yozuv daftari" T. "O'qituvchi" 1999
5. Husnixat daftari. 1 -sinf uchun.T-1999
6. Husnixat daftari.2-sinf uchun.T-1999
7. Husnixat daftari.3-sinf uchun.T-1999
8. Abdullayev Y. "Hamrohim" T. 1997

Bu sinfda alohida husnihat darslari o'tkazilmasa ham, yozuvga o'rgatish qoidalari ona tili darslari bilan qo'shib olib boriladi.

Bolalarda chamalash qobiliyatining o'sib borishi, qo'l va barmoq muskullarining taraqqiy etishi bilan ularda tez va mayda yozuv shakllana boradi.

Bu davrda bolalarning yozuvlariga e"tabor bermaslik natijasida harflar shaklini buzib yozish, noto'g'ri bog'lash kabi kamchiliklar sodir bo'lishi mumkin. Shuning uchun 3- sinfda har bir ona tili darsida husnixat malakasini shakllantirish uchun 8-10 minut vaqt ajratiladi.

O'quv yilining boshida o'quvchilarning 2- sinfda olgan bilim va malakalarini mustahkamlash lozim. Uchinchi sinfda bir chiziqli daftarga kichik harflami 3 mm, bosh harflami esa 6 mm balandlikda yozdirib mashq qildiriladi. Ayniqsa, bu davrda kichik harflar bilan bosh harflar nisbatini taqqoslab yozishni ko'proq mashq qildirish lozim, chunki yozuvni maydalashib borgani sari kichik harflar bilan bosh harflarning farqini ajratish qiyinlashib boradi.

Bu kamchilikni yo;qotish uchun quyidagiga o'xshash mashqlami o'tkazish lozim:

*sh sh sh sh sh sh sh sh sh*

***Sh Sh Sh Sh Sh Sh Sh***

*L L L L L L L L L*

Harflarning shaklini va nisbatini to'g'ri yozish malakalari hosil qilingandan so'ng harflarniqo'l harakatini uzmay bog'lab yozish mashq qildiriladi. Bu sinfda 5- 6 harfdan iborad bo'lgan so'zlami qo'l harakatini uzmasdan yozish talab etiladi. Harflami uzmasdan yozish uchun murakkab bog'lanishli il, um, iya, yul, aya, on, yug, jch, ad, yub, ov, se, vz, sj kabi kichik harflami yozib mashq qildirish mumkin. Yozuv tezligining oshib borishi bilan ko'pchili harflami shaklini buzib yozish hollari ham uchraydi. Ayniqsa, kichik b, j, r, ya, g, g', ch, u, d, z, j va katta P, T, K, N, V, J, F, E harflarida bunday holni ko'p uchratish mumkin.

Bunday harflarning shaklini yozdirib mashq qilishni ona tili darsida olib boriladigan mavzuga moslab, qo'shib olib borish maqsadga muvofiqdir.

Har bir husnixat mashqlarini tashkil etishda o'quvchilarning o'z- o'zining boshqarib borishni ham davom ettirish lozim, chunki tez yozish orqali o'quvchilar faqat grafik holatlarga harflami tushurib qoldirish, almashtirib yoki buzib yozish kabi holatlarga yo'l qo'yishlari mumkin.

Bu sinfda yana ba'zi guruhlardagi murakkab harflardan tashkil topgan bir nechta variantlarda mashq o'tkazish mumkin. Maslan, elementlari chiziqdan pastga tushadigan g, f, p, y harflarini quyidagi 6 varianti mashq qildirish mumkin:

I- variant: kichik r, f harflarini bir xil uzunlikda yozishga o'rgatish maqsad qilib olinadi.

II- Variant: kichik d, z, u harflarining ikkinchi elementini daftar chizig'i ustida kesishish joyini aniq yozishga o'rgatish maqsad qilib olinadi.

III- Variant: kichik r, f harflarining ikkinchi dementi bir xil uzunlida bo'lishini va u, o', d, z harflarining tugunchakli bo'lishini mashq qilish:

***r f u o' d z***

IV- Variant: kichik u, o', z, d harflarining tugunchakli elementining boshqa harflar bog'lanishini mashq qilish:

*uv zv do rv*

V- Variant: kichik u, o', z, d harflarini kichik 1, m, ya harflari bilan bog'lab yozishni mashq qilish:

*vm vl uya zm dya*

VI-Variant: kichik u, o', z, d harflarini cho'zinchoq doira shaklidagikichik harflar bilan bog'lab yozishni mashq qilish:

*d uv zv suv*

3- sinfda bolalarning yozuvlarini tahlil qilish orqali ularda uchragan ayrim xato va kamchiliklarning oldini olish va tuzatish choralarini ko'rish lozim. Ayrim o'quvchilarga daftarlarida harf namunalarini ko'rsatib berish mumkin.

Chiroyli yozuvga o'rgatish yuzasidan olib borilgan mashqlar har bir ona tili darsida 4-5 qatordan oshmasligi kerak. Uchinchi sinfda bosh harflarning yozilishini takrorlash bilan birga ayrim ish qog'ozlarini yozish qoidalari ham tushuntiriladi. Ish qog'ozlarini aniq, ozoda va to'g'ri bajarish shu sinfdan boshlab talab etiladi. Ish

qog'ozlari (xat, manzil, tilxat, ariza va boshqalar) qanday yozilishini o'qituvchining o'zi namuna sifatida yozib ko'rsatishi lozim.

Bu sinfda yozuv bilan bog'liq bo'lgan har bir dars husnixat talablaridan chetda qolmasligi kerak. Bu sinfda ham chiroyli yozuv malakasiga o'rgatish ona tili darslari bilan bog'lab olib boriladi.

19-mavzu. Jarangli va jarangsiz undosh p va f harflarini yozishga o'rgatish

Darsning borishi. O'qtuvchi o'quvchilarga o'zakdagi jarngli va jarangsiz undosh tovushlar- p va f harflar imlosini tushuntirishdan oldin bu harflaming yozilish shaklini tushintirib, qisqa mashq o'tkazadi. (Yozuv malakasini tushuntirish uchun 8- 10 minutdan oshmasligi lozim.)

O'qtivchi doskaga p va f harflarini chiroyli yozuv qoigalariga amal qilgan holda yozib qo'yadi.

Kichik f harfini yozdirishga boshlashdan oldin uning nechta elementdan tuzilganligi va elementlarining doim qo'shilib yozilishi tushuntirib o'tiladi. Tushintirish mashqlarini plakatlardan foydalanib olib boorish ham mumkin.

Bu harflarni yozishda uning cho'zinchoq doira shaklidagi elementlarini bir xilda yozish shart ekanligi eslatiladi.

O'quvchilar bu harfning yozilish texnikasi bilan oldingi sinflarda ham tanishganlar. Bu darsda esa kichik f harfming ikkinchi yozilish turi bilan tanishadilar, ya'ni kichik f harfming ikkinchi cho'zinchoq doira shaklidagi elementi o'zidan keyingi harflar bilan qo'l uzmasdan tuguncha hosil qilib bog'lanadi.

O'quvchilar bu harfni yozib mashq qilish bilan yozuv tezligini oshirishda bu harfning yana ham qulay ekanligini amalda ko'radilar. O'qituvchi kichik f harfming boshqa harflar bilan bog'lanishini va ayrim so'zlarni doskada ko'rsatib beradi.

Masalan:

***Fabrika, fasil, film, fontan, futbol, telefon, gunafsha***

O'quvchilar bu harfni yozishga faqat o'qituvchining doskadagi ko'rsatmasidan keyingina boshlaydilar.

O'qituvchi o'quvchilarning yozuv malakalarini va tezligini kuzatib boradilar va tegishli ko'rsatma beradi. Shundan keyin o'qituvchi kichik p harfmi tushuntirib beradi. Bu harfning elementlari ham o'zidan oldin va keyin ham kelgan harflar bilan qo'l uzmasdan qo'shib yoziladi. Masalan:

*parashyut, parvoz, pero, poyezd, pishiq, priyomnik, plan*

Bu harfning yozilish texnikasi ham tanish bo'lib, o'quvchilarga qiyinchilik tug'dirmaydi. Shuning uchun bu harfning yozilish texnikasi ustida ko'p to'xtash shart emas. Faqat uni yozishda ayrim o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar ustida to'xtab o'tish mumkin.

O'qituvchi o'quvchilarga butun dars davomida to'g'ri o'tirish, ruchkani to'g'ri ushlash, gavdani to'g'ri tuta bilish, ko'z bilan daftar orasidagi masofani to'g'ri saqlash, daftarni to'g'ri qo'yish qoidalarini doim eslatib turishi lozim.

Yuqorida eslatib o'tilgan malakalar hosil qilingandan keyingina yozuv mashqlarini boshlash kerak.

O'quvchilarga kichik f va p harflarini yozilish qoidalari tushuntirilgandan so'ng darsning asosiy gramatik qismiga o'tiladi. Gapdagi p va f harfli so'zlarning imlosi va talaffiizi tushuntiriladi.

Ona tili kitobidan shu mavzuga oid mashqlarni bajartirishda ham p va f harflarini yozilishiga alohida e'tiibor berishi lozim.

Dars oxirida eng yaxshi yozgan o'quvchilarning yozuvlarini namuna sifatida ko'rsatish mumkin. Yozuv mashqlarini o'stiruvchi mashqlar ham ona tili daftarida bajartiriladi.

Uy vazifasi uchun berilgan mashqlar esa bir betdan oshmasligi lozim.

Uchinchi sinfda husnixat mashqlarini yuqorida ko'rsatilgani kabi ona tili darslari bilan bog'lab uyushtirish, to'g'ri, tez va chiroyli yozish malakalarini hosil qilish ona tili predmatini puxta o'zlashtirishga asos bo'ladi hamda o'quvchilarning savodxonligi oshib, yozuvlari ham asta- sekin yaxshilanib boradi. lozim. Yozuv tezligining oshib borishi bilan ko'pchilik harflarni shaklini buzib yozish hollari ham uchraydi. Ayniqsa kichik b, j, r, ya, g, g'F ch, u, d, z, j va katta P, T, Q, N, V, J, F, YE harflarining bunday holni ko'p uchratish mumkin. Bunday harflarning shaklini yozdirib mashq qilishni ona tili darsiga olib borilayotgan mavzuga moslab, qo'shib olib borish maqsadga muvofiqdir.

Har bir husnixat mashqlarini tashkil etishda o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarib borishini ham davom ettirish lozim, chunki tez yozish orqali o'quvchilar faqat grafik xatolarga harflarni tushirib qoldirish almashtirib yoki buzib yozish kabi xatolarga yo'l qo'yishlari mumkin.

Bu sinfda yana ba'zi guruhlarda murakkab harflardan tashkil topgan bir necha variantlarda mashq o'tkazish mumkin. Masalan, elementlarni chiziqdan pastga tushadigan d, z, u, r, f, o' harflarini quyidagi 6 varinatda mashq qildirish mumkin:

I variant: kichik r, f harflarini bir xil uzunlikka yozishga o'rgatish maqsad qilib olinadi.

Ⅱ variant: kichik d, z, u harflarining ikkinchi elementini daftar chizig'i ustida kesishish joyini aniq yozishga o'rgatish maqsad qilib olinadi.

Ⅲ variant: kichik r, f harflarining ikkinchi elementi bir xil uzunlikda bo'lishini va u, o', d, z harflarining tugunchakli elementi bir xilda bo'lishini mashq qilish.

IV variant: kichik u, o', z, d harflarini cho'zinchoq doira shaklidagi kichik harflar bilan bog'lab yozishni mashq qilish.

3-sifnda bolalarning yozuvlarini tahlil qilish orqali ularda uchragan xato va kamchiliklaming oldini olish va tuzatish choralarini ko'rimsh lozim. Ayrim o'quvchilarga daftarlarida harf namunalarini ko'rsatib berish mumkin.

Chiroyli yozuvga o'rganish yuzasidan olib borilgan mashqlar har bir ona tili darsida 4-5 qatordan oshmasligi kerak.

3-sinfda bosh harflarning yozilishini takrorlash bilan birga ayrim ish qog'ozlarini yozish qoidalarini ham tushuntiriladi. Ish qog'ozlarini aniq, ozoda va to'g'ri bajarish shu sinfdan boshlab talab etiladi. Ish qog'ozlari (xat, adres, til, xat, ariza va boshqalar) qanday yozilishini o'qituvchining o'zi namuna sifatida yozib ko'rsatishi lozim. Bu sinfda yozuv bilan bog'liq bo'lgan har bir dars husnixat talablaridan chetda qolmasligi kerak. Bu sinfda ham chiroyli yozuv malakasi o'rgatish ona-tili darslari bilan bog'lab olib boriladi.

Quyidagi shu sinf uchun tuzilgan bitta darsni namuna tarzida ko'rsatib o'tamiz:

Mavzu: jarangli va jarangsiz undosh p va f harflarini yozishga o'rgatish.

Darsning maqsadi. O'quvchilarning jarangli va jarangsiz undosh tovushlar bilan tanishtirish bilan birga, p va f harflarini to'g'ri, chiroyli va tez yozishga o'rgatish.

## 10- MAVZU. TO'RTINCHI SINFDA CHIROYLI YOZUV MASHQLARINI TASHKIL ETISH.

**REJA**:

1. To'rtinchi sinf yozuv darslarining o'ziga xosligi.
2. To'rtinchi sinf yozuv darslarida olib boriladigan yozuv mashg'ulotlari.

3. Yozuv mashg'ulotlarining rejasi.

4. 4-sinf o'quvchilarining yozuvlarda uchraydigan xatolarni tuzatish.

**Tayanch so'zlar:**

To'rtinchi sinflarda yozuv mashg'ulotlarining onatili darslarida olib borilishi. Qo'shimcha yozuv mashg'ulotlarini o'tkazish. O'quvchilarga mustaqil ravishda kichik matnlarni yozdirish va og'zaki tarzda yozdirish. To'rtinchi sinf o'quvchilarining yozuvlarida uchraydigan tipik xatolar: haddan ziyod harflarni katta yozish, harflar va so'zlar orasidagi masofani to'g'ri qo'ymaslik, harflarning qiyaligini bir xilda saqlamaslik va harflarni uchburchak tarzda ifodalash kabilar.

**ADABIYOTLAR.**

1. G'ulomov M. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatish" T.1970

2. G'ulomov M. "Chiroyli yozuvni shakllantirish" T. 1992 3.G'apporovavaboshq. "Alifbe" T. 1999

5. G'apporova va boshq. "1- 2 yozuv daftari" T. "O'qituvchi" 1999

5. Husnixat daftari. 1-sinf uchun.T-1999

6. Husnixat daftari.2-sinf uchun.T-1999

7. Husnixat daftari.3-sinf uchun.T-1999

8. Abdullayev Y. "Hamrohim" T. 1997

Bu sinf o'quvchilarining yozuvlari kattalarga hosligi bilan ajralib turadi.

O'quvchilar endi qiynalmay erkin yozishga o'tadilar, ularning yozuv tezligi ham ancha yuqori darajaga ko'tariladi. Bu davrda o'quvchilar o'z fikrlarini tezroq qog'ozga tushurishga harakat qiladilar. Yozuv tezligi past o'quvchilar esa ona

tilidan berilgan topshiriqlarni bajarishda orqada qoladilar, ayniqsa, bu narsa, diktant va yozma ishlarni bajarishda o'quvchiga ancha qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun bu sinfda tez yozish malakasini o'stirish juda muhimdir.

Yozuv tezligi past bo'lgan o'quvchilar boshqa o'quvchilarga nisbatan ko'p kuch va diqqat sarf etadilar va charchab qoladilar.

Sinfda o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarda kattalarga xos bo'lgan yozuv kalligrafiyasini shakllantirishdan iborad.

Ba'zi o'qituvchilar bu sinfda ona tili mashqlari bilan yozuv darsini bir-biriga bog'lab o'tish yo'llarini yaxshi bilmaydilar, vaholanki, har bir ona tili darsida yozuv mashqi uchun ajratilgan 8-10 minut vaqtdan unumli foydalanish shart. Aks holda, o'quvchilar ayrim harflarning shaklini buzib yozishga odatlanib qoladilar.

O'quvchilarning yozuvlariga qat'iy talablar qo'yish bilan birga, ularning daftarlariga qo'yilgan pedagogik va gigiyenik talablami talablami ham unutib qo'ymaslik kerak.

IV sinf o'quvchilariga chiroyli yozuv qoidalarini eslatib turish bilan bir qatorda, uni bir tartibda tushurib olish har bir o'qituvchining muhim vazifasidir.

Bu sinfda to'g'ri shakl etilgan chiroyli yozuv malakalari bir umrga saqlanib qoladi.

IV sinfda ham tez yozish malakalarini yanada o'stirish uchun quyidagi ayrim mashqlami bajartirish mumkin.

*XXXXXXXXXXX X X XXX*

*u u u u u u u u u u u u u*

Shuningdek, bu sinflarda ayrim noto'g'ri yozilgan harflarni tuzatish mashqlarini o'tkazish lozim.

Masalan, IV sinf o'quvchilarning yozuvlarida quyidagi o'xshash ayrim xato va kamchiliklarini uchratish mumkin:

1. Yozuv qiyaligini har xil holatda bo'lishi:

***Biz kinoga bordik.***

2. Chiziqning ustidan yozmaslik:

***Salima kitob o'qidi.***

3. Harflar oralig'ida haddan tashqari ko'p joy qoldirish:

***Tulki o 'rmonda yashaydi.***

4. Harflar orasidagi masofaning zijligi:

***Men kitob o' qishni sevaman.***

5. Harflarni juda yirik yozish:

***Xalil- a'lochi o'quvchi.***

6. Harflar bilan so'zlar orasidagi masofani bir xil saqlamaslik:

***Akbar samolyot modelini yasadi.***

7. Harf elementlarini uchburchak tarzida ifodalash:

***Shoira kashta tikdi.***

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan kamchiliklami o'z vaqtida tuzatib, oldini olish uchun ayrim o'quvchilar bilan yakkama- yakka mashqlar olib boorish lozim.

Shuningdek, har bir o'qituvchi bu kamchiliklaming kelib chiqish sabablarini ham aziqlashi zarur, shundagina uni tuzatish yo'llarini oson hal etadi.

Uchinchi sinfda husnixat mashqlarini yuqorida ko'rsatilgani kabi ona tili darslari bilan bog'lab uyushtirish, to'g'ri, tez va chiroyli yozish malakalarini hosil qilish ona tili fanini puxta o'zlashtirishga asos bo'ladi hamda o'quvchilarni savodxonligi oshib yozuvlari ham asta-sekin yaxshilanib boaradi.

**To'rtinchi sinfda chiroyli yozuv mashqlarini tashkil etish**

Bu sinf o'quvchilarini yozuvlari kataklarga xosligi bilan ajralib turadi.

O'quvchilar endi qiynalmay erkin yozishga o'tadilar. Ularning yozuv tezligi ham ancha yuqori darajaga ko'tariladi. Bu davrda o'quvchilar o'z fikrlarini tezroq qog'ozga tushirishga harakat qiladilar. Yozuv tezligi ba'zi o'quvchilar esa ona tilidan berilgan mashqlarni bajarishda orqada qoladilar, ayniqsa, bu narsa diktant va yozma ishlarni bajarishda o'quvchiga ancha qiyinchilik tug'diradi.

Shuning uchun bu sinfda tez yozish malakasini o'stirish juda muhimdir.

Yozuv tezligi past bo'lgan o'quvchilar boshqa o'quvchilarga nisbatan ko'p kuch va diqqat sarf etadilar va charchab qoladilar.

Bu sinfda o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarda kattalarga xos bo'lgan yozuv kallegrafiyasini shakllantirishdan iborat.

Ba'zi o'qituvchilar bu sinfda ona tili mashqlari bilan yozuv darslarni bir-biriga bog'lab o'tish yo'llarini yaxshi bilmaydilar, vaholanki, har bir ona tili darsida yozuv mashqi uchun ajratilgan 8-10 minut vaqtdan unumli foydalanish shart. Aks holda o'quvchilar ayrim harflarning shaklini buzib yozishga odatlanib qoladilar.

O'quvchilarning yozuvlariga qat'iy talablar qo'yish bilan birga, ularning daftarlariga qo'yilgan pedagogik va gigiyenik talablarini ham unutib qo'ymaslik kerak.

4-sinf o'quvchilariga chiroyli yozuv qoidalarini eslatib turish bilan bir qatorda uni bir tartibga tushirib olish ham bir o'qituvchining muhim vazifasidir.

Bu sinfda to'g'ri tashkil etilgan chiroyli yozuv malakalari bir umrga saqlanib qoladi.

4-sinfda ham tez yozish malakalarini yanada o'stirish uchun quyidagi ayrim mashqlarni bajartirish mumkin.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarni o'z vaqtida tuzatib, oldini olish uchun ayrim o'quvchilar bilan o'z vaqtida tuzatib, oldini olish uchun ayrim o'quvchilar bilan yakkama-yakka mashqlar olib borish lozim.

Shuningdek har bir o'qituvchi bu kamchiliklaming kelib chiqish sabablarini ham aniqlashi zarur, shundagina uni tuzatish yo'llarini oson hal etadi.

Darsni jihozlash. Kichik p va katta P va F harflarini kattalashtirib ko'rsatilgan jadvallar.

Darsning borishi. O'qituvchi o'quvchilarga o'zakdagi jarangli va jarangsiz undosh tovushlar p va f harflar imlosini tushuntirishdan oldin bu harflarning yozilish shaklini tushuntirib, qisqa mashq o'tkazadi (Yozuv malakasini tushuntirish uchun berilgan vaqt 8-10 minutdan oshmasligi kerak).

O'qituvchi doskaga p va f harflarini chiroyli yozuv qoidalariga amal qilgan holda yozib qo'yadi.

Kichk f harfini yozdirishga boshlashdan oldin uning nechta elementdan tuzilganligini va elementlarning doim qo'shilib yozilishi tushuntirib o'tiladi. Tushuntirish mashqlarini plakatlardan foydalanib olib borish mumkin.

Bu harfni yozish cho'zinchoq doira shaklidagi elementlari bir xilda yozish shart ekanligi eslatiladi.

O'quvchilar bu harfning yozilish texnikasi bilan oldingi sinflarda ham tanishganlar. Bu darsda esa kichik f harfining ikkinchi cho'zinchoq doira shaklidagi elementi o'zidan keyingi harflar bilan qo'l uzmasdan tuguncha hosil qilib bog'lanadi.

O'quvchilar bu harfni yozib mashq qilish bilan yozuv tezligini oshirishda bu harfning yana ham qulay ekanligini amalda ko'radilar.

O'quvchilar bu harfni yozishga faqat o'qituvchining doskadagi ko'rsatmasidan keyingina boshlaydilar.

O'qituvchi o'quvchilarning yozuvmalakalarini va tezligini kuzatib boradi va tegishli ko'rsatmalar beradi. Shundan keyin o'qituvchi kichik p harfining

yozilishini tushuntirib beradi. Bu harfning elementlari ham o'zidan oldin va keyin kelgan harflar bilan qo'l uzmasdan qo'shib yoziladi.

Bu harfning yozilish texnikasi ham tanish bo'lib, o'quvchilarga qiyinchilik tug'dirmaydi. Shuning uchun bu harfning yozilishi texnikasi ustida ko'p to'xtash shart emas. Faqat uni yozishda ayrim o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar ustida to'xtab o'tish mumkin.

O'qituvchi o'quvchilarga butun dars davomida to'g'ri o'tirish, ruchkani to'g'ri ushlash, gavdani to'g'ri tuta bilish, ko'z bilan daftar orasidagi masofani to'g'ri saqlash, daftarni to'g'ri qo'yish qoidalarini doim eslatib turish lozim. Yuqorida eslatib o'tilgan malakalar hosil qiligandan keyingina yozuv mashqlarini boshlash kerak.

O'quvchilarga kichik f va p harflarini yozilish qoidalarini tushuntirilgandan so'ng darsning asosiy grammatik qismiga o'tiladi. Gapdagi p va  f harfli so'zlarning talaffuzi va imlosi tushuntiriladi.

Ona-tili kitobidan shu mavzuga oid mashqlari bajarishda ham p va f harflarning yozilishiga aohida e'tibor berish lozim.

Dars oxirida eng yaxshi yozgan o'quvchilarning namuna sifatida ko'rsatish mumkin. Yozuv mashqlarini o'stiruvchi mashqlar ham ona-tili daftarida bajartiriladi. Uy vazifasi uchun berilgan mashqlar esa bir betdan oshmasligi lozim.

## 11- MAVZU. O'QUVCHILARNING YOZUVLARIDA UCHRAYDIGAN TIPIK XATOLARNI TUZATISH.

**REJA:**

1. Boshlang'ich sinflarda yozuv darslarining reja asosida olib borilishi.
2. Boshlang'ich sinflarda yozuv darslarida olib boriladigan yozuv mashg'ulotlari.
3. Yozuv mashg'ulotlarining rejasi.
4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozuvlarda uchraydigan xatolarni tuzatish.

**Tayanch so'zlar:**

To'rtinchi sinflarda yozuv mashg'ulotlarining onatili darslarida olib borilishi. Qo'shimcha yozuv mashg'ulotlarini o'tkazish. O'quvchilarga mustaqil ravishda kichik matnlarni yozdirish va og'zaki tarzda yozdirish. To'rtinchi sinf o'quvchilarining yozuvlarida uchraydigan tipik xatolar: haddan ziyod harflarni

katta yozish, harflar va so'zlar orasidagi masofani to'g'ri qo'ymaslik, harflaming qiyaligini bir xilda saqlamaslik va harflarni uchburchak tarzda ifodalash kabilar.

**ADABIYOTLAR.**


1. G'ulomov M. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatish" T.1970
2. G'ulomov M. "Chiroyli yozuvni shakllantirish" T. 1992 3.G'apporovavaboshq. "Alifbe" T. 1999

5. G'apporova va boshq. "1- 2 yozuv daftari" T. "O'qituvchi" 1999

5. Husnixat daftari. 1-sinf uchun.T-1999
6. Husnixat daftari.2-sinf uchun.T-1999
7. Husnixat daftari.3-sinf uchun.T-1999
8. Abdullayev Y, "Hamrohim" T. 1997


Dastur talablariga muvofiq, to'rtinchi oxiriga kelib, har bir o'quvchi tez va chiroyli yozishi lozim.

Ammo shunday o'quvchilar ham uchraydiki, ular yozuv malakasini to'la egallab olomaydilar, harflaming shaklini pala partish, katta-kichik qilib har xil yozadilar. O'quvchilar tomonidan noto'g'ri yozilgan harflarni tuzatish har bir predmet o'qituvchisining eng muhim va qiyin vazifalaridan biridir. Bu masalani ehtiyotlik bilan hal etish lozim.

Kamchiliklarni tuzatishga kirishishdan oldin uning asosiy xatosi nimada ekanligini aniqlash zarur.

O'quvchilarning yozuvlarida keng tarqalgan kamchiliklardan biri ayrim harflaming noto'g'ri ifodalanishi sababli xatning o'qib bo'lmasligidir. Ayrim o'quvchilar esa harflarni quyidagicha buzib, har xil balandlik va qiyalikda yozadilar:

# Men xat yozdim

Bu o'z navbatida o'qishni qiyinlashtiradi, yozilgan matnni noaniqlikka olib keladi.

Ayrim o'quvchilar esa har bir harfni alohida-alohida ajratib qo'l harakatini uzib yozadilar.

***M e n  x a t  y o z d I m***

Harflarni bunday alohida yozish yozuv tezligini kamaytiradi, o'quvchi boshqa o'quvchilardan orqada qoladi.

O'quvchilarda uchraydigan yana bir kamchilik haddan tashqari mayda yozuvdir:

*Men akamga xat yozdim*

Aksincha, ayrim o'quvchilar esa juda yirik yozadilar:

***Men xat yozdim***

Haddan tashqari mayda yozuv qo'lni charchatadi, o'qishni qiyinlashtiradi, yirik yozuv esa yozuv tezligini kamaytiradi va o'quvchi buning uchun ko'p vaqt sarflaydi.

Shuning uchun o'quvchilarda uchraydigan ayrim tipik xatolarni o'z vaqtida, ya'ni harflarning shaklini yozishga o'rganayotgan vaqtda tuzatish lozim.

Quyida o'quvchilarning yozuvlarida uchraydigan ayrim tipik xatolarni ko'rsatib o'tamiz.

1. Tagi ilmoqli kichik tayoqcha shaklidagi elementni yozishda siniq chiziq hosil qiladilar va quyidagicha tor yoki keng qilib yozadilar:

Bunday xatolarni yo'qotish uchun shu element yozilishini qayta mashq qildirish lozim, chunki bu element ko'pchilik kichik harflar uchun asosiy element hisoblanadi.

2. Tagi va usti ilmoqli kichik tayoqcha shaklidagi elementni quyidagicha buzib yozadilar.

Bunday kamchiliklarning oldini olish uchun ilmoqlarni to'g'ri yozishga o'rgatish lozim.

3. Tagi tugunchakli uzun tayoqcha shaklidagi elementni ham quyidagicha buzib yozadilar:

Bunday xatolar o'quvchilarning yozuvning qiyaligiga e"tabor bermasliklari natijasida sodir bo'ladi.

4. Tagi tugunchakli elementni haddan tashqari kichik yoki katta qilib yozadilar:

Bu xatolarning oldini olish uchun shu elementni harflar bilan bog'liq holda yozib ko'rsatish va harfga taqqoskash zarur.

5. Katta N, M harflarini yozishda uning birinchi elementini noto'g'ri yozadilar:

Bu xatoni yo'qotish uchun shu elementni kattalashtirib ko'rsatish lozim.

6. O'quvchilar kichik cho'zinchoq doira shaklidagi O harfmi yozishda ham ayrim xatolarga yo'l qo'yadilar. Bu harfni yozishda uchragan kamchiliklarni tuzatish uchun katta o'lchamdagi quyidagi jadvaldan foydalanish lozim.

Biz o'quvchilarning yozuvlarida uchraydigan ayrim tipik xatolar bo'lishini ko'rsatib o'tdik, bunday kamchiliklar bosh harflarda ham, kichik harflarda ham uchrashi mumkin. Bosh harflarda uchraydigan tipik xatolarni ham ona tili darslarida ko'rsatib, tanishtirib boorish mumkin.

Harflarning shakli buzilishiga ishning to'g'ri tashkil etilmaganligi, yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanmaslik ham sabab bo'ladi.

Xati xunuk o'quvchi ko'pincha avtoruchkani noto'g'ri ushlaydi yoki o'zi noto'g'ri o'tiradi. Avtoruchkada siyohning yetarli bo'lmasligi yoki sharikli avtoruchkaning pastasi qotib qolishi ham yozuvning buzilishiga olib keladi.

Ayrim hollarda o'quvchining ko'rish qobiliyati yaxshi bo'lmasa ham yozuv buzilishi mumkin.

O'qituvchi o'quvchilarning yozuvlari buzilish sabablarini aniqlash bilan birga, uni bartaraf etish yo'llarini topishi kerak.

Agar o'quvchilar harflaming shaklini butunlay noto'g'ri yozsalar yoki harflaming baland va qiyaligiga e'tibor bermasalar, bunday o'quvchilar bilan qaytadan mashqlar o'tkazish lozim. Qayta mashq o'tkazishda o'qituvchi o'quvchilarning diqqatini ko'proq butunlay uzib yoziladigan harflaming shakliga qaratish lozim.

Yozuv malakasi past bo'lgan o'quvchilami ravon, tekis qilib yozishga o'rgatish, chamalash qobiliyatini o'stirish va harflarni umumiy qoidaga amal qilishga o'rgatiladi. Harflaming qiyaligini to'g'ri saqlashga o'rgatishda qo'l va barmoq muskullarining harakatini o'stiruvchi mashqlar muhim rol o'ynaydi.

Yomon yozadigan o'quvchilarning har bir bajargan mashqlarini o'qituvchi kuzatib va tekshirib borishi zarur.

Davr o'zgarishi bilan yozuv qurollari ham takomillashib bormoqda, ularga bo'lgan munosabatlar ham ozgarmoqda. Ayniqsa, soddalashtirilgan yozuv sistemasining tezligiga va harflarni qo'l harakatini uzmay bog'lab yozishga talab kuchayadi. Xalq maorifi sistemasini qayta qurish davrida maktablarimiz oldida chiroyli yozuvga o'rgatishni takomillashtirish borasida qator yechilmagan muammolar mavjud. Biz bu muammolarni mazkur qo'llanmada yoritishga harakat qildik.

Olti yoshli bolalarga yozuv malakasini singdirish o'qituvchilardan chidam va mahorat talab etadi. Shuning uchun biz bu haqda kengroq to'xtalib, tayyorgarlik mashqlarini o'tkazish uchun aniq ko'rsatmalar berdik. Bu davrda chiroyli yozuvga o'rgatishning murakkabligini hisobga olib, yozuv malakasini shakllanishida asosiy rol o'ynovchi yordamchi qiya chiziqlarni saqlab qoldik.

Faqat ikkinchi sinfdan boshlab bir chiziqli daftarga yozdirib mashq qildirish mumkin.

Boshlang'ich sinflarda chiroyli yozuv malakasini shakllantirish uchun faqat harflar namunasidan, husnixat darsliklari bilan kifoyalanib qolmasdan, turli texnika vositalari: diafilm, epidiaskoplardan ham foydalanish yaxshi samara beraidi.

## 12- MAVZU. MAKTABLARDA QAT'IY YOZUV TARTIBINI JORIY QILISH.

**REJA:**

1. Chiroyli yozuv qoidalarining sinfdagi darslarda olib borilishi.
2. Maktabda qat'iy yozuv tartibini joriy qilish uchun olib boriladigan ishlar.
3. Maktabda qat'iy yozuv tartibini joriy qilish uchun umummaktab jamoasi tomonidan bajariladigan ishlar.

**Tayanch so'zlar:**

Boshlang'ich sinflarda olib boriladigan yozuv mashg'ulotlarining rejasi. Chiroyli yozuvga o'rgatishda ona tili darslarining roli. Chiroyli yozgan o'quvchilarning daftarlarini konkurs asosida rag'batlantirish.

**ADABIYOTLAR.**

1. G'ulomov M. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatish" T.1970

2. G'ulomov M. "Chiroyli yozuvni shakllantirish" T. 1992

3.G'apporovavaboshq. "Alifbe" T. 1999

4. G'apporova va boshq. "1- 2 yozuv daftari" T. "O'qituvchi" 1999

5. Husnixat daftari. 1-sinf uchun.T-1999

6. Husnixat daftari.2-sinf uchun.T-1999

7. Husnixat daftari.3-sinf uchun.T-1999

8. Abdullayev Y. "Hamrohim" T. 1997

Chiroyli yozuv qoidalarini eslatib turish bilan bir qatorda, uni bir rejimga tushirib olish har bir o'qituvchining muhim vazifasidir.

Agar maktabda yozuv rejimi to'g'ri tashkil etilsa, o'quvchilarning chiroyli yozuv malakalari bir umirga saqlanib qoladi.Buning uchun boshlang'ich sinf o'qtuvchisi o'quvchilardan hosil qilgan chiroyli yozuv malakasini yuqori sinflarda har bir fan o'qtuvchisi eslatib turishi lozim. Aks holda, ular boshlang'ich sinfda olgan chiroyli yozuv malakasini unitib yuboradilar.

V sinfdan boshlab o'quvchilar yozuvining o'zgarishiga asosiy sabab, boshqa predmet o'qtuvchilarining bunga yetarli etibor bermasliklaridir. Undan tashqari, ularga yozuv mashqlarini normadan ortiq beradilarmatijada, o'quvchilarning barmoq muskullari charchaydi va yozuvning sifati buziladi, bu esa o'quvchilar yozuvining buzilishiga sabab bo'ladi.

Yuqori sinflarda ham har bir harfni aniq yozishni talab qilish lozim, aks holda, harflar o'z shakli ni yo'qotib boradi. Masalan: ko'pchilik yuqori sinf o'quvchilari t harfi ustiga, sh harfi tagiga chiziq chizib qo'yadilar. Bunday xatoga yo'l qo'ymasliklari kerak, chunki bu harflarning har ikkisi ham o'z shakliga ega, ularni farqini ajratish uchun ortiqcha chiziqlar talab etilmaydi.

O'quvchilarga uchraydigan kamchililarni yo'qotish uchun o'qituvchi harflarni to'g'ri yozilishiga alohida e'tibor berishi, daftarni baholash vaqtida

noto'g'ri yozilgan harflarni ham hisobga olish lozim. Qaysi harfni buzib yozganligini aniq ko'rsatib o'tishi kerak.

O'quvchilarning yozuvini yaxshilash uchun umummaktab ishglarida quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

1. Maktabda chiroyli yozuv tartibini amalga oshirish:
2. Bir yilda ikki marta yoki har chorakning oxirida "Chiroyli yozuv uchun" degan mavzuda daftarlar konkursini o'tkazish;
3. Maktabda chiqariladigan har bir devoriy gazetaga matnlarni chiroyli yozuv qoidalariga rioya qilib yozish.

Ammo chiroyli yozuv rejimini amalga oshirishda birinchi navbatda, o'qituvchining o'zi namuna bo'lishi kerak, chunki o'quvchilar ko'proq taqlidchan bo'lib o'qituvchining yozuviga o'xshatib yozishga harakat qiladilar. Agar o'qituvchi bir harfni no'g'ri yozsa, o'quvchi ham noto'g'ri yozadi.

Maktabda chiroyli yozuv tartibini taxminan quyidagicha amalga oshirish mumkin:

1. Maktabda har bir yozuv ishlarini o'quvchilar daftarga bajarishi kerak.(faqat shahar va rayon ishlariga xalq ta'limi tomonidan yuborilgan ayrim tekshiruv ishlariga ikki varaqdan yoziladi).
2. Hamma predmet uchun daftar bir hilda to'ldiriladi: daftarning varaqlari 12 tadan kam bo'lmasligi, chetida (30 mm masofada) hoshiya bo'lishi lozim.

Har bir daftar qaysi fan uchun tutilgani, kimga tegishli ekanligi, nechanchi sinfda o'qishi, maktab nomeri va nomi ko'rsatilishi lozim.

3. Sinf ishi va uy vazifalarini bir hil rangdagi (gunafsha yoki to'q havo rang) siyohga bajartirish.

4. O'quvchilarni faqat tafsiya etilgan avtoruchkada yozdirirsh.

5. Har bir darsda partada to'g'ri o'tirish qoidalariga amal qilish, bosh chapga chapga yoki o'nga osiltirib o'tirmaslik. Ko'z bilan daftar orasidagi masofani to'g'ri saqlash.

6. yozuvning qiyaligini 65 gradusdan oshirmaslik.

7. Har bir harfning shakli "Husnixat " kitobida ko'rsatilganidan farq qilmasligi.

8. To'g'ri yozilgan harf va so'zlarni o'chirg'ich bilan o'chirishga ruxsat etilmaydi. Noto'g'ri yozilgan joyni ustidan bir chiziq tortib ustiga to'g'risini yozib ko'rsatib yozish mumkin.

9. Har kungi bajarilgan ishni kuni, mavzu, mashq nomeri daftarning o'rtasga chiroyli qilib yozib ko'rsatish kerak.

10.So'zlarni qisqartirib yozishga ruxsat etilmaydi. Masalan: va hakozo o'rniga "va h. k.", ular o'rniga "y/" uning o'rniga "y+". 11 .Bosh va kichik harflar bir hil balandlikda yozilmasligi kerak. 12.0'quvchilarning ishlarini tekshirish uchun o'qituvchi faqat qizil rangdagi
siyohdan foydalanishi lozim. O'quvchining yo'l qo'ygan har bir xatosi

aniq ko'rsatilishi kerak. 13.Doskada bo'r bilan yozilgan yozuvlar yozuv qoidalariga mos bo'lishi
kerak. O'qituvchi doskaga o'tayotgan materiali joylashtira bilishi ham
katta ahamiyatga egadir. 14.Maktabda chiqarilgan har e'lonlar, maktab devoriy gazetasidagi maqola
matnlari ham chiroyli qilib, yozuv qoidalariga amal qilgan holda yozishi kerak. Hulosa qilib aytganda, yuqorida ko'rsatib o'tilgan shartlar amalga oshirilsa maktabda qat'iy yozuv rejimini amalga oshirishi mumkin.

ham o'z shakliga ega, ularni farqini ajratish uchun ortiqcha chiziqlar talab etilmaydi.

O'quvchilarda uchraydigan kamchiliklarni yo'qotish uchun o'qituvchi harflarning to'g'ri yozilishiga alohida e'tibor berishi, daftarni baholash vaqtida noto'g'ri yozilgan harflarni ham hisobga olishi lozim. Qaysi harfni bo'zib yozganligini aniq ko'rsatib o'tishi kerak.

O'quvchilarning yozuvini yaxshilash uchun umum maktab ishlaridan quyidagilarni amalga oshirish lozim:

1. Maktabda chiroyli yozuv tartibini amalga oshirish;
2. Bir yilda ikki marta yoki har chorakning oxirida «Chiroyli yozuv uchun» degan mavzuda daftarlar konkursini o'tkazish.

Maktabda chiqariladigan har bir devorni gazetadagi matnlarni chiroyli yozuv qoidalarisha ioya qilib yozish.

Ammo chiroyli yozuv rejimini amalga oshirishda, birinchi navbatda, o'qituvchining o'zi namuna bo'lishi kerak. Chunki o'quvchilar ko'proq taqlidchan bo'lib, o'qituvchining yozuviga o'xshash yozishga harakat qiladilar. Agar o'qituvchi bir harfni doskada noto'g'ri yozsa o'quvchi ham noto'g'ri yozadi.

Maktabda chiroyli yozuv tartibini taxminan quyidagicha amalga oshirish mumkin:

1. Maktabda har bir yozuv ishlarini o'quvchilar daftarda bajarishlari kerak (faqat shahar va rayon xalq ta'limi tomonidan yuborilgan ayrim tekshiruv ishlarigina ikki varaqda yozdiriladi).
2. Hamma fan uchun daftar bir xilda to'ldiriladi: daftarning varaqlari 12 tadan kam bo'lmasligi, chetida (30 mm masofada) xoshiya bo'lishi lozim. Har bir daftar qaysi fan uchun tutilgani, kimga tegishli ekanligi, nechanchi sinfda o'qishi, maktab nomeri ko'rsatilishi lozim.

3. Sinf ishi va uy vazifalarini bir xil rangdagi (binafsha yoki to'q g'ava rang) siyohda bajartirish.
4. O'quvchilarni faqat tavsiya etilgan avtoruskada yozdirish.
5. Har bir darsda partada to'g'ri o'tirish qoidalariga amal qilish, boshni chapga yoki o'nga osiltirib o'tirmaslik ko'z bilan daftar oraisdagi masofani

to'g'ri saqlash.

6. Yozuvning qiyaligini 65 gradusdan oshirmaslik.

7. Har bir harfning akli husnixat kitobida ko'rsatilmagan farq qilmasligi.

8. Noto'g'ri yozilgan harf va so'zlarni uchirg'ich bilan o'chirishga ruxsat etilmaydi. Noto'g'ri yozilgan joyni ustidan bir chiziq tortib ustiga to'g'risini yozib ko'rsatish mumkin.

9. Har kungi bajarilgan ishni kuni, mavzui, mashq nomeri daftarning o'rtasiga chiroyli qilib yozib ko'rsatishi kerak.

10. So'zlarni qisqartirib yozishga ruxsat etilmaydi. Masalan: va hokazo o'rniga esa ular o'niga «UG'» uning o'rniga u.

11. Bosh va kichik harflar bir xil balandlikda yozilmasligi kerak.

12. O'quvchilarning mashqlarini tekshirish uchun o'qituvchi faqat qizil rangdagi siyohdan foydalanishi lozim. O'quvchining yo'l qo'ygan
har bir xatosi aniq ko'rsatilishi lozim. O'quvchining yo'l qo'ygan har bir xatosi aniq ko'rsatilishi kerak.

13. Doskada bo'r bilan yozilgan yozuvlar ham yozuv qoidalariga mos kelishi kerak. O'qituvchi doskaga o'tayotgan materiallarni joylashtira bilishi ham katta ahamiyatga egadir.

14. Maktabda chiqarilgan har xil e'lonlar, maktab devoriy gazetasidagi maqola matnlari ham chiroyli qilib, yozuv qoidalariga amal qilgan holda yozilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida ko'rsatib o'tilgan shartlar amalga oshirilsa maktabda qat'iy yozuv rejimini amalga oshirish mumkin.

**Xatolarni tuzatish**

Dastur talablariga muvofiq, 4-sinfning oxiriga kelib, har bir o'quvchi tez va chiroyli yozilishi lozim.

Ammo shunday o'quvchilar ham uchraydiki, ular yozuv malakasini to'la egallab ololmaydilar, harflarning shaklini pala-partish, katta-kichik qilib har xil yozadilar. O'qituvchilar tomonidan noto'g'ri yozilgan harflarni tuzatish har bir predmet o'qituvchisining eng muhim va qiyin vazifalaridan biridir. Bu masalani ehtiyotlik bilan hal etish lozim.

Kamchilikarni tuzatishga kirishishdan oldin uning asosiy xatosi nimada ekanligini  aniqlash zarur.

O'quvchilarning yozuvlarida keng tarqalgan kamchiliklardan biri ayrim harflaning noto'g'ri ifodalanishi sababli xatning o'qib bo'lmasligidir. Ayrim o'quvchilar esa harflarni quyidagicha buzib, har xil balandlik va qiyalikda yozadilar:

Bu o'z navbatida o'qishni qiyinlashtiradi, yozilgan matnni noaniqlikka olib keladi.

Ayrim o'quvchilar esa har bir harfni alohida-alohida ajratib qo'l harakatini uzib yozadilar:

Aksincha, ayrim o'quvchilar esa juda yirik, haddan tashqari mayda, yozuv qo'lni charchatadi, o'qishni qiyinlashtiradi, yirik yozuv esa yozuv tezligini kamaytiradi va o'quvchi buning uchun ko'p vaqt sarflaydi.

Shuning uchun o'quvchilarda uchraydigan ayrim tipik xatolarni o'z vaqtida, ya'ni harflarning shaklini yozishga o'rganayotgan vaqtda tuzatish lozim.

Quyida o'quvchilarning yozuvlarida uchraydigan ayrim tipik xatolarni ko'rsatib o'tamiz:

1. Tagi ilmoqli kichik tayoqcha shaklidagi elementni yozishda siniq chiziq hosil qiladilar va quyidagicha tor yoki keng qilib yozadidar;

2. Tagi va usti ilmoqli kichik tayoqcha shaklidagi elementni quyidagicha buzib yozadilar;

Biz o'quvchilarning yozuvlarida uchraydigan ayrim tipik xatolar faqat kichik harflarga taalluqli bo'lganini ko'rsatib o'tdik bunday kamchiliklar bosh harflada ham uchrashi mumkin. Bosh harflarda uchraydigan tipik xatolarni ham ona tili darslarida ko'rsatib, tanishtirib borish mumkin.

Harflarning shakli buzilishiga ishning to'g'ri tashkil etilmaganligi, yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanmasak ham sabab bo'ladi.

Xati xunuk o'quvchi ko'pincha avtoruchkani noto'g'ri ushlaydi yoki o'zi noto'g'ri o'tiradi. Avtoruchkada siyohning yetarli bo'lmashgi yoki sharikli avtoruchkaning pastasi qotib qolishi ham yozuvning buzilishiga olib keladi.

Ayrim hollarda o'quvchining ko'rish qobiliyati yaxshi bo'lmasa ham yozuv buzilishi mumkin.

O'qituvchi o'quvchilarning yozuvlari buzilish sabablarini aniqlash bilan birga, uni bartaraf etish yo'llarini topishi kerak.

Agar o'quvchilar harflarning shaklini butunlay noto'g'ri yozsalar yoki harflarning baland va qiyaligiga e'tibor bermasalar, unda o'quvchilar bilan qaytadan mashqlar o'tkazish lozim. Qayta mashq o'tkazishda o'qituvchi o'quvchilarining diqqatini ko'proq, butunlay o'zgacha yoziladigan harflarning shakliga qaratishi lozim.

Yozuv malakasi past bo'lgan o'quvchilarni ravon, tekis qilib yozishga o'rgatish, chamalash qobiliyatini o'stirish va harflarni umumiy qoidaga amal qilishga o'rgatiladi. Harflarning qiyaligini to'g'ri saqlashga o'rgatishda qo'l va barmoq muskullarining harakatini o'stiruvchi mashqlar muhim rol o'ynaydi.

Yomon yozadigan o'quvchilarning har bir bajargan mashqlarini o'qituvchi kuzatib va tekshirib borishi zarur.

Davr o'zgarishi bilan yozuv qurollari ham takomillashib bormoqda. Ularga bo'lgan munosabatlar ham o'zgarmoqda. Ayniqsa. soddalashtirilgan yozuv sistemasining tezligiga va harflarni qo'l harakatini uzmay bog'lab yozishga talab kuchaydi.

Xalq maorifi sistemasini qayta qurish davrida maktablarimiz oldida chiroyli yozuvga o'rgatishni takomillashtirish borasida qator yechilmagan muammolar mavjud.

Olti yoshli bolalarga yozuv malakasini singdirish o'qituvchilardan chidam va mahorat talab etadi. Shuning uchun biz bu haqda kengroq to'xtalib, tayyorgarlik mashqlarini o'tkazish uchun aniq ko'rsatmalar berdik. Bu davrda chiroyli yozuvga o'rgatishning murakkabligini hisobga olib, yozuv malakasini shakllanishida asosiy rol o'ynovchi yordamchi qiya chiziqlarni saqlab qodik. Faqat ikkinchi sinfdan boshlab bir chiziqli daftarga yozdirib mashq qildirish mumkin.

Boshlang'ich sinflarda chiroyli yozuv malakasini shakllantirish uchun faqat harflar namunasidan, husnixat darsliklari bilan kifoyalanib qolmasdan, turli texnika vositalari: diafilm, epidiaskoplardan ham foydalanish yaxshi samara beradi.

Husnixat malakasini shaklantirish bundan keyin ham yanada takomillashib boriladi.

Bu harfni yozishda pastdan yuqoriga qiya chiziqcha chiziladi, yuqoridan pastka kichik tayoqcha tushiriladi va qo'l harakatini uzmasdan turib yana tagi ilmoqli kichik tayoqcha tushiriladi.

7. O'quvchilarni komanda bilan turg'azib, oldin o'rganilgan badantarbiya mashqlaridan 2-3 tasini bajartiriladi. Bu mashqlar 2-3

daqiqadan oshmasligi kerak. Mashq tugagandan so'ng yana yozuv mashqlari davom ettiriladi.

8. O'qituvchi doskada kichik m harfining elementlarga ajratmay, bir butun shaklda yozilishini ko'rsatib beradi. O'quvchilar o'qituvchining ko'rsatmasiga muvofiq yozishni davom ettiradilar.

9. Bolalarga kichik m harfining bir necha kichik harflar bilan bog'lanishi ko'rsatib berilgandan so'ng o'quvchilar o'z daftarlarida mashq qiladilar.

10. Uyga vazifa. Daftarga ikki qator m harfini va shu harf bilan bog'langan so'zlarni yozib kelish topshiriladi. O'qituvchi uy vazifalarini bajarish vaqtida ham yozuv qoidalariga qat'iy amal qilish lozim ekanligini eslatib o'tadi.

11. Dars jarayonida toza va chiroyli yozgan o'quvchilarning daftarlari namuna qilib ko'rsatiladi, rag'batlantiriladi va shunday chiroyli, toza yozish zarurligi uqtiriladi.

Husnixat mashg'ulotlarini yuqorida ko'rsatilgani kabi uyushtirish chiroyli va to'g'ri yozish malakasini hosil qilish, o'quv mashg'ulotlarini puxta o'zlashtirishga yordam beradi.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKA OLIY VA O'RTA MAXSUS**

*TA'LIM VAZIRLIGI*

*T YE R M I Z D A V L A T U N I V YE R S I T YE T I*

*PEDAGOGIKA VA MUSIQA FAKULTETI*

*«BOSHLANG'ICH TA'LIM» KAFEDRASI*

# ***«O'zbek tili» fanidan ma'ruza matni***

*Tuzuvchi: k.o'qit. Norqulova Mazifa*

*Termiz-2007*

*Ma'ruza mavzusi: Morfemika*

*Dars rejasi:*

***I. Morfermika haqida ma'lumot:***

***II. Morfema uning turlari: o'zak morfema, affiksal morfema:***

***III. Affiksal morfemalarning ma'no va vazifasiga ko'ra turlari:***

***1. So'z yasovchi affikslar, ularning turlari:***

***1) unumli so'z yasovchi affikslar;***

***2) kam unumli so'z yasovchi affikslar;***

***3) unumli so'z yasovchi affikslar;***

***2. Shakl yasovchi affikslar, ularning turlari:***

***1) kategorial shakl yasovchi affikslar;***

***2) nokategorial shakl yasovchi affikslar;***

***IV. Affikslarning tuzilishiga ko'ra turlari:***

***1)Sodda affikslar;***

***2)Qo'shma affikslar;***

***V. Affikslarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra***

***1)omonim affikslar;***

***2)sinonim affikslar;***

***3)antonim affikslar;***

*VI. Negiz, uning turlari:*

*1)tub negiz;*

*2)yasama negiz;*

*I. Morfemika-so'zning ma'noli qismlari haqida ma'lumot.*

*Grammatikada so'zning ma'noli qismlari morfema deb yuritiladi. Masalan: sinfdoshlarim so'zi sinf, -dosh, -lar, -im qismlaridan iborat. Bu so'z tarkibidagi har bir qism o'ziga xos ma'noga ega, ularni boshqa bo'lib bo'lmaydi. Demak, morfema-so'zning eng kichik bo'linmas qismi.*

*II. Morfema bildiradigan ma'nolariga ko'ra 2 turga bo'linadi: 1) o'zak morfema; 2) affiksal morfema.*

*1.O'zak morfema so'zda albatta qatnashadigan va leksik ma'no anglatadigan morfemadir. O'zak morfema so'z yasalish uchun ham, forma yasalish uchun ham asos bo'la oladi. Masalan, yaxshilik, yaxshila so'zlaridagi yaxshi o'zagi ot yasalish va fe'l yasalish uchun asos bo'lib kelgan; yaxshiroq, yaxshigina so'z shakllaridagi yaxshi o'zagi qiyosiy daraja hamda modal shakl yasalishiga asos bo'lgan.*

*2.Affiksal morfema so'zning asosiga qo'shilib, mustaqil leksik ma'no anglatmaydigan, so'zning leksik yoki grammatik ma'nolarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan morfemadir. Masalan, ishchi, gulla, aqlli, do'stona so'zlaridagi -chi, -la, -li, -ona, affiksal morfemalari so'zlarning leksik ma'nosini shakllantirib, yangi so'z ot, fe'l, sifat ravish yasagan; qadrlanadigan so'zi tarkibidagi -n, -a, -digan, affiksal morfemalari mashhurlik nisbati, ravishdosh, sifatdosh formalarini shakllantirishga xizmat qilgan.*

*Affiksal morfemalar bajaradigan vazifalarga ko'ra ikki turga bo'linadi: 1) so'z yasovchi; 2) shakl yasovchi affikslar*

*So'z yasovchi affikslar yangi so'z hosil qiladi, so'zning leksik ma'nosini shakllantiradi. Masalan, yaxshilik, mardlik, ahillik so'zlaridagi -lik affiksi belgi ma'nosini anglatuvchi o'zaklardan ot yasagan; odobli, mazmunli, nash'ali so'zlaridagi-li affiksi ot asosida sifat yasagan.*

*So'z yasovchi affikslar bir turkum doirasiga mansub yangi so'z yasashga (bola -lik, sir -dosh, archa -zor otdan ot yasagan) va bir turkumdan boshqa turkum so'zi yasashga xizmat qiladi: gul-la, gap-ir, zavq-lan (otdan fe'l yasalgan); bil-im, ek-in, suz-ma (fe'ldan ot yasalgan).*

*So'z yasovchi affikslarning so'z yasash darajasi bir xil emas. Ayrim affikslar juda ko'p miqdorda yangi so'z yasash uchun xizmat qilsa, ba'zilari kamroq so'z yasaydi yoki so'z yasash xususiyatini hozir umuman yo'qotgan. Shunga ko'ra so'z yasovchi affikslar uch turga ajratiladi: 1) unumli affikslar; 2) kamunum affikslar; 3) unumsiz affikslar*

1. *Juda ko'p yangi so'z yasashga xizmat qiladigan affikslar unumli affikslar deyiladi: tarixchi, sportchi, ishchi, aqlli, g'ayratli, mazmunli, oqla, yangila, ishla, moslama, boshqarma, yoshlik, tinchlik do'stlik kabi*
2. *Kamroq so'z yasash uchun xizmat qiladigan affikslar kamunum affikslar deyiladi: elak, kurak, taroq, mehnatkash, zahmatkash, ekin, yig'in, tugun.*
3. *Hozirgi tilda yangi so'z yasash xususiyatini yo'qotgan affikslar unumsiz affikslar hisoblanadi. Bu affikslar o'zbek tilida ma'lum davrlarda yangi so'zlar yasash uchun xizmat qilgan bo'lsa ham, hozirgi paytda tilda sanoqli so'zlar tarkibida saqlanib qolgan: epchil, dardchil, yugurdak, kekirdak kabilar.*

*Shakl yasovchi affikslar so'zning leksik ma'nosini o'zgartirmaydi, yangi so'z yasamaydi, balki shu so'zning grammatik ma'nosini shakllantiradi yoki unga yangi grammatik ma'no qo'shadi.*

*Shakl yasovchi affikslar o'z xususiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi: 1)kategorial shakl yasochi affikslar; 2) nokategorial shakl yasovchi affikslar.*

*Kategorial shakl yasovchi affikslar so'zlarning o'zgarishi bilan bog'liq bir butun sistemani tashkil qilgan va ular ma'lum grammatik kategoriyalarga, paradigmalarga birlashadi. Jumladan, ot va otlashgan so'zlarga xos grammatik son, egalik, kelishik shakllarini yasovchi affikslar; fe'llarga xos nisbat, zamon, shaxs-son, mayl shakllarini yasovchi affikslar kategorial shakl yasovchi affikslarga kiradi.*

*Nokategorial shakl yasovchi affikslar grammatik ma'no ifodalovchi shakl yasaydi. Ammo ular shakllar sistemasini-paradigmani hosil qilmaydi. Bular asosan quyidagilar:*

1. *Otlarda erkalash, kichraytirish kabi har xil ma'nolarni anglatuvchi shakl yasovchi affikslar: -cha, -gina, - choq, -loq, qizcha, qizgina, qo'zichoq, bo'taloq.*
2. *Sifat va ravishlarda moyillik -gina: yaxshigina, tezgina, sifatlarda belgining kuchsiz ekani kabi ma'no anglatuvchi shakl yasovchilar: (-(i)sh, -(i) mtir, ko'kish, ko'kimtir)*
3. *Sonning ma'no turlarini yasovchi affikslar: -ta, -tacha, -lab, -ov, -ila -(i)nchi: ikkita, o'ntacha, yuzlab, beshov, uchala, to'rtinchi*
4. *Fe'llarda sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi shakllarini yoki harakatning takror, davom, kuchsizlanish kabi shakllarini yasovchi qo'shimchalar: borgan, borib, yuborish, kulimsiramoq, turtkilamoq kabi.*

*So'z yasovchi affikslar so'zning material qismiga leksik ma'no ifodalovchi qismiga kiradi. Shakl yasovchi esa so'zning formal qismiga kiradi. Masalan, terimchilarimizga so'zida terimchi-material, qism, undan keyingi qism esa formal qism (so'z shakli) hisoblanadi.*

*IV. Affikslar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:*

*1) sodda affikslar; 2) qo'shma affikslar.*

*Masalan: gulzor, gulni so'zlaridagi-zor, -ni affikslari sodda affikslar. Sodda affikslar ma'nolik qismlarga bo'linmaydi.*

*Qo'shma affikslar ikki va undan ortiq affikslarning birikib, bir affiks holiga kelib qolgan affikslardir. Masalan: mo'lchilik, odamgarchilik so'zlari tarkibidagi -chilik, -garchilik affikslari qo'shma affikslarga kiradi.*

*V. Affikslarni shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra 1)omonim affikslar; 2) sinonim affikslar; 3) antonim affikslarga ajratish mumkin.*

*Shakl bir xil bo'lib ma'no jihatdan turlicha turkumlarga xos so'z yasovchi va shakl yasovchi affiks omonim affiks deyiladi. Masalan; -lik (I) -ot yasovchi: mardlik, do'stlik.*

- *lik (II) -sifat yasovchi: yillik, toshkentlik;*
- *ma (I) -fe'lning bo'lishsiz shaklini yasovchi: borma, kelma;*
- *ma (II) -ot yasovchi: tugma, suzma;*

- ***ma (III)  -sifat yasovchi: yozma, yig'ma omonim affikslar***

***Shakllan har xil bo'lib, bir-biriga o'xshash yoki juda yaqin ma'no bildiruvchi affiks sinonim affiks deyiladi. Masalan, o'rinsiz-noo'rin, gulla, guldor.***

***Qarama-qarshi ma'noli so'zlar yasovchi affikslar antonim affikslar deyiladi. Masalan, suvsiz-suvli, foydali-befoyda va boshqalar.***

***VI. So'zning morfologik tarkibida leksik ma'no anglatuvchi qism bilan grammatik ma'no ifodalovchi qism farqlanadi. So'zning leksik ma'nosini anglatuvchi qismiga negiz deyiladi. Grammatik ma'no anglatuvchi qism ma'lum tartibda shu negizga qo'shiladi.***

***Negiz tub va yasama bo'ladi.***

***Tub negiz so'zning o'zak morfemasiga teng keladi. Masalan, yer-ga, havo-ni, toza-roq.***

***Yasama negiz tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma va juft bo'ladi: darsliklar, tinchliksevar, ota-ona-ni.***

*Tekshirish savollari:*

1. Morfema nima?
2. ***Qanday morfemalarni bilasiz?***
3. ***O'zak morfema nima?***
4. ***U affiksal morfemalardan qanday farq qiladi?***
5. ***Affikslarning bajaradigan vazifasiga ko'ra qanday turlarini bilasiz?***
6. ***Ularning o'zaro farqi nimada?***
7. ***Sintaktik munosabat ifodalaydigan va ifodalamaydigan shakl yasovchi affikslar o'zaro qanday farq qiladi.***
8. ***Sodda va qo'shma affikslar nima?***
9. ***Affikslar shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra qaysi turlarga ajratiladi?***
10. ***Omonim affikslar qanday affikslar?***
11. ***Sinonim affikslar-chi?***
12. ***Antonim affikslarning xususiyatlari nimada?***

*Tayanch tushunchalar:*

***Morfemika, morfema, o'zak, affiks, so'z yasovchi affiks, shakl yasovchi affiks.***

*Ma'ruza mavzusi: Grammatika*

*Dars rejasi:*

***I. Grammatika, uning til tizimida tutgan o'rni***

***II. 1. So'z-shakl va grammatik ma'no***

***2. Grammatik ma'noni ifodalovchi vosita va usullari***

***III. Grammatik shakl va uning turlari***

***IV. Grammatik kategoriya***

***Hozirgi o'zbek tili tuzilishi jihatdan murakkab bo'lib, uning tarkibiy qismlari: lug'at boyligi, tovushlar tizimi va grammatik qurilish o'zaro zich bog'langani holda, yaxlit bir tizimni, til tizimini vujudga keltiradi. Mana shu tizimdagi ma'lum bir qism boshqasisiz yashay olmaydi. Lug'at boyligidagi so'z va iboralarni nutq tovushlari shakllantiradi. Nutq tovushlaridan tashkil topgan so'z va iboralar tilning grammatik qurilishi bilan bog'liq bo'lgan so'z birikmalari va gapni shakllantiradi.***

***Til tizimidagi tovushlar sistemasi va lug'at boyligi bilan tanishgan edik. Tilning tizimiga kiruvchi grammatik qurilishni grammatika sohasi o'rganadi.***

*Grammatika so'zlarning gapda o'zgarishi va ularning o'zaro birikib, so'z birikmasi, gap hosil qilishi haqidagi qoidalar to'plamidir.*

*Grammatika 2 qismdan: morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiyada so'z turkumlari va ularga xos bo'lgan shakllar haqida bahs, yuritilsa, sintaksisda so'zlarning bir-biri bilan bog'lanib, gap so'z birikmasi yuzaga kelishi tekshiriladi.*

*So'z shakl (so'z forma) va grammatik ma'no*

*Leksema yoki leksik so'z ma'no va ifoda birligidan iborat bo'lganidek masalan: «kitob» so'zi -1) o'qish quroli, 2) k,i,t,o,b tovushlaridan iborat, so'z shakl ya'ni grammatik so'z ham grammatik ma'no va grammatik ifoda birligidan, boshqacha aytganda grammatik ma'no va shakl birligidan iboratdir. Jumladan, «o'qish quroli» tushunchasi anglatuvchi kitob so'zi ot, birlik son, bosh kelishik ma'nosini ham bildiradi. Bunda kitob so'zining «o'qish quroli» tushuchasini ifodalashi -uning leksik ma'nosi sanaladi va shu so'zning otga mansubligi, birlik son va bosh kelishikda ekani uning grammatik ma'nosi hisoblanadi.*

*So'zning grammatik ma'nosi uning leksik ma'nosi bilan belgilanmaydi. Maslaan, suv, havo, shamol, bulut kabi so'zlarning leksik ma'nolari turlicha, ammo grammatik ma'nolari bir xil, ya'ni bularning barchasi birlikdagi, bosh kelishikdagi otlardir.*

*Va aksincha, birgina leksik so'z, leksema turli shakllarda qo'llanib, har xil grammatik ma'noni ifodalaydi. Masalan, o'qimoq fe'lining tuslanishli shakllari quyidagi grammatik ma'nolarni anglatishi mumkin: o'qiyapman-hozirgi zamon davom fe'lining I shaxs birlik ma'nosi, o'qiyapsan-hozirgi zamon davom fe'lining II shaxs birlik ma'nosi, o'qiyapti-hozirgi zamon davom fe'lining III shaxs, birlik ma'nosi.*

*Shunday qilib, so'zning grammatik ma'nosi uning leksik ma'nosidan farq qiladi, ammo ular bir-biri bilan zich bog'langan bo'ladi. Demak, so'zning ma'lum bir turkumga mansubligini ko'rsatuvchi hamda uning biror shaklidan kelib chiquvchi ma'nosi so'zning grammatik ma'nosi deyiladi.*

## Grammatik ma'noni ifodalash vosita va usullari

O'zbek tilida so'zning grammatik ma'nosi quyidagi vosita va usullar orqali ifodalanadi:

1. ***Affiksasiya usuli. Bunda grammatik ma'no turli shakl yasovchi affikslar yordamida ifodalanadi: maktablar, maktabga, oddiyroq.***
2. ***Yordamchi so'zlardan foydalanish. Mustaqil ma'noli so'zlar yordamchi so'zlar (ko'makchilar, yuklamalar) vositasida ma'lum grammatik ma'noga ega bo'lishi mumkin: Maktab tomon piyoda yurildi.***
3. ***Takrorlash orqali ham grammatik ma'no anglashiladi: dasta-dasta (gul), ... (ko'plik ma'nosi)***
4. ***Suipletivizm. Bunda o'zaro bog'langan, ma'lum bir tizimni tashkil qilgan grammatik ma'nolarni ifodalash uchun alohida-alohida so'zdan foydalanish usuli. Masalan: men-sen, sen-siz; rus tilida: chelovek-lyudi, xoroshiy-luchshe; ingliz tilida good-better-best-uent...***
5. ***Urg'u grammatik ma'noni ifodalash uchun xizmat qilishi mumkin: fizik (ot)- fizik (sifat), yangi (sifat)-yangi (ravish).***

## So'zning grammatik shakli

So'zning ma'lum bir grammatik ma'no ifodalovchi ko'rinishi uning grammatik shakli deyiladi. Masalan, daraxtlar so'zida konkret bir predmet leksik ma'nosidan tashqari, shu predmetning ko'pligi ham ifoda etiladi. Ko'plik ma'nosi leksik ma'noga qo'shiluvchi grammatik ma'no bo'lib, -lar affiksli shakl orqali ifodalangan.

O'zbek tilida so'zlar bir grammatik ko'rsatgichli yoki ko'p grammatik ko'rsatgichli shaklda bo'lishi mumkin. Masalan: mamlakatlar -1 grammatik ko'rsatgichli shakl, mamlakatlariga -3 grammatik ko'rsatgichli shakl...

Hozirgi o'zbek tilida so'zlarning grammatik shakllari affikslar (qo'shimchalar) yordamida, yordamchi so'zlar vositasida, so'zlarni juftlash yoki takrorlash orqali hosil qilinadi. Shunga ko'ra so'zlarning quyidagi grammatik shakllari farqlanadi:

1. Sintetik shakl. Shakl yasovchi qo'shimchalarga ega bo'lgan so'zlar: kitobni o'qiyapmiz.

2. Analitik shakl. Yordamchi so'zlar vositasida hosil bo'ladigan so'zlarning shakli: dugonasi bilan, ukasi uchun
3. Juft va takroriy shakl. Ikki so'zni juftlash yoki bir so'zni takrorlash bilan ham so'zning grammatik shakli yuzaga kelishi mumkin. Masalan: baxt-saodat, katta-kichik (umumlashtirish ma'nosi), savat-savat (non), xirmon-xirmon (paxta) (ko'plik ma'nosi)

Demak so'zning u yoki bu shakli maxsus vosita va usullar orqali yuzaga keladi. Ammo o'zbek tilida so'zlarning maxsus grammatik ko'rsatgichga ega bo'lmagan shakllari ham mavjud.

Masalan: institutga-institut 0 (bosh kelishik),
Binolar-bino 0 (birlik son),
Bormadi-bor 0da (borishli fe'l).

So'zning formalari (shaklllari) tizimida ko'rsatgichga ega bo'lmagan maxsus ko'rinishi nol ko'rsatgichli shakl hisoblanadi. Bu shakl so'z formalari tizimida belgilanadi.

Grammatik kategoriya

Bir-biriga qiyosan olinadigan 2 yoki undan ortiq grammatik ma'no bilan shu ma'noni ifodalovchi grammatik shakllari birlikda grammatik kategoriyani hosil qiladi. Masalan: otlarda bosh, yo qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari ma'nolari bilan shu ma'nolari bilan shu ma'nolarini ifodalovchi shakllar birgalikda kelishik kategoriyasini tashkil etadi.

Demak, bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishi mumkin bo'lgan ikki va undan ortiq grammatik ma'nolari va shu ma'nolarga xos bo'lgan grammatik shakllargina birgalikda grammatik kategoriyani yuzaga keltiradi.

O'zbek tilida ot va otlashgan so'zlarning son, egalik, kelishik grammatik kategoriyalari, sifatlarning, qisman ravishlarning daraja grammatik kategoriyasi, fe'llarning esa bo'lishli, bo'lishsizlik, nisbat, mayl, zamon, shaxs-son grammatik kategoriyalari mavjud.

**Tekshirish savollari:**

1. Grammatika nima?
2. Grammatik ma'noni qanday tushunasiz?

3. Grammatik ma'noning qanday vosita va usullarini bilasiz?
4. Grammatik shakl nima?
5. Uning qanday ko'rinishlari bor?
6. Grammatik kategoriya nima?
7. So'zning sintetik shakli qanday shakl?
8. So'zning analitik shakli qanday shakl?
9. Juft va takroriy shakl nima?
10. Nol ko'rsatgichli shakl qanday shakl?

**Tayanch tushunchalar:**

Grammatika, grammatik ma'no, grammatik shakl, grammatik kategoriya.

## Ma'ruza mavzusi: O'zbek tilida so'z yasalishi va so'z yasash usullari.

**Dars rejasi:**

1. Tub va yasama so'z haqida tushuncha
2. O'zbek tilida so'z yasalish; so'z yasash usullari
3. So'zlarning tuzilishi jihatdan turlari

1. O'zbek tili lug'at tarkibidagi (shuningdek nutqimizda qo'llanadigan) so'zlar dastlab tub va yasama so'zlarga bo'linadi.

Masalan: paxta-tub so'z, paxtakor esa yasama so'z; bug'doy, rang so'zlari alohida-alohida olinganda tub so'zlar, ammo bug'doy rang (rangning bir turi)-yasama so'z; tog'-tub so'z, ammo tog'ma-tog' yasama so'z; besh, o'n tub

so'zlar, o'n besh yasama so'z; qo'l, so'zlari alohida-alohida tub so'zlar sanalsa, qo'l qo'ydi yaxlit holda yasama so'z hisoblanadi.

So'z yasovchi affiksi bo'lmagan so'zlar tub so'z deyiladi.

Ma'lum bir so'z negizida ma'no jihatidan (ba'zan ham ma'no, ham grammatik jihatdan) undan farqlaydigan yangi so'z (yangi leksik birlik) hosil qilish so'z yasash deyiladi, qiyoslang: ish- ishchan, jon-jonlandi, oq-oqla, g'alla-g'allazor.

2. Hozirgi o'zbek tilida so'z yasashning asosan ikki usuli ajratiladi:

   1) affiksasiya (yoki morfologik) usuli;
   2) kompozisiya (yoki sintaktik) usuli;

O'zakka so'z yasovchi qo'shimcha qo'shish orqali yangi leksik birlik hosil qilish affiksasiya usuli bilan so'z yasashdir.

Masalan: mevali daraxt, serhosil yer kabi birikmalardagi mevali, serhosil yasama so'zlar bo'lib, ular meva o'zagiga-li, hosil o'zagiga ser- affikslarini qo'shish orqali yasalgan so'zlardir.

Ikki va undan ortiq so'z formalarining (ko'pincha mustaqil so'zlarning qo'shilib (yoki tizilib) bir so'zga aylanishi kompozisiya usuli bilan so'z yasashdir.

Masalan: belbog', oshqazon, mehmondo'st, so'z boshi, bir yuz o'n, ahd qilmoq, bir oz va boshqalar.

Juftlik modeli (qolipi) da qo'llangan ayrim so'zlar ham yasama so'z sanaladi, masalan: yildan-yilga, zo'r-bazo'r, uyma-uy kabi.

O'zbek tilida so'zlar tuzilish jihatdan ham turlarga ajratiladi, chunonchi: sodda so'z, qo'shma so'z, juft so'z (takroriy so'z), murakkab so'z. Sodda so'z bitta o'zak morfemasi bo'lgan so'zdir. Masalan: bola, bolalik, bolalar, bolalarimiz kabi.

Kunboqar, gultojixo'roz, Oqqo'rg'on, sohibjamol kabi so'zlar qo'shma so'z deyiladi. Bu kabi so'zlar ikki va undan ortiq so'z yoki so'z formalaridan tashkil topib, bir urg'uga birlashadi va bir tushunchani ifodalaydi.

Tarkibi alohida-alohida yoziladigan leksik va grammatik ma'nolari ayrim holda ham, bir butunlik hosil qilgan holda ham izohlanishi mumkin bo'lgan so'zlar murakkab so'z deyiladi. Masalan: to'q sariq, och jigar rang, yigirma besh ming, borib keldi, sotib yubordi kabi.

Nutqimizda qo'llanadigan opa-singil, non-pon, tog'-tosh, onda-sonda, tez-tez, xirmon-xirmon, chala-chulpa, o'n-o'n besh, suv-puv kabi so'zlar juft so'z deb yuritiladi.

**Tekshirish savollari**:

1. Tub va yasama so'z nima?
2. So'z yasash nima?
3. So'z yasashning qanday usullarini bilasiz?
4. So'zlar tuzilish jihatdan qanday turlarga bo'linadi.
5. Affiksasiya usuli bilan so'z yasalishi nima?
6. Affiksasiya usuli bilan qaysi so'z turkumlari yasaladi?
7. Kompozisiya usuli so'z yasashning qanday usuli?
8. Abbrevasiya usuli bilan so'z yasalishi siz qanday tushunasiz?
9. Qisqartma otlarning qanday ko'rinishlarga ega?
10. So'z yasalishining yana qanday usullari bor?

**Tayanch tushunchalari:**

Tub va yasama so'zlar, so'zlarning affiksasiya usuli bilan yasalishi, so'zlarning kompozisiya usuli bilan yasalishi.

## Ma'ruza mavzusi: So'z turkumlari.

**Dars rejasi:**

1. So'zlarni guruhlarga - so'z turkumlariga ajratish tamoyillari:
   1) leksik-semantik tamoyil;
   2) morfologik tamoyil;
   3) sintaktik tamoyil.

2. So'z turkumlari haqida umumiy ma'lumot

1. So'zlarni guruxlarga-so'z turkumlariga ajratish tamoyillari.

Nutqimizda mavjud so'zlar bir-biridan ma'no va grammatik xususiyatlari jihatidan farq qiladi. Shunga ko'ra so'zlar ma'no va grammatik xususiyatlarning o'xshashligi jihatidan ayrim-ayrim leksik-grammatik

guruhlarga-turkumlarga ajratiladi. So'zlarni turkumlarga ajratish uch tamoyilga tayanadi:

1) leksik-semantik tamoyil;
2) morfologik tamoyil;
3) sintaktik tamoyil;

### 1) Leksik-semantik tamoyil

Leksik-semantik tamoyiliga ko'ra so'zlarni guruxlarga ajratishda uning leksik ma'nosiga qaraladi.

Masalan: tuz, non, kitob, tinchlik, daryo, tog', osmon kabi so'zlar predmetlik ma'nosini (bunday so'zlar ot so'z turkumi deb nomlangan); katta ko'cha, shirin olma, tiniq osmon, ko'k ko'ylak kabi so'zlar predmetning belgisini (sifat deb nomlangan); asta o'qidi, do'stona gapirdi, tasodifan duch keldi, piyoda yurdi kabilar ish-harakatning belgisini (ravish deb nomlangan); beshta daftar, yuzlab odam, ikkinchi kurs, o'ntadan o'quvchi kabi so'zlar predmetning miqdorini, tartibini (son deb nomlangan) ifodalaydi.

Ayrim so'zlar predmet, belgi, miqdor (men, sen, bu, shu, qachon, qancha, har kim, hech nima, qandaydir) kabilarni nomlab ko'rsatmasa ham, ularning mavjudligiga ishora qiladi. Bunday so'zlar olmoshlar deb nomlangan.

Ayrim so'zlar bormoq, kelmoq, yozmoq, kulmoq, uxlamoq kabilar harakat va holat ma'nosini (fe'l deb nomlangan) ifodalaydi.

Tilda shunday so'zlar ham (bilan albatta, yo'q va ammo, uchun, chunki -mi, -chi, -eh, -oh, dupur-dupur kabi) borki, ular mustaqil holda leksik ma'no ifoda etmaydi, biror hodisaning atamasi nomi bo'la olmaydi. Bunday so'zlar hozirgi o'zbek tilida ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, modal, undov, taqlid so'zlar deb yuritiladi.

Demak, bu tamoyilga ko'ra so'zlarni guruhlarga ajratishda ularning leksik-semantik xususiyati e'tiborga olinadi.

### 2) Morfologik tamoyil

Morfologik tamoyilga ko'ra so'zlarni guruhlarga ajratishda ularning morfologik shakllari asos qilib olinadi. So'zlarning qanday morfologik

shaklda kelishi uning  ma'no xususiyati bilan bog'liq. Masalan: predmet tushunchasini bildirgan so'zlar-otlar, egalik, kelishik, son kabi grammatik shakllarga ega; predmetning belgisini bildirgan so'zlar (sifat va ravishlar) daraja shakliga; harakat yoki holat ma'nosini bildirgan so'zlar -fe'llar nisbat, zamon, shaxs-son, mayl kabi shakllarga ega bo'ldi.

Predmet yoki shaxsga  ishora qilgan olmoshlar ham son, egalik, kelishik qo'shimchalarini olib, morfologik jihatdan o'zgarish xususiyatiga ega.

Yuqorida sanab o'tilgan mustaqil holda tushuncha ifoda etmaydigan ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, modal, undov va taqlid so'zlar  otlashganda shakllarga ega emas. Undov va taqlid so'zlar otlashganda morfologik jihatdan o'zgaradi.

### 3) Sintaktik tamoyil

Bu tamoyilga ko'ra so'zlarni guruhlarga ajratishda so'zlarning sintaktik tomoni, ya'ni gapda bajaradigan sintaktik vazifasi, qanday so'zlar bilan munosabatga kirish e'tiboga olinadi.

Predmet ma'nosini anglatuvchi so'zlarning shakllari ularning gapda bajaradigan vazifasi (ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol), qanday so'zlar grammatik munosabatga kirishishini bildiradi.

Masalan: Bulbul chamanni sevar, Odam-Vatanni.

Xalqimizning turmushi bo'ldi farovon paxtadan.

Belgi bildiradigan so'zlar predmet yoki harakat ifodalovchi so'zlar bilan grammatik munosabatga kirishib, gapda aniqlovchi yoki hol vazifasini bajaradi. Bunday so'zlarga sifat, son, ravish kabi so'z turkumlari kiradi.

Masalan: To'g'ri so'z qilichdan o'tkir.

Boya yelday uchib ketayotgan odam endi shoshilmasdi. (SH)

Talabalarimiz shahardagi yigirma to'rtinchi maktabga amaliyotga chiqishdi.

Predmet, belgi, miqdorning mavjudligiga ishora qiluvchi, ular o'rnida almashinib qo'llanuvchi so'zlar, ya'ni olmoshlar ham gapda turli xil grammatik shakllarda kelib, gap bo'lgan (ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol) vazifasini bajaradi.

Masalan: Hech kim atrofga qaramaydi. (K.I.)
Qanday bilay, birovning yuragini bilib bo'ladimi? (Oydin).
Seni mehnat yengmasin, sen mehnatni yeng (Maqol).

Tilda mavjud bo'lgan ayrim so'zlar leksik ma'no ifodalamaydi, morfologik shakllarga ega emas. Demak, ular gapda sintaktik vazifa bajarmaydi. Bunday ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar kiradi. Bunday so'zlar yuqorida sanab o'tilgan uch xususiyatga ega emas. Bunday so'zlar leksik ma'no anglatuvchi so'zlar orasidagi grammatik munosabatni shakllantiradi, gap yoki uning tarkibidagi ayrim so'zlarga qo'shimcha ma'no qo'shadi.
Masalan: O'qituvchi va o'quvchilar zalga yig'ilishdi.
Ukam uchun kitob oldik. Bu binoni men ko'rganman! -Sen-a?

Ayrim so'zlar (bor, yo'q, kerak, oh, uf, voy, duk-duk, piqir-piqir) biror hodisaning nomi bo'lmasa ham gapda gap bo'lagi, so'z-gap sifatida qo'llanadi. Masalan: Uzoqdan duk-duk ovoz kelardi. Boyagidek dupur bor, lekin qayoqdagi kelayotgani ma'lum emas. (M.Ism). Suv shildir-shildir oqmoqda.

## 2. So'z turkumlari haqida umumiy ma'lumot

So'zlarning leksik-sematik, morfologik va sintaktik tamoyiliga ko'ra guruhlarga ajratilishiga so'z turkumlari deyiladi. Demak, hozirgi o'zbek tilidagi barcha so'zlar shu uch tamoyilga tayangan holda so'z turkumlariga ajratilgan shunga ko'ra so'zlar quyidagi guruxlarga bo'linadi.

1. Mustaqil so'zlar: Ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish. Mustaqil holda leksik ma'no ifoda eta oladigan, biror morfologik shaklda kelib, gap bo'lagi vazifasini bajaradigan so'zlarga mustaqil so'zlar deyiladi.
2. Yordamchi so'zlar: ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar. Ular leksik ma'no ifoda etmaydi va gap bo'lagi vazifasini bajarmaydi. So'z va gaplar orasidagi munosabatni belgilaydigan yoki ularga qo'shimcha ma'no qo'shadigan so'zlarga yordamchi so'zlar deyiladi.
3. Modal so'zlar. So'zlovchining aytilayotgan fikrga bo'lgan turli munosabatni bildiradigan so'zlar deyiladi. Modal so'zlar yuklamalar singari modal ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi, lekin yuklamadan

farqli ravishda gapda gap bo'lagi, butun bir gap tarzida kela oladi. Modal so'zlar biroor so'zning atamasi emas.

4. Undov va taqlid so'zlar. Undov so'zlar so'zlovchining his-hayajonini, buyruq-xitobini bildirsa; taqlid so'zlar turli tovush, shu'la-harakat, holat kabilarga tovush orqali taqlidni bildiradi. Undov taqlid so'zlar gap bo'lagi sifatida ham qo'llanadi. Lekin mustaqil so'zlar kabi biror hodisaning atamasi, nomi bo'la olmaydi. Shuning uchun ham undov va taqlid so'zlar ham alohida guruhni tashkil etadi.

## Tekshirish savollari:

1. So'zlarni turkumlarga ajratishda qanday tamoyillarni bilasiz?
2. So'zlarni turkumlarga ajratishda nimalar asos qilib olinadi?
3. Leksik semantik tamoyilga ko'ra so'zlar turkumlarga qanday ajratiladi?
4. Morfologik tamoyilda-chi?
5. Sintaktik tamoyilda-chi?
6. So'z turkumlari nima?
7. O'zbek tilida nechta so'z turkumi mavjud? Ular qaysilar?
8. So'z turkumlari o'zaro qanday farq qiladi?

## Tayanch tushunchalar.

1. Leksik qsemantik tamoyil-so'zlarni turkumlarga ajratishda so'zning leksik ma'nosiga asoslangan tamoyil
2. Morfologik tamoyil-so'zlarni guruhlarga ajratishda so'zga qo'shiladigan morfologik shakllarga asoslangan tamoyil.
3. Sintaktik tamoyil-so'zlarni turkumlarga ajratishda so'zlarning gapda bajaradigan sintaktik vazifasiga asoslanadigan tamoyil.

4. So'z turkumlari-so'zlarning leksik-sematik, morfologik va sintaktik xususiyatlariga ko'ra ajratilgan so'zlar guruhi.

**Ma'ruza matni: Ot. Otning ma'no turlari**

**Dars rejasi:**

1. Ot va uning leksik-grammatik xususiyatlari (leksik ma'nosi, morfologik belgilari, sintaktik vazifasi).
2. Otning ma'no turlari: atoqli va turdosh otlar
3. Turdosh otlarning turlari: aniq va mavhum otlar, yakka va jamlovchi otlar

## 1. Ot va uning leksik-garmmatik xususiyatlari

Predmetning nomini (keng ma'noda) bildiruvchi mustaqil so'z turkumiga ot deyladi. Ot so'z turkumiga oid so'zlar kim? Nima? Kimlar? Nimalar? so'rog'laridan biriga javob berad:

Yer, quyidagi leksik-semantik xususiyati:

1)Keng ma'noda predmet ma'nosini ifoda etish otning leksik xususiyatidir. Predmet ma'nosini tirik mavjudotlar (parranda, qush, chumoli kabilar), yer va osmonga, kundalik turmushga oid narsalarning nomi (quyosh, oy, tog', tosh, daryo, tuz, non, choynak, qoshiq kabilar), o'simliklarning nomi (paxta, sholi, jo'xori, beda kabi), voqea-hodisalarning nomi (to'y, anjuman, majlis, shodlik, ishonch, kurash) o'rin  vaqt nomlari (yoz, kuz, pastlik, tepalik), atab qo'yilgan

shaxs va predmetlarning nomi (Toshkent, Zulfiya, Sirdaryo, «O'qituvchi» nashriyot kabi) ifoda etadi.

Shunga ko'ra otlar ma'no jihatdan 2 turga bo'linadi: atoqli va turdosh otlar. Samarqand, Akmal. «Qora ko'zlar» (roman), «Fan» (nashriyoti)-atoqli otlar. Kitob, daftar, kulgi, tinchlik, turdosh otlar.

Otning morfologik xususiyatlari:

1)Ot son kategoriyasiga ega, ya'ni predmet anglatuvchi so'zlar birlik va ko'plik sonda qo'llanadi.

2)Ot egalik kategoriyasiga ega, ya'ni predmetning (keng ma'noda predmetlik tushunchasi: shaxs voqea-hodisa va b) uch shaxsdan biriga taaluqligini, qarashliligini, mansubligini bildiradi: menning daftarim, sening ukang, uning quvonchi kabi

3)Ot kelishik kategoriyasiga ega. Otlar oltita kelishik ma'nosiga ega bo'lib, kelishik qo'shimchalari otning otga yoki otning fe'lga tobeligini ifodalaydi: bosh kelshik-kitob, qaratgich kelishik-kitobning., tushum kelishigi-kitobni, jo'nalish kelishigi-kitobga, o'rin-payt kelishigi-kitobda, chiqish kelishigi-kitobdan. (Zulfiyaning kitobi, kitobni sevadi) kabi.

4) Ot so'z yasalish xususiyatlariga ega. Ot va so'z turkumi faol so'z yasalish usullari morfologik, sintaktik; shuningdek faqat ot so'z turkumini yasaydigan abbrevasiya usuli bilan yasaladi: xizmatchi, kulgi, taroq, gulzor, quvonch (morfologik usul bilan); belbog', ko'zoynak, baxt-saodat, ota-ona (sintaktik usul); DAN, ToshDPU (abbreviasiya usuli bilan)

4)Otlarda modal forma yasalishi ham mavjud. Otlarda modal ma'no otning leksik ma'nosiga kichraytirish, erkalash, hurmat, kuchaytirish, gumon, noaniqlik, kesatiq kabi qo'shimcha ma'nolarni qo'shish bilan hosil qilinadi: qizcha, qo'zichoq, bo'taloq, bolagina, Karimjon, Ra'noxon, un-pun, non-pon kabi.

**Ot quyidagi sintaktik xussuiyatlarga ega**:

1)ot ot bilan bog'lanadi. Bosh va qaratgich kelishigidagi otlar ana shunday xususiyatga ega:

2)ot fe'l bilan bog'lanadi. Tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigidagi otlar fe'l bilan bog'lanadi: xatni o'qidi, xatga qaradi, xatda yozilgan kabi;

3)ot ba'zan sifat, ravish, son, olmosh, undovga ham bog'lanadi: osmon tiniq, uylar ko'p, maqsadim shu kabi
4)bosh kelishik shaklidagi ot gapdaega, kesim, sifatlovchi kabi gap bo'laklari vazifasida; undalma, nomenativ gap bo'lib keladi.
Masalan: O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat (I.Karimov). Olim kishi o'zining ilmi va odobiga tayanadi. (Oz-oz o'rganib dono bo'lur). Seni ulug'layman, ey ona xalqim (A.O.) Subhidam. Quyosh yotog'idan bosh ko'tardi. (P.Q.)
5)Qaratgich kelishigidagi ot qaratuvchi-aniqlovchi vazifasida keladi; Sen Pushkinning sevgan malagi (A.O.)
6) Tushum, jo'nalish, o'rin-prayt va chiqish kelishigi shaklidagi otlar to'ldiruvchi, hol, ba'zan kesim vazifasini bajaradi.
Masalan: Bayramni munosib mehnat tortiqlari bilan nishonlashdi. (S.A.) Bog'chada daraxtlar oltin rang bilan tovlanardi. (O) Oltin o'tda bilinadi, odam mehnatda (Maqol)

## 2. Otning ma'no turlari.

Otlar ma'no jihatdan ikki turga bo'linadi: turdosh otlar va atoqli otlar:

Turdosh otlar. Bir turdagi predmetlarning, hodisalarning umumlashtiruvchi nomi turdosh ot deyiladi: stol, kitob, tanbur, baxt, kulgi, anjuman kabi. Turdosh otlar atoqli otlarga qaraganlar ko'p miqdorni tashkil qiladi. Turdosh  otlar kichik harf bilan yoziladi.

Atoqli otlar. Bir xildagi predmet (shaxs) yoki hodisalardan birini ayirib ko'rsatadigan otlar atoqli otlar deyiladi.

Atoqli otlar atab qo'yilgan nomlarni ifodalaydi. Atoqli otlarga quyidagilar kiradi:

1. Kishilarning ismi va familiyalari: Murod, O'ktam, O'tkir, Maxmudjon, Axmedov
2. Yozuvchi va shoirlarning taxalluslari: Oybek, Uyg'un, Muqimiy, Furqat
3. Uy havonlariga atab qo'yilgan nomlar: Lopar, To'rtko'z, Mosh
4. Planeta, yulduz va sayyoralarning nomlari: Yer, Zuhar, Yetti qaroqchi, Mirrix

5. Geografik nomlar (shahar, qishloq, tog', daryo, ko'l, cho'l, qit'a nomlari): Toshkent, Marg'ilon, Chotqol, Pomir, Ohangaron, Chirchiq, Osiyo.
6. Oliy Davlat va yuqori tashkilotlarning nomlari: O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Oliy Kengashi
7. Ilmiy muassasalar, oliy o'quv yurtlari, vazirliklar va korxonalar nomi: Paxtachilik ilmiy-tekshirish instituti, O'rta Osiyo Ipakchilik ilmiy-tekshirish instituti, Toshkent davlat pedagogik universiteti, Moliya vazirligi, Davlat banki
8. Yuqori mansab, oliy faxriy unvon nomlari: O'zbekiston Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi raisi, Bosh Qo'mondon.
9. Turli anjuman, xujjat va rezolyusiyalar, tarixiy sanalar, voqealar nomi: Ulug' Vatan urushi, Mustaqillik kuni, Toshkent anjumani.
10. Fabrika, zavod, jamoa xo'jaligi, sport jamiyatlari, kino, teatr, kitob, gazeta, jurnal, nomlari: «Sharq yulduzi» xo'jaligi, «Qutlug' qon» romani, «Ma'rifat» gazetasi, «Yosh kuch» sport jamiyati, «Guliston» jurnali

Atoqli otlar ko'plikda qo'llanilmaydi.

**Turdosh otlarning turlari.**

Turdosh otlar ifodalangan tushunchaning xususiyatiga ko'ra aniq (konkret) va mavhum (abstrakt) otlarga bo'linadi.

Aniq otlar bevosita predmetni ifoda etadi: uy, shaxar, talaba, eshik. Aniq otlar ifoda etgan predmetni donalab sanash mumkin: ikkita uy, o'nta shahar, beshta talaba kabi. Shuningdek, ko'plik ma'nosini -lar qo'shimchasini qo'shish bilan anglata oladi: uylar, shaharlar, talabalar, eshiklar kabi.

Mavhum otlar predmet sifatida tasavvur qilinadigan noaniq, mavhum, tushunchani ifodalaydi: yaxshilik, baxt, sog'inch, ёg'ingarchilik va boshqalar.

Mavhum otlar donalab sanalmaydi va -lar qo'shimchasi vositasida ko'plik ma'nosi ifodalamaydi.

Turdosh otlar shuningdek, birlik shaklda yakka bir predmetni ifoda etadi. Turdosh otlar shu xususiyatga ko'ra yakka va jamlovchi otlarga bo'linadi.

Yakka otlar birlik shakldagi predmetlardan bittasini yakkalab, ajratib ko'rsatadi: stol, kitob, qalam, uy chamadon. Grammatik jihatdan -lar ko'plik qo'shimchasini olib, ko'plik ma'nosini ifoda eta oladi.

Jamlovchi otlar birlik shakldagi bir xil predmet otlarning to'dasini, jamini anglatadi: xalq, armiya, gala, to'da, poda, ozchilik, ko'pchilik. Demak, jamlovchi otlar grammatik jihatdan birlik shaklda bo'lsa ham, ma'no jihatdan ko'plikni ifodalaydi.

## Tekshirish savollari:

1. Ot so'z turkumini ta'riflang?
2. Otning leksik-semantik xususiyatini izohlang?
3. Otning morfologik xususiyatini sanagg'ng?
4. Otning sintaktik xususiyatlarini izohlang?
5. Otning qanday ma'no turlari mavjud?
6. Atoqli va turdosh otlarni tushuntiring?
7. Aniq va mavhum otlarning farqi nimada?
8. Yakka va jamlovchi otlarni tushuntiring?

## Tayanch tushunchalar

1. Ot predmetning nomini bildiruvchi mustaqil turkumlari
2. Atoqli ot-bir xildagi predmet (shaxs) yoki xodisalardan birini ayirib ko'rsatadigan ot
3. Turdosh ot-bir turdagi predmetlarning xodisalarning umumulashtiruvchi nomi orasida.
4. Aniq ot-bevosita predmetni anglatadigan ot
5. Mavhum ot-predmet sifatida tasavvur qilinadigan noaniq, mavhum tushunchani anglatadigan ot
6. Yakka ot-birlik shaklidagi predmetlardan bittasini ajratib ko'rsata oladigan ot

7. Jamlovchi ot-birlik shaklidagi bir xil predmetlarning jamini anglatadigan ot

**Ma'ruza mavzusi: Otlarda son kategoriyasi**
**Dars rejasi:**

1. Son kategoriyasi haqida ma'lumot
2. Birlik va ko'plik son shaklga ega bo'lgan otlar
3. Otlarda ko'plik ma'nosining ifodalanish usullari
4. Faqat birlik shaklda qo'llanadigan otlar

**1. Son kategorisi haqida ma'lumot**

Otlarga xos morfologik xususiyatlardan biri son kategoriyasidir. Otlarda son kategoriyasini bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan birlik son shakli va ko'plik son shakli tashkil etadi.

Birlik son shaklida qo'llanuvchi otlar yakka bir predmetni yoki yakkalikka ajratilmaydigan predmetni anglatadi: qalam, daftar, tog', uy, talaba kabi. Birlik shaklda qo'llangan ot maxsus grammatik ko'rsatgichga ega emas, shuning uchun otning bunday qo'shimcha olmagan shakli grammatik jihatdan birlik son shakli deb qaraladi.

Ko'plik son shaklida  qo'llanuvchi otlar ikki yoki undan ortiq predmetni (yoki noaniq ko'plikni) anglatadi: qalamlar, daftarlar, tog'lar, uylar talabalar kabi. Otlarda kfplik son shakli -lar qo'shimchasi bilan hosil qilinadi.

Demak, ot bir predmetni va ko'p predmetni ifoda etadi. Bu ma'nolar va uni ifoda etuvchi shakllar yig'indisi otlarda son kategoriyasini hosil qiladi.

## 2. Birlik va ko'plik son shakliga bo'lgan otlar

Otlarda son kategoriyasi birlik va ko'plik son shakliga ega bo'lgan otlarga xosdir. Chunki tilda ko'plik son shakliga ega bo'lmagan otlar ham mavjud.

Sanash mumkin bo'lgan, bevosita predmetni anglatadigan konkret turdosh otlar birlik shakli bilan birga ko'plik son shaklida ham qo'llanadi: xona-uchta xona-xonlar; bola-besh bola-bolalar kabi

Demak, bunday otlar yakka bir predmetni hamda shaxs va predmetlarning son jihatdan ko'pligini ifodlaydi: odamlar, shaharlar, uylar, daryolar kabi.

## 3. Otlardarda ko'plik ma'nosining ifodalanish usullari

Otlarda ko'plik ma'nosi quyidagi usullar bilan ifodalanadi:

1)morfologik usul; 2) leksik-semantik; 3) sintaktik usul

1) Otlarda  ko'plik son shakli -lar  qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi. Ko'plik ma'nosining bunday maxsus qo'shimcha qo'shish bilan ifodalanishi morfologik usul bilan ko'plikning ifodalanishi deyiladi: eshiklar, daftarlar kabi.

2) Otlarda ko'plik ma'nosi leksik ma'nosi ko'p predmetni bildiradigan otlar orqali ham anglatiladi. Bunday otlar birlik shaklda bo'lsa ham, ayrim predmetlarning to'dasini, jamini bildiradi: to'da, xalq, olomon, ko'pchilik kabi. Ko'plik ma'nosining bunday otlar orqali ifodalanishi leksik semantik usul deyiladi.

Jamlovchi otlarga grammatik jihatdan birlikda, leksik-semantik jihatdan ko'plikda deb qaraladi.

3) Otlarda ko'plik ma'nosi ot oldidan miqdor bildiruvchi ravishlar, sanoq sonlar, gumon olmoshlarini keltirish, so'zlarni takrorlash bilan ham hosil qilinadi. Bu usul bilan ko'plik ma'nosining ifodalanishi sintaktik usul deyiladi.

Masalan: Ko'p bola, uchta kitob, bir necha qiz, har xil kitob, dasta-dasta gul, to'da-to'da odam kabi

## 4. Faqat birlik shaklda qo'llanadigan otlar

O'zbek tilida birlik va ko'plik son shakliga ega bo'lgan otlar bilan bir qatorda faqat birlik shaklida qo'llanadigan otlar ham mavjud. Bunday otlar ko'plik bildirmaydigan otlar bo'lib, ularga -lar qo'shimchasi ham, ko'plik ma'nosidan boshqa ma'nolar anglatiladi. Bu otlarga, asosan, quyidagilar kiradi:

1.Mavhum otlar. Iroda, quvonch, muhabbat; juda yoki yakka predmetni anglatuvchi otlar: ko'z, qosh, yurak, til kabi

Bunday otlarga -lar qo'shimchasi qo'shilganda, ma'noni kuchaytiradi, ta'kidlaydi.

Masalan: Kumushning qoshlari chimirildi (A.Qodiriy). Ular qurollari sinsa- qo'llari bilan, qo'llari sinsa-tishlari bilan, tishlari sinsa-irodalari bilan qazish qasdida qolgan suv tashnalari edi. (M.M.)

2)Donalab sanalmaydigan predmet nomlari: ёg', suv, un, guruch, kabi. -lar qo'shimchasi bunday otlarga qo'shilganda, tur, nav, mo'llik ma'nolari anglashiladi.

Masalan: Zilol suvlar, eram kabi bog'u-bo'stonlar.

3) Atoqli otlar asosan birlikda ishlatiladi. Bu otlar umumlashtirish, birgalik ma'nosini bildirsa, -lar qo'shimchasini oladi. Masalan: Saidalar kelishdi kabi.

Shuningdek, qarindosh-urug'lik munosabatini bildiruvchi, ota, ona, buvi kabi so'zlarga egalik qo'shimchasidan keyin qo'shilgan hurmat ma'nosini ifodalaydi: otamlar, onamlar, buvimlar kabi.

### **Tekshirish savollar**:

1. Otlarda son kategoriyasi nimani bildiradi?
2. Birlik shaklda kelgan ot nimani bildiradi:
3. Ko'plik shaklda kelgan ot nimani bildiradi:
4. Qanday otlar birlik va ko'plik son shakliga ega:
5. Otlarda ko'plik ma'nosi qanday usullar bilan ifodalanadi?
6. Faqat birlik son shaklida qo'llanadigan otlarni sanang?

7. Ko'plik qo'shimsasi -larning ma'no xususiyatlarini tushuntiring?

**Tayanch tushunchalar.**

1. Birlik son shaklidagi ot- yakka bir predmetni yoki yakkalikka ajratilmaydigan predmetni anglatuvchi ot.
2. Ko'plik son shaklidagi ot- ikki yoki undan ortiq predmetni (yoki noaniq ko'plikni anglatuvchi ot)

## Ma'ruza mavzusi: Otlarda egalik kategoriyasi

**Dars rejasi**

1. Egalik kategoriyasi haqida ma'lumot
2. Otlarda egalik qo'shimchalari va uning fonetik variantlari
3. Egalik qo'shimchasini olgan otlarda yuz beradigan fonetik o'zgarishlar

### 1. Egalik kategoriyasi haqida ma'lumot

Otga xos morfologik xususiyatlardan yana biri egalik kategoriyasidir. Predmet (keng ma'noda)ning uch shaxsdan biriga taalluqli (oid, tegishli) ekanligini ko'rsatuvchi umumiy ma'nolar va ularni ifoda qiluvchi shakllar tizimiga egalik kategoriyasi deyiladi.

Masalan:

| | **Birlik** | **Ko'plik** |
|---|---|---|
| I shaxs. | Mening kitobim, | bizning kitobimiz. |
| II shaxs. | Sening kitobing, | sizning kitobingiz |
| III shaxs. | Uning kitobi | ularning kitobi |

Misoldan ko'rinadiki, predmet so'zlovchi (I shaxs) tinlovchi (II shaxs) o'zga (III shaxs) ga bir predmet yoki ko'p predmet taalluqli bo'lishi mumkin. Mana shu egalik, oid tegishlilik ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiladigan shakllar ham mavjud.

O'zbek tilida egalik ma'nosi, asosan, morfologik usul bilan ifodalanadi.

Egalik, oidlik, tegishlilik ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiladigan qo'shimchalar egalik qo'shimchalari deyiladi.

Maslan: daftarim, vazifam kabi so'zlar tarkibidagi -im, -m qo'shimchalari shu so'z orqali ifodalangan predmetlarning har biri yakka bir shaxsga (mening daftarim, mening vazifam) taalluqli ekanligini ko'rsatsa, daftarimiz, vazifamiz so'zlari tarkibidagi -imiz, -miz qo'shimchalari ularning har biri I shaxsga ko'p shaxsga (bizning daftarimiz, bizning vazifamiz) tegishli ekanligini ifodalaydi. Demak, egalik qo'shimchalari shaxs ma'nosi bilan birga (shaxsning sonning (Birlik yoki ko'pligini) ham ko'rsatadi.

Egalik qo'shimchalari negizning so'nggi tovushi unli yoki undosh tovush bilan tugaganiga ko'ra ikki xil shaklda qo'llanadi.

| | **Bir shaxsga oid** | | **Ko'p shaxsga oid** | |
|---|---|---|---|---|
| | Unlidan so'ng | undoshdan so'ng | Unlidan so'ng | undoshdan so'ng |
| I shaxs | -m (bog'cha-m) | -im (gul-im) | -miz (bog'cha-miz) | -imiz (gul-imiz) |
| II shaxs. | -ng (bog'cha-ng) | -ing (gul-ing) | -ngiz (bog'cha-ngiz) | -ingiz (gul-imiz) |
| III shaxs | -si (bog'cha-si) | -i (gul-i) | -si (bog'cha-si) | -i (gul-i) |

Egalik qo'shimchasini olgan ot, odatda, qaratqich kelishigidagi boshqa ot, olmosh yoki otlashgan so'z bilan o'zaro bog'lanadi: daftarning varag'i, mening vazifam, yaxshining so'zi kabi. Egalik qo'shimchasi otning gapdagi sintaktik vazifasini ko'rsatmaydi.

## 3. Egalik qo'shimchasini olgan otlarda yuz beradigan fonetik o'zgarishlar

Egalik qo'shimcha ba'zi otlarga qo'shilganda quyidagi fonetik o'zgarishlar ro'y beradi.

1. k, q, undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inlik so'zlarga shuningdek, bek kabi ayrim bir bo'g'inlik so'zlarga egalik qo'shimachasi qo'shilganda, k undoshi g undoshiga, q undoshi, g' undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: tilak-tilaging, yurak-yuraging, kubok-kubogi, bek -begi kabi. Lekin ko'p bo'g'inli

o'zlashma so'zlarga bir bo'g'inli ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda k, q, undoshi asliga aytiladi va yoziladi: ishtirok-ishtiroki, ocherk-ocherki, erk-erki, huquq-huquqi, ravnaq-ravnaqi, yuq-yuqi kabi.

2.O'rin, qorin, burun, o'g'il, bo'yin, ko'ngil, singil kabi otlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, ikkinchi bo'g'indagi i, u unlilari aytilmaydi va yozilmaydi: o'rin-o'rnim, qorin-qornim, burun-burning, o'g'il-o'g'lim, ko'ngil-ko'ngli, singil-singlim kabi

3.Parvo, obro', mavqe, mavzu, avzo so'zlariga I, II shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda bir yo tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: parvaoyim, parvoying, parvoyimiz, parvoyingiz, obro'yim, obro'ying, obro'yimiz, obro'yingiz kabi; III shaxs egalik qo'shimchasi parvo, obro', mavqe so'zlariga -yi shaklida, xudo, mavzu so'zlariga esa -si shaklida qo'shiladi: avzoyi, mavzusi kabi (dohiy kabi y -undoshi bilan tugagan so'zga ham III shaxsda -si qo'shiladi: dohiysi kabi).

**Tekshirish savollari:**

1. Otlarda egalik kategoriyasining ta'rifini ayting?
2. Egalik qo'shimchalari deb nimaga aytiladi?
3. Unli tovush bilan tugagan so'zlarga qaysi egalik qo'shimchalalri qo'shiladi?
4. Undosh tovush bilan tugagan so'zlarga qaysi egalik qo'shimchalari qo'shiladi?
5. Otlarda egalik qo'shimchalari qo'shilganda, qanday tovush o'zgarish hodisalari yuz berishini tushuntiring?

**Tayanch tushunchalar**

1. Egalik kategoriyasi -predmetning uch shaxsdan biriga taalluqli (oid tegishli) ekanligini ko'rsatuvchi umumiy ma'nolar va ularni ifoda qiluvchi shakllar tizimi
2. Egalik qo'shimchalari -egalik, oidlilik, tegishlilik ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiladigan qo'shimchalar.

**Ma'ruza mavzusi: Otlarda kelishik kategoriyasi.**

**Dars rejasi**:

1. Kelishik kategoriyasi haqida ma'lumot
2. Otlarda kelishik ma'nolari, shakli va vazifasi

## 1. Kelishik kategoriyasi haqida ma'lumot

Kelishik kategoriyasi otning o'ziga xos grammatik xususiyatlaridan biri sanaladi.

Ot (yoki) otlangan so'zning boshqa so'zlarga bo'lgan sintaktik munosabatini ko'rsatuvchi ma'nolari va bu ma'nolarni ifodalovchi shakllar yig'indisiga kelishik kategoriyasi deyiladi. Kelishik kategoriyasi oltita grammatik ma'no va uni ifoda etuvchi shakllarini o'z ichiga oladi. Bularga bosh kelishik, qaratqich kelishik, tushum kelishik, jo'nalish, o'rin-payt kelishigi, chiqish kelishik ma'nolari kiradi. Har bir kelishikning o'ziga xos qo'shimchalari mavjud. Otlardagi kelishik qo'shimchalari turlovchi qo'shimchalar deb yuritiladi. Otning kelishik qo'shimchalarini olib o'zgarishiga esa turlanish deyiladi. Kelishik qo'shimchalari quyidagilar: -ning, -ni, -ga (-ka, qa), -da, -dan.

Kelishik qo'shimchasi yo'q holat bosh kelishik bo'lib, bunday shaklidagi ot ko'pincha boshqa so'zni o'ziga tobelaydi. Qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi shaklidagi ot gapdagi boshqa so'zlarga grammatik jihatdan tobe bo'ladi.

Masalan: Pokiza aql insonni ayb va kamchiliklardan qutqaradi (U.Mahkamov).

Bu gapda aql so'zi bosh kelishik shaklida qutqaradi so'ziga nisbatan hokim holatda, insonni so'zi -ni tushum kelishigida kelib, qutqaradi fe'liga tobe, ayb (dan), kamchiliklardan so'zlari -dan chiqish kelishikda kelib, ular ham qutqaradi fe'liga tobe bo'lib kelgan.

Kelishik shaklida kelgan otning ma'nosi va vazifasi uning leksik-grammatik ma'nosi, uning qanday so'zlar bilan (fe'l, ot) bog'lanishiga qarab aniqlanadi.

Masalan: jo'nalish kelishigining asosiy ma'nosi harakatning yo'nalish o'rnini bildiradi: maktabga bordi. Bundan tashqari jo'nalish kelishigida kelgan ot vosita, payt, atash, maqsad ma'nolarini ifoda qiladi: kitobga qaradi, o'zga qoldirildi, singlisiga oldi, o'qishga keldi kabi.

Demak, har bir kelishik bir necha ma'noni ifodalaydi. Shunga ko'ra ma'lum bir kelishikdagi so'z gapda turli gap bo'lagi vazifasini bajaradi. Lekin kelishik ma'nolaridan biri asosiy ma'no sanaladi, kelishik shu asosiy ma'noga ko'ra nomlanadi.

Kelishik shaklidagi otlar gapda boshqa so'zlar bilan quyidagicha sintaktik munosabatga kirishadi:

1. Qaratqich kelishigi, qisman bosh kelishik ot bilan otni bog'laydi: farzandning baxti, Kitob-bilim manbai.
2. Tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari otni fe'l bilan bog'laydi: xatni yozdi, sayohatga bordi, ko'chada duch keldi, xonadan chiqdi kabi.

Ba'zan kelishik shaklidagi otlar sifat, ravish, son, olmosh, undovga ham bog'lanadi: osmon, musaffo, guldan nozik, xonada ko'p, holiga voy kabi.

## 2. Otlarda kelishik ma'nolari, shakli va vazifasi.

Otlarda oltita kelishik mavjud bo'lib, har bir kelishikning o'z shakli ma'nosi va sintaktik vazifasi bor.

1) Bosh kelishikda kelgan ot umuman shaxs, predmet, voqea-hodisalarning nomini ataydi, gapda, asosan, ega vazifasini bajarishga mos shaklda bo'ladi.

Bosh kelishikda kelgan otning kelishik qo'shimchasi yo'q, ya'ni nol ko'rsatkichli shaklda bo'ladi. Bosh kelishik shaklidagi ot kim? Nima? va qayer? So'roqlaridan biriga javob beradi.

Bosh kelishikda kelgan otlar gapda turli vazifalarda keladi:

A) Asosan ega vazifasini bajaradi:

Ximmatlilik o'zining saxovati, mehr-muhabbati bilan odamlar qalbiga singib ketadi. (U. Maxkamov)

B) Kesim vazifasida keladi: Toshkent-tinchlik shahri

V) Izohlovchi vazifasida kelganda, kasb, hunar, unvon, taxallus, jins, qiyoslash kabi ma'nolarni anglatadi:

Navro'zda-Ona tabiat uyg'onadi.

G) Sifatlovchi vazifasida keladi:

Po'lat pichoq qinsiz qolmas (Maqol)

D) Undalma vazifasida kelganda, gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydi:

Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot.

YE) Nominativ (atov)gap tarzida keladi:

Subhidam. Quyosh yotoqidan bosh ko'tardi. (P.G'.)

Ë) Bundan tashqari bosh kelishikda kelgan ot ko'makchi holda kelganda, to'ldiruvchi va hol vazifasini ham bajaradi:

Igna bilan quduq qazib bo'lmas. (Maqol) Ular tong bilan yo'lga chiqqan edilar. (J.Abd). Yuksal quyosh kabi, yuksal oy kabi, Sen bilan bezalsin yurting fazosi (Uyg'un)

2)Qaratqich kelishigi biror predmetning shu kelishikdagi otdan anglatilgan predmetga yoki shaxsga qarashli ekanligini ifodlaydi. Qaraqich kelishigida kelgan ot kimning? nimaning? qayerning? Kabi so'roqlardan biriga javob beradi, -ning qo'shimchasi orqali shakllanadi.

Masalan: Hayotga go'zallikning manbai soddalikdir.

Ba'zan she'riyatda qaratqich kelishigi qo'shimchasi -n shaklida ham qo'llanadi: Kimki boqmabdir ishin poyoniga, Hech hisobi bo'lmaygay armoniga.

Qaratqich kelishigida kelgan ot doimo egalik qo'shimchasini olgan ot blian bog'lanadi va qaratqich qaralmish munosabatini hosil qiladi: kitobning varag'i, daraxtning bargi kabi.

Qaratqich kelishigida kelgan ot gapda aniqlovchi turi qaratuvchi aniqlovchi vazifasida keladi.

Masalan: Guruchning kurmagi bor. Yomonning to'kmog'i bor (Maqol).

Qaratqich kelishigida kelgan ot ikki xil belgili yoki belgisiz shaklda qo'llanadi. Belgili shaklda qo'llangan ot -ning qo'shimchasi bilan ifodalanadi.

Belgisiz shaklda qo'llangan ot -ning qo'shimchasi bilan ifodalanadi.

Masalan: Kasbning yomoni yo'q (Maqol)

3)Tushum kelishigida kelgan ot ish-harakatni o'z ustiga olgan predmetni anglatadi. Tushum kelishigida kelgan ot kimni? Nimani? qayerni? Kabi so'roqlardan biriga javob berib, -ni qo'shimchasini qo'shish orqali shakllanadi.

Masalan: Vodiylarni yayov kezganda, bir ajib his bor edi menda (X.O.)

Ba'zan she'riyatda tushum kelishigi qo'shimchasi -n, -ni shaklida ham qo'llanadi: olmazorlar gulin to'kadi, Seva bog'lab shoxin bukadi. (X.O.)

Tushum kelishigida kelgan ot doimo fe'l bilan bog'lanadi va gapda vositasiz to'ldiruchi vazifasini bajaradi.

Masalan: Onangni kaftingda tutsang, Singlingni kaftingda tut (Maqol)

Tushum kelishigi 2 xil -belgili yoki belgisiz shaklda qo'llanadi: Belgili shaklda qo'llangan ot -ni qo'shimchasi bilan ifodalanadi. Belgisiz shaklda qo'llangan ot -ni qo'shimchasi bilan qo'llanmaydi.

Masalan: Nosirov Saidani uzoqdan ko'rishi bilan o'rnidan turdi (A.Q.) Gul tufayli tikan suv ichar (Maqol)

Belgisiz shaklda qo'llangan otning tushum kelishigida ekanligi mazmunidan; fe'lga bog'lanishidan anglashilib turadi. Belgisiz tushum kelishigidagi ot fe'l kesim bilan ma'no va grammatik jihatdan juda zich bog'langan bo'lib, ular orasiga boshqa so'z kiritib bo'lmaydi.

4)Jo'nalish kelishigi shu kelishikdagi otdan anglashilgan predmetning ish-harakat yo'naltirgan o'rin, vaqt, sabab yoki ish-harakatning bajaralishida vosita ekanligini anglatadi.

Jo'nalish kelishigida kelgan ot kimga? nimaga? qayerga? qachon? nega? kabi so'roqlaridan biriga javob beradi. -ga (-ka, -qa) qo'shimchalari bilan shakllanadi.

Lotin yozuviga asoslangan imlo qoidasiga binoan jo'nalish kelishigi qo'shimchasi k undoshi bilan tugagan so'zlarga -ka tarzida: terak-terakka, bezak-bezakka kabi; qishloq-qishloqqa, buloq-buloqqa kabi; qolgan barcha hollarda -ga razida qo'shiladi: tog'-tog'ga, barg-barga, maktab-maktabga kabi.

Masalan: Kumush bu gapga ajablanar, to'g'rsi shodlanar edi (A.Q.)

Yerga qarasang, bog' bo'lar Ko'ngil ochilib chog' bo'lar (Maqol)

Jo'nalish kelishigida kelgan ot turli xil ma'nolarga ega. Shunga ko'ra jo'nalish kelishigida kelgan otlar quyidagi sintaktik vazifalarni bajaradi:

A) Harakatning bajarilishida vosita bo'lgan predmet yoki shaxsni anglatib, kimga? Yoki nimaga? So'rog'iga javob beradi va gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajaradi.

Masalan? Quyosh gullar yuzini shu'lllarga beladi (U) maslahat Abdurasulning haloyiqqa nima deyishi lozimligi ustida bo'ldi (P.T.)

B) Harakat yo'nalishi o'rinni anglatib qayerga? so'rog'iga javob beradi va gapda o'rin holi vazifasini bajaradi.

Masalan: Ular faqat kechga yaqin qalin o'rmon bilan o'ralgan kichkinagina bir qishloqqa yetib kelishdi. (A.Raxmat)

V) Harakatning bajarlish vaqtini anglatib, qachon? qachongacha? kabi so'roqlardan biriga javob beradi va gapda payt holi vazifasini bajaradi.

Masalan: To'y ko'klamga qoldirildi (O). Agar she'r baxsh etolsa zavq, Quvonardim butun umrga (Uyg'un).

G) Harakatning bajarilishi maqsadini anglatib, nima maqsadda? So'rog'iga javob beradi va gapda maqsad holi vazifasini bajaradi.

Masalan: Toshkentga o'qishga keldi.

D) Harakatning bajarilish sababini anglatib, nima sababdan? Nega? so'rog'iga javob beradi.

Masalan: G'ulomjon uy tarovati va saranjomiga havasi kelib o'tirdi (M.Ismoiliy).

YE) Bundan tashqari jo'nalish yelishigida kelgan otlar ko'makchi holda ham kelib, gapda hol vazifasini bajaradi.

Masalan: O'qtam o'z kolxoziga tomon otini asta haydadi. (O). Ochilning gapiga rosa so'z qidirdi, lekin topa olmadi.

5)O'rin-payt kelishigi shaklidagi ot ish-harakat yoki predmetning bajarilish o'rnini, vaqtida yoki ish-harakatning bajarilishida vosita ekanligini anglatadi.

O'rin-payt kelishigida kelgan ot kimda? Nimada? qayerda? qachon? kabi so'roqlardan biriga javob beradi. -da qo'shimchasi bilan shakllanadi.

Masalan: Oltin o'tda bilinadi, odam mehnatda. (Maqol).

O'rin-payt kelishida kelgan ot gapda quyidagi sintaktik vazifalarni bajaradi:

A) harakatning bajaralishida vosita bo'lgan predmet yoki shaxsni anglatib, kimda? yoki nimada? so'rog'iga javob beradi va gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajaradi.

Masalan: Insonlarda umid bo'lmasa, hayot lazzati yo'qolur edi.

Yashnagan el tillarda doston, qulug' nomi hur O'zbekiston (M.Shayxzoda)

B) xarakatning bajarilish o'rnini anglatib, qayerda? So'rog'iga javob beradi va gapda o'rin holi vazifasini bajaradi.

Masalan: Ishkomda tug'ilib, chaylada katta bo'lgan bu istarali yigit sohibkorlikni o'n besh yoshidayoq egallab, san'at darajasiga ko'targan edi. (A.Muxtor).

V) harakatning bajaralishi paytini anglatib, qachon? So'rog'iga javob beradi va gapda payt holi vazifasini bajaradi.

Masalan: Yozda qilingan mehnat, Kuzda ko'rsatar himmat (Maqol)

G) harakatning bajarilish holatini anglatib, qanday? qay tarzda? Kabi so'roqlardan biriga javob berib, ravish holi vazifasini bajaradi.

Masalan: Ular musiqani chuqur sukutda tinglar edi.

D) harakatning bajarilish sababini anglatib, nega? nima uchun? So'roqlaridan biriga javob beradi va sabab holi vazifasini bajaradi.

Masalan: Kattalikni bilmas bir yaxshi odam, saxiylikda yo'lda qolibdi hotam (F. YO'LDOSH)

YE) o'rin-payt kelishigda kelgan ot kesim vazifasida kelib, predmet yoki hodisaning bo'lish o'rni, payti, holati hamda vosita bo'lgan predmetni anglatadi.

Masalan: Aql yoshda emas, boshda (Maqol) Yigit moli-yerda (Maqol). Tejab yegan darmonda, tejamagan-armonda. (Maqol). Oy tunda kerak, aql-kunda (Maqol)

6) Chiqish kelishigi shakldiagi ot ish-harakatning kelib chiqish manbai o'rni, sababi bo'lgan predmetni yoki ish-harakatning bajarlishida vosita bo'lgan predmetni ifodlaydi.

Chiqish kelishida kelgan ot kimdan? nimdan? qayerdan? qachon? nega? kabi so'roqlardan biriga javob beradi va gapda -dan qo'shimchasi orqali shakllanadi.

Masalan: Gavhar balchiqqa tushgani bilan qimmati ushalmas va o'z bahosidan qolmas (I.Sulton)

Chiqish kelishigida kelgan ot gapda quyidagi sintaktik vazifalarni bajaradi.

A) harakatning bajarilishida vosita bo'lgan predmetni anglatib, kimdan? nimadan? so'rog'iga javob beradi va gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajaradi.

Masalan: Ochilib ëqqan havodan kulib boqqan odamdan qo'rq (maqol)

B) xarakatning bajarilish o'rnini anglatib qayerdan so'rog'iga javob beradi, gapda o'rin-xol vazifasini bajaradi.

Masalan: Yormat shahardan piyoda qaytib, o'lguday horigani uchun hamma otlarga Yo'lchi qaradi (O)

V) harakatning bajarilish paytini anglatib, qachon so'rog'iga javob beradi, gapda payt holi vazifasini bajaradi.

Masalan: Ikkalasi yoshlikdan birga o'sishgan.

G) harakatning bajarilish sabbaini anglatib, nega? nima uchun? so'roqlaridan biriga javob beradi va gapda sabab holi vazifasini bajaradi.

Masalan: Yodgor cholning soddaligidan huzur qilib kuldi.

D) Shu bilan birga chiqish kelishigida kelgan otlar ko'makchi holda ham kelib, gapda to'ldiruvchi va hol vazifasini bajaradi.

Masalan: Tursunalidan boshqa hamma ishga chiqdi (U). Ovqatdan so'ng mehmonlar o'rinlaridan turishdi (A.Qodiriy)

**Tekshirish savollar:**

1. Otlarda kelishik kategoriyasini ta'riflang?
2. Otlarda nechta kelishik mavjud. Ular qaysilar?
3. Bosh kelishikning ma'nosi, shakli va vazifachini tushuntiring?
4. Qaratqich kelishikning ma'nosi, shakli va vazifasini tushuntiring?
5. Tushum kelishikning ma'nosi, shakli va vazifasini ayting?
6. Jo'nalish kelishikning ma'nosi, shakli va vazifasini ayting?
7. O'rin-payt kelishikning ma'nosi, shakli va vazifasini izohlang?
8. Chiqish kelishikning ma'nosi, shakli va vazifasini izohlang?

**Tayanch tushunchalar.**

1. Kelishik kategoriyasi-otlar yoki otlashgan so'zlarning boshqa so'zlarga bo'lgan sintaktik munosabatini ko'rsatuvchi ma'nolar va bu ma'nolarni ifodolovchi shakllar yig'indisi.
2. Kelishik qo'shimchalar-ot yoki otlashgan so'zlarning boshqa so'zga bo'lgan sintaktik munosabatini ko'rsatuvchi qo'shimchalar
3. Turlanish-otlarning kelishk qo'shimchalarini olib o'zgarishi
4. Turlovchi qo'shimchalar-otlardagi kelishik qo'shimchalari.

**Ma'ruza mavzusi: Otlarning yasalishi. Otlarda modal shakl yasalishi. Otlarning tuzilish jihatdan turlari**

**Dars rejasi:**

1. Otlarda so'z yasalish:
   1) morfologik usulda ot yasash;
   2) sintaktik usul bilan ot yasash;
   3) abbreviasiya usuli bilan ot yasash;
2. Otlarda modal shakl yasalishi:
   1) morfologik usul bilan modal shakl yasash;
   2) takrorlash usuli bilan modal shakl yasash
3. Otlarning tuzilish jihatdan turlari

1. Otlarda so'z yasalishi.

Ot mustaqil so'z turkumlaridan biri sifatida so'z yasalish xususiyatiga ega. Ot yangi so'zlar hisobiga boyib boradigan so'z turkumidir. Ot so'z turkumiga oid so'zlar asosan, morfologik, sintaktik va abbreviasiya usullari bilan yasaladi.

1) Morfologik usul bilan ot yasash

Bu usulga ko'ra so'zning leksik ma'no ifoda etuvchi qismiga maxsus ot yasovchi qo'shimchalarni qo'shish bilan yangi ot yasaladi.

Morfologik usul bilan yasalgan otlar ma'no xususiyatlariga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

A) Shaxs va kasb-hunar otlarini yasovchi qo'shimchalar. Bu qo'shimchalarga quyidagilar kiradi: -chi, -dosh, -kash, -bon, -boz, -paz, -dor, -shunos, -xon, -soz, -do'z, -gar, -xo'r, -vachcha.

Bu qo'shimchalar, asosan, otga qo'shilib, shaxs va kasb-hunarga (shu mashg'ulot, kasb-hunar bilan shug'ullanuvchi shaxs) oid yangi ot yasaydi:

xizmatchi, suratkash, sinfdosh, bog'bon, kaptarboz, oshpaz, chorvador, tilshunos, kitobxon, soatsoz, etikdo'z, zargar, pivoxo'r, xolavachcha kabi

B) Narsa, qurol, o'lchov birligi otlarini yasovchi qo'shimchalar. Bu qo'shimchalarga quyidagilar kiradi: -k (-ik), -ak, -q (-iq, -uq), -oq.

Bu qo'shimchalar asosan, fe'lga qo'shilib, fe'ldan anglashilgan ish-harakatni bajarish uchun qo'llanadigan predmet yoki harakat, holat natijasi bo'lgan predmetning otini yasaydi: kurak, elak, ko'rik, bo'lak, taroq (tara -q), chopiq, yutuq, o'roq kabi

V) O'rin-joy otlarini yasovchi qo'shimchalari. Bu qo'shimchalarga quyidagilar kiradi: -zor, -loq, -iston, -qoq.

Bu qo'shimchalar otga qo'shilib, otdan anglashilgan predmet mavjud bo'lgan, ekiladigan yoki yashaydigan o'rin- joy otini yasaydi: gulzor, o'q O'zbekiston, botqoq kabi.

G) mavhum ot yasovchi qo'shimchalar. Bu qo'shimchalarga quyidagilar kiradi: -lik (-liq), -chilik (garchilik), -gilik (-kilik), -ch(inch).

Bu qo'shimchalar ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, modal so'zlarga qo'shilib yangi mavhum ma'nodagi otlarni yasaydi: go'zallik, borliq, paxtachilik, xafagarchilik, ko'rgilik, ichkilik, ishonch, qo'rqinch kabi.

2) Sintaktik usul bilan ot yasash.

Bu usulga ko'ra birdan ortiq so'zni ma'lum bir yo'sinda va biriktirish orqali yangi ot yasaladi. O'zbek tilida qo'shma va juft otlar shu usul bilan yasaladi.

A) Qo'shma ot ikki yoki undan ortiq so'zning ma'no va grammatik jihatdan o'zaro tobelanish yo'li bilan birikib, keyinchalik bu sintaktik munosabatning yo'qolishi natijasida hosil bo'lgan va bir predmetni anglatadigan, bir bosh urg'u bilan aytiladigan yangi so'zdir.

Bunday otlarga: belbog', bedapoya, oshqazon, gultojixo'roz, Sirdaryo, so'z boshi kabilar kiradi.

B) Juft otlar. So'zlarning o'zaro teng bog'lanish yo'li birikib, bir predmetni ifoda etadigan yangi so'z.

3)Abbreviasiya usuliga ko'ra, bir butun holda qo'llanadigan otlar yasaladi. Bu usulga ko'ra yasalgan otlar qisqartma otlar-abbreviaturalar deyiladi.
Masalan: DAN (Davlat avtomabil nazorati), AYOQSH (avtomabil ёqilg'i quyish shohobchasi), Tosh DPU (Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti) kabi.

Bu usul bilan faqat ot so'z turkumiga oid so'zlar yasaladi. Abbreviasiya usuli o'zbek tiliga rus tilidan kirgan bo'lsada, lekin hozirgi davr nuqtai-nazaridan qisqrtma otlar o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlari asosida yasalmoqda.

## 2. Otlarda modal shakl yasalishi.

Otlarda yangi leksik ma'noli so'z yasash bilan bir qatorda, otning leksik mag'nosiga qo'shimcha ma'no qo'shishga mos shakllar ham mavjud. bunday shaklga modal shakl deyiladi. Otlardagi so'zning leksik ma'nosiga qo'shiladigan qo'shimcha modal ma'nolarga kichraytirish, erkalash, hurmat, kesatiq, gumon, kuchaytirish, noaniqlik kabi ma'nolar kiradi.

Otlarda modal shakl ikki usul bilan yasaladi:

1) morfologik usul; 2) takrorlash usuli

1.Morfologik usul bilan modal shakl hosil qilish. Bu usulga ko'ra otlarga modal ma'no ifodalovchi maxsus qo'shimchalarni qo'shish bilan modal shakl yasaladi. Bu qo'shimchalarga quyidagilar kiradi: -cha, -chak, -choq, -loq, -aloq, -gina (-kina, -qina), -xon, -oy, -jon.

Bu qo'shimchalar otlarga qo'shilib, erkalash, kichraytirish, hurmat, kesatiq, kabi ma'nolarni ifodalaydi: kitobcha, kelinchak, qo'zichoq, toychoq, qizaloq, bolagina, Ahmadjon, Saidaxon, O'g'iloy kabi.

Masalan: O'yinchi yosh qiz kabi tarovatli kelinchak kabi ko'rkam, yor kabi dildor edi. (M.Ismoiliy). Qizaloq qo'g'irchoqni mashinaga o'tqazdi. (E.Usmonov).

Oppoq kapalakchalar  yeru-ko'kni to'ldirib to'zib ketgan, kumush qanotchalarini ohista silkitib charx urishadi. (E.Usmonov).

2) Takrorlash usuli bilan modal shakl hosil qilish. Bu usulga ko'ra modal ma'no otni maxsus takrorlash yo'li bilan yasalali. Otni takrorlash yo'li bilan umumlashtirish, jamlik, ko'plik, gumon, kamsitish kuchaytirish kabi qo'shimcha ma'nolarni ifodalaydi: un-pun, ish-pish, imi-jimi, ombor-ombor, irim-sirim kabi.

Masalan: Kozxozida ombor-ombor Qallasi (Habibiy). O'g'it G'o'zaning tomir-tomirlariga singsin (O).

### 3. Otlarning tuzilish jihatdan turlari.

Otlar tuzilish jihatdan 4 turga bo'linadi:

1) Sodda otlar; 2) qo'shma otlar; 3) juft otlar; 4) qisqartma otlar;

1) Birgina o'zak morfemadan tashkil topgan ot sodda ot deyiladi: tog', osmon, daryo, non, uylar, kabi. Sodda otlar tub va yasama bo'la oladi.

Sodda tub otlar so'z yasovchi qo'shimchalarga ega bo'lmaydi: bola, daraxt, asal, kitob kabi. Sodda yasama otlarda so'z yasovchi-qo'shimchlar qo'shilgan bo'ladi: darslik, dehqonchilik, gulzor, ishonch kabi.

2) Ikki yoki undan ortiq o'zak morfemaning qo'shilishi, birikuvidan hosil bo'lgan otlar qo'shma ot deyiladi: bedapof, oshqazon, bilakuzuk kabi

3) Ikki otning o'zaro teng bog'lanishidan tuzilgan otlar juft otlar deyiladi: yer-ko'k, o'g'il-qiz, tog'-tosh kabi.

4) Abbreviasiya usuli bilan yasalgan otlar tuzilishiga ko'ra qisqartma ot deyiladi: BTM (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), SamDU (Samarqand Davlat Universiteti) kabi.

### Tekshirish savollar:

1. Ot qaysi yasash usullari bilan yasaladi?
2. Affiksasiya usuli bilan ot yasash nima?
3. Ot yasovchi qo'shimchalari qanday guruhlarga ajratiladi?
4. Kompozisiya usuli bilan ot yasash nima?
5. Abbreviasiya usuli bilan qanday otlar yasaladi?
6. Otlarda modal shakl yasalishi nima?
7. Otlarning modal shakllari orqali qanday ma'nolar ifoda qilinadi?
8. Otlarda modal shakl qanday usul bilan hosil qilinadi?
9. Otlar tuzilish jihatdan qanday turlarga bo'linadi?

**Tayanch tushunchlar:**

1. Ot yasashning morfologik usuli-so'zning leksik ma'no ifoda etuvchi qismiga maxsus ot yasovchi qo'shimchalarni qo'shish bilan ot yasash usuli.
2. Ot yasashning sintaktik usuli-birdan ortiq so'zni ma'lum bir yo'sinda biriktirish orqali ot yasash usuli.
3. Abbreviasiya usuli-bir butun holda qo'llanadigan ot yasash usuli.
4. Abbreviaturalar-abbreviasiya usuli bilan yasalgan qisqartma otlar.
5. Sodda ot-bir o'zak morfemadan tuzilgan ot.
6. Qo'shma ot-ikki yoki undan ortiq o'zak morfemadan tizilgan ot
7. Juft, ot ikki otning o'zaro teng bog'lanishidan tuzilgan ot.

## Ma'ruza mavzusi: Sifat-so'z turkumi

**Dars rejasi:**

1. Sifat haqida ma'lumot
2. Sifatlarning ma'no turlari

3. Sifatlarning belgini ifodalash usuliga ko'ra turlari

A) asliy sifatlar;

B) nisbiy sifatlar.

4.Sifatlarning belgini darajalab ifodalashiga ko'ra turlari.

5.Sifatlarning otlashuvi.

6.Sifatlarning yasalishi.

7.Sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlari.

Sifat belgi tushinchasini bildiruvchi so'z turkumlaridan biri. Sifat predmet belgisini bildiradi: tiniq suv, qizil olma, aqlli qiz,kuzgi ishlar, quyuq choy, yosh bola.

Sifat deb predmetning doimiy belgisini bildiradigan qanday? qanaqa? so'roqlaridan biriga javob bo'ladigan mustaqil so'z turkumiga aytiladi,

Sifat mustaqil so'z turkumi sifatida quyidagi leksik-semantik, morfologik, sintaktik belgilarga ega:

1. Sifatlarning belgi tushunchasini ifodalash uning leksik-semantik xususiyati sanaladi: qizil-rang tushunchasini ; jajji-hajm tushunchasini bildiryapti.
2. Sifatlarning morfologik belgilari:

A) belgi tushunchasiga nom bo'ladi, qanday? qanaqa? So'roqlaridan biriga javob bo'ladi.

B) belgini bevosita yoki bavosita ifodalashiga ko'ra asliy va nisbiy sifatlarga ajratiladi.

V) sifat belgini darajalab ko'rsata oladi: katta-kattaroq, eng katta, kap-katta.

G) sifat yasalishi sistemasiga ega: yeyishadi, ko'rpalik, fusunkor.

D) sifat turlanish va tuslanish xususiyatiga ega emas.

## Sifatning sintaktik belgilari:

A) Sifat gapda otga ba'zan fe'lga bog'lanib keladi: aqlli bola yaxshi gapiradi;

B) Sifat o'zi bog'lanib kelayotgan so'z bilan ohang va tartib yordamida bog'lanadi, bitishuv munosabatida bo'ladi;

V) Sifat gapda asosan sifatlovchi-aniqlovchi, kesim, ba'zan ravish holi vazifasida qo'llanadi;

G) Sifat gap tarkibida otlashadi. Bunda gap tarkibida sifat bog'lanib kelayotgan so'z tushib qoladi, sifat ot ifodalagan ma'noni ham, vazifani ham o'z ustiga oladi. Shu tufayli u ot kabi egalik, kelishik qo'shimchalarini olib, o'zgaradi, turlanadi. Bunday holatda gapda ega, to'ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi vazifasini bajaradi.

Masalan; Yaxshi yaxshiga yondashtirar, yomon yo'ldan adashtirar. Yaxshining yaxshiligi tegar har yerda, yomonning kasofati tegar tor joyda.

Sifatlar predmetning rangini, shaklini, mazasini, xajmini va shu kabilarni ifodalashni yuqoridagi misollarda ko'rib o'tdik. Demak, sifatlar ma'nosiga ko'ra turlarga ajratiladi. Ba'zi adabiyotlarda sifatlar ma'nosiga ko'ra 9 turga ajratib beriladi. Biz quyidagi turlarga ajratamiz:

1. Rang-tus ifodalaydigan sifatlar:
   Qizil-qizil olmani qiz otada, Daryolarni qishki chilla muzlatadi.
2. Maza-ta'mni ifodalayodi: Achchiq olmalardan yeganini ko'rib aftim bkrishib ketdi
3. Shakl bildiradigan sifatlar. Bunday sifatlar predmetning tashqi va ichki shaklini ifolaba keladi: Yapasqi jaraxtlarni no'xatday qizil va qora mevalar terib olishadi.

Shakl bildiruvchi ba'zi sifatlar holat bildiruvchi sifat tarzida qo'llanadi: uzun (bola), ortiqqina (yigit), tiqmachoq, bo'liq, ingichka, yo'g'on kabi.

Bu sifatlar predmetning ichki va tashqi shakl ko'rinishlarini ifodlaydi.

4. Hajm bildiradigan siftalar. Bunday siftalar predmetning kaatta-kichikligi, uzun-qisqaligi, past-yualandligi, keng-torligi kabi xussuiyatlarni bildiradi. So'qmoq katta yo'qga tutashgan joydan bepoyon dala boshlanar edi. (A.Q.).
5. Xarakter-xususiyat bildiradigan sifatlar. Bunday sifatlar jonli va jonsiz predmetlarning o'ziga xos xussuiyatlarini bildiradi. Himmatli, qo'li ochiq, odamshavanda bir yigit yelganlarni qarshi olardi.
6. Hid bildiruvchi sifatlar: Oshxonadan dimog'imga ishtahani ochuvchi ëqimli ovqat hidi gup etib urildi.

7. Holat bildiradigan sifatlar. Bunday sifatlar predmetning doimiy va doimiy bo'lmagan belgisini bildiradi: sovuq, havo, baquvvat odam. Holat bildiruvchi sifatlar 2 xil bo'ladi:

A) psixik holatni ifodalaydi: xursand, xafa, kasal, injiq, joxil. U mahallada katta-kichik: hamma bilan salomlashar, xursand kishi bilan chaqchaqlashib xafa bilan dardlashar edi.

B) Tabiiy holatni ifodalaydi: yosh, qari, keksa. Savalab ëqqan yomg'irdan so'ng oftobning qizib ketishi qari mudarris Kamoliddin Mahmudni ham xujrasidan chiqarib yubordi. (M.I.)

8. O'rniga ko'ra belgi bildiradigan sifatlar: Uydagi gap ko'chaga chiqmasin, nasihat qildi ota.
9. Paytga ko'ra belgi bildiradigan sifatlar: Devoriy gazetalar shoirning dastlabki she'rlari matbuoti bo'lgan.

Shu o'rinda talabalarga o'zlariga har bir turga kiradigan sifatlar topish topshirig'i berildi.

1. Rang-tus bildiruvchi isfatlar: qizil, sariq, binafsha, zangori, kul rang mosh rang, bug'doy rang.

Kul rang, mosh rang perdmetning rangiga nisbat berish orqali rang ma'nosini ifodalayapti. Demak tildagi rang bildiruvchi sifatlar tabiatdagi bor ranglarni ifodalash uchun yetmaydi.

Shuningdek uchun predmetning nomlari rang ifodalash uchun foydalanilyapti barg karam (bargi karam) feruza rang. Bu sifatlar kirillda ajratib, lotinda qo'shib yoziladi: kulrang, moshrang..

2. Hajm, o'lchov, masofa bildiruvchi sifatlar; yiroq, uzoq, keng, tor, chuqur, chog', yirik, mayda, kichik, katta, baland, past.
3. Hid bildiruvchi sifatlar: xushbo'y, qo'lansa, sassiq, badbo'y, muattar, ëqimli;

Tilda ot orqali ham hid ifodalanadi: rayhon hidi, ëg' hidi, kerosin, hidi, baliq hidi, tovuq hidi kabi.

4. Paytga munosabat bildiruvchi sifatlar: tonggi, so'nggi, avvalgi, qishgi, ertangi, kechki, keyingi. Shundan so'ng xarakter xussuiyat va holat bildiruvchi sifatlarlarga alohida to'xtalamiz. Uni quyidagi guruhlarga ajratamiz:

5. Xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar.

Bunday so'zlar insonlarning, hayvonlarning, xarakter-xususiyatlarini ifodalaydi: yaxshi, yomon, badjahl, ëqimli, muloyim, ziyrak, mahmadana, dilkash. Ularning ba'zilari faqat inson uchun qo'yiladi. Ba'zilari inson uchun ham, hayvon uchun ham ishlatiladi: ziyrak it, ziyrak bola.

Ular ijobiy yoki salbiy ma'no ifodalaydi: loqayd, betaraf, ba'zilari ikkalasiga ham kirmay neytral ma'no ifodalaydi.

a) Insonning ijobiy xislatlari: odobli, gapday, chaqqon, abjir, mo'min, sodiq, mohir, o'ktam, sipo, quvnoq, ozoda, saf.

b) Salbiy xislatlar: zolim, toshbag'ir, shafqatsiz, quv, ayyor, rasvo, dog'uli, tannoz, xudbin, ikkiyuzlamachi, qabih kabi.

v) loqayd ma'no bildirgan sifatlar; ular kontekstga qarab ijobiy yo salbiy ma'no bildiradi: sho'h, shaddod, to'pari kabi.

Masalan: Gulchexra sal yengiltak va sho'x bo'lsada, o'zi juda mehr-oqibatli qiz. (O.Ë).

g) predmet, narsa, hayvon, jonivor, holat, voqea-hodisalarning xarakter-xususiyatlarini bildiruvchi sifatlar: xonasi, dolzarb, dabdabali, tashvishli asov, chopag'on, sun'iy, tabiiy, tekin, qimmat, arzon, chidamli, zo'r, yaxshi, yomon ajoyib kabi.

d) holat bildiruvchi sifatlar insonga, hayvonga, hodisaga xos holatlarni bildiradi. Bularning ham o'z navbatida guruhlarga bo'lish mumkin:

a) tabiiy holat belgilari: go'zal, ko'xlik, chiroyli, suluv, latif kabi.

Nuqsoniy belgilar: cho'loq, maymoq, bukir, cho'tir, soqov, g'ilay, ko'r kabi.

b) jismoniy, fizik holatlar: bardam, baquvvat, tetik, yosh, keksa, qari, ojiz, zaif kabi.

v) ruhiy holatni bildiradigan sifatlar: xursand, xafa, jinni, sog', sergak, xushyor, g'azabnok, ma'yus, g'amgin, alamzada kabi.

g) kishilar ahvolini bildiruvchi sifatlar: badavlat, kambag'al, qashshoq, yo'qsil, gado, yetim, mushfiq, musaffir kabi.

d) predmetning harorati: issiq, sovuq, iliq, salqin kabi

ye) tozalikni: saxtiyon, musaffo, sof, toza, isqirt, kir, ozoda kabi

ë) eskilikni, yangilikni: uvoda, juldur, yangi kabi

j) Ho'l-quruqlik: nam, xo'l, quruq, qoq, shilta kabi

z) Tinch-notinchlik: osoyishta, notinch, tinch, bezovta kabi
i) turli holatlar: g'adur-budir, g'ijim, tekis, siyrak, gavjum, ochiq, puxta, omonat.

Sifatlar predmetning belgisini bevosita va bavosita ifodalashiga ko'ra 2 xil bo'ladi.

1. Asliy sifatlar 2 Nisbiy sifatlar

1. Predmetning belgisini bevosita ifodalaydigan, uni darajalab ko'rsata oladigan sifatlar asliy sifatlar deyiladi. Asliy sifatlar predmetning doimiy belgisini ifodalaydi: yaxshi, kattaroq, uzun, yam-yashil.

Juft sifatlar asosan, asliy sifatlardan tarkib topadi: achchiq, chuchuk, yaxshi-yomon, maza-bemaza.

2. Predmetning belgisini o'rin, payt tushunchasiga nisbatlash, mo'ljallash, boshqa predmetga o'xshatish kabi ma'nolar orqali ifodalaydigan sifatlar nisbiy sifat deyiladi. Nisbiy sifatlar belgini bavosita ifodalaydi. Shuning uchun belgini darajalab ko'rsatmaydi. Nisbiy sifatlar boshqa so'z turkumlaridan sifat yasovchi grammatik formalar vositasida yasaladi. Otlardan morfologik usul bilan xoslik, o'xshashlik, o'rni va paytga munosabat, mo'ljal kabi ma'nolarni ifodalovchi sifatlar hosil qilinadi:

- iy, -viy: dekoriy, fizikaviy, ximiyaviy, tarixiy, ommaviy xoslik ma'nosidan sifat yasaladi.
- Simon, sifat, -dek, -day affikslarini qo'shib o'xshashlik ma'nosidagi sifat yasaydi: toshsimon, oynasimon, oyday, shishadek, odamsifat, hayvonsifat
- g'i, -ki, -qi, -dagi affikslari o'rin va paytga munosabat ifodalovchi sifat yasaydi: qishki, bahorgi, kuzgi, tashqi, tonggi so'nggi, qishloqdagi kabi
- lik affiksi mo'ljallanganlik, xoslik, o'lchov ma'nolaridagi sifat yasaydi: ko'ylaklik, ko'rpalik, ko'chalik, oylik, toshkentlik

**Sifat darajalari.**

Predmet belgisining ortiq-kamligiga ko'ra farqlanishi sifat darajalari deyiladi: go'zal, aqlliroq, eng bilimli kabi

Sifatlarda 3 ta daraja bor:

1. Oddiy daraja; 2. Qiyosiy daraja; 3. Orttirma daraja.

1.Predmetning belgisini boshqa predmetdagi belgiga qiyoslamagan holda ifodalaydigan sifat oddiy darajadagi sifat deyiladi.

Masalan: qizil, shirin, katta, aqlli, ёqimli kabi

Mirzo Bobur katta shoir, jangu jadalda qo'rqish nimaligini bilmas sarkarda bo'lib yetishibdi. (Laylak keldi yoz bo'ldi)

Predmetlardagi bir xil belgini qiyoslashdan 2 xil daraja: qiyosiy va orttirma daraja kelib chiqadi.

2.Predmetlardagi bir xil belgini taqqoslagan holda ko'paytirib, orttirib ifodalaydigan sifatlar qiyosiy darajadagi sifatlar deyiladi. Qiyosiy daraja-roq qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilanadi. Bunday sifat qatnashgan gapda -dan -ko'ra, -ga -qaraganda, -ga nisbatan, -dan qo'shimchali so'z va birkmalar keladi. Masalan: Undan aqlliroq bola ekanligini suhbatlashganda aytgan fikrlaridan sezildi. (S.Kamol)

3.Orttirma daraja. Predmetlardagi bir xil belgi qiyoslari orqali o'ta orttirib ko'rsatadigan sifatlar orttirma darajadagi sifatlar deyiladi. Oddiy darajadagi sifat oldiga eng, hammadan, g'oyat, g'oyatda so'zlarini keltirib hosil qilinadi.

Masalan: Eng yaxshi she'rlari chop etilgan yosh shoirlar bahru bayti uyushtirishdi.

## Ozaytirma va kuchaytirma sifatlar

Sifatlar predmetdagi belgini normal holatdan kamaytirib yoi ko'paytirib ifodalashi mumkin. Bunda qiyoslash, taqqoslash bo'lmaydi.

Shunga ko'ra sifatlar ikki turga bo'linadi:

1.Ozaytirma sifatlar. Predmetlik belgisini kamaytirib ifodalamaydigan sifatlar ozaytirma sifat deyiladi. Ular ikki xil yo'l bilan hosil qilinadi:

1)Morfologik yo'l bilan. Bunda sifatga -mtir, -imtir, -ish, -mtil, -imtil, -roq qo'shimchalarini qo'shib hosil qilinadi: qoramtir, sarg'imtil, oqish, ko'kish, qizg'in kabi.

Masalan : Quyoshning qizg'ish nuri sahnani yoritadi.

2.Sintaktik usul bilan. Bunda sifat oldiga och, nim, sal, picha so'zlarini keltirib hosil qilinadi: och pushti, nim qorong'u, sal achchiq, picha sho'x kabi

Masalan: Qayiqlar to'xtaydigan joyda och yashil, tiniq, moviy, rang xojiya-oppoq qayiqlar yengil to'lqinda chayqalib turardi. (S.Komol)
3. Kuchaytirma sifatlar: Bu sifatlar predmetlarning belgisini qiyoslamagan holda kuchaytirib ifodalaydi. Ular sifatning birinchi bo'g'inini tovush o'zgarishlari bilan, birinchi bo'g'inni ikkinchi bo'g'indagi bir tovushni qo'shib takrorlash orqali birinchi bo'g'inga tovush qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi: ko'm-ko'k, oppoq, but-butun, yap-yapaloq.

Masalan: Jeyms Yaxtani to'ppa-to'g'ri qayiq turgan yerga haydab borardi. (S.Kamol)

Shuningdek kuchaytirma sifatlar sifatning oldiga tim, g'irt, obdon, juda so'zlarini keltirib hosil qilinadi: g'urt xom, tim qora, obdon sho'x, juda go'zal kabi.

Ba'zan sifatlar juft xolatda qo'llanganda noaniq belgini ifodalanashi mumkin: dali-g'uli

## Sifatlarning otlashuvi

Sifat turkumidagi so'zlar ba'zan ot turkumidagi so'zlarning vazifasini bajarib kelishi mumkin, Bunda sifat o'zining belgilik vazifasini yo'qotib, predmet ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiladi: Yaxshidan ot qoladi, yomondan dod.

Sifatlar otlashganda otning morfologik belgilariga ham (ko'plik, egalik, kelishik), sintaktik belgilariga ega bo'ladi (gapda ega, to'ldiruvchi, hol bo'lib keladi): Yaxshi bilan yursang yetarsan murodga, yomon bilan yursang qolarsan uyatga. ( Maqol ).
Sifatlar ko'pincha maqollarda otlashgan shaklda bo'ladi.

## Sifatlarning yasalishi.

Sifatlar ikki xil usul bilan yasaladi:
1)morfologik usul bilan; 2) sintaktik usul bilan.

1. Morfologik usul bilan sifat yasalishi. Bunda sifat yasovchi qo'shimchalaar yordami bilan turli so'z turkumlaridan sifat yasaladi:

-li: a) kuchli, mevali, minishli; b) urganchli, sibirli, tog'li.

Bu qo'shimcha yana so'z birikmalarga va juft so'zlarga (ba'zan ikkinchi komponentga) qo'shilib, sifat yasaydi: qizil yuzli, oq soqolli, yer-suvli, bola-chaqali.

-ki, -qi, -aki, -i: qishloqi, pistaki, tutaki, vaysaqi, yuzaki. Ba'zan-ki yasovchisi-li qo'shimchasi bilan almashinib qo'llanishi mumkin: shunchaki-shunchalik, qishloqi-qishloqlik.

- gi(-ki,-qi): yozgi, bulturgi, tushgi, kuzgi, qishki.

-ba: bahavo, badavlat, bog'lar, kolxozlar badavlat.

-ser: serxosil, sergap, serxarakat, sertashvish, serquyosh.

-ma: qaynatma (sho'rva), ag'darma (etik), bo'yama (soch), yasama (tish).

-chil: epchil, izchil, dardchil.

-chan: ishchan, ko'ngilchan, unituvchan. Bu qo'shimcha- chang shaklida ham uchraydi. Bunday holda ma'noda farq bo'ladi, ya'ni-chan qo'shimchasidan ortiqlik, aktivlik ma'nosini -chang qo'shimchasida «ega emas», ba'zan esa «faqat o'shangagina ega» degan ma'nolarni o'taydi: ko'ylakchang, maxsichang, ishtonchang kabi.

-qoq, -qoq: botqoq, urishqoq, tirishqoq, burishqoq.

Rus tili oraliq kirgan sovet-internasional so'zlar tarkibida sifat yasovchi -on, -(a)n, -in, -iv qo'shimchalari bo'lib, ular tubandagi ma'nolarni anglatadi.-on qo'shimchasi xoslik, aloqadorlik, ma'nolarini bildiradi: revolyusiya-revolyusion, evolyusiya-evolyusion, intonasiya-intanasion, reviziya-revizion kabi.

-a (l) qo'shimchasi ma'lum holatga ega ekanlikni anglatadi.

Forma-formal, gorizon-gorizontal, norma-normal kabi.

-ik qo'shimchasi egalik, xoslik ma'nosini bildiradi: grammatik, sintaktik, kommunistik, sosialistik, pedagogik kabi.

2.Sintaktik usul bilan sifat yasalishi. Bu usulda ikki va undan ortiq so'zlarni turli yo'llar bilan o'zaro biriktirib, predmetning belgi-xususiyatini ifodalash uchun xizmat qiladigan sifatlar yasaladi. Bunday sifatlar tarkibli ya'ni, qo'shma va juft bo'ladi. Bu haqda quyida («sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlari» bo'limida) ma'lumot beriladi.

**Sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlari.**

Sifatlar tuzilishiga ko'ra uch turli bo'ladi: sodda, qo'shma, juft sifatlar.

1. Sodda sifatlar. Sodda sifatlar shakli bir o'zakli, yoki biri negizli yakka so'zlardan tashkil topadi. Bunda ular: a) yakka o'zakdan iborat bo'ladi: oq, qora, yaxshi, yomon, zo'r, katta, keng, tor kabi;

b) Biror qo'shimcha yordamida yasalgan yasama sifatidan iborat bo'ladi: bolali, ommaviy, uyatchan, suvsiz kabi.

2. Qo'shma sifatlar: ikki undan ortiq o'zaklarning birikuvidan hosil bo'lgan sifatlar qo'shma sifat ataladi.

Qo'shma sifatlar bir bosh urg'u bilan aytilib, bir belgi xususiyatni ifodalash uchun xizmat qiladi. Och sariq, ko'p bolali, qalam qosh kabi.

Qo'shma sifatlar tarkibi jihatdan quyidagicha qismlardan iborat bo'ladi:

1) sifat- sifat: to'q-ko'k, och-pushti, ola-qoshqa, erka-arzanda, ijtimoiy-siyosiy kabi.

2)sifat- ot; ochiq ko'ngil, och ko'z, yalang oyoq, yolg'iz oyoq, xushfe'l, sofdil, qora qosh;

3)sifat-ot-sifat yasovchi qo'shimcha: ko'k ko'zli, o'tkir zexnli, qizil bayroqli kabi.

4)ot-ot: qo'yko'z, sheryurak, toshbag'ir, echkisoqol, bodomqovoq kabi;

5)ot-ot-sifat yasovchi qo'shimcha: temir irodali, it fe'lli kabi;

6) ot-sifatdosh: tinchliksevar, erksevar, ko'zilg'amas, ishyoqmas kabi;

7) ravish- fe'l: ertapishar, kechpishar, tezoqar kabi;

8) son-ot-sifat yasovchi qo'shimcha: to'rtbolali, ikki g'ildirakli, uch elementli, ming tishli kabi;

9) ot-qo'shimcha- bor, yo'q (so'zlari): bahosi yo'q, tengi yo'q, aqli bor, (yigit) kabi.

2.Juft sifatlar. Predmetning bir umumiy belgisini ifodalaydi, odatda ikki sodda sifatdan teng bog'lanish yo'li bilan tuziladi. Bunday sifatlar quyidagi yo'llar bilan hosil qilinadi.

Ma'nodosh ikki sinonimik sifatdan: qing'ir-qiyshiq, pishiq-puxta kabi. Bunday juft sifatlarning ba'zilarida xozirgi zamon tilida ikkinchi komponent mustaqil ma'noga ega bo'lmaydi. Ikir-chikir, eski-tuski, ola-bula, kabi.

Qaram-qarshi ma'noli so'zlar antonimik sifatlar juftlashadi: oq-qora, katta-kichik, past-baland, uzoq-yaqin, yaxshi-yomon kabi.
Juft sifatlarning qismlarning har bir mustaqil urg'u bilan aytiladi.

## Tekshirish savollari:

1. Sifat nima?
2. Sifatning mustaqil so'z turkumi deyilishi sababini tushuntiring?
3. Sifatning qanday ma'no turlari mavjud?
4. Sifatning eng ko'p so'zga ega ma'no turi qaysi deb o'ylaysiz? Isbotlang:
5. Sifatning belgini ifodalash usuliga ko'ra qanday turlari mavjud?
6. Sifatning belgini darajalab ifodalashga ko'ra qanday turlarni bilasiz?
7. Sifatni ozaytirma va kuchaytirma sifat va oddiy, qiyosiy, orttirma daraja deb ajratilishiga qanday qaraysiz?
8. Sifatning otlashuvini izoxlang?
9. Sifat qanday usullar bilan yasaladi?
10. Sifatlarning tuzilishi jihatdan qanday turlari mavjud?

## Tayanch tushunchalar:

1. Sifat- belgi so'z turkumi
2. Nisbiy sifat- belgini bevosita ifodalovchi sifat
3. Asliy sifat- belgini bevosita ifodalovchi sifat
4. Sifat darajasi-belgini ortiq-kamligini ko'ra ifodalash
5. Otlashish- ot bo'lmagan so'zning otga xos ma'noga, so'roqqa va grammatik ko'rsatgich, vazifasiga ega bo'lishi.

**Ma'ruza mavzusi: Son so'z turkumi**

**Dars rejasi:**

1. Son haqida ma'lumot
2. Sonning leksik, grammatik xususiyatlari.
3. Bir sonning o'ziga xos xususiyatlari
4. Miqdorni butun va qismlarga ajratib ifodalashga ko'ra turlari
5. Sonning ma'no turlari
6. Sonning tuzilishiga ko'ra turlari

Narsa-buyumning sanog'ini, joylashish tartibini, ish-harakatning bajarilish tartibini bildirgan so'zlar son deyiladi. Nega? qancha, nechanchi? so'roqlariga javob bo'ladi.

Son harflar bilan ham, raqamlar bilan ham ifodalanadi.

A) arab raqamlari: 1,2,3,19,1990 (sana, sinf, yil, moddalarni ifodalashda ishlatiladi)

B) rim raqamlari: I, IV, VI, IX, V, III, XX (asr, konferensiya, anjumanlarni ifodalashda ishlatiladi).

Har qanday son raqam bilan ifodalanadi. Oz, ko'p so'zlari ham miqdorni ifodalaydi.

Eski o'zbek tilida tuman (10000), lak (yuz ming) sonlari ham bo'lgan. Boshqird, uyg'ur tilida (Dmitrev fikricha) ming (10)ni bildirgan. Tarixiy so'zlar.

Son predmetning miqdorini bildiradi. Shuning uchun gapda predmet tushunchasini ifodalovchi otga bog'lanib keladi. Maslaan: Rasulbek 4 ta gilamni mashinaga joylab bo'lguncha, terlab-pishib ketdi. (predmetning miqdorini bildiradi).

Azizbek birinchi ayolni imlab ko'rsatdi (tartib ifodalayapti).

Fe'lga bog'lanib keladi: Urgutlik tojiklarga uning bu bema'niligi malol kelgandi bir-ikki ushlab olishdi, kaltaklashdi. (S.Ahm.)

Son otga bog'lanib kelgan konkret miqdorni ifodalaydi. otga bog'lanmagan holda ham qo'llanadi. Bunda miqdor mavhum, abstrakt bo'ladi (hisoblashda, arifmetikada). Sonning nomi bo'lib keladi. Ikki qo'shuv ikki barobar to'rt. 2 ta nima ekanligi aniq emas.

I. Sonning leksik-semantik xusuciyatlari: Miqdor tushunchasini ifodalaydi. Miqdor tushunchasining nomi bo'ladi.

II. Morfologik xususiyatlari: 1) turlanmasligi: Biz ozdan keyin shoir holvafurush tandiridan yangi uzilgan ikkita non bilan juda nafis ishlangan mislangan kesma holva olib chiqdi: 4 kitob, 10 talaba 1)otga bog'lanmaganda, son bog'langan sifatlarning ot tushib qolganda (otlashadi). Turlanadi (2 xil tushunchani-miqdor, predmetni, tasavvurni aks ettiradi). (Maqol, afforizm, hikmatli so'zlarda uchraydi). Bilagi zo'r birni yiqar, bilmi zo'r mingni yiqar. (Ikkoviga birov botolmas, otliqqa yayov yetolmas) 10 bir yonda, 100 bir yonda, botir yurar maydonda.

Otlashgan son fikrni stimistik jixatdan ixcham, obrazli ifodalash uchun xizmat qiladi. Hamma turlari ham turlanmaydi, chamali son (-tacha, -lab)-lar, va kasr songa qo'shilmaydi.

1. shaxs birlik egalik sanoq son otlashgan formaga qo'shillmaydi: oltim, beshim

2. Son yasalish sistemasiga ega emas.

3.Sonning turli modal formalarin hosil qilgan forma yasovchi qo'shimchalar bor, -ta, tacha-tadan, -ov kabi. Sonning bu modal formalari predmetning to'dasini, taxminiy miqdorini, taqsimini, joylashish tartibini ko'rsatadi: beshtadan daftar, III kurs, uchala talaba.

4.Hisob so'zlari bilan qo'llanadi. 2 juft tufli, 1 so'm (pul), 1990 yil

**Sintaktik xususiyatlari:**

1.Sifatlovchi aniqlovchi: Sizday yetti yigitim bo'lsa, 7 iqlimni zabt eta olardim (O).

2.Otlashganda (sanoq, tartib, jamlovchi) ega, kesim, qaratqichli-aniqlovchi, to'ldiruvchi: Biri-kuyovu, biri-kelinchak. Bittasi bulbulu, bittasi chechak

(G.G). Birning kasofati mingga tegar, mingniki tumanga tegar (M). Yaxshiligimni unutmagin, gap bitta.

3.Fe'lga bog'langandagi holati: Kibrli Ramazon qoridek odamlar shaharda yuz tadan bitta topilar edi (P.T.)

4.Ot, sifat., son bilan ifodalaganda aniqlovchi, ega bo'ladi: son-sifat-ot. Qishloqda uchta hashamatli bino savlat to'kib turibdi.

5.O'zi bog'langan so'zga bo, be aniq olmaydi.

6.Kesim birgalik nisbati bo'lsa, son, ot bilan birikmaga ega vazifasida bo'ladi: 5 qiz kelishdi.

1 soni boshqa sonlarga xos semantik, grammatik belgilaridan tashqari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Avvalo miqdor tushunchasini ifodalaydi.

1 metr chit, 1 kg shakar: Kifoyatxon dasturxonga bir kosa osh, 2 ta ravoch keltirdi. (A.Q.) konteksda konkretlashadi.

1.Oldin tilga olinmagan ot oldida kelganda gumon: Kattakon yer o'choq oldida bir qarich chirsillab yonayotgan o'tga qarab jimgina o'tiribdi.

2. Holat bildiruvchi formasi sifat, ravish, ot oldida kelganda kuchaytiradi.

Kuchaytirma ravishlari (juda, g'oyat, nihoyatda)

Kuchaytirma yuklamalar (ham, hatto) kabi

O'g'limning qilgan ishidan bir hijolat bo'ldim (fe'lga bog'landi).

Qor charx urib ёg'ardi. Hakim bir tez yurardi, men esa zo'rg'a qadam bosardim (S.B.).

Uzun tunlarning birida otam bir qiziq ertak so'zlab berdi (S.B.)

3. 1 soni sifatlovchi sifatlanmish orasida kelganda ma'no kuchaytiradi. Gulnor uchun ulug' baxt shu uchrashuv bo'ldi. Shunday so'zi kelsa ta'kidlash ma'nosi yanada kuchayadi. Malohat ham shunday bir narsani orzu qilib yurardi.
4. Ayiruv, chegaralov yuklamalari (gina, faqat) o'rinda qo'llanib, ajratib, ko'rsatib, chegaralash ma'nosini ifodalaydi: Kamtarlik ham bir xislat.
5. Bir son o'zi bog'lanib kelayotgan so'z bilan «hech kim», «hech qanday» olmoshlari ma'nosida ham keladi: kunlik normasini bajarmagan bir kishi qolmadi.

6. Uyushiq bo'lakli gaplarda, qo'shma gaplarda bog'lovchi, ayiruv bog'lovchi vazifasini bajarishi mumkin.

   Bir unga qaraysan, bir menga qaraysan. (uyushgan bog'lovchi)

   Bir kattaning gapiga kir, bir kichikning

   Umri bir oqardi, bir qizardi.

7. Kesim bo'lib kelganda birlik, birdamlik, o'xshashlik, umumiylik ma'nosini ifodalaydi:

Odamning tili bilan dili bir bo'lsin. Kemaga tushganning joni bir. (M)

Bir so'zi bilan olmosh, ravish, ot, fe'l yasaladi.

**Sonning turlari.**

Predmetning miqdorini butunicha va qismlarga ajratib, ifodalashga ko'ra ikki xil bo'ladi: butun, kasr.

1. Miqdorni, sanoqni, predmetning butunligi saqlagan holda ifodalovchi sonlar butun sonlar deyiladi.
2. Butuning qismini ifodalovchi sonlar kasr sonlar deyiladi: yarim, chorak, nimchorak.
3. Butun va kasr son aralash holda qo'llanilsa, kasrli son-aralash son deyiladi: bir butun, o'ndan ikki

**Sonning ma'no turlari.**

Sonlar ma'no va grammatik xususiyatlariga ko'ra 2 turga ajratiladi: 1. Sanoq sonlar. 2. Miqdor sonlar.

Sanoq sonlar predmetning, ish-harakatning miqdorini, sanog'ini, sonini anglatadi. Sanoq sonlar predmetlarni donalab, taqsimlab, jamlab, taxmin-chamalab ko'rsatadi.

Sanoq sonlar quyidagi turlarga bo'linadi.

1. Miqdor sonlar bir turdagi predmetlarning umumiy miqdorini bildiradi: besh, yuz, ming.

Miqdor sonlar hisob so'zlari bilan qo'llanadi. Ular ot turkumiga mansab so'zlardir. Hisob so'zlari quyidagi o'lchov birliklarini bildiradi:

1. Donalikda: dona, tup, bosh, tuyoq.
2. Butunning bo'lagini: tilim, chimdim, lagan, savat, qop.
3. Juft predmetlarni: juft, jo'ra, pora.

4. Og'irlikni: gramm, kilogramm, pud, sentner, tonna;
5. Uzunlikni: m, mm, km, qadam, qarich, odim, enli;
6. Suyuqlikni; litr, stakan, kosa, xovuch, ho'plam;
7. pul qiymatini: so'm, tiyin, tanga;
8. Yosh o'lchovini; yosh, kunlik, oylik;
9. Vaqtni; asr, yil, daqiqa, xafta, sutka, kun.

2. Dona son. Bir xildagi predmetlarning yakkalab, donalab sanaladigan umumiy miqdorini bildiradi. 2 usul bilan hosil bo'ladi:

1) morfologik usul: miqdor songa- ta qo'shimchasini qo'shib;

2) sintaktik usul: miqdor sondan so'ng donalikni bildiradigan hisob so'zlarni keltirib.

3. Chama son. Predmetning taxminiy miqdorini bildiradi. Miqdor songa-tacha, -larcha, -lab qo'shimchalarini qo'shib va ketma-ket keladigan birlik, beshlik, o'nlik, yuzlik, mingliklarni juftlab hosil qilinadi.
4. Jamlovchi son bir xildagi predmetlarning donalab sanalishidan kelib chiqadigan miqdorni jamlash orqali ifodalaydi. Miqdor songa- ov, -ovlon, -ala qo'shimchalarini qo'shib hosil qilinadi.
5. Taqsim son bir xildagi predmetlarning guruhlanish, taqsimlanish miqdorini bildiradi.

Miqdor songa-tadan qo'shimchasini qo'shib, dona sonlarni takrorlash orqali (beshta-beshta, beshta-beshtadan) hosil qilinadi.

**Tartib son.**

Predmetning joylashish tartibini, sirasini, ish-harakatning bajarilish tartibini bildiradigan sonlar tartib son deyiladi. Tartib son arab va rim raqamlari bilan ifodalanadi: 2000-yil, 2-sentabr, XIV bob.

Tartib son otga bog'lanib kelganda sifatlovchi-aniqlovchi, otlashganda esa to'ldiruvchi, kesim bo'lib keladi. -dan qo'shimchasini olib, kirish so'z vazifasini bajaradi.

Tartib sonlar ba'zan daraja, nav, tur ma'nolarini bildirib keladi: 1-sinf haydovchisi, 2-nav un, 1-tur o'yinlari.

**Sonning tuzilish jihatdan turlari.**

Sonlar tuzilishiga ko'ra 3 xil:

1) Sodda sonlar; bir, ming, ellik.
2) Murakkab sonlar: bir ming to'qqiz yuz ellik.
3) Juft sonlar: besh-olti, o'ttiz-qirq, ming-ming.

**Tekshirish savollari:**

1. Son nima?
2. Son nimalar bilan ifodalanadi?
3. Son qanday leksik-grammatik xususiyatlarga ega?
4. Bir sonning o'ziga xos xususiyatlarini izohlang?
5. Miqdorni butun va qismlarga ajratib ifodalashga ko'ra sonning qanday turlari bor?
6. Son ma'no jihatdan qanday turlarga bo'linadi?
7. Tartib son ifodalaydigan ma'nolarni izohlang?
8. Hisob so'zlar qanady o'lchov birliklarini bildiradi?
9. Sonning tuzilish jihatdan qanday turlari mavjud?
10. Eskirgan sonlarni to'plang, ular qanday miqdorlarni bildirishini aniqlang?

**Tayanch so'zlar:**

1. Son-miqdor bildiruvchi mustaqil so'z turkumi
2. Hisob so'zi-ot turkumidagi so'zning o'lchov bildirishi
3. Butun son-miqdorni yaxlitligicha ifodalovchi son
4. Kasr son miqdorni qismlarga ajratib ifodalovchi son
5. Aralash son-miqdorni butun bir qismlarini ajratib ifodalovchi son
6. Tartib son-predmetning joylanadigan o'rnining sirasini bildiradi.
7. Sodda son-bir o'zakdan iborat son.

**Ma'ruza mavzusi: Olmosh. Olmoshning ma'no turlari.**

**Dars rejasi:**

1. Olmosh va uning leksik-grammatik xususiyatlari
2. Olmoshning ma'no turlari
   1) Kishilik olmoshlari;
   2) Ko'rsatish olmoshlari;
   3) So'roq olmoshlari;
   4) Belgilash olmoshlari;
   5) Bo'lishsizlik olmoshlari;
   6) O'zlik olmoshlari;
   7) Gumon olmoshlari;
3. Olmoshlarning tuzilishi jihatdan turlari.

## 1. Olmosh va uning leksik-grammatik xususiyatlari

Ot, sifat, son, ravish kabi so'z turkumlari o'rnida qo'llanib predmet, belgi, miqdor tushunchasining mavjudligini ko'rsatadigan, ularning vazifasini bajaradigan so'z turkumiga olmosh deyiladi. Olmoshlar predmet, belgi, miqdor ma'nosini anglatmay, faqat ularga ishora qilish, ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Masalan: Bizga qalin do'st kitob, u go'yo nurli oftob. Bu gapda biz va u olmoshlari ot o'ringa kelib, shaxs va predmetga ishora qilgan. Siz ana shu jannatni dunyoga keltirgan odamlar sog'ligining posbonisiz. (M.Muhammedov). Bu gapda ana shu olmoshi sifat o'rniga kelib, beligiga ishora qilgan. Men bunaqa voqealar haqida qancha-qancha kitoblar o'qiganman. (O.Ë.). Bu gapda qancha-qancha olmoshi ravish o'rniga kelib, miqdoriy belgiga ishora qilgan.

Olmosh so'z turkumi quyidagi leksik-grammatik xususiyatlarga ega: 1) olmosh mustaqil so'z turkumlaridan farqli ravishda, predmet va uning belgisini, miqdorini ularga atama (nom) bo'lmagan holda ko'rsatish xususiyatiga ega. 2) olmoshlar gapda bajaradigan vazifasiga ko'ra 4 guruhga bo'linadi;

A) ot o'rnida qo'llanuvchi olmoshlar: Men, sen, u, biz, siz, ular, kim, nima, har kim, har nima, hech kim, hech nima, allakim, allanima, bir narsa, bir nima, birov, kimdir, nimadir kabilar

Bu olmoshlar ot singari so'z o'zgartiruvchi bajargan sintaktik vazifalarni (ega, to'ldiruvchi, qaratuvchi, ba'zan, kesim) bajaradi. Masalan: Kimning ishi to'g'ri bo'lsa, u doim bexovotir bo'ladi. Nimani qilsang xor, o'shangga bo'lasan zor (Maqol).

B) sifat o'rnida qo'llanuvchi olmoshlar: bu, shu, o'sha, u, ana, shu, mana, bu, qanday, qaysi, har, qanday, har qaysi, hech qaysi, hech qanday, hech bir, qandaydir, qaysidir, allaqanday, allaqaysi, biron, biror, qaysi bir, ba'zi bir kabilar.

Bu olmoshlar sifat singari otga bog'lanib, belgiga ishora qiladi, gapda asosan, sifatlovchi-aniqlovchi vazifasini (ba'zan kesim) bajaradi.

Masalan: Uning yuzida hech qanday malol alomati ko'rinmas, aksincha, har kungidan xurramroq edi. (A.Qahhor). Umiddimiz-shu.

V) 1) son o'rnida qo'llanuvchi olmoshlar: necha, nechta, nechanchi, qancha, bir necha, bir qancha, qanchadir kabilar.

Bu olmoshlar son singari otga bog'lanib, miqdoriy belgiga ishora qiladi, gapda asosan sifatlovchi- aniqlovchi vazifasini (ba'zan kesim) bajarib keladi.

Masalan: Arava bormidi? Dedi O'rmonjon kattakon ro'moli bilan yuzini bo'ynini artib.-Nega arava bordi (A.Qahhor)

Xon janoblaridan so'raydigan bir necha tilaklarim bor. (A.Qodiriy). Yoshingiz nechada?

2) ravish o'rnida qo'llanuvchi olmoshlar: qayerga, qayerda, qayerdan, qachon, har qancha, hech qancha, nega, qalay, qani kabilar.

Bu olmoshlar ravish singari fe'lga bog'lanib, belgiga ishora qiladi, gapda asosan, hol (ba'zan kesim) vazifasini bajaradi.

Masalan: Otabek tasdiq ishorasini bergach, negadir bir entikib qo'ydi. (A.Qodiriy). Bola qalay ekan? Oyoq, qo'li chaqqonmi? (P.P.)

3.Olmoshlarning morfologik va sintaktik xususiyatlari yuqorida sanab o'tilgan ma'no xususiyatlari bilan bog'langan holda turlichadir.

Ot o'rnida qo'llanuvchi olmoshlar otga xos morfologik va sintaktik xususiyatlarga sifat o'rniga qo'llanuvchi olmoshlar sifatga xos, son o'rniga

qo'llanuvchi olmoshlar songa xos, ravish o'rnida qo'llanuvchi olmoshlar ravishga xos morfologik va sintaktik xususiyatlarga ega.

4.Olmosh mustaqil so'z turkumi sifatida so'z yasalish xususiyatiga ega emas. Lekin olmoshdan sanoqli qo'shimchalar yordamida ot, ravish yoki fe'l yasalishi mumkin: o'zlik, manmanlik, kabi otlar; sizla, senla, sensira sizsira kabi fe'llar;

5.Olmoshlarning boshqa so'z turkumidan ajratib turadigan asosiy sintaktik xususiyatlaridan olmosh hech vaqt o'zidan oldin aniqlovchi olmaydi.

## 2. **Olmoshning ma'no turlari**

1) Kishilik olmoshlari nutq jarayonida ishtirok etadigan shaxslarni va nutqda tilga olingan shaxs yoki predmetni ko'rsatadi. Kishilik olmoshlariga birlik va ko'plik son shaklidagi so'zlovchi (I shaxs) men, biz; tinlovchi (II shaxs) sen, siz; o'zga (III shaxs) u, ular kiradi. Kishilik olmoshlarining I va II shaxsi (men, sen, biz, siz) faqat shaxsi o'rnida qo'llanadi. III shaxs kishilik olmoshlari (U, ular) esa shaxsini ham, predmetni ham ko'rsatadi.

Maslaan: Bizning urishimiz ozod urushi bo'ladi ota. (Oybek) U ketgandan keyin Siddiqjon shu yerning o'zida cho'kka tushdi. (A.Qahhor).

Kishilik olmoshlari ot o'rnida qo'llanuvchi olmoshlardir. Shuning uchun ham kishilik olmoshlari otga xos morfologik va sintaktik xususiyatlarga ega.

Kishilik olmoshlari kelishik qo'shimchalari bilan turlanadi. Men, sen kishilik olmoshlariga -ni tushum kelishigi, -ning qaratgich kelishigi qo'shimchasi qo'shilganda, o'zakdosh n undoshi tushib qoladi: men -ni, -ning, meni, mening; sen -ni, -ning seni, sening kabi

U kishilik olmoshiga jo'nalish, o'rni-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalari qo'shilganda, o'zakda bir n undoshi orttiradi: u-ga, -da, -dan, unga, unda, undan kabi.

Kishilik olmoshining III shaxs ko'plik shakli u -lar qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi. Biz, siz kishilik olmoshlariga qo'shilganda, ta'kid ma'nosini, sen olmoshiga qo'shilganda mensimaslik ma'nosini ifoda etadi; -Ma'ni ?-ko'zini olaytirdi Soli. Ma'niki senlarga berdim, ekib qo'ylaring (O.)

Kishilik olmoshlari gapda ega, keism, to'ldiruvchi, va qaratuvchi-aniqlovchi vazifasini bajaradi.

Masalan: Sen vazifangni bajaraver, qo'rqma. Senga hech qanday shikast yetmaydi. Sening tanigga o'q ham botmaydi, nayza ham. (A.Q.)

Ko'rsatish olmoshlari shaxs, predmet yoki belgini vaqt va o'ringa nisabatan ko'rsatish ajratish uchun ishlatiladi. Ko'rsatish olmoshlariga: bu , shu, u, o'sha, ana shu, ana u, mana bu, mana shu, ana o'sha kabilar kiradi. Bu olmoshlar sifat o'rniga kelib belgiga ishora qiladi, qaysi so'rog'iga javob beradi.

Masalan: Ellik sentnerchilar harakatini shu brigada boshlab berdi. Men ana u so'qmoqdan yursam ham bo'ladi. (A.Qahhor).

Ko'rsatish olmoshlari so'zlovchi bilan ko'rsatilgan predmet orasidagi masaffaning uzoq-yaqinligiga, voqea sodir bo'lgan vaqtga qarab qo'llanadi. Bu, mana bu olmoshlari so'zlovchining ko'z oldida bo'lgan so'zlovchiga yaqin turgan predmetni ko'rsatadi. Shu, mana shu olmoshlari so'zlovchining ko'z oldida bo'lgan yoki yaqin vaqt ichida tilga olingan predmetni yana eslatish, ta'kidlash uchun ishlatiladi. U, ana u, olmoshlari orqali so'zlovchining ko'z oldida bo'lmagan predmetga ishora qiladi. O'sha, ana o'sha olmoshlari ilgari so'zlab o'tilgan bir predmetni eslash orqali ko'rsatadi.

Ko'rsatish olmoshlari otga bog'lanib kelib, gapda sifatlovchi-aniqlovchi (ba'zan, kesim) vazifasini bajaradi; Ufqqa ulanib osmonga yetgan shu go'zal mamlakat, shu oltin gullar. (H.O.)

Ko'rsatish olmoshlari otlashsa, son, egalik va kelishik qo'shimchalari oladi. Jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishiklari qo'shimchalarini olganda, bir n tovushi orttiriladi: Bunga, shunga, bundan, shundan, o'shanda kabi.

Otlashgan ko'rsatish olmoshlari gapda ega, qaratuvchi-aniqlovchi, to'ldiruvchi kabi sintaktik vazifalarni bajaradi.

Masalan: Yo'lchining yodiga halligi qiz tushdi. Shuning qizi emasmikin? (O). Bu zamonda kimning chaqasi ko'p bo'lsa, odamlar o'shanga og'adi. (O.)

3)So'roq olmoshlari shaxs, predmet, belgi, miqdor haqida so'roqni bildiradi yoki no'malum shaxsni ko'rsatadi. So'roq olmoshlariga: kim, nima, qanday, qanaqa, necha, qancha, qayerda, qayerga, qayerdan, nega, qalay, qani kabilar kiradi.

Kim nom'alum shaxs, nima predmet; qanday, qanaqa, qayerda, qayerga, qayerdan, nega, qalay, qachon-belgi haqida; necha, nechanchi miqdor haqida so'roqni bildiradi.

Masalan: Dunyoni suv bossa, o'rdakka nima qayg'u (Maqol.) Ko'pchilik qayerda bo'lsa, to'qchilik xam shu yerda bo'lar. (Maqol.)

So'roq olmoshlarining morfologik va sintaktik, ularning ma'no xususiyatlariga qaysi so'z turkumi o'rnida qo'llanishiga bog'liq. Ot o'rnida qo'llanuvchi so'roq olmoshlari son, egalik, kelishik qo'shimchalarini oladi. Bunday olmoshlar gapda ot singari turli vazifalarni bajaradi. Sifat, son o'rnida qo'llanuvchi olmosh sifatlovchi-aniqlovchi vazifasida, ravish o'rnida qo'llanuvchi olmoshlar, hol vazifasida, ba'zan kesim vazifasida keladi.

Masalan: Kim ikkinchi taklifni ёqlasa, qo'lini ko'tarsin. (M.Qoriyev). Qayerda suv mo'l bo'lsa, shu yerda hosil mo'l bo'ladi. Qaysi ahvolda ekan Ekin qalay, necha tanob (S.A.)

4).Belgilash olmoshlari shaxs, predmet, uning belgisi, miqdorini jamlab yoki umumlashtirib ko'rsatadi. Belgilash olmoshlariga hamma, barcha, bari, har qanday, har qaysi, har narsa, har qancha kabilar kiradi. Bu olmoshlardan hamma, barcha, bari kabi olmoshlar predmet yoki belgini jamlab ko'rsatadi. Ba'zi olmoshi to'daning, jamlikning qismini ko'rsatadi. Har, har kim, har nima, har bir, har qanday, har qaysi, har narsa, har qancha, kabi belgilash olmoshlari shaxs, predmet, belgilarni yakkaga ajratib ko'rsatadi.

Masalan: Botir topsa-barcha yer, baxil topsa-bosib yer (Maqol). Hamma pul imoratga sarf bo'ldi. Har bahorda shu bo'lar takror, har bahor ham shunday o'tadi. (X.O.) Gulnor.. (Unsinning) burnini, peshonasini va ba'zi harakatlarini Yo'lchiga o'xshatdi

***Belgilash olmoshlari ham morfologik va sintaktik xususiyatlari qaysi so'z turkumi o'rnida kelganiga qarab belgilanadi.***

***Jamlikni ifoda etadigan hamma, barcha, bari belgilash olmoshlari ot o'rnida kelib, shaxs, predmetni belgilash uchun qo'llanganda egalik, kelishik, son qo'shimchalarini oladi va gapda ot bajargan vazifalarda keladi. Otga bog'lanib kelganda, sifatlovchi-aniqlovchi vazifasini bajaradi. Ba'zi belgilash olmoshi ham xuddi shunday xususiyatga ega.***

*Shaxs, predmet, belgini yakaga ajratib ko'rsatadigan har kim, har narsa, har nima olmoshlari ot o'rnida kelib, egalik, kelishik, son qo'shimchalarini oladi. Qolganlari sifat va ravish o'rnida kelib, belgiga ishora kiladi.*

*Masalan: Atrofda odam tuplandi. Ba'zilar achinadi, ba'zilar tomoshabin (O.). Uning qo'lidan hamma ish keladi. Keling deb har qancha qistasam ham, mehmon ketib koldi (O.). Odam degan qar narsaga aralashavermaydi (O.).*

*5) Bo'lishsizlik olmoshlari mutloqo mavjud emaslik ma'nosi orkali ifodalangan predmet, belgi yoki mikdorni umumlashtirib ko'rsatadi. Bo'lishsiz olmoshlariga hech kim, hech nima, hech narsa, hech bir, hech qanday, hech qanaqa, hech qancha kabilar kiradi. Demak bo'lishsizlik olmoshlari hech so'zidan so'ng so'roq olmoshlari hamda narsa bir so'zlarni keltirish bilan yasaladi.*

*Masalan: Boyning tashqarisida Yo'lchidan boshqa hech kim yo'q.(O.). Men hech nimani ko'rmadim. Hech qanday fikr bildirmadi. Hech qaysi mamlakatda qurilish sur'ati biznikiga yetmaydi(U.X.).*

*Bo'lishsizlik olmoshlarining ham morfologik xam sintaktik xususiyatlari belgilash olmoshlari kabidir.*

*6) O'zlik olmoshi o'z so'zidan iborat bo'lib, u aniq, konkret shaxsni ajratib, ko'rsatish yoki ot va kishilik olmoshlarining ma'nosini konkretlashtirib, ta'kidlab ko'rsatadi.*

*Masalan: o'zim, o'zi, o'zimiz, men o'zim, Saidaning o'zi kabi. O'zganing mis qozonidan, o'zingning qora qozoning yaxshi (Makol.). Xoshimjon aka bu bilan o'z jur'atsizligini yashirmoqchi ekaniga hammaning imoni komil edi.(O.Ë.).*

*O'zlik olmoshi ot o'rnida kelib, shaxsga ishora qiladi. O'zlik olmoshi egalik, kelishik, son qo'shimchalarini oladi, ot bajargan sintaktik vazifalarni bajaradi.*

*7)Gumon olmoshlari mavjud, ammo noaniq, no'malum bo'lgan shaxs, predmet, belgi va miqdorni bildiradi. Gumon olmoshlari quyidagicha yasaladi:*

***1. So'roq olmoshidir qo'shimchasini qo'shish bilan: kimdir, nimadir, qandaydir, qaysidir, qanchadir kabi.***

***Masalan: Bir parcha qog'ozning yuziga qora, siyoh bilan o'ng-teskari, qandaydir xarflar yozilgan (O.). Atirgul to'satdan silkindi-da, kimdir engashib anorzorga qochdi (I.R). Farida ko'cha muyulishiga yetganda, nimadir taraqlab ketdi (Rashod Nuri.).***

***2. So'roq olmoshlari narsa so'zi oldiga -alla- elementi qo'shish orqali: Allakim, allanima, allanarsa, allaqanday kabi.***

***Masalan: Mish-mishlarni unga hamma vakt allakim aytgan bo'ladi.(A.Qahhor.). Shkafning orqasida allanarsa shitirlaganday bo'ldi.***

***3. So'roq olmoshi yoki narsa so'zidan oldin bir so'zini keltirish orqali: bir necha, bir qancha, bir nima, bir narsa kabi, ba'zi belgilash olmoshi qaysi so'roq olmoshidan so'ng bir so'zini keltirish bilan ham gumon olmoshlari yasaladi: qaysi bir, ba'zi bir kabi.***

***Masalan: Sizga bir narsa bo'ldimi? Faqat bir narsani payqab qoldi: u yo'g'ida kimdir uyga kirib chiqyapti(E.A.). Qaysi bir kavakda chumchuq bolalari chirqillaydi (O.). Ba'zi bir odamlar faqat o'z manfaatini ko'zlaydi.***

***4. Bir so'ziga -ov, -on, -or qo'shilishi bilan yasaladi: birov, biron, biror kabi.***

***Masalan: Mahallamizda biror bo'zchi birov maxsido'z, birov baqqol (O.).***

***Gumon olmoshlarining ham morfologik va sintaktik xususiyatlari qaysi suz turkumi o'rnida kelganiga karab belgilanadi.***

***3. Olmoshlarning tuzilish jihatdan turlari.***

***Olmoshlar tuzilish jixatdan, asosan, 3 xil:***

***1) sodda olmoshlar; 2) qo'shma olmoshlar; 3) juft olmoshlar.***

***Sodda olmoshlar bir o'zak morfemadan iborat bo'ladi: men, sen, kim, nima, hamma, ba'zi kabi.***

***Qo'shma olmoshlar ikki o'zak morfemaning qo'shilishi yoki birikuvidan hosil bo'ladi: manna shu, anna u, har kanday, hech kim kabi.***

***Juft olmoshlar ikki olmoshning o'zaro teng bog'lanishidan tuziladi: sen-men, u-bu, siz-biz kabi.***

*Tekshirish savollari:*

1. ***Olmoshning ta'rifini ayting.***
2. ***Olmoshning grammatik xususiyatlarini izohlang.***
3. ***Olmoshning ma'no turlarini sanang.***
4. ***Kishilik olmoshi nima? Uning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiring.***
5. ***Ko'rsatish olmoshi nima? Qaysi so'zlar ko'rsatish olmoshiga kiradi? Uning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiring.***
6. ***So'roq olmoshlari va uning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiring.***
7. ***Belgilash olmoshlari va uning o'ziga xos xususiyatlari qaysilar?***
8. ***Bo'lishsizlik olmoshlari va uning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiring.***
9. ***O'zlik olmoshi va uning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiring.***
10. ***Gumon olmoshlari va uning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiring.***

*Tayanch tushunchalar:*

***1.Olmoshlar -ot, sifat, son, ravish kabi so'z turkumlari o'rnida qo'llanib, predmet, belgi, miqdor tushunchasining mavjudligini belgi, miqdor tushunchasining mavjudligini ko'rsatadigan mustaqil so'z turkumi.***

***2.Sodda olmosh -bir o'zak morfemadan tuzilgan olmosh.***

***3.Qo'shma olmosh -ikki o'zak morfemaning qo'shilishidan hosil bo'lgan olmosh.***

***4.Juft olmosh -ikki olmoshning o'zaro teng bog'lanishidan tuzilgan olmosh.***

*Ma'ruza mavzusi: Fe'l-so'z turkumi.*

*Dars rejasi:*

1. ***Fe'l, uning leksik-semantik xususiyati.***
2. ***Fe'lning leksik-grammatik (morfologik va sintaktik) xususiyati.***

***Shaxs va predmet ish-harakatini ifodalaydigan mustaqil so'zlar fe'l deyiladi. Qiyoslang: Yoshlar ilm-fan cho'qqilari sari intilmoqdalar. Mashina tog' yo'li tomon burildi.***

***Shuningdek, fe'l turli holatlarni, o'zgarishlarni (m: uyalmoq, uxlayapti; Sarg'aymoq, zanglagan va b.); harakat, holatning yuzaga kelish jarayonini (m: gul ochildi, kuz keldi, Urug' undi(ko'kardi)) ham harakat tarzida anglatadi. Shuning uchun nutqda (gap tarkibida) fe'l turkumiga kiruvchi so'zlarga nisbatan, odatda, nima qildi? Nima qilyapti? Nima qiladi? kabi so'roqlar beriladi.***

***Morfologik jihatdan fe'l o'ziga xos xususiyatlarga ega, chunonchi:***

*a) -o'timlilik va o'timsizlik tushunchasi (masalan: uxlamoq, yugurmoq, yaltiramoq - o'timsiz fe'l; bezamoq, olmoq, anglamoq - o'timli fe'l);*

*b) -bo'lishlilik va bo'lishsizlik tushunchasi (m: o'qi-bo'lishli, o'qima-bo'lishsiz, qiziqib-bo'lishli, qiziqmay-bo'lishsiz);*

*v)-harakatning ob'yekti bilan sub'yekti orasidagi munosabat tushunchasi, ya'ni nisbat tushunchasi (masalan: yasadi-aniq nisbat, yasandi-o'zlik nisbati, yasaldi-majhullik nisbati, yasashdi-birgalik nisbati, yasatdi- orttirma nisbati);*

*g)-harakatning voqelikka munosabati tushunchasi, ya'ni mayl tushunchasi (masalan: bajardi, bajarmoqda, bajarmoqchi, bajarganmiz-aniqlik yoki ijro mayli; bajaray, bajarsin, bajar-buyruq-istak mayli; bajarsak, bajarilsa shart mayli);*

*d)-zamon tushunchasi (masalan: ishladim, ishlaganman-o'tgan zamon, ishlayapman, ishlamoqdaman-hozirgi zamon; ishlamoqchiman, ishlarman-kelasi zamon);*

*ye)-shaxs-son tushunchasi-tuslanish xususiyati (qiyoslang: qiyinchiliklarni yengdim, yengdik, qiyinchiliklarni yengding, yengdingiz kabi). Shular jumlasiga kiradi.*

*Yuqoridagilardan tashqarii, fe'llarda ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi singari maxsus vazifadosh-funksional shakllar mavjud (masalan: yozib, yozgach -ravishdosh; ko'zlangan maqsad-sifatdosh; ishlash, ishlamoq foydali- harakat nomi). Bunday shakldagi fe'llar gapda turli gap bo'laklari vazifasida qo'llana oladi.*

*Fe'l-maxsus fe'l yasash tizimiga ega bo'lgan so'z turumiga (qiyoslang: o'qimoq, olgan, o'tkaz, kel-tub; ishladik, uyqisiramoq, sog'aymoq - affiksasiya usuli bilan ot va sifatlardan yasalgan fe'llar; imzo chekmoq, qo'l qo'ymoq, xafa bo'lmoq - kompozisiya usuli bilan yasalgan yasama fe'l).*

*Fe'llarda qo'shimcha ma'no qo'shilishini aks ettiruvchi shakllar – modal formalar ham mavjud (qiyoslang: tutdi – titkiladi, oqargan – oqarqiragan kabilada ajratib ko'rsatilgan fe'llar affiksasiya usuli bilan modal forma (nokategorial forma)ga misol bo'la oladi. Shuningdek, fe'lda*

***modal ma'no ifodalash mayl formalari orqali shakllanishi, ko'makchi fe'llarni va to'liqsiz fe'llarni qo'llash orqali hosil qilinishi mumkin (masalan: aytgan bo'ldi, aytib ko'r; borgan emish, aytar edi kabi).***

*Tekshirish savollari:*

1. ***Fe'l nima? Fe'l turkumiga kiruvchi so'zlarga qanday so'roqlar beriladi?***
2. ***Fe'l qanday leksik semantik xususiyatlarga ega?***
3. ***Fe'l qanday leksik-grammatik xususiyatlarga ega?***
4. ***Fe'l ish-harakatni qanday holatda ifodalaydi?***
5. ***Fe'lning morfologik xususiyatlarini ayting.***
6. ***Fe'da qanday vazifadosh shakllar mavjud?***

*Tayanch so'zlar:*

1. ***Faol ish-harakat ifodalaydi.***
2. ***Fe'l fe'l yasash tizimiga ega.***

*Ma'ruza mavzusi: O'timli va o'timsiz fe'llar.*

*Dars rejasi:*

1. ***O'timli va o'timsiz fe'llar haqida ma'lumot.***
2. ***Fe'llardagi o'timli va o'timsizlik ma'nosining ifodalanish usullari.***

***Fe'ldan anglashilgan harakatning tushum kelishigi formasidagi ot bilan (yoki otlashgan so'z bilan) ifodalangan predmetga o'tganligini bildiradigan fe'llar o'timli fe'l deyiladi, masalan: so'radi (qiyoslang: kitobni so'radi, onasini so'radi); uxlatdi (qiyoslang: bolasini uxlatdi.).***

Biron predmetga bevosita o'tmaydigan harakatni anglatadigan fe'llar o'timsiz fe'l sanaladi. Masalan: Otlar jon-jahdi bilan yugura ketdi (Ё.SH.)

***O'timli fe'l ba'zan chiqi shva jo'nalish kelishigi formasida qo'llagan otlar bilan bog'lanib keladi, qiyoslang: oling (nonni oling, nondan oling); minmoq otni minmoq, otga minmoq).***

***Fe'dagi o'timli – o'timsizlik 2 usul bilan ifodalanadi:***

1) ***leksik-semantik; 2) morfologik (affiksasiya) usullari.***

***Birinchi usulda fe'llar hech qanday shakl o'zgarishsiz (o'zak- negiz holatida) o'z leksik ma'nosiga ko'ra yo o'timli (m: och, ich, qo'y, so'ramoq, bo'yadi kabi), yo o'timsiz (m: uxla, semirmoq, og'ridi kabi) sanaladi.***

***Ikkinchi usulga ko'ra fe'l o'zak-negiziga qo'shilgan ayrim qo'shimchalar (o'zlik majhullik. Orttirma nisbat qo'shimchalari) fe'lning o'timli yoki o'timsiz ekanini belgilab beradi. Qiyoslang: yur – o'timsiz fe'l, yurgiz– o'timli fe'l (uning tarkibida orttirma nisbat qo'shimchasi -giz qo'llangan); aksincha, yech – o'timli fe'l, ammo undan hosil qilingan yechin, yechildi kabilar o'timsiz fe'llar bo'lib, fe'l tarkibidagi –in (o'zlik nisbati qo'shimchasi) –il (majhullik nisbati qo'shimchasi) o'timli fe'lni o'timsiz fe'lga aylantirgan.***

***Agar bir fe'l o'zak-negizga ikki va undan ortiq nisbat ketma-ket qo'shilgan bo'lsa, bunday fe'ning o'timli yoki o'timsizligi eng keyin qo'shilgan nisbat qo'shimchasi orqali belgilanadi, masalan: yech – o'timli, yechin – o'timsiz, yechintir – o'timli, yechintirildi - o'timsiz fe'l.***

***O'timli va o'timsiz fe'llarni shakllantiruvchi qo'shimchalar qatoriga kiritiladi.***

*Tekshirish savollari:*

1. ***O'timli fe'l nima?***
2. ***O'timsiz fe'l nima?***
3. ***Fe'llardagi o'timli va o'timsizlik ma'nosi qanday usullar bilan ifodalanadi?***
4. ***O'timli fe'l qaysi kelishik formasidagi otlar bilan bog'lanadi?***
5. ***Fe'ldagi o'timli-o'timsizlik necha usul bilan ifodalanadi? Sanang.***
6. ***Fe'lning leksik-semantik usuldagi o'timli –o'timsizligini izohlang.***
7. ***Fe'lning morfologik usuldagi o'timli-o'timsizligini tushintiring.***
8. ***Fe'dagi ikkitadan ortiq nisbat qo'shimchasi qo'shilganda o'timli-o'timsizlik qanday belgilanadi.***

*Tayanch so'zlar:*

***O'timli fe'l:***

1. ***Tushum kelishigidan so'zga bog'lana oladi.***

***O'timsiz fe'l:***

2. ***Predmetga bevosita o'tmaydigan harakatni anglatadi.***

*Ma'ruza mavzusi: Fe'l nisbatlari. (2 soat).*

*Dars rejasi:*

1. ***Fe'l nisbatlari haqida ma'lumot.***
2. ***Fe'l nisbatlarining ko'rinishlari va ularning yasalishi.***

***Ish-harakatning bajaruvchisi (sub'yekti) bilan predmeti (ob'yekti) orasidagi yoki bir necha bajaruvchi (sub'yektlar) orasidagi munosabatning ifodalanishi fe'l nisbati deyiladi ta'rifini qanday tushinish lozim?***

***Quyidagi misollardagi ajratib ko'rsatilgan fe'l va u aloqador bo'lgan so'zlarning ma'no va grammatik xususiyatlariga e'tibor bering:***

***1. Mehnatni sevgan kishi unadi. Bunga harakat (unadi, o'sadi) grammatik jihatdan ega vazifasini bajargan shaxs (kishi) tomonidan bajarilganlik ma'nosi anglatiladi.***

***Ana shu xildagi gap qurilishi tilshunoslikda aktiv konstruksiya (faol qurilma) deb yuritiladi, bunday gap tarkibida qo'llangan fe'l kesim esa aniq nisbat shaklidagi fe'l sanaladi. Bunday fe'l shaklida maxsus nisbat ko'rsatkichi bo'lmaydi, shuning uchun ham u boshqa nisbat shakllarini hosil qilish uchun asos bo'la oladi (qiyoslang: undi, undirdi kabi).***

***2.Salima maktabga otlandi.***

***Bu gapdagi otlandi fe'li harakatni bajaruvchi ham. Uning ta'siri, tayziqi ostida qoluvchi aynan bir shaxsning (Salima) o'zi ekani ma'nosini***

*anglatadi. Bu fe'l tarkibidagi -lan qo'shimchasi, birinchidan, yasama fe'lni hosil qildi, ikkinchidan, shu fe'lning o'zlik nisbat shaklini hosil qildi.*

*Demak o'zlik nisbatida harakatning sub'yekti bilan ob'yekti bir shaxsning o'zi bo'ladi.*

*3. Chiroq o'chirilgan. Bu gapda chiroq so'zi grammatik jihatdan ega vazifasini bajargan, ammo u harakatning (o'chirilgan) bajaruvchisi (sub'yekti) emas, ob'yekti sanaladi; bajaruvchisi*

*(sub'yekti) emas, ob'yekti sanaladi, harakatning haqiqiy bajaruvchisi (sub'yekti) noaniq, mavhum.*

*Bunday qurulish (konstruksiya)dagi gaplar tilshunoslikda passiv konstruksiya deb yuritildi. Mavhumlik, noaniqlik tushunchasini anglatadigan -il qo'shimchasi majhullik nisbati qo'shimchasi sanaladi.*

*4. Avaz bilan Xulkar tiniq suv bo'yida ovqatlanishdi. (P.Q.).*

*Bu misoldagi ovqatlanishdi fe'li harakatning sub'yekti (egasi -bajaruvchisi) ikki nafar shaxs (Avaz, Xulkar) ekanini, harakat ular tomonidan birgalikda bajarilganligini ifodalaydi. Bunday ma'no fe'l tarkibidagi -ish qo'shimchasi vositasida shakllangan. Demak, harakat bir necha (ikki undan ortiq) shaxs tomonidan birgalikda bajarilganligini ifodalovchi fe'l birgalik nisbatda deb qaraladi.*

*5.Nilufar 10 tomchi dorini piyolaga tomizdi va bemorga ichirdi. Bunda tomizdi harakatining ob'yekti dorini; ichirdi harakatining ob'yekti vasub'yekti bemorga bo'lib, ular grammatik sub'yekt -ega (Nilufar) vositasida, uning ta'siri, aralashuvi yordami bilan amalga oshganlik tushunchasi berilgan. Bunday tushuncha tomizdi fe'li tarkibidagi -iz; ichirdi fe'li tarkibidagi -ir qo'shimchalari orqali ifodalangan. Bu qo'shimchalar orttirma nisbat qo'shimchalari sanaladi. Demak, fe'lda 5 xil nisbat bo'lib, aniq nisbatda maxsus nisbat shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha bo'lmaydi.*

*O'zlik nisbati fe'l o'zak - negiziga asosan, -i, -in (o'ra -n, yuv in); -l, -il (surka-l, cho'm-il); -lan (jon-lan, shod-lan) qo'shimchalarini majhullik nisbati fe'l o'zak negiziga -l, -il (bor-il-di); birgalik nisbati fe'l o'zak-negiziga -sh, -ish (so'zla-sh-di, sug'or-ish-di), -lash (suhbatlashdi) qo'shimchalarini; orttirma nisbati fe'l o'zak-negiziga -t*

***(M: qisqar-t, boyi-t); -dir (sez-dir, kul-dir), -ir qo'shimchasi (tush-ir, ich-ir, shosh-ir); -ar (chiq-ar, qayt-ar); -g'iz, -qaz, -kaz, -qiz, -kiz (tur-g'iz, o't-kaz); -iz (oq-iz, tom-iz); -sat (ko'rsat) qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi.***

***Fe'l nisbatlarini shakllantiruvchi qo'shimchalar forma yasovchi qo'shimchalar qatoriga kiradi.***

*Tekshirish savollari:*

1. ***Fe'l nisbati nima?***
2. ***Qanday fe'l nisbatlarini bilasiz?***
3. ***Fe'l nisbatlari qanday hosil qilinadi?***
4. ***Aniq nisbat haqida so'zlang.***
5. ***O'zlik nisbatini izohlang.***
6. ***Majhul nisbat deb qanday nisbatga aytiladi?***
7. ***Birgalik nisbati haqida ma'lumot bering.***
8. ***Orttirma nisbat nima?***
9. ***Fe'lda bir necha nisbat qo'shimchasi bo'lsa fe'l nisbati qanday belgilanadi?***

*Tayanch so'zlar:*

1. ***Fe'l nisbatlar ish-harakat bajaruvchisi va predmet orasidagi munosabatning ifodalanishidir.***
2. ***Fe'l nisbatlari maxsus forma yasovchi qo'shimcha bilan yasaladi.***

**Ma'ruza mavzusi: Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar**

**Dars rejasi:**

1. Fe'llardagi bo'lishli va bo'lishsizlik tushunchasi haqida
2. Bo'lishsiz fe'llardagi bo'lishsizlik ma'nosining ifoda shakllari

Ish-harakatning bajarilishi (voqe bo'lishi) haqidagi tasdiq yoki inkor tushunchalari fe'ldagi bo'lishlilik yoki bo'lishsizlik ma'nosi ma'nosini ifodalash uchun asos bo'ladi shuning uchun ham bajariladigan (bajaralayotgan, bajarilgan) ish-harakatni anglatuvchi fe'llar bo'lishli fe'l deyiladi.

Masalan: ol, ol, ishlat, o'rganib, ko'rgan, o'qisa, bilindi...

Bajarilmaydigan (bajarilmayotgan, bajarilmagan) ish-harakatni anglatuvchi fe'llar bo'lishsiz fe'l deyiladi.

Masalan: ishlatma, borma, ko'rmagan, eshitmasdi, o'qimasa, bilinmadi, bilingan emas**…**

Bu fe'llar tarkibidagi -ma, -mas qo'shimchalari, emas so'z shakli bo'lishsiz fe'llarni shakllantirgan; ularni tushirib qoldirsak, bo'lishli fe'llar holatiga aylanadi.

Demak, bo'lishlilik ma'nosini ifodalaydigan maxsus grammatik vositalar (ko'rsatgichlar) yo'q, ammo bo'lishli fe'llardan ularning bo'lishsiz shakllarini hosil qiladigan vositalar mavjud. O'zbek tilida bo'lishsizlik ma'nosi birinchidan, -ma (o'qima, o'tkazma, aytmagach, bajarilmadi–*)* -may (qiyoslang: qiynalib – bo'lishli, qiynalmay – bo'lishsiz); -mas (qiyoslang: ishlar –bo'lishli, ishlamas – bo'lishsiz) qo'shimchalari vositasida; ikkinchidan, emas, yo'q so'zlari (o'qigan emas, borgani yo'q kabi) yordamida; uchinchidan, -na so'zini uyushiq bo'lak sifatida qo'llangan bo'lishli fe'l oldidan keltirish orqali (M: na o'qidi, na yozdi) ifodalanadi.

Uyushiq holda qo'llangan bo'lishsiz fe'llardan oldin kelgan na so'zi uning ma'nosini qo'shadi (m: na o'qimaydi, na ishlamaydi...)

Takrorlangan fe'l formalarining birinchi tarkibidagi -a, -ya yuklamalaridan mosini qo'shib, talaffuz qilinganda ham bo'lishli fe'l bo'lishsiz fe'lga aylanadi. (m. keladi-ya, aytasan-a, aytasan kabi)

## Tekshirish savollari:

1. Fe'llardagi bo'lishli va bo'lishsizlik nima?
2. Fe'llarda bo'lishsizlik ma'nosi qanday ifoda qilinadi?
3. Qanday fe'llarga bo'lishli fe'l deyiladi?
4. Bo'lishsiz fe'lga ta'rif bering.
5. -ma qo'shimchasini olgan qanday holatda bo'lishlilik ifodalanadi?
6. Murakkab fe'llarga -ma affiksi qaysi ko'rinishda qo'yiladi?

## Tayanch so'zlar:

1. Bo'lishli-bo'lishsizlikdan ish-harakatning bajarilishi haqida tasdiq yoki inkor ma'nosini ifodalashdir.
2. Fe'lning bo'lishsiz shaklini hosil qiladigan vositalar bor.

**Ma'ruza mavzusi: Fe'lning funksional formalari (4-soat)**

**Dars rejasi:**

1. Fe'lning sintaktik vazifa bajarish bilan bog'liq xususiyatlari
2. Fe'lning fuksional formalari;

-sof fe'l;

-ravishdosh;

-sifatdosh;

-harakat nomi

Fe'lning tuslangan formadan qo'llanib, kesim vazifasini bajargan shakli sof fe'l deyiladi. Shuning uchun ham u har uch zamon shaklida qo'llangan aniqlik mayli formasidagi fe'llarni, shuningdek buyruq -istak va shart mayli formasidagi fe'llarni o'z ichiga oladi.

Masalan: Ishchi dastgohni boshqaryapti. Aqllni beaqldan o'rgan (Maqol). Ochilmaydi gullar (H.O.).

Gapda hol yoki ergash gapning kesimi vazifasini bajarishga mos bo'lgan fe'l shakli ravishdosh deyiladi. U, bu odatda harakatning belgisini anglatadi. Ravishdosh sof fe'l singari o'timli-o'timsizlik, nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, zamon tushunchalarini ifodalash xususiyatiga ega.

1. Ter to'kib mehnat qilsang, rohatlanib yashaysan. 2. Haydar chiqib ketgach, Navoiy kitob ustida ishlashga o'tirdi.

Bu misollarning birinchisida ter to'kib, rohatlanib ravishdoshlari hol vazifasini, ikkinchi misoldagi chiqib ketgach ravishdoshi ergash gapning kesimi vazifasini bajargan.

Ravishdoshning zamoni nisbiy zamon sanaladi.

O'tgan zamon ravishdoshlari fe'l o'zak-negiziga-b (-ib), -gach (-kach, -qach), qo'shimchalarini qo'shish bilan affiksasiya usulida hosil qilinadi: borib, o'qib, o'qigach, borgach kabi. (bo'lishli shakli), bormay, bormasdan, bormagach, o'qimagach... (bo'lishsiz shakli).

Hozirgi zamon ravishdosh fe'l o'zak-negiziga -ye, -a qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi, ular nutqda odatda, takroriy so'z shaklida

qo'llanadi: ayta-ayta, aytmay-aytmay, yoza-yoza, ishlay -ishlay (ishlamay-ishlamay)... kabi.

Shunigdek, ular qo'shma (murakkab) fe'llarning yetakchi qismi sifatida qo'llanadi: keta-boshladi, ishlay boshladi.

Kelasi zamon ravishdoshlari fe'l, o'zak-negiziga -gani, (-qani, -qani); - guncha (kuncha, quncha) qo'shimchalarni qo'shish bilan hosil qilinadi: o'qigani, chiqqani, ekkuncha kabi

Ravishdoshlarning -gani (-kani-qani) affiksli shakli- ma affiksini olmaydi-bunday fe'l formalarning bo'lishsiz shakli yo'q, emas so'zlari vositasida beriladi.

Ravishdoshlar tuslovchi qo'shimchalarini olish-olmaslik xususiyatiga ko'ra ikkiga bo'linadi: 1) tuslanadigan ravishdoshlar 2) tuslanmaydigan ravishdoshlar.

Tuslanadigan ravishdoshlarga-b, (-ib), -a (-y) qo'shimchalarini qo'shishi bilan shakllangan ravishdoshlar kiradi.

Tuslangan ravishdoshlar aniqlik mayli formasi sanalib, gapda kesim vazifasini bajaradi. (sof fe'lga aylanadi), qiyoslang: o'ylab gapirdi -o'ylabman, o'ylabsan... yashay oladi-yashaymiz, yashaysan,...

Demak, tuslanadigan ravishdoshlar nutqda tuslanmagan va tuslangan holda qo'llana oladi.

Ravishdoshlarning -gach (-kach, -qach), -gani (-kani, -qani; gali, -kali, -qali); -guncha (kuncha, -quncha) affikslari yordamida shakllangan formalari tuslanmaydigan ravishdoshlar sanaladi.

Tuslanmaydigan ravishdoshlarning ayrimlari (-gani, kani-qani affikslari bilan yasalgan formalari) fe'lning leksik ma'nosiga maqsad tushunchasi ma'nosi qo'shilganligini; boshqa bir guruhini tashkil etuvchilar esa (-gach, -kach.., -guncha, kuncha.. affikslari bilan shakllangan formalari) payt tushunchasi ma'nosi qo'shilganini ifodalaydi.

Predmetning belgisini ifodalaydigan fe'l shakli sifatdosh deyiladi: aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt (Maqol)

Bu gaplagi aytar bo'lishli formadagi, aytmas bo'lishsiz formadagi sifatdosh bo'lib, ularni har ikkalasi so'z otiga bog'lanib, uning sifatlovchi (aniqlovchining bir turi) vazifasini bajargan.

Sifatdoshlarni hosil qiluvchi maxsus grammatik ko'rsatgichlar (affikslar) mavjud. Bunday qo'shimchalar bir tomondan, fe'lning sifatdosh shaklini hosil qiladi, ikkinchi tomondan esa ularning nisbiy zamon ko'rsatgichi ham sanaladi.

O'tgan zamon sifatdoshi fe'l o'zak negiziga –gan (-kan, -qan) affiksini qo'shish bilan shakllanadi: sepilgan urug', qo'rqqan kishi.

Hozirgi zamon sifatdoshi fe'l o'za-negiziga yotgan, -vchi (-uvchi) qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi: kulayotgan bola, yig'uvchi apparat..

Kelasi zamon sifatdoshi fe'l o'zak-negiziga –r (-ar), -digan affikslarini qo'shish bilan; ba'za esa –jak (-ajak), qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi: qaynar (buloq), sug'orilgan (yer).

Sifatdoshlarning nisbatan qadimiy shakllari –mish, -dik (o'tgan zamon); guchi (g'uchi) (hozirgi zamon); -gay (-kay-qay, -g'ay; -gusi, g'usi, -asi) (kelasi zamon) affikslarini qo'shish bilan shakllangan.

Sifatdoshlar nutqda tuslangan va tuslanmagan; otlashgan va otlashmagan holda qo'llana olish xususiyatiga ega.

Sifatdoshlar tuslanganda aniqlik maylining ma'lum bir zamoniga xos bo'lgan fe'lni hosil qiladi va ular gapda kesim vazifasini bajaradi.
Masalan: Men Chimyondan qaytayotgan edim. Biz sayohatga ketadiganmiz. Tilagingga albatta erishajaksan.

Sifatdoshlar tuslanmagan va otlashmagan holda qo'llanib, gapda aniqlovchi (sifatlovchi) vazifasini bajaradi:
Masalan: Beshik yonida kuylayotgan onaning allasi eshitildi.

Bunday holda ular, to'liq turlanmaydi, ammo ular o'rni kelishiklari affiksini olishi mumkin: O'rin kelishiklari formasidagi sifatdoshlar, asosan, ergash gapning kesimi vazifasini bajaradi.
Masalan: Jahl chiqqanda, aql ketadi. (Maqol)

Sifatdoshlar otlashish xususiyatiga ega. Ular otlashganda so'z o'zgartuvchi (turlovchi) qo'shimchalarni olishi va ot singari sintaktik vazifa bajarishi mumkin.
Masalan: 1. Qo'rqqanga qo'sh ko'rinar (Maqol) 2. Betga aytganning zahri yo'q (Maqol) 3. Ishlagan yerni yashnatar (Maqol)

Bu maqollarning 1-sida qo'rqqanga sifatdoshi vositali to'ldiruvchi, 2-sida aytganning sifatdoshi qaratqich aniqlovchi; 3-sida ishlagan sifatdoshi ega vazifasini bajargan.

Ish-harakatning atamasi bo'lib, gapda otga xos vazifalarni bajarishga mos bo'lgan fe'l shakli harakat nomi deyiladi. Fe'lning bu shakli fe'l o'zak-negiziga –sh(-ish), -moq (ba'zan-mak), -v (-uv) qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi.

Masalan: bor-bormi, chaqirmoq, chaqiruv.

Fe'lning harakat nomi formasi, bir tamondan, fe'lga xos o'timli-o'timsizlik nisbat kategoriyalarini saqlasa, unda hozirgi-kelasi zamon tushunchasi ifodalansa, boshqa fe'l formalari singari boshqarish xususiyatiga ega bo'lsa; ikkinchi tomondan, otga xos bo'lgan son, egalik, kelishik affikslarini olib, gapda ega to'ldiruvchi, qaratqich vazifasini, ko'makchilar bilan birga hol vazifasini bajaradi.

Masalan: 1. Ëqimli taronani qayta tinglashga jazm etdi. 2. O'qimoq-ulg'aymoqdir (Maqol) 3. Olmoqning bermog'i bor (Maqol) 4. O'z orzusiga erishish uchun magistraturaga kirdi.

Bu misollarning birinchisida tinglashga harakat nomi formasi vositali to'ldiruvchi, ikkinchisida o'qimoq, ulg'aymoq fe'l shakllari ega, kesim vazifalarini; uchinchisida olmoqning qaratqich aniqlovchi, bermog'i ega vazifasini; to'rtinchisida erishish harakat nomi formasi uchun ko'makchi bilan birga hol vazifasini bajargan.

Yuqoridagi misollar tarkibidagi harakat nomi formalari jo'nalish (1), bosh (2,3,4), qaratqich kelishiklari formasida qo'llangan.

## Tekshirish savollari:

1. Fe'l sintaktik vazifa bajarish bilan bog'liq qanday xususiyatlarga ega?
2. Fe'lning qanday funksional formalari mavjud?
3. Sof fe'l nima?
4. Ravishdosh nima?
5. U qanday yasaladi?
6. Sifat nima?

7. U qanday yasaladi?
8. Harakat nomi nima?
9. U qanday yasaladi?
10. Fe'lning funksional shakllari zamon bilan o'zaro qanday aloqador?

**Tayanch tushunchalari:**

1. Fe'lning funksional shakllari
2. Sof fe'l
3. Ravishdosh
4. Sifatdosh
5. Harakat nomi.

## Ma'ruza mavzusi Fe'l mayllari (2 soat)

**Dars rejasi**

1. Fe'l mayllari haqida ma'lumot
2. Mayl turlari:

-aniqlik (yoki ijro) mayli;

-buyruq-istak mayli, uning shakllanishi;

-shart (yoki shart-istak) mayli. Uning shakllanishi

3. Fe'l mayllarining zamon va shaxs-son bilan aloqadorligi

Ish-harakatning ifodalovchi kategoriya fe'l mayllari deyiladi.

Hozirgi o'zbek tilida fe'llarning asosan 3 mayli (aniqlik, buyruq, shart) bor.

**Aniqlik mayli.** Bu mayl ish-harakatning 3 zamondan birida sodir bo'lishi yoki bo'lmasligini ifodalaydi. Shuning uchun ham u o'tgan zamon fe'l formalari (1) yaqin o'tgan zamon; 2) uzoq o'tgan zamon; 3) o'tgan zamon hikoya fe'li; 4) o'tgan zamon davom fe'li; 5) o'tgan zamon maqsad fe'li)ni; hozirgi zamon fe'l formalari (1) hozirgi-kelasi zamon fe'li; 2) hozirgi zamon davom fe'li)ni; kelasi zamon fe'l formalari (1) kelasi gumon fe'li; 2) kelasi zamon maqsad fe'li)ni o'z ichiga qamrab oladi. Bunda -di affiksli forma (sof fe'l), edi to'liqsiz fe'li qatnashgan forma birinchi gurux tuslovchilarni olgan holda (m: oldim, borgan eding kabi); -gap, -r(-ar), -digan, -yotgan, -yotib. –moqda, -yap. –yotir, -ib(-b), -a,(-y), -moqchi affiksli fe'l formalari hamda ekan, emish to'liqsiz fe'l mavjud bo'lgan forma ikkinchi gurux tuslovchi qo'shimchalarni olgan holda -m aytganman, borayotibmiz, kelayapsan, –izlayotgan emishsiz, –kabi) aniqlik maylidagi fe'llarni shakllantiradi.

**Buyruq-istak mayli** ish-harakatni bajarish yoki bajarmaslik haqida buyurish, so'rash, istash. Iltimos, maslahat, undash-chaqirish kabi ma'nolarni anglatadi va u o'ziga xos tuslanish formasiga ega (3-gurux tuslovchilar). Masalan: kutay (kutayin), tushuntirsin, borgin, aytgin va b.

Bu mayldagi I shaxs istak, iltimos, undash-chaqirish ma'nolarini. II-III shaxs formalari buyruq, o'rin bilan do'q, maslahat, iltimos kabi ma'nolarni ifodalaydi. Ularda kelasi zamon tushunchasi anglashiladi.

**Shart mayli** formasidagi fe'l, birinchidan, ma'lum ish-harakatning yuzaga chiqish (voqe bo'lishi) uchun oldin bajarilishi shart bo'lgan ish-harakatni ifodalaydi (m: o'qisang, bilasan), ikkinchidan, bunday formadagi fe'l istak, xohish, maslahat kabi ma'nolarni ifodalash uchun ham xizmat qiladi.

Shart mayli formasidagi fe'llar edi, ekan to'liqsiz fe'llar bilan; shuningdek, kerak (borsam kerak, *–)* bo'ladi (borsa bo'ladi kabi) so'zlari bilan qo'llana oladi.

Bunday formalar tilak, orzu, hohish; noaniqlik kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Shart mayli formasidagi fe'llar zamon tushunchasiga ko'ra 1) kelasi zamon shart-istak; 2) o'tgan-kelasi zamon shart fe'liga bo'linib, gapda asosan ergash gapning yoki sodda gapda kesimi vazifasini bajaradi.

Masalan: Yov qochsa, botir ko'payadi. Maqsadimizga tezroq erishsak edi.

**Tekshirish savollari**:

1. Fe'l mayli nima?
2. Fe'lning qanday mayl turlarini bilasiz?
3. Fe'l mayli zamon va shaxs son bilan o'zaro qanday aloqador?
4. Aniqlik mayli nima?
5. Buyruq-istak mayli qanday xususiyatlarga ega?
6. Buyruq-istak mayli shaklidagi fe'llar qanday shakllanadi?
7. Shart mayli qanday mayl?
8. Shart mayli zamon ma'nosiga ko'ra qaysi turlarga ajratiladi?
9. Aniqlik, buyruq-istak, shart mayllari o'zaro qanday farqlanadi?

**Tayanch so'zlar:**

1. Fe'l mayllari.
2. Aniqlik mayli.
3. Buyruq-istak mayli.
4. Shart mayli.

## Ma'ruza mavzusi: Fe'llarning shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishi.

**Dars rejasi:**

1. Fe'llarda shaxs va son tushunchalari haqida ma'lumot
2. Fe'llarning shaxs-son qo'shimchalari bilan o'zgarishi-tuslanishi
3. Tuslovchi affikslar, ularning turlari (guruhlari)

Quyidagi berilgan misollardagi ajratib ko'rsatilgan fe'l formalariga e'tibor bering:

1.Onajon, men o'qib ulg'aymoqdaman (T. Saydaliyev). 2. Sen uning azob chekayotganini sezmading (J.Abdullayev) 3. Bolam, kim bilan gaplashayapsan? (Said Ahmad). 4. Ular hazil-mutoyiba bilan ovqatlandilar. (F.Musajonov).

Ulg'aymoqdaman fe'li tarkibidagi -man, sezmading fe'lidagi -ng, gaplashayapsan fe'li tarkibidagi –san, ovqatlandilar fe'lidagi (-di) -lar qo'shimchalari harakat qaysi shaxs (yoki shaxslar) tomonidan bajarilganini ko'rsatadi. Shuning uchun ham ular shaxs-son affikslari (qo'shimchalari) deb nomlanadi. Tilshunoslikda ular tuslovchi qo'shimchalar deb ham yuritiladi.

Ular ish-harakatni bajaruvchisi 3 shaxs (I shaxs-so'zlovchi; II-shaxs tinglovchi; III shaxs o'zga) va 2 son (birlik-yakka shaxs, ko'plik 2 va undan ortiq shaxs) tushunchalarini aks ettiruvchi qo'shimchalarni o'z ichiga oladi.

Tuslovchi qo'shimchalar 3 guruhga bo'linadi:

1-guruhda: -m, -k, -ng, -ngiz, nol-nol (-lar);

2-guruhda: -man, -miz; -san, -siz; -di (yoki nol)-di (lar) yoki nol (lar);

3-guruhda: -ay (-in), -y (in), -aylik, -ylik; -nol (-gin) –ingiz, -ngiz (lar); -sin, - sinlar shaxs -son qo'shimchalari kiradi.

Birinchi guruh tuslovchilar –di, -sa affiksli fe'l formalariga (aniqlik va shart-istak maylidagi fe'llarga); qo'shma (sostavli) fe'l tarkibidagi qo'shiladi (m: o'yladim, o'ylasam, o'ylab edim kabi).

Ikkinchi guruh tuslovchilar -b (-ib), -a (-y) affiksli ravishdoshlarga (m: boramiz, ishlabsan,) sifatdoshlarga (m: kelgansiz, ko'rarman, ishlaydigansan...), ekan, emish to'liqsiz fe'llar mavjud bo'lgan sostavli fe'llarga (borar emishsan, aytgan ekanmiz, kabi) qo'shiladi.

Demak ikkinchi guruh tuslovchilar aniqlik mayli formalarini hosil qiladi.

Uchinchi guruh tuslovchilar faqat buyruq mayliga (buyruq-istak mayliga) xos affikslar sanaladi.

## Tekshirish savollar:

1. Fe'larda shaxs va son ma'nosini qanday tushunasiz?
2. Tuslanish nima?
3. Tuslovchi affikslarning turlarini ayting?
4. I guruh tuslovchi qo'shimchalarga qaysilar kiradi?
5. Fe'lning qaysi shakllari I tuslanish uchun asos bo'ladi?
6. II guruh tuslovchilar qaysilar?

7. II tuslanish uchun fe'lning qaysi shakllari asos bo'la oladi?
8. III guruh tuslovchi affikslarga qaysi qo'shimchalar taalluqli?
9. Fe'lning qaysi shakli III guruh tuslovchilarini olib o'zgaradi?
10. Tuslovchi va turlovchi qo'shimchalarning o'xshash va farqli tomonlari nimalardan iborat?

**Tayanch tushunchalar:**

1. Fe'llarning shaxs-son qo'shimchalari
2. Tuslanish
3. I tuslanish
4. II tuslanish
5. III tuslanish

*Ma'ruza mavzusi: Fe'l zamonlari.*

*Dars rejasi:*

***1. Zamon tushunchasi, uning fe'l formalarida shakllanishi.***
***2. Zamon turlarining o'zaro munosabati.***
***3. O'tgan zamon fe'l formalari, ularning ma'no va grammatik xususiyatlariga ko'ra bo'linishi.***
***4. Hozirgi zamon fe'l formalari, ularning ichki ma'no turlari.***
***5. Kelasi zamon fe'l formalari, ularning ma'no va grammatik xususiyatlari.***
***6. Fe'l zamonlarining shakllanishida funksional formalarning, to'liqsiz fe'llarning roli.***
***7. Fe'l zamonlarining mayl bilan munosabati.***

***Ma'lumki, harakat (yo holat) ning voqe bo'lish (yoki bo'lmaslik) tushunchasi mantiqan zamon bilan bog'liq bo'ladi, ya'ni ma'lum bir harakat ma'lum bir zamon (payt, vaqt)da bajarilish yoki bajarilmaslik xususiyatiga ega.***

*Fe'llardagi zamon tushunchasi nisbiy bo'lib, u nutq so'zlanib turgan paytga nisbatan qiyoslangan holda aniqlanadi. Shunga ko'ra, fe'llarda dastlab uch zamon, tushunchasi belgilanadi (o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon). Zamon ma'nosi esa fe'l tarkibida qo'llangan grammatik ko'rsatkichlar orqali reallashadi.*

*Masalan: 1. Ro'paramizda uncha katta bo'lmagan qishloq ko'rinadi. (G'. Tojiboyev.). 2. Kech kuzda... Oltiariqdan Marg'ilonga ko'chganmiz (E.Vohidov.). 3. Hozirgi yoshlarning she'rlarida poeziyamizning eng ilg'or an'analari davom etmoqda (V.V.). 4. Vaqt uchqur qushday uchib o'tyapti (E.V.). 5. Yoshlar uchun ko'nglimda tugib yurgan ba'zi fikrlarni aytmoqchiman (E.V.).*

*Keltirilgan misollarning birinchi va ikkinchisida o'tgan zamon; uchinchi va to'rtinchisida hozirgi zamon; beshinchisida esa kelasi zamon fe'l formalari qo'llangan. Bu fe'llar tarkibidagi -di, -gan qo'shimchalari o'tgan zamon; -moqda, -yap qo'shimchalari hozirgi zamon; -affiksi esa kelasi zamon ko'rsatkichi sanaladi.*

*Bu misollardagi ajratib ko'rsatilgan (aniqlik yoki ijro mayliga) birlashadi.*

*O'tgan zamon, ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan oldin bajarilgan (bo'lishli shaklda) yoki bajarilmagan (bo'lishsiz shaklda) ini ifodalaydi.*

*O'tgan zamon fe'l formalari nutqda o'zaro xususiy modal ma'nolariga ko'ra farqlanadi. Bu esa ularni ichki ma'no turlariga ajratishni taqazo etadi. O'zbek tilshunosligida o'tgan zamon fe'llarining asosan, quyidagi turlari ajratiladi: 1) yaqin o'tgan zamon; 2) uzoq o'tgan zamon; 3) o'tgan zamon hikoya; 4) o'tgan zamon davom; 5) o'tgan zamon maqsad fe'llari.*

*Yaqin o'tgan zamon fe'li -di affiksli sof fe'lni tuslash orqali shakllanadi va u ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan bir oz oldin, ammo so'zlovchining ko'z oldida (yoki uning faol ishtiroki bilan) bajarilgan yoki bajarilmaganligini ifodalaydi.*

Uzoq o'tgan zamon fe'li nutq so'zlanib turgan paytdan ancha ilgari bajarilgan yoki bajarilmagan, ammo bu haqda nutq

so'zlanib turgan paytda xabar qilingan ish-harakatni ifodalaydi. O'tgan zamonning bu turi nutqda aniq eslash (yoki eslatish), eshitilganlik, kutilmaganda eslash kabi qo'shimcha ma'nolarga ham ega bo'la oladi.

***Uzoq o'tgan zamon fe'li, birinchidan, -gan affiksli o'tgan zamon sifatdoshini tuslash orqali; ikkinchidan, o'tgan zamon sifatdoshiga edi (-di), ekan (-kap), emish (-mish) to'liqsiz fe'llarini tuslash orqali ifodalanadi.***

***Masalan: Mirhaydarni kimdir majlisga olib ketgan ekan. (Oybek.)***

***O'tgan zamon hikoya fe'li -b(-ib) affiksli o'tgan zamon ravishdoshini tuslash bilan shakllanib, u kutilmaganda, qisqa vaqt ichida bajarilgan (yoki bajarilmagan) ish-harakatni hikoya qilish, tasvirlash ma'nosini ifodalaydi.***

***Masalan: Arava bo'lsa alimsoqdan qolgan, yana sinibdi (O).***

***O'tgan zamon davom fe'li nutq so'zlanib turgan paytdan ilgari ma'lum bir muddat davomli yoki takrorlanib turgan ish-harakatni ifodalaydi. Bunda davomlilik tushunchasi «doimiy» yoki nisbiy bo'lishi mumkin; unda ma'lum bir muddat davom etgan konkret jarayon tushunchasi ham aks eta oladi.***

***O'tgan zamonning bu turi birinchidan, -r(-ar) to'liqsiz fe'lini biriktirib tuslash orqali; ikkinchidan, -yotgan affiksli hozirgi zamon sifatdoshiga edi to'liqsiz fe'lini biriktirib tuslash orqali; uchinchidan, -moqda affiksli fe'l formasiga edi to'liqsiz fe'lini biriktirib tuslash orqali shakllanadi.***

***O'tgan zamon maqsad fe'li, birinchidan, -moqchi affiksli fe'l formasidan so'ng edi to'liqsiz fe'lini biriktirib tuslash orqali shakllanadi.***

***Bunday fe'l formalari. Asosan, nutq so'zlanib turgan paytdan ilgari bajarilishi maqsad qilingan ish-harakat tushunchasini ifodalaydi, ammo gap mazmunidan uning voqe bo'lgan-bo'lmaganligi aniq ifodalanmaydi.***

***Ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytda bajarilayotgan (yoki bajarilmayotgan)ini ifodalaydigan fe'llar hozirgi zamon fe'li sanaladi.***

***Ular, birinchidan, -a(-y) affiksli ravishdoshlarni tuslash orqali; ikkinchidan, tarkibida -yap, -moqda, -yotib, -yotir affikslari qo'llangan fe'l formalarini tuslash orqali shakllanadi. Murakkab fe'l tarkibida***

***qo'llangan yot, o'tir, tur, yur ko'makchi fe'llarini tuslash orqali ham hozirgi zamon fe'li hosil bo'ladi.***

***Masalan: Dehqonni yer davolaydi. U urug' bilan birga orzu dard-hasrat, quvonchlarini ham yerga to'kadi (S.Nurov.). Ketma-ket uzatilgan chelak va savatlarni keksalar yerga ag'darayotirlar. (O.). Men mustaqillik haqidagi qo'shiqni kuylamoqdaman.***

***Kelasi zamon fe'li, birinchidan, ish-harakatning nutq so'zlangandan so'ng bajarilish-bajarilmasligi mo'ljallanishi, tahmin qilinish ma'nosini ifodalab, -r(-ar) affiksli kelasi zamon sifatdashini tuslash orqali shakllanadi (kel-ar-man, ishla-r-san kabi).***

***Bunday forma kelasi zamon gumon fe'lini hosil qiladi. Kelasi zamonning maqsad ifodalash shakli ham mavjud bo'lib, u-moqchi affiksli fe'l formasini, shuningdek, -digan, -jak (-ajak) affiksli sifatdoshlarni tuslash orqali shakllanadi.***

***Buyruq-istak va shart mayllari formasidagi fe'llar ham, asosan kelasi zamon tushunchasini ifodalaydi.***

***Masalan: Bilaman, u sizni poylamoqchi (N.Fozilov.). Oltin yerimizni ko'z qorachig'iday sanlanglar. (H.G'.). Dilimizdagi gaplarni so'zlab bersam.***

*Tekshirish savollari:*

1. ***Fe'l zamonlari nima?***
2. ***Fe'l zamonlari o'zaro qanday munosabatda?***
3. ***O'tgan zamon fe'l formalarining qanday ko'rinishlari bor? Ular qanday yasaladi?***
4. ***Hozirgi zamon fe'l formalarining qanday ko'rinishlari bor? Ular qanday yasaladi?***
5. ***Kelasi zamon fe'l formalarining qanday ko'rinishlari bor? Ular qanday yasaladi?***
6. ***Fe'l zamonlarining shakllanishida funksional formalar va to'liqsiz fe'llar qanday rol o'ynaydi?***
7. ***Fe'l zamonlari mayl bilan o'zaro qanday munosabatda?***

*Tayanch tushunchalar:*

1. Fe'l zamonlari.

***2. O'tgan zamon fe'l formalari.***
***3. Hozirgi zamon fe'l formalari.***
***4. Kelasi zamon fe'l formalari.***

*Ma'ruza mavzusi: Fe'llarning yasalishi; modal formalari.*
*To'liqsiz va ko'makchi fe'llar. (4 soat)*
*Dars rejasi:*

1. ***Tub va yasama fe'llar.***
2. ***O'zbek tilida fe'llarning ikki usul (1) affmiksasiya;***

***2) kompozisiya) bilan yasalishi.***

3. ***Fe'llarda modal ma'nolar, ularning ifodalanishi.***
4. ***To'liqsiz va ko'makchi fe'llar, ularning xususiyatlari va vazifasi.***

***Nutqda fe'llar tub yoki yasama shaklda qo'llanadi. Masalan: Feruza hovliga tushib, shabnamda qiyg'os ochilgan atirgullar ustiga egildi, to'yib-to'yib hidladi. (G'.O.).***

***Bu gapdagi tushib, ochilgan, egiladi fe'llari tub, hidladi-yasama: hid-la.***

***Bu e'tirofda shoirning haqli tanqidni to'g'ri qabul qilishi ham aks etgan. (E.Karimov.).***

***Bu misoldagi qabul qilish, aks etgan fe'llari bo'lib, ular ot-fe'l tipidagi kompozisiya usulida (yoki sintaktik usulda) yasalgan fe'llardir.***

***Demak, hozirgi o'zbek tilida fe'llar ikki usul bilan hosil bo'ladi: 1) affiksasiya usuli bilan; 2) kompozisiya usuli bilan.***

***Affiksasiya usuli bilan fe'llarning yasalishi.***

***Bu usulda turli so'z asoslaridan maxsus fe'l yasovchi affikslar (qo'shimchalar) yordamida fe'llar hosil qilinadi.***

***Hozirgi o'zbek tilida fe'l yasashda quyidagi affikslar qo'llanadi:***

*-la affiksi. Bu qo'shimcha eng faol fe'l yasovchi bo'lib, barcha so'z turkumlaridan fe'l yasaydi: ishla, gula; tozala, yangila; sizla, tezla, sekinla; tufla, dodla; gumburla, shitirla kabi.*

*-a affiksi. Bu affiks ot, sifat, taqlid so'zlardan fe'l yasashda ishtirok etadi: o'yna, sana; yasha, qiyna, bo'sha, shildira kabi.*

*-(a)r affiksi. Bu affiks sifatdan fe'l hosil qiladi: ko'kar, eskir, buzar (moq) kabi.*

*-(a)y affiksi. Bu qo'shimcha ot, sifat, ravishdan fe'l yasaydi: kuchay, qoray, sarg'ay, ulg'ay, ko'pay, kamay, kabi.*

*-sira affiksi. Bu yasovchi ot, sifat, olmosh asoslaridan fe'l hosil qiladi: uyqusira, gumonsira, yotsira; sizsira, sensira kabi*

*-lan affiksi. Bu qo'shma affiks (la-n) ot, sifat, sondan fe'l yasaydi: zavqlan, otlan, g'azablan, shodlan, ikkilan (-di) kabi.*

*-lash affiks. Bu qo'shma affiks (la-sh) ot, son, undov so'zdan fe'l yasaydi: ko'maklash, yordamlash, gaplash, salomlash, xayrlash kabi.*

*-ik, -iq affiksi. Bu qo'shimcha yordamida ot, son, ravish, sifatdan fe'l yasaladi: yo'liq, birik, kechik, zo'riq kabi.*

*-ir(-ur) affiksi. Ot va undovlardan fe'l yasaladi: gapir, tupur.*

*-ira, -illa affikslari. Bu affikslar yordamida taqlid so'zlardan fe'llar hosil qilinadi: yarqira, yaltira; miltilla, taqilla, qizilla, vishilla kabi.*

*-n affiksi. Bu affiks ot va sifatdan fe'l yasaydi: changi(t), boyi(moq), tinchi(di) kabi.*

## Kompozisiya usuli bilan fe'llarning yasalishi

*Bu usulga ko'ra ikki (ba'zan undan ortiq) so'z asosi birikib, qo'shma fe'llar hosil bo'ladi. Masalan: Mahmudho'ja Behbudiy Shahrisabzda qo'lga olinadi, so'ngra Qarshi shahriga keltirilib, Qarshi begi Tog'aybek tomonidan yovuzlarcha qatl etiladi. (SH.Turdiyev.)*

*Bu misoldagi qo'lga olinadi, qatl etiladi kompozisiya usuli bilan yasalgan qo'shma fe'llardir.*

*Qismlarining qaysi so'z turkumidan tashkil topishiga ko'ra qo'shimcha fe'llar 2 turga bo'linadi: 1) «ot-fe'l» qolipidagi qo'shma fe'llar: hikoya qilmoq, e'lon qilmoq, ifoda etmoq, qabul qilmoq, xursand bo'lmoq, hafa qilmoq kabi;*

*2) «fe'l-fe'l» qolipidagi qo'shma fe'llar: olib kelmoq, olib bormoq, haydab yubormoq, borib kelmoq kabi.*

*Ikkinchi tur qo'shma fe'llarni aytib ko'r, aytib yur, aytib boq kabi qo'shimcha ma'no ifodalanishiga mos bo'lgan analitik shakllardan farqlash lozim.*

Fe'lning modal ma'no ifodalovchi formalari.

*O'zbek tilida fe'lning turli modal ma'nolarini ifodalash uchun xizmat qiladigan formalari ham mavjud. Bunday formalar modal formalar bo'lib, ular ikki xil ko'rinishda bo'ladi:*

*1)sintetik formalar; 2) analitik formalar.*

*Fe'lning modal ma'nolar sintetik formalar orqali ifodalanganda, ish-harakatning davomliligi, takroriyligi, kuchsizligi kabi qo'shimcha ma'nolar anglashiladi. Bunday formalar fe'lga quyidagi affikslarni qo'shish bilan yasaladi:*

*1)-la: ishqa-la, quv-la, sava-la; 2) -g'ila(-kila, -qila); ez-g'ila, turt-kila, tort-qila; 3) -(i)msira, -(i)nqira; yi-la-msira, kul-imsira; oqar-inqira kabi.*

*Modal ma'no fe'llarning analitik, juft-takroriy formalari vositasida ifodalanishi mumkin. Fe'lning bunday formalariga ko'makchi fe'llar yordamida shakllanuvchi ishlab tur, yozib ko'r, yoza qol, o'qib ko'r, so'zlay boshla kabi analitik formalar; ayta-ayta, kulib-kulib, turib-turib, borsa-borar, aytsa-aytar, kelsa-kelibdi, ishlasa-ishlabdi kabi juft-takroriy formalar kiradi.*

*Analitik formalar tarkibidagi ikkinchi qism-ko'makchi fe'llar vaqtincha o'z mustaqil ma'nosini yo'qotib yetakchi fe'l anglatgan ma'noga qo'shimcha ma'no qo'shadi.*

*Masalan: yoza boshladi, o'qiy boshladi fe'llari tarkibidagi yoza, o'qiy yetakchi fe'llar, boshladi esa ko'makchi fe'l bo'lib, harakatning boshlanganlik ma'nosini; yoza tur, yozib tur fe'llari tarkibidagi tur ko'makchi fe'li davomiylik, tugallanganlik, takroriylik ma'nolarini; yozib ko'r, aytib boq fe'llari tarkibidagi ko'r, boq ko'makchi fe'llari harakatning bajarilish imkoniyati ma'nosini ifodalaydi.*

*Fe'llarning juft-takroriy formalarida ham harakatning davomliligi yoki takrorlanib turishi; shuningdek, harakatning voqe bo'lishiga*

*«e'tiborsiz qarash», befarqlik kabi ma'nolar ifodalanadi. O'ziga mustaqil holda leksik ma'no ifodalamay, turli fe'l formalaridan so'ng qo'llanib, ko'pincha tuslangan holda gapning kesimi tarkibida keluvchi edi(-di), ekan(-kan), emish(-mish) kabi so'zlar to'liqsiz fe'llar deb yuritiladi. Ular fe'ldan boshqa so'z turkumlari bilan ham qo'llanib, ularning kesim vazifasini bajarayotganini ko'satadi.*

*Masalan: 1. Oy shu'lasida qor qoplangan vodiy kumushdek yarqirar edi. 2. Qishloqda uning bir oshnasi bor emish. (N.Safarov.). 3. Kolxozchilarning kattasi-yu kichigi, erkagi-yu ayoli unga tug'ishganday yaqin edi (O.). 4. Pichoq tig'i tegar-tegmas tars yorilgan Yo'ldoshning shakarpalagi beqiyos shirin ekan (S.Ah.). 5. Gullar to'smang yo'limni, yellar tutmang qo'limni, Namanganlik nozanin yo'limda intizormish (H.Saloh.). 6. Ko'rdingmi, afandi dehqon ekan (I.R.). 7. Qirlarda mollar ham ko'rinmas edi. (F.Niyoziy.).*

*Birinchi va yettinchi misollarda to'liqsiz fe'l (edi) yarqirar, ko'rinmas fe'llari bilan birga qo'llangan; ammo ikkinchi misolda modal so'z bilan, 3-4-5-misolda sifat bilan, 6-misolda ot bilan birga qo'llangan.*

*Tekshirish savollari:*

1. *Tub va yasama fe'l nima?*
2. *Yasama fe'l nima?*
3. *Fe'llar qanday usullar bilan yasaladi?*
4. *Affiksasiya usuli bilan fe'l yasash nima?*
5. *Fe'l yasovchi qo'shimchalar qaysilar?*
6. *Kompozisiya usuli bilan fe'l yasash nima?*
7. *Modal ma'no ifodalovchi qanday fe'l formalarini bilasiz?*
8. *To'liqsiz va ko'makchi fe'llar qanday xususiyatlarga ega?*

*Tayanch tushunchalar:*

1. *Tub fe'l.*
2. *Yasama fe'l.*
3. *Affiksasiya usuli bilan fe'l yasash.*
4. *Kompozisiya usuli bilan fe'l yasash.*
5. *To'liqsiz fe'l.*
6. *Ko'makchi fe'l.*

*Ma'ruza mavzusi: Ravish - so'z turkumi.*

*Dars rejasi:*

1. ***Ravishlarning grammatik ma'nosi morfologik belgilari va sintaktik vazifasi.***
2. ***Ravishlarning ma'no turlari.***
3. ***Ravishlarda daraja.***

*1. Ravishlarning grammatik ma'nosi morfologik belgilari va sintaktik vazifasi.*

***Harakat yoki holatning belgisini ifoda qiluvchi mustaqil so'zlar turkumiga ravish deyiladi. Ravishlar asosan fe'lga bog'lanib keladi. Ular harakat holatning bajarilish tarzini (tez ishladi, sekin ishladi) harakatning miqdoriy belgisi (ko'p yurdi, oz yurdi, oz so'zladi), harakatning payti (tunov kun keldi, ertalab ketdi), harakatning o'rni (allaqayoqdan qo'ng'iroq qildi), harakatning sababi (noiloj rozi bo'ldi), harakatning maqsadi (atayin aytmadi) kabilarni ifoda etadi.***

***Shuning uchun ular gapda hol vazifasini bajaradi. Ravishlar ba'zan otga bog'lanib keladi. Bu vaqtda u gapda sifatlovchi vazifasini bajaradi.***

***Ravishlar daraja ifodalash xususiyatiga ega (kam gapirdi- oddiy daraja), kamroq so'radi (qiyosiy daraja), juda ko'p biladi (orttirma daraja).***

***Ravishlar maxsus yasovchi qo'shimchalarga ham ega: ruh (ot), ruhan (ravish), yangi (sifat), yangicha (ravish).***

*2. Ravishlarning ma'no va grammatik jihatdan turlari.*

***Ravishlar ma'no va grammatik jihatdan olti guruhga bo'linadi: 1) holat ravishi; 2) miqdor ravish va daraja ravish; 3) payt ravish; 4) o'rin ravish; 5) sabab ravish; 6) maqsad ravish.***

*Holat ravishi ish-harakatning qanday holatda va qanday kimga va nimaga o'xshatib bajarilishini ifodalaydi.*

*U qanday? qanday qilib? kimdan? nimadan? so'roqlarga javob bo'ladi: asta, sekin, jim, yayov, piyoda, ochin-to'kin, xomligicha, darhol, birdan, qo'qisdan, majburan, tasodifan, yaqqol, qahramonlarcha, yangicha, qatorasiga, yonma-yon, bittalab, qushday kabi.*

*Holat ravishlari asosan uch vazifada -hol, aniqlovchi va kesim vazifalarida keladi.*

*Masalan: Mirza ota sovib qolgan choyni birdan shimirdi. Xona jim-jit, hamma unga qarar.*

*Miqdor va daraja ravishlari ish-harakat yoki belgining miqdorini, kuchini shuningdek, predmetning noaniq miqdorini anglatadi. Miqdor va daraja ravishlari qancha? qay daraja? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Miqdor va daraja ravishlari ma'noga ko'ra yo miqdor tushunchasini ifodalaydi, yoki boshqa so'zning faqat ma'nosini kuchaytiradi. Shunga ko'ra bu gurux ikkiga bo'linadi:*

*1) Miqdor ravishi; 2) Daraja ravishi.*

*Miqdor ravish harakat yoki predmetning noaniq miqdorini anglatadi: ko'p, oz, kam, bir oz, sal, picha, qitak, xayol kabi.*

*Daraja ravishi harakat yoki belgi ma'nosini kuchaytiradi: juda, g'oyat, nihoyatda, har qancha, oz-muncha, sira, aslo, kabi.*

*Miqdor va daraja ravishlari gapda ko'pincha hol vazifasini bajaradi: O'rmonjon akamning bir gaplari sira-sira esimdan chiqmaydi.*

*Miqdor va daraja ravishlari gapda ot bilan bog'lanib, uning aniqlovchisi bo'ladi. Bu vazifa holga nisbatan kamroq uchraydi: Ko'p gap quloqqa ёqmas.*

*Miqdor-daraja ravishlari gapning kesimi vazifasini bajarishi mumkin: Viloyatimizda bu yil paxtadan mo'l hosil olgan brigadalar ko'p.*

*Bu kabi ravishlar otlashganda esa to'ldiruvchi va qaratqich vazifasini ham bajaradi. Masalan: Ko'pdan quyon qochib qutilmas (Maqol) kabi.*

*Payt ravishi. Ish-harakatning bajarilish paytini anglatadi. Payt ma'nosidagi ot ham harakatning bajarilish paytini ifodalaydi, ammo ot*

***orqali ifodalangan payt ma'nosi konkret, ravish orqali ifodalangan payt ma'nosi esa abstrakt bo'ladi. Shuning uchun nutqda ish-harakatning sodir bo'lgan payti ravish bilan ifodalangandan so'ng, bu ma'no ot orqali izohlanishi, konkretlashtirilishi mumkin.***

***Masalan: Bugun 25 may kuni, to'garak a'zolarining yig'ilishi bo'ladi.***

***Payt ravishlariga: tunov, kun, xanuz, hali, so'ngra, butun, avval, oldin, kechasi, tezda, yaqinda, yiliga, hech qachon, har kuni, ko'pi bilan, erta-indin, qishin- yozin kabi so'zlar kiradi.***

***Payt ravishi hol yoki kesim vazifasini bajaradi.***

***O'rin ravishi. Ish-harakatning bajarilish o'rnini anglatadi.***

***O'rin ravishining ma'nosi o'rin ma'nosini ifodalaydigan otning ma'nosiga nisbatan abstrakt, umumiy bo'ladi. O'rin ravishlariga: nari, beri, unda-bunda, allaqayerdan, buyoqqa, u ёqqa! kabi so'zlar kiradi.***

***O'rin ravishi asosan hol vazifasini bajaradi: «Bunda bulbul kitob o'qiydi. Qani bu ёqqa o'tiring-chi!***

***Sabab ravishi. Ish-harakatning bajarilishidagi sababini anglatadi.***

***Sabab ravishiga: noilojlikdan, chorasizlikdan, so'zlari kiradi. Sabab ravishi asosan, hol vazifasini bajaradi: Kunduzoyning qistashi bilan noiloj birinchi qatorga borib o'tirdi.***

***Maqsad ravishi. Ish-harakatning bajarilishi maqsadini anglatadi.***

***Maqsad ravishlariga: atayi(n), ataylab, jo'rttaga, qasddan, so'zlari kiradi.***

***Maqsad ravishi hol vazifasini bajaradi: Ertalab atayin sport kostyumini kiydim.***

## *3. Ravishlarda daraja.*

***Sifatda bo'lganidek, ravishda ham belgini ifadalash hodisasi bor. Belgini darajalab ifodalash asosan, holat ravishlariga xos bo'lib, daraja ma'nosini sifat darajalaridagi vositalarning o'zi bilan ifodalanadi: TU -104 samolyoti IL -18 samolyotidan tezroq uchadi. (qiyosiy daraja). Raketa eng tez uchadigan apparatdir. (orttirma daraja).***

*Tekshirish savollari:*

1. ***Qanday mustaqil so'zlarga ravish deyiladi?***
2. ***Ravish qanday grammatik ma'no, morfologik belgi va sintaktik vazifalarga ega?***
3. ***Ravishning qanday ma'no turlari mavjud?***
4. ***Ravish darajasi nima? Ravish darajasi qanday yasaladi?***
5. ***Ravish boshqa mustaqil so'z turkumlariga nimasi bilan o'xshaydi yoki farq qiladi?***
6. ***Holat ravishlari qaysilar? Unga ta'rif bering.***
7. ***Miqdor va daraja ravishlari qaysilar? Ta'riflang.***
8. ***Payt va o'rin ravishlari deb qanday ravish turlariga aytiladi?***
9. ***Qanday ravishlarga sabab ravishlari deyiladi?***
10. ***Maqsad ravishlari haqida gapiring.***

*Tayanch tushunchalar:*

1. ***Ravish-harakat yoki holatning belgisini ifodalaydigan mustaqil so'z.***
2. ***Ravish hol vazifasini bajaradi.***

## Maruza mavzusi: Ravishlarning yasalishi. Ravishlarning tuzilish jihatdan turlari. Ravishlarda modal shakl yasalishi.

*Dars rejasi:*

1. ***Ravishlarning yasalishi;***

***a) affiksasiya usuli bilan ravish yasash;***

***b) kompozisiya usuli bilan ravish yasash.***

2. ***Ravishlarning tuzilish jihatdan turlari: sodda, qo'shma, murakkab, juft-takroriy ravishlar***
3. ***Ravishlarda modal forma yasalishi.***

*1. Ravishlarning yasalishi.*

***O'zbek tilida ravish boshqa so'z turkumlari singari ikki xil usul bilan yasaladi: a) morfologik yoki affiksasiya usuli; b) sintaktik yoki kompozisiya usuli.***

***Morfologik yoki affiksasiya usuli bilan ravish yasash odatdagidek negizga yasovchi affiks qo'shish bilan ravish hosil qilishdir.***

***Ravish yasovchi affikslar ko'pincha otlarga, ba'zan esa son, olmosh, sifatga, fe'ning sifatdosh, harakat nomi, fe'llariga qo'shiladi. Bunday yo'l bilan ko'pincha holat ravishlari yasaladi: Bu affikslar:***

***-an: majburan, qisman, tamoman kabi.***

***-siz: to'xtovsiz, to'lovsiz kabi.***

***-lab: yaxshilab, aravalab, ko'plab kabi.***

***-cha: yangicha, o'zbekcha, chopganicha kabi***

***-larcha: do'stlarcha, qahramonlarcha kabi.***

***-n(in): kechin, qishin, yozin kabi.***

***-incha: yashirincha, ko'pincha kabi.***

***-ligicha: tirikligicha, butunligicha kabi.***

***-ona: shukurona, mardona, do'stona kabi.***

***-lay(-layin): butunlay, tiriklayin kabi.***

***-day(-dek): qushday, tuxumdek kabi.***

***Sintaktik yoki kompozisiya usul bilan qo'shma, murakkab va juft ravishlar yasaladi. Qo'shma ravish har birini ayrim, erkin qo'llab bo'lmaydigan ikki so'zning birikib ketishidan hosil bo'lgan va harakatning bitta belgisini ifodalaydigan yangi ravishdir.***

***Qo'shma ravish quyidagicha yasaladi;***

*1) o'rin, payt ma'nosiga ega bo'lgan so'zlar yoki so'roq olmoshidan oldin -alla elementini qo'shish bilan: allaqayda, allanechuk, allaqachon kabi.*

*2) Bir yoki oz so'zi bilan mustaqil ishlatilmaydigan so'zni biriktirish bilan: birmuncha, ozmuncha, birato'la, birvarakay, birpas kabi.*

*Murakkab ravish har birini ayrim va erkin qo'llash mumkin bo'lgan ikki so'z (yoki so'z formasining) birikib, harakatning bitta belgisini ifodalaydigan yangi ravishdir.*

*Murakkab ravish tubandagicha yasaladi:*

*1) o'rin, payt ma'nosidagi so'zlar yoki so'roq olmoshi oldidan o'z ma'nosini, mustaqilligini va urg'usini saqlagan har, hech, bir so'zlarini keltirish bilan: har vaqt, har qachon, har dam, har gal, har zamon, bir lahza, bir oz, bir yo'la, bir zamon, bir zum, bir nafas, bir ëqqa, hech vaqt, hech qachon kabi;*

*2) o'z leksik ma'nosini saqlagan so'z formalarining aniqlovchi-aniqlanmish munosabatidan, birikishidan ham murakkab ravish hosil bo'ladi: hamma vaqt, o'tgan kun(y), shu zahoti, tunov kun, kuni kecha, shu yerda, bu yerga, bu ëqdan kabilar.*

*Juft ravishi ikki so'zning teng bog'lanishidan yasalgan ravishdir. Juft ravish quyidagicha yasaladi:*

*1) ma'nodosh so'zlardan: asta-sekin, eson-omon, ochiq-oydin, uzil-kesil kabi.*

*2) qarama-qarshi ma'noli so'zlardan: qishin-yozin, ostin-ustun, ochin-to'kin kabi.*

*3) Juft ravishlarning ba'zilari otlarni, olmoshlarni o'rin kelishiklaridan birida takrorlash orqali yoki -ma, -ba elementi bilan takrorlash orqali ham yasaladi: ko'pdan-ko'p, yildan-yilga, shundan-shunga, yuzma-yuz, ko'chama-ko'cha kabi.*

*Bunday ravish harakatning bajarilish usulini, holatini anglatadi.*

*Ma'lum sintaktik sharoit tufayli ravishlarning ko'p qismi boshqa so'z turkumlaridan ko'chgan. Ravishga ko'chish hodisasi deyarli barcha mustaqil so'zlarda mavjud. Bunday so'zlarning ma'lum kelishik yoki egalik formasida «qotib qolib», o'z turkumi ma'nosini yo'qotishi, ma'lum bir*

***sintaktik vazifa bilan (hol vazifasi bilan) cheklanib qolishi katta rol o'ynaydi. Jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi III shaxs egalik formasi anna shunday xususiyatga ega. Shu yo'l bilan otlar (kunda, kuniga, kunduzi, olg'a, orqaga kabi), sifatlar (yangidan, yaqindan kabi), sonlar (birdan, birga kabi), fe'llar (o'ta kabi) ravishga ko'chgan-ravish bo'lib qolgan.***

*Ravishlarda modal forma yasalishi.*

***Qiyos qilinmagan harakat (yoki predmet) belgisining odatdagi miqdordan kam ekanligi, noaniqligi, belgiga munosabat kabi modal ma'nolar -roq, -gina(-kina,-qina) affikslari orqali ifodalanadi: Masalan: ko'proq, ozroq, sekinroq, ko'pgina, andakkina kabi.***

***Qiyos qilinmagan belgining kuchliligi, takrorlanib turishi, sifatlarda bo'lganidek, juda, nihoyatda, behad, g'oyat kabi daraja ravishlarini boshqa ravishlarning oldidan keltirish bilan yoki ravishlarni takrorlash bilan ifodalanadi. Bunday ravishlar kuchaytirma ravishlar deyiladi.***

***Masalan: juda ko'p, juda oz, juda tez, nihoyatda sekin, behad jim, g'oyat sekin, kam-kam, tez-tez, ko'p-ko'p kabi.***

*Tekshirish savollari:*

1. ***Ravishlar necha usul bilan yasaladi?***
2. ***Ravishlarning tuzilish jihatdan turlarini ayting?***
3. ***Ravishlarda modal forma yasalishini izohlang?***
4. ***Morfologik yoki affiksasiya usul bilan ravish yasalishi haqida ma'lumot bering?***

5. ***Sintaktik yoki kompozisiya usulida ravish yasash haqida gapiring?***
6. ***Qo'shma, murakkab va juft ravishlarning farqi nimada?***
7. ***Qo'shma ravish qanday yasaladi?***
8. ***Murakkab ravish-chi?***
9. ***Juft ravishning yasalishi haqida ma'lumot bering.***
10. ***Ravishga ko'chish hodisasi qay holda bo'ladi?***

*Tayanch tushunchalar:*

1. ***Ravishlar yasovchi qo'shimchalar, so'zlarni qo'shish va juftlash bilan yasaladi.***
2. ***Otlar, sifatlar, sonlar, fe'llar, ravishga ko'chadi.***

*Maruza mavzusi: Yordamchi so'zlar. Ko'makchilar.*

*Dars rejasi:*

1. ***Yordamchi so'zlar haqida ma'lumot.***
2. ***Ko'makchilar va ularning grammatik xususiyatlar.***
3. ***Ko'makchilarning turlari.***

## *1.Yordamchi so'zlar haqida ma'lumot.*

***Mustaqil so'zlar orasidagi grammatik munosabatlarni yoki ularga qo'shiladigan modal ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladigan va mustaqil holda biror gap bo'lagi vazifasini bajarmaydigan so'zlar yordamchi so'zlar deyiladi.***

***Yordamchi so'zlar uch turga bo'linadi:***

***1) ko'makchilar; 2) boqlovchilar; 3) yuklamalar.***

## *2. Ko'makchilar va ularning grammatik xususiyatlari.*

***Gapda otdan (yoki otlashgan so'zlardan) keyin kelib, ularning boshqaruv yo'li bilan tobelanishini ifodalaydigan yordamchi so'zlar ko'makchi deyiladi. Ko'makchi o'zidan oldin kelgan so'zni boshqaradi, so'ngra o'sha so'z bilan birga fe'l tomonidan boshqariladi. Ko'makchi o'zi bog'langan ot bilan birga bir gap bo'lagi bo'ladi.***

***Masalan: Yil sayin urush qatnashchilarining safi kamayib bormoqda.***

***Ko'makchi atama bo'lish vazifasini bajarmasa ham, tushuncha ifodalaydi. Bu tushuncha mustaqil so'zlar ifodalaydigan leksik tushuncha bo'lmay, o'rin, payt, sabab, maqsad, birgalik, vosita qurol kabi grammatik tushunchadir.***

***Masalan: O'g'lining ham o'zi kabi bo'lmog'ichun, Mamaniyoz sarf qilarkan butun kuchun. Sen bilan bir umr surmoqqa davron roziman. (Qo'shiqdan.).***

***Ko'makchilar mustaqil ma'nolarini yo'qotish darajasiga va qaysi so'z turkumidan kelib chiqqaniga ko'ra uchga bo'linadi:***

***1. Asl ko'makchilar. 2. Ot ko'makchilar. 3. Fe'l ko'makchilar.***

***Asl ko'makchilar avvalgi leksik ma'nolarini yo'qotib, butunlay ko'makchiga aylangan so'zlardir: bilan, uchun, sari.singari kabi, arxaik uza, uzra so'zlari va boshqalar.***

***Ot ko'makchilar ot yoki ravishdan o'sib chiqqan ko'makchi so'zlardir: tomon, tashqari (otdan), burun, ilgari, keyin, so'ng (ravish) va boshqalar.***

*Fe'l ko'makchilar fe'ning biror funksional formasidan o'sib chiqqan ko'makchi so'zlardir: ko'ra, yarasha (hozirgi zamon ravishdoshidan), qarab, boshlab, tortib (o'tgan zamon ravishdoshidan), qaraganda (o'rin-payt kelishigidagi o'tgan zamon sifatdoshidan) va boshqalar.*

*Ko'makchilar bosh, jo'nalish, chiqish kelishiklaridagi otni (yoki otlashgan so'zni) boshqaradi:*

*a) bosh kelishikdagi so'z bilan uchun, bilan, kabi, singari, sari, orqali, sayin, bo'ylab, bo'yicha, uzra ko'makchilari bog'lanadi;*

*b) jo'nalish kelishigidagi so'z bilan qadar, dovur, ko'ra, qarab, qaraganda, yarasha, tomon ko'makchilari bog'lanadi;*

*v) chiqish kelishigidagi so'z bilan ilgari. burun, avval, keyin, beri, buyon, boshqa, tashqari, boshlab, tortib ko'makchilari bog'lanadi.*

*Ko'makchi otlar. Ba'zi otlar ma'lum formalari predmetlik ma'nosini yo'qotib, kelishiklar bilan turlanish jihatdan chegaralanib, ko'makchiga siljib qoladi.*

*Ko'makchi vazifasini bajaruvchi bunday otlar ko'makchi otlar deb yuritiladi. Ko'makchi ot o'zidan oldin kelgan so'z bilan qaratqich - qaralmish aloqasiga kiradi va o'zidan oldingi ot bilan birga bir butunlik tashkil qiladi hamda fe'lning talabiga ko'ra ma'lum kelishikda keladi. Bunday butunlik gapda ko'pincha hol vazifasini bajaradi.*

*Ko'makchi otlarga old, huzur, orqa, ket, yon, o'rta, ora, ich, tag, ost, ust, tepa, to'g'ri, haq, xusus, yuza, bo'y so'zlari kiradi.*

*Ko'makchi otlar ma'no jihatdan quyidagilarni ifodalaydi:*

*1. Vertikal yo'nalishdagi o'rinni ifodalaydi. Bunday ma'noni ost, tag, ust, tepa kabi ko'makchi otlar ifodalaydi.*

*Masalan: Usti tosh, osti tosh, o'rtasida jondor bosh.*

*Ba'zan o'rin ma'nosi yo'qolib, abstrakt munosabat ma'noni ifodalashi mumkin.*

*Masalan: Fashizm ustidan qozonilgan g'alaba nishonlandi.*

*2. Gorizontal yo'nalishdagi o'rnini ifodalaydi. Bunday ma'noni old (huzur), orqa, ort, yon, o'rta, ora, ich, tashqari, qarshi kabi ko'makchi otlar ifodalaydi.*

*Masalan: Qiz horg'in holatda o'tirgan onasi oldiga keldi.*

***3. Harakatning ob'yektini ifodalaydi. Bunday ma'noni haq, to'g'ri, xusus, yuza kabi ko'makchi otlar ifodalaydi.***
***Masalan: Shu kunlarda mehr-oqibat haqida juda ko'p gapirilmoqda.***

*Tekshirish savollari:*

1. ***Ko'makchi nima?***
2. ***Yordamchi so'zlar deb nimaga aytiladi?***
3. ***Yordamchi so'zlar qaysilar?***
4. ***Ko'makchining qanday turlarini bilasiz?***
5. ***Ko'makchilar qay tartibda gap bo'lagiga ajratiladi?***
6. ***Ko'makchilar qaysi kelishikdagi otni yoki otlashgan so'zlarni boshqaradi?***
7. ***Ko'makchi otlarga qaysi so'zlar kiradi?***
8. ***Fe'l ko'makchilariga-chi?***
9. ***Ko'makchi otlarning ma'no jihatdan turlarini ayting.***

*Tayanch so'zlar:*

1. ***Ko'makchi o'zidan oldin kelgan so'zni boshqaradi.***
2. ***Ko'makchi atama bo'lmasa fan tushuncha ifodalanadi.***

*Maruza mavzusi: Bog'lovchilar.*

*Dars rejasi:*

1. ***Bog'lovchilar, ularning xususichtlari.***
2. ***Bog'lovchilarning qo'llanishiga ko'ra turlari:***
   ***1) yakka bog'lovchilar;***

*2) takrorlanuvchi bog'lovchilar;*

*3. Bog'lovchilarning grammatik ma'no va vazifalariga ko'ra turlari:*

*1) teng bog'lovchilar:*

*a) biriktiruv bog'lovchilari;*

*b) zidlov bog'lovchilari.*

*v) ayiruv bog'lovchilari.*

*2) ergashtiruv bog'lovchilari;*

*a) aniqlov bog'lovchisi;*

*b) sabab bog'lovchisi;*

*v) maqsad bog'lovchisi;*

*g) o'xshatish bog'lovchisi;*

*d) shart va to'siqsizlik bog'lovchilar.*

*Gap bo'laklari va gaplarni bir-biriga bog'laydigan yordamchi so'zlovchilar deyiladi.*

*Masalan: Fahm va idrok oqil, qobil kishining saodatidir. (Oz-oz o'rganib dono bo'lur.). Hayotdagi eng besamar narsa-boylik va eng katta ezgulik bilimdir. (G.Lessing.)*

*Keltirilgan misollarda va bog'lovchisi gap bo'laklarini, aniqrog'i uyushiq egalarni (1-gap) hamda gaplarni (2-gap) o'zaro teng aloqada bog'layapti.*

*Qo'llanishiga ko'ra bog'lovchilar 2 xil bo'ladi:*

1. *Yakka bog'lovchilar: va, ammo, agar, chunki, go'yo va h.k.*
2. *Takrorlanuvchi bog'lovchilar: dam, goh, ba'zan, bir, yo va h.k. (bulardan ё, yoki bog'lovchilari yakka holda ham ishlatiladi).*

*Bog'lovchilar grammatik ma'no va vazifalariga ko'ra 2 turga bo'linadi:*

1. *Teng bog'lovchilar. 2. Ergashtiruvchi bog'lovchilar.*

*Gap bo'laklari va qo'shma gap qismlarini teng aloqada bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlar teng bog'lovchilar deyiladi.*

*Teng bog'lovchilar uchga bo'linadi: 1) biriktiruvchi bog'lovchilar; 2) zidlovchi bog'lovchilar; 3) ayiruvchi bog'lovchilar.*

*Biriktiruvchi bog'lovchilar: va, hamda, ba'zan, ham bog'lovchilari bo'lib, ular uyushiq bo'laklarni yoki gaplarni bog'laydi. Bulardan tashqari,*

*bilan ko'makchisi, -u (-yu), -da yuklamalari ham ayrim hollarda biriktiruv bog'lovchilari singari ishlatiladi.*
*Masalan: Baland va hashamatli shiypon ko'zlarni qamashtirardi. (SH.R.) Ota-bola jimgina uyga qaytishardi-da, ikkovi ikki uyga kirib ketishardi. (S.Ahm.)*

*Zidlovchi bog'lovchilar: ammo, lekin, biroq, balki bog'lovchilari bo'lib, ular ma'nolari bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan uyushiq bo'laklarni yoki gaplarni bog'laydi. Ba'zan -u(-yu) yuklamasi ham zidlovchi bog'lovchi sifatida ishlatiladi.*
*Masalan: Sochim nimjon, lekin qalin.(O.O'sarov.)*

*Ayiruvchi bog'lovchilar uyushiq bo'laklarni yoki gaplarni bir-biridan ajratib bog'laydi. Bunda bir vaqtlilik ham, galma-gallik ham ifodalanadi. Ayiruv bog'lovchilar ko'pincha takrorlangan holda ishlatiladi: ё, yoki, yohud, yoyinki (bular yakka holda ham, takrorlangan holda ham ishlatiladi); goh..., goh–, dam...,dam va h.k.*
*Misollar: Bu yerda qovun tekin. Uzib beraymi yo o'zingiz uzasizmi? (S.Ahm.)*

*Ergashtiruvchi bog'lovchilar qo'shma gap tarkibidagi grammatik jihatdan bir-biriga tobelash yo'li bilan bog'laydi, shuning uchun ular ergashgan qo'shma gaplarda ishlatiladi. Ergashtiruvchi bog'lovchilar quyidagi 5 turga ajratiladi: 1) aniqlov bog'lovchisi; 2) sabab bog'lovchisi; 3) maqsad bog'lovchisi; 4) chog'ishtiruv bog'lovchilari; 5) shart va to'siqsizlik bog'lovchilari.*

*Aniqlovchisi: -ki (-kim) qo'shma gap tarkibidagi gaplarni izohlash, aniqlash ma'nosi bilan bog'laydi.*
*Masalan: Shuni unutmaki, tarbiyaning otasi –mehnat. (H.N.)*

*Sabab bog'lovchilari qo'shma gap tarkibidagi gaplarni sabab ma'nosi bilan bog'laydi. Ularga chunki, shuning uchun, shu tufayli, shu sababli, negaki bog'lovchilari kiradi.*
*Masalan: Paxtani bunkerdan to'kish oson narsa, chunki bu ishni mashinaning o'zi bajaradi. (N.S.)*

*Maqsad bog'lovchisi qo'shma gap tarkibidagi gaplarni maqsad ma'nosi orqali bog'laydi.*

***Masalan:*** *O'zingizdan keyin so'nmas shon-shuxrat qoldiring, toki ko'rdan-ko'p avlod sizlarning qahramonligingizdan o'rnak olsin. (M.Osim.)*

***Chog'ishtiruv bog'lovchilari:** go'yo, go'yoki so'zlari bo'lib, ular qo'shma gap tarkibidagi gaplarni o'xshatish, chog'ishtirish ma'nosi orqali bog'laydi.*

***Masalan:*** *Bu gullarni Azizaxon, go'yo ona o'z farzandini ardoqlagani kabi ardoqlardi. (S.Jamol.)*

***Shart va to'siqsiz bog'lovchilari** agar(-gar), garchi, garchand, bordi-yu, mabodo, basharti so'zlari bo'lib, ular shart va to'liqsiz ergash gaplarni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi.*

***Masalan:*** *Agar kundalik hayotda hushyorlik ko'rsatilmasa, hushyorlik degan so'z quruq gap bo'lib qoladi.*

*Tekshirish savollari:*

1. ***Bog'lovchi nima?***
2. ***Bog'lovchilarning qo'llanishiga ko'ra qanday turlari bor?***
3. ***Bog'lovchilarning grammatik ma'no va vazifasiga ko'ra qanday turlarini bilasiz?***
4. ***Qanday bog'lovchilarga teng bog'lovchilar deyiladi?***
5. ***Teng bog'lovchilarning turlarini sanang?***
6. ***Ergashtiruvchi bog'lovchilarni ta'riflang?***
7. ***Ergashtiruvchi bog'lovchilarning turlarini sanang?***
8. ***Bog'lovchilar nimalarni bog'laydi?***
9. ***Qaysi yuklamalar bog'lovchi vazifasida keladi?***

*Tayanch tushunchalar:*

1. ***Bog'lovchi - yordamchi so'z.***
2. ***Bog'lovchilar uyushiq bo'laklarni va sodda gaplarni bir-biriga bog'laydi.***

*Maruza mavzusi: Yuklamalar.*

*Dars rejasi:*

***1. Yuklamalar haqida ma'lumot.***

*2. Yuklamalarning modal ma'nolariga ko'ra turlari.*

*Ayrim so'z, so'z birikmasi va gaplarga ta'kid, so'roq. Gumon, taajjub, kuchaytiruv kabi qo'shimcha ma'no qo'shadigan so'zlar yoki affikslar yuklamalar deyiladi.*

*Yuklamalar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:*

1. *So'z yuklamalar: faqat, hatto, nahotki, axir, xuddi, ham.*
2. *Affiks yuklamalar: -gina(-kina, -qina), -mi, -chi, -da, -oq (ёq), -ku, -dir.*

*Yuklamalar, ayrim so'z, so'z birikmasi va gaplarga qo'shadigan qo'shimcha ma'nolariga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi:*

*1. So'roq va taajjub yuklamalari: -mi, -chi, -a(-ya). Bu yuklamalar gapni so'roq gapga aylantiradi, shuningdek, taajjub, hayratlanish, gumon, buyruq, do'q, iltimos, qistash, ta'kid, uqtirish, his-hayajon kabi qo'shimcha ma'nolar qo'shadi.*

*Masalan: -Voy-voy, up olishga nozmi? (O.).*

*-O'ldimmi sizdan pul olsam, uyat bo'ladi-ya (O.).*

*2. Kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari: -ku, -u, -yu, -da, -oq(-ёq), -ki, -kim, -axir, hatto, hattoki, nahot, nahotki, ham.*

*Bu yuklamalar so'z, so'z birikmasi va gapga kuchaytiruv, ta'kid, ba'zan to'liqsizlik kabi ma'nolarni qo'shish uchun xizmat qiladi.*

*Masalan: Men bir vaqtlar senga yo'l chizib bergan edim-ku. (O.). Qo'li rulda-yu, xayoli allaqayerlarda kezadi. (I.G'.) Har holda qiz bola-da. Uning o'ziga yarasha noz-karashmasi bo'ladi. (I.G'.)*

*3. Ayiruv va chegaralov yuklamalari: -gina(-kina, -qina), faqat, faqatgina. Bu yuklamalar turli so'z turkumlari bilan kelib, ularning ma'nolarini chegaralab, ajratib ko'rsatish uchun ishlatiladi.*

*Masalan: Faqat tashqarida bir to'da shogidlar turardi (O.).*

*4. Aniqlov yuklamasi: xuddi, naq. Bu yuklamalar o'ziga mansub so'zning ma'nosini aniqlash, chog'ishtirish, ta'kidlash, kuchaytirish uchun xizmat qiladi.*

*Masalan: Eshik oldida xuddi soya singari qancha vaqt turib qolganini o'zi ham sezmadi (R.T.).*

***5. Gumon yuklamasi: -dir. Bu yuklama barcha so'z turkumiga qo'shilib, o'ziga aloqador so'zga gumon, noaniqlik, chama, taxmin ma'nolarini qo'shadi.***

***Masalan: Kimdir bu sirni aytgan (R.T.).***

***6. Inkor yuklamasi: -na. Bu yuklama uyushiq bo'laklar va qo'shma gap qismlari orasida kelib takrorlanadi va ularga inkor ma'nosini qo'shadi. Ba'zan mavjud inkor ma'nosini ta'kidlab ko'rsatadi.***

***Masalan: Na qor, na yomg'irdan darak bor. Men bo'lsam tamom gumrohman. Na o'qishni, na yozishni bilaman (O.).***

*Tekshirish savollari:*

***1. Yuklama nima?***

***2. Tuzilishiga ko'ra turini ayting?***

***3. Yuklamalar modal ma'nolariga ko'ra necha turga bo'linadi? Har bir turiga izoh bering?***

***4. Qanday yuklamalar so'roq va taajjub yuklamalari deyiladi?***

***5. Kuchaytiruv va ta'kid yuklamalariga ta'rif bering?***

***6. Ayiruv va chegaralov yuklamalari qaysilar? Ta'riflang.***

***7. Aniqlov yuklamasi qanday ma'nolarni bildiradi?***

***8. Gumon yuklamasi haqida ma'lumot bering?***

***9. Qanday yuklama inkor yuklama sanaladi?***

*Tayanch tushunchalar:*

***1. Ayrim so'z, birikmalari va chapga qo'shimcha ma'no qo'shadigan yordamchi so'zlar-yuklamalar.***

***2. Yuklamalar so'z yoki qo'shimcha ko'rinishida bo'ladi.***

*Ma'ruza mavzusi: Undov so'zlar.*

*Dars rejasi:*

1. *Undov va ularning grammatik xususiyatlari.*
2. *Undovlarning ma'no turlari.*

*1. So'zlovchining his-hayajonini, buyruq-istagini bildiruvchi so'zlarga undov deb aytiladi.*

*Masalan: Oh-oh-oh! Rahmat, do'stim rahmat!- dedi O'lmas. Xo'-o'sh!*

*Xo'-o'-o'sh! -deb baqirdi orqadan kelayotgan podachi. Podada yana osoyishtalik tiklandi.*

*Undovlarga quyidagilar kiradi: eh, oh, uh, ma, hm(qim), be, xo, e, ey, ha, o, a, uf, dod, ho, ax, voy, haq, obbo, ura, o'xo', e-ha, e-he, i-i, iye, huv, hov, hay, hey, tes, bas, hormang, rahmat, allo, salom, xayr, ofarin, barakalla, tuf, chu, beh-beh, tu-tu, pisht, marli va hakozo.*

*Undov so'zlarning quvonch, zavqlanish, huzur, mamnuniyat, ajablanish, taajjub, qoyil qolish, minnatdorlik, qo'rqinch, cho'chish, afsuslanish, norozilik, e'tiroz, nafratlanish, g'azab, o'kinch, pushaymon, nolish, dard, hazar qilish, shuningdek, odamning, hayvon va parandalarga biror ish-harakatni bajartirish, harakatdan to'xtatish, haydash yoki chaqirtirish kabi maqsadlarda ishlatiladigan so'zlardir.*

*Undov quyidagi leksik-grammatik xususiyatlarga ega;*

*1. Undovlar leksik ma'noga ega emas, mavjud biror so'zning nomi emas, nomlanish xususiyatiga ega emas. Predmet, belgi, miqdor, harakat, holat kabilarning nomi bo'la olmaydi.*

*2. Undovlar morfologik jihatdan o'zgarmaydi, o'ziga xos morfologik ko'rsatkichlarga ega emas (egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalarni olib o'zgarmaydi.).*

*3. Undovlar o'zi ishtirok etgan gap tarkibidagi boshqa so'zlar bilan grammatik aloqaga kirishmaydi, ammo u ifodalaydigan ma'no gapning umumiy mazmuni bilan bog'liq bo'ladi, shuning uchun ham undovning qanday ma'noda qo'llanganligi gap orqali anglashiladi.*

*Masalan: Obbo, endi bir kami sizmidingiz? (e'tiroz).*

*Yo'lchi: yonimda pulim bo'lsayidi, yordamlashardim. Hech nimam yo'q. O'h!-otni haydadi. (qayg'u, xafalik)*

*4. Undovlarda morfologik usul bilan so'z yasalishi mavjud emas, lekin undovlarda takrorlangan, qo'shma va juft undovlar uchraydi.*
*Masalan: beh-beh, tu-tu, oh-oh, voy-bo'y, e-ha, mosh-mosh, o'hho', ohho singari.*

*Lekin undovlardan boshqa so'z turkumi yasalishi (fe'l) mavjud: hayqir, hayiq, dodla, tufla, xayrlash va hakozo.*
*5. Undovlar otlashish xususiyatiga ega. Undovlar otlashganda, undov bog'lanib kelgan ot gapda qo'llanmaydi. Otning vazifasi undovga o'tadi.*
*Masalan: Bahtiyor o'lkaning hay-haylarida oqadi bu keksa shoirning vaqti. (G'.G'.).*
*6. His-hayajon anglatuvchi undovlarda intonasiya (talaffuz) muhim rol o'ynaydi. Bir xil intonasiya bilan aytilgan turlicha undovlar, asosan, bir xil tuyg'uni ifodalashi, turli xil intonasiya bilan aytilgan bir undov xilma-xil tuyg'uni ifodalanishi va kayfiyatni bildirishi mumkin.*
*Masalan: Oh! Undovi turlicha intonasiya (ohang) bilan aytilganda, quyidagi ma'no tuyg'ularini bildiradi:*
*1) Oh naqadar so'lim kecha-ya (shodlik tuyg'usi).*
*2) Oh, umr o'tdi-ketdi oqar suvday (afsuslanish).*
*3) Oh, go'yo o'zing bilmaysan-dedi ko'zlarini o'ynatib (ajablanish).*

*Voy, rasmni juda chiroyli chizibsan (hayratlanish.)*

*Voy, seni qara-ya, shu rasmni ham chizolmabsan (e'tiroz).*

*Aksincha, oh, ah undovlari bir xil intonatsiya (ohang) bilan aytilganda bir xil ma'nolarni, tuyg'ularni bildiradi.*
*Masalan: Oh, naqadar go'zal manzara. (zavqlanish). Ah, naqadar go'zal manzara. (zavqlanish).*
*7. Undovlar quyidagi vazifalarda kela oladi:*

*1) Bir bosh bo'lakli undovlar sifatida: Kisht! Ha, kisht deb haydab yubordi.*

*2) Undalma tarkibida: Ey aya, bu yerda tomosha bo'ladi deysizmi?*

*3) Kirish so'z tarzida: Hay-hay, qanday baxtli kishi ekansan!*

*4) Undovlar otlashganda ega, qaratuvchi, aniqlovchi, to'ldiruvchi, kesim vazifasida keladi: Ko'rinar dahshatlar to'la tush kabi, mazlumlar ohining ko'kda tutini. Yomon ishning oxiri voy. (Maqol.). Ey, telba*

***kechmishning tilsiz guvohi, tinglanar qalbingdan yillarning ohi. (G'ayratiy.).***

*2. Undovning ma'no turlari.*

***Undovlar anglatgan ma'nolariga ko'ra ikki guruxga bo'linadi:***
***1) His-hayajon undovlari. (emosional undovlar); 2) Buyruq-xitob undovlari;***

***His-hayajon undovlari: so'zlovchining xilma-xil his-tuyg'ularini (yuqorida sanab o'tildi), shuningdek rasm-odatni bildiruvchi so'zlarga his-hayajon undovlari deyiladi: eh, oh, uh, him, be, he, e, ha, uf, dod, voy, ura, e-he, hay, hey, i-i, rahmat, hormang, balli, ofarin va boshqalar.***
***Masalan: O, quyosh jarchisi berib xush-xabar, Hayot rubobini sayratuvchisan (Shodlik, sevinch kayfiyati). Bay-bay-bay. Hay attang. Qani o'rtoq Odilov, siz ayting shu rostmi? (xafalikni, og'ir ruxiy holat). Voy nega qulluq qilishar ekan? Hech-da. (A.Q.). (taajjublanish, ikkilanish, e'tiroz).***

***Turli rasm-odatni ifodalovchi salom, rahmat, qoyil, barakalla, ofarin, tashakkur kabi so'zlar ham his-hayajon undovlariga kiradi.***
***Masalan: Salom ham farz, Alik ham farz (Maqol.). Barakalla o'g'lim! Hukumatimizning bardoshiga barakalla, urush deb shoshib qolgani yo'q. Hamma ёqni bab-barobar boshqaryapti! (I.Rahim.).***

***Buyruq-xitob undovlari: Odamning asosan hayvon va parrandalarga nisbatan biror ish-harakatni bajartirish, harakatdan to'xtatish, tinchitish, haydash yoki chaqirish maqsadida ishlatiladigan so'zlardir.***

***Bu undovlar quyidagilar: quray-quray - qo'yni chaqirish, kuch-kuch, bah-bah kuchukni, max-max itni; mosh-mosh, pish-pish -mushukni; beh-beh, tu-tu - tovuqni chaqirish uchun; hay-chu! - tuya va otni haydash uchun; pisht - mushukni, kisht - tovuqni haydash uchun ishlatiladi; dirr, tak - otni to'xtatish, xo'o'sh - sigirni to'xtatish uchun qo'llaniladi: Ishsh! Ishsh-a! - deb Norboy ota sabrsizlanayotgan eshagini to'xtatdi. (P.Q.)***

*Tekshirish savollari:*

1. ***Undov so'zlarni ta'riflang.***
2. ***Undov so'zlarning o'ziga xos grammatik xususiyatlarini izohlang.***
3. ***Undov so'zlar qanday sintaktik vazifalarga ega.***
4. ***Undov so'zlarning ma'no jihatdan qanday turlari mavjud? Ular qaysilar?***
5. ***His-hayajon undovlari deb nimaga aytiladi?***
6. ***Buyruq-xitob undovlari deb nimaga aytiladi?***

*Tayanch tushunchalar:*

1. ***Undov so'zlar–so'zlovchining his-tuyg'ularini, buyruq-xitobini ifodalovchi so'zlar.***
2. ***His-hayajon undovlari – so'zlovchining his-tuyg'ularini ifodalovchi so'zlar.***
3. ***Buyruq-xitob undovlari-hayvon va parrandalarga nisbatan qo'llanadigan so'zlar.***

*Ma'ruza mavzusi: Modal so'zlar.*

*Dars rejasi:*

1. ***Modal so'zlar va uning o'ziga xos grammatik xususiyatlari.***
2. ***Modal so'zlarning ma'no jihatdan turlari.***

*1. Modal so'zlar va uning o'ziga xos grammatik xususiyatlari.*

So'zlovchining aytilayotgan fikrga bo'lgan munosabatini (modal ma'noni) ifodalovchi so'zlarga modal so'zlar deyiladi. Modal so'zlarga quyidagilar kiradi: aftidan, darhaqikat, darvoqe, attang, ehtimol, afsus, shubhasiz, so'zsiz, tabiiy, albatta, haqiqatdan, nihoyat, bo'pti, demak, aytmoqchi, o'z-o'zidan, bor, yo'q va hokazo. Shu modal so'zlar orqali so'zlovchi o'z fikriga aniqlik, ishonch, ma'qullash, gumon, chama, noaniqlik, maqsad, talab, shart, mavjudlik, inkor, e'tiroz, yakunlash, eslatish, achinish kabi ma'no munosabatlarini kiritadi.

**Masalan: Afsuski, yashash huquqi odam bolasiga bir marta berilgan. (S.Ahmad) Ehtimol, ham u choq nevaralarini yetaklab, bog'larga, xiyobonlarga chiqar. (Shuxrat.) Darhaqiqat, Xorazm qovunlariday mazali qovun ko'p shahar va elatlarda yo'q. (J.Sharipov.)**

**Modal so'zlar quyidagi grammatik xususiyatlarga ega:**

**1. Modal so'zlar biror voqelikni atamasi bo'la olmaydi (predmet, belgi, harakt, vash u kabilarni atamaydi.)**

**2. Modal so'zlar gap orqali ifodalangan fikrga qo'shimcha modal ma'no qo'shadi.**

**3. Modal so'zlar gapda quyidagi vazifalarni bajarib keladi:**

**1) gap bo'laklari bilan sintaktik jihatdan bog'lanmasdan, kirish so'z vazifasini bajarib keladi. Masalan: Haytovur, ishimiz chakki emasga o'xshaydi. (O.) Siz u kishidan, shubhasiz, juda ko'p gaplarni eshitgansiz. (A.Q.)**

**2) kesim vazifasini bajaradi. Masalan: Chol alli odam, unga o'rgatish ham mumkin, undan ko'p narsani o'rganish ham mumkin.**

**3) sostavli kesim tarkibida kela oladi. Masalan: Biz hamma ishimizda tanqid va o'z-o'zini tanqidni kuchaytirimiz kerak.**

**4) butun bir gap vazifasini bajaradi. Masalan: - Xatingga javob keldimi?-Yo'q.**

2. Modal so'zlarning ma'no jihatdan turlari.

**Modal so'zlar yuqorida aytilganidek, fikrga turli xil modal ma'nolarni qo'shadi. Shunga ko'ra modal so'zlar ma'no xususiyatlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:**

**1. Fikrning aniqligi, ishonch, ma'qullash, kabi modal ma'nolarni ifodalovchi modal so'zlar: albatta, shubhasiz, o'z-o'zidan, haqiqatdan, tabiiy, darhaqiqat kabi.**

**2. Gumon, chama, noaniqlik kabi modal ma'nolarni ifodalovchi modal so'zlar: ehtimol, balki, hoynahoy, chog'i, aftidan, mazmuni, chamasi, shekilli.**

**3. Maqsad, talab, shart kabi modal ma'nolarni ifodalovchi modal so'zlar: kerak, darkor, lozim kabi**

**4. Mavjudlik va tasdiqni ifodalovchi modal so'zlar: bor, mayli, xo'p.**

**5. Mavjud emaslik, inkor, e'tiroz: yo'k kabi.**

**6. Ma'qullash ma'nosini ifodalaydi: durust, bo'pti.**

**7. Yakunlash ma'nosini ifodalovchi modal so'zlar: demak, xullas, modomiki.**

**8. Eslatish ma'nosini ifodalovchi modal so'zlar: darvoqe, aytganday, aytmoqchi.**

**9. Achinish, taassuf ma'nosini ifodalovchi modal so'zlar: afsus, attang, essiz.**

Tekshirish savollari:

1. **Modal so'zlarni ta'riflang.**
2. **Modal so'zlar orqali so'zlovchi o'z fikriga qanday ma'no munosabatlarni kiritadi?**
3. **Modal so'zlarning o'ziga xos grammatik xususiyatlarini sanang.**
4. **Modal so'zlarning ma'no jihatdan qanday turlari mavjud?**

Tayanch tushunchalar:

1. **Modal so'zlar-so'zlovchining aytilayotgan fikrga bo'lgan munosabatni ifodalovchi so'zlar.**
2. **Modal ma'no-so'zga, fikrga qo'shiladigan qo'shimcha ma'no.**

Ma'ruza mavzusi: Taqlid so'zlar.

Dars rejasi:

1. ***Taqlid so'zlar va uning grammatik xususiyatlari.***
2. ***Taqlid so'zlarning turlari.***

## I. *Taqlid so'zlar va uning grammatik xususiyatlari.*

Taqlid so'zlar shaxs, predmet va turli jonivorlar tovushiga, ularning harakatiga va holatiga, obrazlariga taqlidni bildiruvchi so'zlardir.

***Taqlid so'zlarning ba'zilari kishilar, jonivorlar, predmetlar chiqargan turli tovushlarga taqlidni bildiradi, boshqalari turli-holat, shu'la ko'rinishiga, tovush orqali taqlidni ifodalaydi.***

***Masalan: Yo'lakka quloq solib, g'o'ng'ir-g'o'ng'ir tovushni eshitdi. (A.Q.) Onda- sonda bedanalarning bit-bildig'i eshitiladi. (I.R.)***

***Taqlid so'zlar quyidagi grammatik xususiyatlarga ega:***

***1) Taqlid so'zlar nomlash xususiyatiga ega emas, so'zning atamasi bo'la olmaydi, ular shartli taqlidni bildiradi.***

***2) Taqlid so'zlar so'z o'zgartirish xususiyatiga ega emas, ya'ni so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni olib, o'zgarmaydi (egalik, kelishik, shaxs-son qo'shimchalarini olmaydi).***

***3) Taqlid so'zlar otlashish xususiyatiga ega, taqlid so'zlar otlashganda taqlid so'z bog'lanib kelgan ot gapda tushib qoladi va otning xususiyatlari taqlid so'z orqali ifodalanadi: Guzar ostida yana g'ovur-g'uvur ovoz tarzidagi bog'lanishdan ovoz oti qo'llanmay, taqlid so'z otning grammatik xususiyatlarini o'z ustiga olgan, ya'ni ot singari nima? so'rog'iga javob berib, bosh kelishikda kelgan.***

***4). Taqlid so'zlar mustaqil so'z turkumlari singari so'z yasalish xususiyatiga ega emas, ya'ni boshqa so'z turkumlaridan taqlid so'zlar yasalmaydi. Lekin taqlid so'zlardan boshqa so'z turkumlariga oid yangi so'z yasaladi. Masalan: Hushtak, xurrak, qarsak, qahqaha kabi otlar;***

***yaltiroq, yiltiroq kabi sifatlar; pichirla, shitirla, yarqira, taqilla kabi fe'llar taqlid so'zlardan yasalgan.***

***5) Taqlid so'zlar otga bog'lanib, predmetning belgisini (tovush jihatdan belgisini) bildiradi: To'satdan hovlida ship-ship qadam tovushi eshitildi.***

***6) Taqlid so'zlar fe'lga bog'lanib, harakatning tovush tomonidan belgisini bildiradi: Lobarni o'ylasa bormi, yuragi gup-gup ura boshlaydi. (H.T.)***

***7) Taqlid so'zlar gapda quyidagi sintaktik vazifalarni bajaradi:***

***a) taqlid so'zlar otga bog'lanib, sifatlovchi-aniqlovchi vazifasini bajaradi: g'ir-g'ir mayin bahor shamoli. (O.)***

***b) taqlid so'zlar fe'ga bog'lanib, hol vazifasini bajaradi: Tursunboy yuzlarini qo'llari Bilan to'sib olib, dag'-dag' titrar edi.***

***v) Tarvuzlar ham soy toshidek g'uj-g'uj.***

***g) taqlid so'zlar otlashganda, gapda ot bajargan sintaktik vazifalarni bajaradi (ega, to'ldiruvchi, qaratuvchi-aniqlovchi): O'z g'uv-g'uvi bilan guzarni to'ldirgan odamlarning gurungi bir zumda tindi. (g'uv-g'uv ovozi bilan). Orqada ot tuyoqlarining tasir-tusuri eshitildi. (S.Anorboyev.)***

***8) Taqlid so'zlar qo'shma fe'ning asosiy (yetakchi) qismi bo'lib kela oladi: jiz etdi, ship etdi, yilt etdi va hakozo.***

***Masalan: Shu onda nimadir qars etdi. (O.) Qutidor bilan bek yalt etib Kumushga qaradi.(A.Q.)***

***9) Taqlid so'zlar takrorlangan holda qo'llanib, davomiylik ma'nosini ifodalaydi: taq-taq, g'arch-g'urch, taq-tuq kabi.***

## *II. Taqlid so'zlarning turlari.*

***Taqlid so'zlar taqlid qilish ob'yektiga ko'ra ikkiga bo'linadi:***

***1) tovushga taqlid so'zlar;***

***2) shu'la ko'rinish (holat)ga taqlid so'zlar.***

***1) Tovushga taqlid so'zlar tabiatdagi xilma-xil tovushlarni (odam, jonivor, jonsiz predmet) nutq tovushlariga ko'chirish orqali yuzaga keladi:***

***a) odamlarning ixtiyoriy va ixtiyorsiz chiqargan tovushlariga taqLid qilinadi: Begimxon piqir-piqir kulib, yer ostidan adolatga qarab qo'ydi.(I.R.)***

***b) turli parranda, hayvon va jonivorlarning tovushiga taqlid qilinadi: Zulayho xolaning sigiri birdan cho'zib «Mo'-o'!» dedi-da o'zini sigirlar orasiga urdi.***

***v) har xil jonsiz narsa va predmetlarning harakatiga taqlidni bildiradi: Poyezdning taq-tuq ovozi qulog'iga o'rnashib qolgandi.***

***2) Shu'la-ko'rinish (holat)ga taqlid so'zlar tabiatdagi xilma-xil shu'la, ko'rinish, harakat, holatga tovush orqali taqlid qilinadi: yalt, yarq, lip, lim-lim, gir-gir, lapang-lapang, apil-tapil, chirt singari:***

***a) shu'la ko'rinishga taqlid qilinadi: O'rmon tomondan allanarsa ko'ziga yilt etib ko'rindi. (A.Q.) Piyodalar o'n ikki shamlik kumush qandil yorug'ida yalt-yult qilar edi. (M.Osim.)***

***b) turli harakat, holatga tovush orqali taqlid qilinadi: Saidiyning qahramonligi shu kunlarda butun uchastkada duv-duv gap edi. (A.M.) Toshlar havoni g'iz-g'iz yorib o'tadi.***

*Tekshirish savollari:*

1. ***Taqlid so'zlarni ta'riflang?***
2. ***Taqlid so'zlar qanday morfologik xususiyatlarga ega?***
3. ***Taqlid so'zlar qanday sintaktik xususiyatlarga ega?***
4. ***Taqlid so'zlaning qanday turlari mavjud. Ular qaysilar?***
5. ***Tovushga taqlid so'zlar deb nimaga aytiladi?***
6. ***Shu'lako'rinish (holat)ga taqlid so'zlar deb nimaga aytiladi?***

*Tayanch tushunchalar:*

1. ***Taqlid so'zlar -shaxs, predmet va turli jonivorlar tovushiga, ularning harakati va holatiga, obrazlariga taqlidni bildiruvchi so'zlar.***
2. ***Tovushga taqlid so'zlar - tabiatdagi xilma-xil tovushlarga taqlidni bildiruvchi so'zlar.***
3. ***Shu'la-ko'rinish (holat)ga taqlid so'zlar - tabiatdagi xilma-xil shu'la, ko'rinish, holatga taqlidni bildiruvchi so'zlar***

## Adabiyotlar ro'yxati


1. I.A.Karimov. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1997 yil
2. ***U.Tursunov, N.Muxtorov, SH.Rahmatullayev. «Hozirgi o'zbek adabiy tili» 1992 yil***
3. ***A.Abduazizov. «O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi» Toshkent, 1992 yil***
4. ***S.Rahimov, B.Umurqulov, «Hozirgi o'zbek-adabiy tili» Toshkent, 2001 y***
5. ***S.Rahimov, B.Umurqulov, «Hozirgi o'zbek adabiy tili» Toshkent, 2003 y***

6. ***SH. Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev. «Hozirgi o'zbek adabiy tili» II qism. Toshkent, «O'qituvchi» nashriyoti, 1980 yil***

7. ***A.G'ulomov, A.N. Tixonov, R. Kungurov. «O'zbek tilimorfem lug'ati» Toshkent, 1977 yil***